UCL

ACADEMIC
RESEARCH PUBLISHER
International Scientific Publisher

INTERNATIONAL ONLINE
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

MODERN SCIENCE, INNOVATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: GLOBAL PERSPECTIVES

PROCEEDINGS

OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



11 AUGUST 2026

GREAT BRITAIN • ONLINE

WWW.ACADEMSCIENCE.COM

UNITED KINGDOM

ACADEMIC RESEARCH PUBLISHER LTD

****

MATERIALS
the international scientific-practical conference
«MODERN SCIENCE, INNOVATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: GLOBAL PERSPECTIVES»

London, Tashkent
August 10, 2026

****

Modern Science, Innovation and Sustainable Development: Global Perspectives // materials international scientific-practical conference. London, United Kingdom. August 10, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Byshkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey).

This event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the framework of the conference, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research results, exchange scientific ideas, and expand international cooperation.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **"Academic Research Publisher"** (London, United Kingdom) and recommended for publication (August 8, 2026, Protocol No. 22.1).

CONTENTS

1-SECTION 8

YARIMO‘TKAZGICHLARNI RENTGEN QURILMASI UCHUN FOYDALANISHNING *CdMnTe* MISOLIDA KO‘RISH 9

TASHQI ELASTIK SILINDRIK QOBIQ UCHUN HARAKAT TENGLAMALARINING CHIQARILISHI. (KIRXGOF–LYAV , TIMOSHENKO–MUSHTARI NAZARIYASI ASOSIDA) 15

ULTRASIYRAKLASHGAN GAZLAR VA EFFUZIYA 26

MOLEKULYAR KUCHLAR VA ICHKI ISHQALANISH 30

FOTOELEKTRIK PANELLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH 34

2-SECTION 45

TA’LIM SOHASIDA SUN’IYLIK INTELLEKTNING O‘RNI VA AHAMIYATI 46

ADAPTIVE TRUST-AWARE MULTI-CRITERIA DECISION METHOD FOR INTELLIGENT ASSESSMENT SYSTEMS 50

DIDACTIC OPPORTUNITIES OF CHATGPT AND GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING ENGLISH ORAL COMMUNICATION COMPETENCE 58

ADAPTIVE TRUST-AWARE MULTI-CRITERIA DECISION METHOD FOR INTELLIGENT ASSESSMENT SYSTEMS 63

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SUN’IY INTELLEKT PLATFORMALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 70

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN SOFTWARE DEVELOPMENT: APPLICATIONS, BENEFITS, AND CHALLENGES 75

3-SECTION 82

TIBBIY MULOQOT VA TERMINOLOGIYANI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLAR HAMDA SIMULYATSIYA TEXNOLOGIYALARI (ROLLI O'YINLAR, KLINIK KEYSLAR, DE-ESCALATION USULLARI) 83

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PREDICTING POSTOPERATIVE VASOSPASM AFTER RUPTURED INTRACRANIAL ANEURYSM CLIPPING IN CENTRAL ASIAN POPULATIONS 89

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YUQUMLI KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI VA TELEMEDITSINA XIZMATLARINI DAVLAT BOSHQARUVIGA INTEGRATSIYALASHNING INSTITUTSIONAL-RAQAMLI MODELI: "MAQSAD–HARAKAT–NATIJA" YONDASHUVI 95

РОЛЬ ЛЕЧЕБНОЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ В ПРОФИЛАКТИКЕ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА У ЛИЦ СРЕДНЕГО ВОЗРАСТА С ИЗБЫТОЧНОЙ МАССОЙ ТЕЛА 103

АНАЛИТИЧЕСКАЯ ХИМИЯ – «ИММУННАЯ СИСТЕМА» ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ 108

4-SECTION 122

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE PROPERTY PRIVATIZATION PROCESSES 123

AGROKLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI 127

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ И МОДЕРНИЗАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ 136

REGIONAL INTEGRATION IN THE GULF COOPERATION COUNCIL: THEORETICAL PERSPECTIVES AND TRANSFORMATION IN THE CONTEXT OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT 142

O'ZBEKISTON BOKS FEDERATSIYASI USTAVINING (ESKI TAHRIR) BOSHQARUV VA NAZORAT TIZIMI: INSTITUTSIONAL TAHLIL 154

“NEFT INQIROZINING” JAZOIR MIGRATSIYASIGA TA’SIRI 161

AUDITORLIK FIRMALARI ICHKI STANDARTLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING PROCESS QUALITY INDEX MODELINI ISHLAB CHIQISH VA VALIDATSIYA QILISH 165

O`ZBEKISTON HUDUDIY SUG`URTA TUSHUMLARI BARQARORLIGIGA TA`SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLAR TAHLILI 170

THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN FINANCING SOLAR ENERGY PROJECTS: THEORETICAL FOUNDATIONS AND EVALUATION CRITERIA 179

DIGITAL MARKETING STRATEGIES FOR PROMOTING SUSTAINABLE AND ECO-FRIENDLY TOURISM IN UZBEKISTAN 185

LEGAL FOUNDATIONS OF CEMETERY LAND AND ITS ROLE IN SUSTAINABLE LAND RESOURCE MANAGEMENT 191

EFFECTIVE MARKETING RESEARCH AND SOFIA BAKERY 196

5-SECTION 202

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIK HUQUQBUZARLIKLARINING MAXSUS PROFILAKTIKASIDA MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGINI KUCHAYTIRISH 203

10-12 YOSHLI BADIIY GIMNASTIKACHILARDA STATIK MUVOZANAT QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH QOBILIYATI 208

TALABALARNING MUSTAQIL O‘QUV-TADQIQOT FAOLIYATI TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI 213

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI 218

THE ADVANTAGES AND CHALLENGES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION 231

TALABALARGA MEHNAT GIGIYENASI FANINI REFLEX-PREVENTIVE MODELING TECHNOLOGY TA’LIM TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI 236

TARBIYA VA KOMPETENSIYALAR 241

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY STRESSNING OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK PROFILAKTIKA VA PSIXOLOGIK XIZMATNING O‘RNI 247

SPORT MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA REFLEKTIV VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI 257

BURHONIDDIN ZARNUJIYNING PEDAGOGIK G‘OYALARINI ZAMONAVIY TA’LIM INNOVATSIYALARI BILAN INTEGRATSIYALASH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR 266

6-SECTION 272

MURAKKAB SHAKLDOR DETALLARGA RDB DASTGOHLARIDA MEXANIK ISHLOV BERISHDA KESISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH 273

ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH THE IMPLEMENTATION OF GREEN TECHNOLOGIES IN RAILWAY TRANSPORT 278

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA QURILMALARI XARIDIGA KOMPENSATSIYA VA SUBSIDIYALAR AJRATISH HAMDA ULARNING

SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI 287

7-SECTION 293

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИНИНГ 1941 ЙИЛДАГИ БЮДЖЕТ-СОЛИҚ СИЁСАТИ ТАРИХИ 294

ZAMONAVIY TA'LIM XUSUSIYATLARI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL ... 300

J. DYUI, L. VIGOTSKIY VA B. ZIMMERMAN NAZARIYALARINING "LIR" MODELIDAGI INTEGRATIV TATBIQI 304

O'ZBEKISTON BOKS FEDERATSIYASI USTAVINING (ESKI TAHRIR, 2014 YIL) TASHKILIY-HUQUQIY TAHLILI 310

SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNING HUQUQIY TABIATI VA AN'ANAVIY SHARTNOMA NAZARIYASI BILAN MUNOSABATI 317

"NEFT INQIROZI" DAVRIDA FRANSIYADAGI MAG'RIB MUHOJIRLARI AHVOLI 324

ABDULLA NOSIROV AS A LOCAL KNOWLEDGE HOLDER AND MEDIATOR IN SOVIET UZBEKISTAN: PRESERVING AND SYSTEMATIZING THE WRITTEN HERITAGE OF CENTRAL ASIA 328

LANGUAGE AND EXPRESSION IN SHAKESPEARE'S SONNETS 333

TIBBIY LOTIN TILINI O'RGANISHDA INNOVATSION RAQAMLI YONDASHUV: "LINGUA LATIN MEDICA" PLATFORMASINING IMKONIYATLARI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MODELI 338

1-SECTION

YARIMO‘TKAZGICHLARNI RENTGEN QURILMASI UCHUN FOYDALANISHNING *CdMnTe* MISOLIDA KO‘RISH

Xonazarova Salomatxon Abdurahmon qizi
QDU 70530510 – Fizika va astronomiya
2-bosqich magistranti
xonazarovasalomatxon@gmail.com
Nurmatova Gulnoraxan Adxamjon qizi
QDU 70530504-Yarimo‘tkazgichlar fizikasi
1-bosqich magistranti
nurmatovagulnoraxon3@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Rentgen qurilmasini rivojlantirish va rentgen nurlari zararini kamaytirish uchun CdMnTe dan foydalanish haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, shuningdek, CdMnTe ning kamchiliklar, tavsiyalar va ustida ishlagan buyuk fizik olimlarning qilgan tajribalari ham aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *CdMnTe, magnit yarimo‘tkazgichlar,ion, elektron, kovak, konsentratsiya, energiya, zona.*

Abstract: *This article discusses the development of X-ray devices and the application of CdMnTe (Cadmium Manganese Telluride) to mitigate the harmful effects of X-ray radiation. Furthermore, it highlights the current limitations of CdMnTe, offers key recommendations for future optimization, and reviews the landmark experiments conducted by prominent physicists who have contributed to this field.*

Keywords: *CdMnTe, magnetic semiconductors, ion, electron, hole, concentration, energy, band.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы усовершенствования рентгеновских аппаратов и использование CdMnTe (кадмий-марганец-теллур) для снижения вредного воздействия рентгеновского излучения. Кроме того, в работе освещаются недостатки CdMnTe, приводятся рекомендации по его оптимизации, а также анализируются знаковые эксперименты выдающихся физиков, внесших вклад в развитие этой области.*

Ключевые слова: *CdMnTe, магнитные полупроводники, ион, электрон, дырка, концентрация, энергия, зона.*

KIRISH

Zamonaviy tibbiyot, sanoat va ilmiy-tadqiqot sohalarida rentgen diagnostikasi hamda tomografiya texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Biroq, rentgen nurlanishining inson organizmiga va atrof-muhitga ko‘rsatadigan zararli ionlashtiruvchi ta’siri ushbu texnologiyalardan foydalanishda xavfsizlik va samaradorlikni oshirish masalasini o‘rtaga qo‘ymoqda. An’anaviy detektorlar va qurilma komponentlari ionlashtiruvchi nurlarga yetarlicha yuqori sezgirlikka ega bo‘lmagani sababli, bemorlar va xodimlar nisbatan yuqori dozadagi radiatsiyani qabul qilishga majbur bo‘lishadi. Shu bois, rentgen qurilmalarining sezgirligini oshirish va radiatsiya dozasini (zararini) imkon qadar kamaytirishga xizmat qiladigan yangi avlod yarimo‘tkazgich materiallarini tadqiq etish va amaliyotga joriy etish fiziklar va muhandislar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUNOZARA

Yarimo‘tkazgichlarning magnit xususiyatlarini o‘rganish 1900-yillarda fanga yangilik sifatida kirib keldi. Magnit yarimo‘tkazgichlar va yarimo‘tkazgichlar bir-biridan farq qiladi. **Hideo Ohno** va uning Tohoku universitetidagi guruhi tomonidan amalga oshirilgan ishlar magnit yarimo‘tkazgichlarning rivojlanishiga asosiy sabab bo‘ldi. Dastlabki ishlar *GaMnAs* va *InMnAs* materiallari ustida amalga oshirilgan. Magnit yarimo‘tkazgichlarning suyultirilgan turi 1970-yillardan boshlab chuqurroq o‘rganila boshlandi. Shuningdek, *CdMnTe* ham shular qatorida edi. Keyinchalik III-V birikmalar va nitridlar ham o‘rganilgan. 1980-yillardan boshlab ko‘plab tadqiqotchilar II-VI guruh elementlari suyultirilgan magnit yarimo‘tkazgichlari sifatida birinchilardan bo‘lib keng o‘rganilgan. Magnit yarimo‘tkazgichlarning “otasi” sifatida K.Furdyna *CdMnTe* ning magnit va optik xossalarini, xususan Faradey effekti va ulkan Zeeman parchalanishini tadqiq qilgan. *CdMnTe* da optik o‘tishlarning Zeeman effekti bo‘yicha 1982-yilda E. Dudziak tadqiqotlarni boshlangan. Dastlabki miqdoriy natijalar Ginter tomonidan olingan. T.Dietl *CdMnTe* dagi ferromagnit va antiferromagnit holatlarini tushunishda poydevor bo‘lgan. 1997-yilda esa olamshumul kashfiyot qilindi, ya’ni *CdMnTe* kvant quduqlarida ikki o‘lchamli kovak gazi tomonidan ferromagnit o‘tish kuzatilgan. Hozirgi kunda radiatsiya detektorlari *CdMnTe* ga asosan rentgen va gamma-kvant detektorlari uchun *CdZnTe* ga muqobil material sifatida o‘rganilmoqda. *Mn* ning segregatsiya koeffitsiyenti 1 ga yaqinligini isbotlagan R.B.James, bir jinsli kristallar olish ustida ishlagan.

Nega shu yillar davomida *CdMnTe* dan rentgen qurilmasi uchun to‘liq tadbiq etilmagan degan savolni qo‘ysak, sababi bir nechta bo‘lishi mumkin. Xususan, *CdMnTe* suyultirilgan magnit yarimo‘tkazgich bo‘lib, uchlik qotishma hosil qiladi. U yuqori

qarshilik $\left(R = 10^{10}\Omega \cdot sm\right)$ xususiyatlariga ega. *CdMnTe* kristall panjarasida *Mn* ionlarining mavjudligi Mn^{2+} ionining 3D elektronlari bilan zona elektronlari o‘rtasida spin-spin almashinuv ta’sirini keltirib chiqaradi. Shuningdek, *Mn* miqdorining o‘zgartirish orqali taqiqlangan zona kengligini 1.5-2.2 eV gacha o‘zgartirish mumkin. *CdMnTe* 1999-yildan boshlab rentgen va gamma nurlarini aniqlash uchun eng yaxshi material sifatida o‘rganilgan. *CdMnTe* zolak tafovutiga ega bo‘lib, yupqa plyonkasining tafovuti 1.83 eV ni tashkil etadi. Bu qiymat quyosh batareyalari ishlab chiqarish uchun diapazon (1.4-1.7 eV) ga yaqin. *CdMnTe* kristalida zolak tafovuti 1.6 eV ga teng va bu qiymat *Mn* konsentratsiyasi hamda haroratga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

Mn^{3+} ionlarining 3d holatlari tomonidan hosil qilingan spin almashinuv energiyalari hisoblangan. Kichik spin uchun effektiv potensial katta spinga nisbatan ko‘proq tortuvchi kuchga ega. Ferromagnit *MnTe* va ferromagnit $CdMnTe_2$ ning zonaviy strukturasi manfiy almashinuv yangi turini ko‘rsatadi. *CdMnTe* yutilish koeffitsienti $10^5 sm^{-1}$ ga yetadi va asosan ultrabinafsha nurni yutadi. Infraqizil sohasida yuqori optik o‘tkazuvchanlik va doimiy zolak tafavuti kristallning infraqizil shaffofligini va tarkibiy bir xilligini ko‘rsatadi.

CdMnTe ga yorug‘lik tushganda foton energiyasi $E > E_g$ bo‘lsa, elektron valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasiga ko‘tariladi. *CdMnTe* uchun $E_g \approx 2.3 - 2.7\ eV$ *Mn* konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Bu taxminan 460-540 nm to‘lqin uzunligidagi yorug‘likka mos keladi. Elektronlar kristall panjara bilan to‘qnashganda $10^{-13} - 10^{-12}$ sekund ichida termal muvozanatga erishadi. *CdMnTe* orqali rentgen nurlarini aniqlash uchun taqiqlangan zona kengligi 1.7-2.2 eV oralig‘ida sozlanuvchi keng energiya tarmog‘i bo‘lib, yuqori qarshilik ham kerak bo‘ladi. Yuqori qarshilik shovqinni kamaytiradi. $Cd_{1-x}Mn_xTe$ da *Mn* konsentratsiyasi 5 % dan kam bo‘lib, bu *CdZnTe* (10% Zn) ga nisbatan kamroq qo‘shimcha element talab qiladi. Shuningdek, xona haroratida sovitish talab qilinmaydi.

CdMnTe ni rentgen nurlari detektori sifatida qo‘llash uchun bir necha muhim jarayonlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi, xususan kristallning sirtini tayyorlash va kontaktlarni shakllantirish. Bu jarayon detektordagi shovqinni kamaytirish va signallarni aniq qabul qilish imkonini beradi. Sirtni atom darajasida tekis holatga keltirish, turli o‘lchamdagi abraziv kukunlar yoki almaz pastalari yordamida kristall sirti oyna kabi jilolanadi. Mexanik jilolashdan keyin qolgan makroskopik nuqsonlarni va sirtning oksid qatlamini to‘qotish uchun kimyoviy ishlov beriladi. Detektordan elektr signalini olish uchun kristallning ikki tomoniga elektrodlar qo‘yiladi.



1-rasm. CdMnTe ni renten qurilmasiga qo‘llanilishining sxematik ko‘rinishi.

Kristall qirralari maxsus dielektrik materiallar yoki kimyoviy oksidlovchi bilan ishlov beriladi, bu esa kristallning yon tomonlari orqali tok o‘tib ketishini oldini olish, detektor sezgirligini oshiradi. *CdMnTe* ni qo‘llashda ayrim kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Uning yuqori qarshiligi ayrim holatlarda zararli bo‘lishi ham mumkin, shu sabab uning qarshiligini kamaytirish zarur. *CdMnTe* kristalliga *In, Al, Sm* donor aralashmalar kiritish qarshilikni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Ushbu aralashmalarda Cd^{2+} o‘rniga kristall panjarasiga kiradi va ortiqcha elektron berib, erkin zaryad tashuvchilar sonini oshiradi. *CdTe* ga *Sm* kiritilganda qarshiligini 10^8 marta kamayganini kuzatish mumkin.



2-rasm: CdMnTe kristallida Sm kiritilganligi.

CdMnTe kristallarida o‘stirish jarayonida tellur elementining mikroskopik o‘lchamdagi ($1^{-50}mkm$) hosil bo‘ladi. Tellur cho‘kmalari yuqori o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgani uchun detektor ichidagi elektr maydonini buzadi va zaryad tashuvchilar (elektron va kovaklar) uchun "to‘siq" vazifasini o‘taydi. Bu esa zaryad yig‘ish samaradorligini (CCE) pasaytiradi va qorong‘ulik tokini oshiradi. Bu vaziyatda kristallarni *Cd* yoki *Mn* zarralarini muhitida yuqori haroratda termik ishlov berish zarur. Bu jarayon ortiqcha tellurni neytrallashga va inkluziyalar o‘lchamini kamaytirishga yordam beradi.

Kremniy (Si), germaniy (Ge) yordamida qilingan detektorlarga o‘xshamaydi, ya’ni sovitish uchun suyuq azot talab qilinmaydi. Bu esa o‘lchamlari kichik va mobil rentgen qurilmasini yaratish imkonini beradi. Kremniy bilan solishtirilganda *CdTe* yuqori energiyali rentgen va gamma kvantlarini fotoeffekt orqali to‘liq yutishda o‘ta yuqori kvant samaradorligiga ega. Misol uchun: *100 keV* gacha bo‘lgan nurlar uchun qalinligi 0.5-1 mm bo‘lgan *CdTe* plastinkasi nurlarni 100 % ushlab qoladi. *Si* detektorlari bu energiyada samaradorlikni keskin yo‘qotadi.

Xitoy *CdMnTe* ustida 2016-2021 yillar ichida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. *CdMnTe* yuqori haroratlarda qizdirish va sifatini yaxshilash, optik usullar yordamida FIK ko‘tarish bilan shug‘ullandi. Aleksey E. Bolotnikov, Ralph B. James *CdMnTeSe*, *MnTe* ni tozalash hamda detektorlarda ishlash xususiyatlarini tahlil qilgan. Ular 2011-2024 yillar davomida tinimsiz tadqiqot o‘tkazdilar. Shunda ham *Se q*o‘shilganda 2024-yilda FIK 2% bo‘lgan. Kim Kihyun *CdMnTeSe, Se* qo‘shish effekti, kovaklar harakatini 2022-yildan boshlab o‘rgana boshlagan. 2024-yilga kelganda FIK 2% dan 5.4% ni tashkil etgan. Bu sezilarli natija bo‘lib xizmat qildi.



3-rasm: CdMnTeSe bo‘yicha statistika.

XULOSA

CdMnTe kristallarida *Mn* qo‘shilishi nuqsonlar sonini oshiradi, bu esa yuqori qarshilikni keltirib chiqaradi. Buni kamaytirish uchun donor elementlarni kiritish yoki qizdirish orqali qarshilikni kamaytirish orqali ma’lum natijaga erish mumkin. Shuningdek, elektron va kovaklarning yashash zavrini uzaytirish va harakatchanlikni oshirish usullarini ishlab chiqish zarur. *CdMnTe* ni rentgen qurilmasi uchun qo‘llashdan avval *Mn* ustida tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaurur. Aynan *Mn* qarshilikni yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kungacha *Mn* ustida labaratoriya ishlari 20 % ni tashkil etmoqda. *CdMnTe* ning kristalliga yangi elementlar *Bi, Cu, Fe* qo‘shish orqali tajriba sinov ishlarini ham olib borish FIK oshirishi mumkin. *CdTe* ga *Mn* kiritish xona

haroratida azot yordamida sovitishga ehtiyoj sezilmaydi. Ustunlik tarafi shu bo‘lganligi sababli ham ishlash davri ko‘proq bo‘ladi. Rentgen nuri kristallga urilganda, fotonlar *CdMnTe* atomlari bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Yuqori energiyali foton o‘z energiyasini kristall ichidagi elektronlarga beradi. Natijada, elektronlar valent zonasidan o‘tkazuvchanlik zonasiga o‘tadi. Undagi elektronlarning harakatchanligi va yashash davri yuqori bo‘ladi. Shu sababli ham uning o‘lchash aniqligi yuqori va zararli nurlardan yiroq. Shuningdek, foydali ish koeffitsienti yuqori bo‘lganligi uchun ham uzoq vaqt xizmat qiladi.

Rentgen nuri kristallga urilganda, fotonlar *CdMnTe* atomlari bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Yuqori energiyali foton o‘z energiyasini kristall ichidagi elektronlarga beradi. Natijada, elektronlar valent zonasidan o‘tkazuvchanlik zonasiga o‘tadi. Undagi elektronlarning harakatchanligi va yashash davri yuqori bo‘ladi. Shu sababli ham uning o‘lchash aniqligi yuqori va zararli nurlardan yiroq. Shuningdek, foydali ish koeffitsienti yuqori bo‘lganligi uchun ham uzoq vaqt xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Diluted magnetic Semiconductor ZnO: Magnetic Ordering with Transition Metal and Rare Earth Ions” Dipti Ranjan Sahu and Vasilios N. Stavrou 2020.

2. “Photoelectric properties of highly conductive samarium-doped cadmium telluride thin films for photovoltaic applications” M. F. Al-Khuali Solar energy-2021

3. “Quality improvement of CdMnTe:In single crystals by an effective post-growth annealing” **Yu P.F** *Journal of Crystal Growth* 451, 194-199. 2016.

4. “Study of Te inclusions in CdMnTe crystals for nuclear detector applications” A. Burger, R. B. James 2009.

5. Improving CdMnTe Detector Performance by Adding 2% of Selenium” **Kim K.Bolotnikov A.E., James R.B.** *IEEE Transactions on Nuclear Science* (BNL-225483-2024-JAAM)-2024.

6. “Enhanced hole mobility-lifetime product in selenium-added CdTe compounds" 2023.

7. “Te Inclusions in CdMnTe Crystal Grown by the Traveling Heater Method and their Effects on the Electrical Properties” J. Yu, J. Zhang. *Advanced Materials Research* (Vol. 936), 2014, 613-617-b.

TASHQI ELASTIK SILINDRIK QOBIQ UCHUN HARAKAT TENGLAMALARINING CHIQARILISHI. (KIRXGOF–LYAV , TIMOSHENKO–MUSHTARI NAZARIYASI ASOSIDA)

Xolyigitova Mohigul Naim qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi
E-mail: mohigulxolyigitova@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola (dissertatsiya bobi) tashqi ta'sirlarga uchragan yupqa elastik silindrik qobiq uchun harakat tenglamalarini ikkita klassik yondashuv — Kirxgof–Lyav gipotezasiga asoslangan klassik nazariya va Timoshenko–Mushtari (siljish deformatsiyasini hisobga oluvchi) nazariyasi asosida chiqarishga bag'ishlangan. Ishning maqsadi — ikki nazariya bo'yicha siljish maydoni, deformatsiya-siljish bog'liqliklari, kuch va moment natijalarini hosil qilish hamda Nyuton II qonuni asosida harakat tenglamalari sistemasini tizimli tarzda keltirib chiqarishdan iborat. Metodika sifatida energetik-analitik yondashuv, qobiq elementining dinamik muvozanati va sonli modellashtirish (Python NumPy/Matplotlib muhitida, MATLAB dasturiga tenglashtiriladigan hisoblash vositasi sifatida) qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, siljish deformatsiyasini hisobga olish qalinlik/radius nisbati (h/R) oshgan sari xos chastotalarning sezilarli darajada pasayishiga olib keladi, bu farq yupqa qobiqlarda (h/R<0,01) ahamiyatsiz, qalinroq qobiqlarda esa 10%dan oshishi mumkin. Olingan tenglamalar tizimi dissertatsiyaning keyingi boblarida chegaraviy masalalarni yechish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar*: silindrik qobiq, Kirxgof–Lyav gipotezasi, Timoshenko–Mushtari nazariyasi, harakat tenglamalari, siljish deformatsiyasi, kuch va moment natijalari, xos chastota.*

АННОТАЦИЯ:Данная статья (глава диссертации) посвящена выводу уравнений движения тонкой упругой цилиндрической оболочки, находящейся под внешним воздействием, на основе двух классических подходов — классической теории, базирующейся на гипотезе Кирхгофа–Лява, и теории Тимошенко–Муштари, учитывающей деформацию поперечного сдвига. Целью работы является последовательный вывод поля перемещений,

соотношений деформация–перемещение, силовых и моментных результирующих для обеих теорий, а также построение системы уравнений движения на основе второго закона Ньютона. В качестве методологии использованы энергетически-аналитический подход, динамическое равновесие элемента оболочки и численное моделирование (в среде Python NumPy/Matplotlib, применяемой как эквивалент MATLAB). Результаты показывают, что учёт сдвиговой деформации приводит к заметному снижению собственных частот с ростом отношения толщины к радиусу (h/R); при h/R<0,01 это отличие незначительно, а для более толстых оболочек может превышать 10%. Полученная система уравнений служит основой для решения краевых задач в последующих главах диссертации.

Ключевые слова: *цилиндрическая оболочка, гипотеза Кирхгофа–Лява, теория Тимошенко–Муштари, уравнения движения, деформация сдвига, силовые и моментные результирующие, собственная частота.*

ABSTRACT:This article (a dissertation chapter) is devoted to the derivation of the equations of motion of a thin elastic cylindrical shell subjected to external action, based on two classical approaches: the classical theory built on the Kirchhoff–Love hypothesis, and the Timoshenko–Mushtari theory, which accounts for transverse shear deformation. The aim of the work is to consistently derive the displacement field, the strain–displacement relations, and the force and moment resultants for both theories, and to construct the system of equations of motion using Newton's second law. The methodology employed includes an energy-analytical approach, the dynamic equilibrium of a shell element, and numerical modelling (carried out in the Python NumPy/Matplotlib environment, used here as an equivalent computational tool to MATLAB). The results show that accounting for shear deformation leads to a noticeable decrease in natural frequencies as the thickness-to-radius ratio (h/R) increases; for h/R<0.01 this difference is negligible, while for thicker shells it may exceed 10%. The resulting system of equations serves as the basis for solving boundary-value problems in subsequent chapters of the dissertation.

Keywords: *cylindrical shell, Kirchhoff–Love hypothesis, Timoshenko–Mushtari theory, equations of motion, shear deformation, force and moment resultants, natural frequency.*

KIRISH

Silindrik qobiq konstruksiyalari aviatsiya, mashinasozlik, quvur transporti va qurilish sohalarida keng qo'llaniladi, shu sababli ularning dinamik xatti-harakatini to'g'ri tavsiflovchi harakat tenglamalarini olish muhandislik amaliyoti va nazariy mexanika uchun dolzarb masaladir [1]. Qobiqlarning tebranish va deformatsiyalanish jarayonlarini tavsiflashda turli darajadagi soddalashtirishlarga asoslangan bir qancha nazariyalar mavjud bo'lib, ular orasida Kirxgof–Lyav gipotezasiga asoslangan klassik nazariya eng keng tarqalgani hisoblanadi [2].

Kirxgof–Lyav gipotezasi qobiq o'rta sirtiga normal bo'lgan to'g'ri chiziq elementining deformatsiyadan keyin ham to'g'ri va o'rta sirtga perpendikulyar qolishini, shuningdek ko'ndalang siljish va normal deformatsiyalarning e'tiborga olinmasligini nazarda tutadi [3]. Bu gipoteza yupqa qobiqlar (h/R juda kichik) uchun yetarli aniqlik beradi, biroq nisbatan qalin qobiqlarda ko'ndalang siljish deformatsiyasi va aylanma inersiya ta'sirini e'tiborsiz qoldirish sezilarli xatoliklarga olib kelishi bir qator tadqiqotlarda ko'rsatilgan [4].

Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida taniqli sovet mexanika olimi X.M. Mushtari tomonidan ilgari surilgan va keyinchalik Timoshenko tipidagi siljish deformatsiyasi kontseptsiyasi bilan uyg'unlashtirilgan yondashuv — bu ishda "Timoshenko–Mushtari nazariyasi" deb yuritiladi — qobiq kesimining o'rta sirtga normal holatini saqlab qolish talabini yumshatadi va mustaqil burilish (rotatsiya) funksiyalarini kiritadi [5, 6]. Bu esa qalinroq qobiqlar va yuqori tebranish modlarida aniqroq natijalar olish imkonini beradi [7].

Turli qobiq nazariyalarini qiyoslovchi tadqiqotlarda Donnell–Mushtari, Lav–Timoshenko, Sanders, Flyugge va Vlasov nazariyalari bo'yicha olingan xos chastotalar tajriba natijalari bilan solishtirilgan va klassik Donnell–Mushtari nazariyasining ayrim hollarda (uzun va qalin qobiqlarda) yetarli aniqlik bermasligi ko'rsatilgan [8, 9]. Zamonaviy tadqiqotlarda Kirxgof–Lyav nazariyasi tangensial differensial hisob asosida ham qayta ifodalangan, bu esa nazariyaning matematik apparatini umumlashtirish imkonini bergan [10].

Yuqoridagilarga asoslanib, ushbu bobning maqsadi tashqi elastik silindrik qobiq uchun harakat tenglamalarini ikkala nazariya — Kirxgof–Lyav va Timoshenko–Mushtari — asosida izchil ravishda chiqarish, ularni o'zaro solishtirish va olingan natijalarni sonli misollar bilan tasdiqlashdan iborat.

1. NAZARIY ASOS: ASOSIY GIPOTEZALAR

Qaralayotgan silindrik qobiq o'rta sirt radiusi R, qalinligi h va uzunligi L ga ega, deb faraz qilinadi. Koordinata sistemasi sifatida silindrik koordinatalar (x — o'q

bo'ylab, θ — aylana bo'ylab, z — qalinlik bo'ylab, o'rta sirtdan hisoblanadi) qabul qilingan. Ikki nazariyaning asosiy kinematik farqlari 1-jadvalda keltirilgan.

Xususiyat	Kirxgof–Lyav nazariyasi	Timoshenko–Mushtari nazariyasi
Asosiy gipoteza	Normal chiziq elementi deformatsiyadan keyin ham to'g'ri va sirtga perpendikulyar qoladi	Normal chiziq elementi to'g'ri qoladi, biroq sirtga perpendikulyarlik shart emas
Ko'ndalang siljish deformatsiyasi (γxz, γθz)	Hisobga olinmaydi (=0)	Mustaqil o'zgaruvchi sifatida hisobga olinadi
Erkin funksiyalar soni	3 (u0, v0, w0)	5 (u0, v0, w0, βx, βθ)
Harakat tenglamalari soni	3 ta	5 ta
Qo'llanish sohasi	Yupqa qobiqlar, h/R < 0,01–0,02	Nisbatan qalin qobiqlar, yuqori tebranish modlari
Aylanma inersiya	E'tiborga olinmaydi	Hisobga olinadi

1-jadval. Kirxgof–Lyav va Timoshenko–Mushtari nazariyalarining qiyosiy tavsifi [3, 5, 6].

2. HARAKAT TENGLAMALARINI CHIQARISH METODIKASI

Harakat tenglamalarini chiqarishda quyidagi izchil bosqichlardan foydalanildi: kinematik gipotezani qabul qilish, siljish maydonini aniqlash, deformatsiya-siljish bog'liqliklarini yozish, Guk qonuni orqali kuch/moment natijalarini topish va nihoyat qobiq elementining dinamik muvozanati (Nyuton II qonuni) asosida harakat tenglamalarini tuzish. Ushbu jarayonning umumlashtirilgan blok-sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tashqi elastik silindrik qobiq uchun harakat tenglamalarini chiqarish metodikasining blok-sxemasi.

3. KIRXGOF–LYAV NAZARIYASI ASOSIDA HARAKAT TENGLAMALARINING CHIQARILISHI

3.1. Siljish maydoni

Kirxgof–Lyav gipotezasiga ko'ra, qobiq qalinligi bo'ylab siljishlar o'rta sirt siljishlari u0, v0, w0 orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$u(x,\theta,z,t) = u_0(x,\theta,t) - z\cdot\partial w_0/\partial x \quad (1)$$

$$v(x,\theta,z,t) = v_0(x,\theta,t) - (z/R)\cdot\partial w_0/\partial\theta \quad (2)$$

$$w(x,\theta,z,t) = w_0(x,\theta,t) \quad (3)$$

bu yerda u_0, v_0 — o'rta sirtning mos ravishda o'q va aylana yo'nalishidagi siljishlari, w_0 — radial (ko'ndalang) siljish, R — o'rta sirt radiusi.

3.2. Deformatsiya–siljish bog'liqliklari

(1)–(3) ifodalarni chiziqli deformatsiya tenzori ta'rifiga qo'yib, quyidagi bog'liqliklar olinadi:

$$\varepsilon_x = \partial u_0/\partial x - z\cdot\partial^2 w_0/\partial x^2 \quad (4)$$

$$\varepsilon\theta = (1/R)(\partial v_0/\partial\theta + w_0) - (z/R^2)\cdot\partial^2 w_0/\partial\theta^2 \quad (5)$$

$$\gamma_x\theta = (1/R)\partial u_0/\partial\theta + \partial v_0/\partial x - (2z/R)\cdot\partial^2 w_0/(\partial x\partial\theta) \quad (6)$$

Bu yerda birinchi hadlar o'rta sirt (membrana) deformatsiyalarini, z ga proportsional hadlar esa egilish deformatsiyalarini ifodalaydi.

3.3. Kuch va moment natijalari

Tekis kuchlanish holati va izotrop elastik material uchun Guk qonunidan foydalanib, kuchlanishlarni qalinlik bo'yicha integrallash orqali kuch (N_x, $N\theta$, $N_x\theta$) va moment (M_x, $M\theta$, $M_x\theta$) natijalari topiladi:

$$N_x = [Eh/(1-\nu^2)]\cdot[\partial u_0/\partial x + (\nu/R)(\partial v_0/\partial\theta + w_0)] \quad (7)$$

$$N\theta = [Eh/(1-\nu^2)]\cdot[(1/R)(\partial v_0/\partial\theta + w_0) + \nu\cdot\partial u_0/\partial x] \quad (8)$$

$$N_x\theta = [Eh/(2(1+\nu))]\cdot[(1/R)\partial u_0/\partial\theta + \partial v_0/\partial x] \quad (9)$$

$$M_x = -D\cdot[\partial^2 w_0/\partial x^2 + (\nu/R^2)\partial^2 w_0/\partial\theta^2] \quad (10)$$

$$M\theta = -D\cdot[(1/R^2)\partial^2 w_0/\partial\theta^2 + \nu\cdot\partial^2 w_0/\partial x^2] \quad (11)$$

$$M_x\theta = -[D(1-\nu)/R]\cdot\partial^2 w_0/(\partial x\partial\theta), \quad D = Eh^3/[12(1-\nu^2)] \quad (12)$$

bu yerda E — elastiklik moduli, ν — Puasson koeffitsienti, D — qobiqning egilish qattiqligi.

3.3. Harakat tenglamalari

Qobiq elementining o'q, aylana va radial yo'nalishlardagi dinamik muvozanatini (Nyuton II qonuni) yozib, quyidagi uchta harakat tenglamasi olinadi:

$$\partial N_x/\partial x + (1/R)\partial N_x\theta/\partial\theta = \rho h\cdot\partial^2 u_0/\partial t^2 \quad (13)$$

$$\partial N_x\theta/\partial x + (1/R)\partial N\theta/\partial\theta = \rho h\cdot\partial^2 v_0/\partial t^2 \quad (14)$$

$$\partial^2 M_x/\partial x^2 + (2/R)\partial^2 M_x\theta/(\partial x\partial\theta) + (1/R^2)\partial^2 M\theta/\partial\theta^2 - N\theta/R = \rho h\cdot\partial^2 w_0/\partial t^2 \quad (15)$$

bu yerda ρ — material zichligi. (7)–(12) ifodalarni (13)–(15) ga qo'yish orqali tenglamalar to'liq ravishda siljishlar u_0, v_0, w_0 orqali ifodalanadi — bu klassik Kirxgof–Lyav (Donnell tipidagi) harakat tenglamalari sistemasini beradi [2, 3, 11].

4. TIMOSHENKO–MUSHTARI NAZARIYASI ASOSIDA HARAKAT TENGLAMALARINING CHIQARILISHI

4.1. Siljish maydoni va qo'shimcha o'zgaruvchilar

Timoshenko–Mushtari nazariyasida ko'ndalang siljish deformatsiyasini hisobga olish uchun mustaqil burilish funksiyalari $\beta_x(x,\theta,t)$ va $\beta\theta(x,\theta,t)$ kiritiladi:

$$u(x,\theta,z,t) = u_0(x,\theta,t) + z\cdot\beta_x(x,\theta,t) \quad (16)$$

$$v(x,\theta,z,t) = v_0(x,\theta,t) + z\cdot\beta\theta(x,\theta,t) \quad (17)$$

$$w(x,\theta,z,t) = w_0(x,\theta,t) \quad (18)$$

Bu holda β_x va $\beta\theta$ endi $\partial w_0/\partial x$ va $(1/R)\partial w_0/\partial\theta$ ga teng emas, balki mustaqil kinematik o'zgaruvchilar hisoblanadi — bu klassik nazariyadan asosiy farq hisoblanadi [5, 6].

4.2. Ko'ndalang siljish deformatsiyalari va kesuvchi kuchlar

Qo'shimcha ravishda ko'ndalang siljish deformatsiyalari aniqlanadi:

$$\gamma_x z = \beta_x + \partial w_0/\partial x \quad (19)$$

$$\gamma\theta z = \beta\theta + (1/R)\partial w_0/\partial\theta - v_0/R \quad (20)$$

Bu deformatsiyalarga mos ko'ndalang kesuvchi kuchlar siljish tuzatish koeffitsienti k_s orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$Q_x = k_s \cdot G \cdot h \cdot \gamma_x z\,, \qquad Q\theta = k_s \cdot G \cdot h \cdot \gamma\theta z \quad (21)$$

bu yerda $G = E/[2(1+\nu)]$ — siljish moduli, k_s — Timoshenko siljish tuzatish koeffitsienti (odatda $k_s \approx 5/6$ qabul qilinadi) [4, 7]. N_x, $N\theta$, $N_x\theta$, M_x, $M\theta$, $M_x\theta$ ifodalari (7)–(12) dagi kabi saqlanadi, faqat $\partial w_0/\partial x$ va $(1/R)\partial w_0/\partial\theta$ o'rniga mos ravishda β_x va $\beta\theta$ qo'yiladi.

4.3. Harakat tenglamalari

Endi qobiq elementi uchun besh mustaqil o'zgaruvchi (u_0, v_0, w_0, β_x, $\beta\theta$) bo'yicha beshta dinamik muvozanat tenglamasi tuziladi:

$$\partial N_x/\partial x + (1/R)\partial N_x\theta/\partial\theta = \rho h \cdot \partial^2 u_0/\partial t^2 \quad (22)$$

$$\partial N_x\theta/\partial x + (1/R)\partial N\theta/\partial\theta = \rho h \cdot \partial^2 v_0/\partial t^2 \quad (23)$$

$$\partial Q_x/\partial x + (1/R)\partial Q\theta/\partial\theta - N\theta/R = \rho h \cdot \partial^2 w_0/\partial t^2 \quad (24)$$

$$\partial M_x/\partial x + (1/R)\partial M_x\theta/\partial\theta - Q_x = \rho I \cdot \partial^2\beta_x/\partial t^2 \quad (25)$$

$$\partial M_x\theta/\partial x + (1/R)\partial M\theta/\partial\theta - Q\theta = \rho I \cdot \partial^2\beta\theta/\partial t^2, \qquad I = h^3/12 \quad (26)$$

bu yerda I — aylanma inersiya bilan bog'liq qalinlik parametri. (16)–(21) ifodalarni (22)–(26) ga qo'yish orqali Timoshenko–Mushtari nazariyasining to'liq harakat tenglamalari sistemasi u_0, v_0, w_0, β_x, $\beta\theta$ o'zgaruvchilari orqali ifodalanadi. Bu sistema klassik Kirxgof–Lyav sistemasiga nisbatan ikkita qo'shimcha tenglama va noma'lumga ega bo'lib, ko'ndalang siljish va aylanma inersiya effektlarini to'g'ri hisobga oladi [4, 5, 9].

5. SONLI TAHLIL VA GRAFIK NATIJALAR

Olingan tenglamalar tizimlarini sonli taqqoslash maqsadida oddiy tayangan (simply supported) qobiq uchun garmonik yechim shaklida qidirilgan yechimlar asosida o'lchamsiz xos chastota parametri Ω hisoblandi. Klassik nazariya uchun Donnell–Mushtari–Vlasov soddalashtirilgan formulasidan foydalanildi [1, 8]:

$$\Omega^2(m,n) = (h^2/12R^2)\cdot(\lambda_m^2 + n^2)^2 + n^4/(\lambda_m^2 + n^2)^2\,, \qquad \lambda_m = m\pi R/L \quad (27)$$

Timoshenko–Mushtari nazariyasi bo'yicha siljish deformatsiyasi ta'sirini taqribiy hisobga oluvchi tuzatilgan parametr sifatida quyidagi ifoda qabul qilindi:

$$\Omega^2_{tm}(m,n) = \Omega^2(m,n) \,/\, [1 + \kappa \cdot \Omega^2(m,n) \cdot (h/R)^2] \quad (28)$$

bu yerda κ — siljish moyilligini tavsiflovchi namunaviy (illyustrativ) koeffitsient (κ=0,10 qabul qilingan); Ω = ωR·√[ρ(1−ν²)/E] — o'lchamsiz chastota, m — o'q yo'nalishdagi, n — aylana yo'nalishdagi mod raqami. Hisoblashlar Python (NumPy/Matplotlib) muhitida, MATLAB dasturiga tenglashtiriladigan sonli hisoblash vositasi sifatida, ν=0,3 qabul qilingan holda amalga oshirildi. Hisoblash parametrlari 2-jadvalda keltirilgan.

Parametr	Belgisi	Qiymati/diapazoni
Puasson koeffitsienti	ν	0,3
Siljish tuzatish (namunaviy) koeffitsienti	κ	0,10
O'q yo'nalishdagi mod raqami	m	1
Aylana yo'nalishdagi mod raqami	n	1, 2, 3
Uzunlik/radius nisbati	L/R	1–30
Qalinlik/radius nisbati	h/R	0,002–0,05

2-jadval. Sonli hisoblashda qo'llanilgan parametrlar.



2-rasm. O'lchamsiz xos chastota parametrining L/R nisbatiga bog'liqligi: uzluksiz chiziqlar — Kirxgof–Lyav (klassik) nazariyasi, uzuq chiziqlar — Timoshenko–Mushtari nazariyasi (m=1, h/R=0,02).

2-rasmdan ko'rinadiki, qobiq nisbatan qisqa (L/R kichik) bo'lganda ikki nazariya natijalari deyarli mos keladi, biroq L/R ortishi bilan (qobiq cho'zilishi bilan) farq ortadi, ayniqsa yuqori aylanma mod raqamlari (n=2, 3) uchun sezilarli bo'ladi.



3-rasm. Siljish deformatsiyasi hisobiga xos chastotaning nisbiy pasayishi qalinlik/radius nisbati h/R ga bog'liq holda (m=1, L/R=10).

3-rasm shuni ko'rsatadiki, h/R<0,01 bo'lgan yupqa qobiqlarda ikki nazariya orasidagi farq 2%dan kam bo'lib, klassik Kirxgof–Lyav nazariyasidan foydalanish asoslangan. Biroq h/R ortishi bilan farq tez sur'atlarda ortadi va h/R=0,05 da 10%dan oshadi, bu esa qalinroq qobiqlar uchun Timoshenko–Mushtari nazariyasini qo'llash zarurligini tasdiqlaydi — bu xulosa boshqa mualliflar tomonidan olingan natijalar bilan sifat jihatidan mos keladi [4, 7, 9].



4-rasm. Radial ko'chish w_0 shaklining sxematik taqqoslanishi: Kirxgof–Lyav (chapda) va Timoshenko–Mushtari (o'ngda) nazariyalari, m=1, n=2 mod uchun (amplituda pasayishi illyustrativ tarzda ko'rsatilgan).

MUHOKAMA

Kirxgof–Lyav va Timoshenko–Mushtari nazariyalari asosida olingan harakat tenglamalari sistemalarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, ikkala nazariya ham o'q va aylana yo'nalishdagi muvozanat tenglamalari (13)–(14) va (22)–(23) jihatidan bir xil

ko'rinishga ega, farq esa radial muvozanat tenglamasi va burilishlarga oid qo'shimcha tenglamalarda namoyon bo'ladi. Bu natija adabiyotlarda keltirilgan umumiy xulosalarga mos keladi — ya'ni siljish deformatsiyasining ta'siri asosan egilish bilan bog'liq kattaliklarda seziladi [4, 9].

Sonli tahlil natijalari (2–3rasmlar) shuni tasdiqlaydiki, siljish deformatsiyasini e'tiborsiz qoldirish yupqa qobiqlar uchun (h/R<0,01) amaliy jihatdan oqlanadi, biroq qalinroq qobiqlarda yoki yuqori tebranish modlarini tahlil qilishda sezilarli хатоликларга olib kelishi mumkin. Bu xulosa turli qobiq nazariyalarini qiyoslagan tadqiqotlarda ham qayd etilgan [8, 9].

Shuni ta'kidlash lozimki, (28) ifodadagi κ koeffitsienti ushbu bobda faqat sifat jihatidan taqqoslash uchun namunaviy qiymat sifatida qabul qilingan; dissertatsiyaning keyingi bosqichlarida bu koeffitsientni aniq material va geometriya parametrlari asosida to'liq Timoshenko–Mushtari tenglamalari sistemasini (22)–(26) analitik yoki sonli yechish orqali aniqlashtirish rejalashtirilgan.

XULOSA

Ushbu bobda tashqi elastik silindrik qobiq uchun harakat tenglamalari ikkita klassik yondashuv — Kirxgof–Lyav va Timoshenko–Mushtari nazariyalari — asosida izchil ravishda chiqarildi. Har ikkala nazariya uchun siljish maydoni, deformatsiya-siljish bog'liqliklari, kuch va moment natijalari hamda yakuniy harakat tenglamalari sistemasi keltirib chiqarildi. Sonli tahlil natijalari ko'rsatdiki: 1) yupqa qobiqlarda (h/R<0,01) ikki nazariya natijalari deyarli farq qilmaydi; 2) qalinlik va uzunlik-radius nisbati ortishi bilan siljish deformatsiyasining ta'siri ortadi va Timoshenko–Mushtari nazariyasidan foydalanish tavsiya etiladi; 3) olingan tenglamalar tizimi qobiqning turli chegaraviy shartlar ostidagi dinamik xatti-harakatini tahlil qilish uchun ishonchli nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Olingan natijalar dissertatsiya ishining keyingi boblarida — xususan, aniq chegaraviy shartlar ostida xos chastotalarni va mod shakllarini sonli-analitik yechishda, shuningdek to'ldiruvchi qatlam bilan o'zaro ta'sirlashuvchi qobiq tizimlarini tahlil qilishda — asos sifatida qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Po‘latov A., Abdullayev R. Elastiklik nazariyasi asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. — 312 b.

2.Karimov Sh., Ergashev B. Qobiq va plastinkalar mexanikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 284 b.

3.Raxmatov U., Xudoyberdiyev N. Mexanik tebranishlar nazariyasi. — Toshkent: Tafakkur, 2019. — 296 b.

4.Qodirov A., To‘xtayev S. Viskoelastik materiallar mexanikasi. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. — 258 b.

5.Tursunov X., Jo‘rayev M. Anizotrop jismlar elastiklik nazariyasi. — Toshkent: Fan, 2018. — 330 b.

6.Sultonov B., Xolmurodov A. Qovurg‘ali qobiqlar nazariyasi va hisoblash usullari. — Toshkent: Muharrir, 2021. — 270 b.

7.Hasanov M.M., Yusupova M.A. Silindrik qobiqlarda viskoelastik muhitda to‘lqinlarning tarqalishi // O‘zbekiston fizika jurnali. — 2023. — №4. — B. 31–38.

8.Xolyigitova M. N., Suyarov A. O. BIR JINSLI BOLMAGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SITEMASINI “REZONANS” VA “REZONANS” BOLMAGAN HOLLAR UCHUN YECHIMLARINI TUZISH //Экономика и социум. – 2024. – №. 10 (125). – С. 413-416.

9.Nazarov I.A., Karimov O.X. Suyuqlik bilan to‘ldirilgan silindrik qobiqlarda to‘lqin jarayonlarini modellashtirish // O‘zbekiston matematika va mexanika jurnali. — 2022. — №2. — B. 45–57.

10. Kirchhoff–Love shell theory based on tangential differential calculus // Computational Mechanics, Springer, 2018.

11.Generalized theory for the dynamic analysis of thin shells with application to circular cylindrical geometries // Composite Structures, ScienceDirect, 2019.

12. Shell Theory — an overview // ScienceDirect Topics, Elsevier.

ULTRASIYRAKLASHGAN GAZLAR VA EFFUZIYA

Sobirova Gulnoza Olim qizi
Qarshi davlat texnika universiteti stajyor o`qituvchi

Annotatsiya: *Ultrasiyraklashgan gaz molekulalar soni, ultrasiyraklashgan gazlarning xossalari, ultrasiyraklashgan gazda molekulalarning harakati va tezligining o`zgarishi, effuziya hodisasida molekulaning harakati, effuziyaning qo`llanilishi.*

Abstract: *The number of molecules in an ultrarare gas, properties of ultrarare gases, changes in the motion and velocity of molecules in an ultrarare gas, the motion of molecules in the event of effusion, and applications of effusion.*

Kalit so`zlar: *Ultrasiyraklashgan gaz, molekula konsentratsiyasi, impuls, ultrasiyraklashgan gazda bosim, effuziya hodisasi, izotoplar.*

Keywords: *Ultrarare gas, molecular concentration, momentum, pressure in ultrarare gas, effusion phenomenon, isotopes.*

Molekulalarning erkin yugurish yo`li uzunligi idishning chiziqli o`lchamlaridan ortiq bo`lsa, idish ichida vakuumga erishiladi. Bunday gaz ultrasiyraklashgan gaz deb ataladi. Ultrasiyraklashgan gazda hajm birligida juda ko`p molekula bo`ladi. Masalan, bosim $10^{-6}$ $mm\ sim.ust.$ bo`lganda 1 m^3 da taxminan 10^{16} molekula bo`ladi. Bundan tashqari, juda kichik kovaklarda vakuum deb ta`riflanadigan holat atmosfera bosimida ham yuzaga keltirilishi mumkin.

Ultrasiyraklashgan gazlarning xarakteri bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Vakuum sharoitlarida gazning bir qismi ikkinchi qismiga bosim ko`rsatadi, deb gapirish to`g`ri emas. Odatdagi sharoitlarda molekulalar bir-biri bilan tez-tez to`qnashib turadi. Shuning uchun gazni fikran ikki qismga ajratish mumkin bo`lgan har qanday sirt bo`ylab molekulalar orasida impuls almashish yuz beradi va gazning bir qismi ikkinchi qismiga ajralish sirti bo`ylab $p$ bosim bilan ta`sir qiladi. Vakuum holatida molekulalar idishning devoir bilangina impuls almashinishadi. Bu holatda gazda ichki ishqalanish ham bo`lmaydi. Lekin ultrasiyraklashgan gaz ichida harakatlanuvchi jismga ishqalanish kuchlari ta`sir qiladi, buning sababi shundaki, molekulalar bu jismga urilib, uning impulsini o`zgartiradi.

Ultrasiyraklashgan gazda ikkita plastinka bir-biriga parallel ravishda harakat qilsin. Plastinkalarning tezliklari u_1 va u_2 ga teng. Molekula plastinkaga urilgan paytda molekula bilan plastinka orasida sodir bo`lgan o`zaro ta`sir shunga olib keladiki, molekula plastinkadan sapchib, issiqlik tezligiga qo`shimcha tezlik oladi va bu qo`shimcha tezlik kattalik va yo`nalishi bo`yicha plastinka tezligiga teng bo`ladi.

Yuqorigi plastinkaning birlik yuziga har sekundda $\frac{1}{6}nv$ dona molekula kelib uriladi, bu molekulalar pastdagi plastinkaga oldingi urilishda olgan tezlikning u_2 tashkil etuvchisiga ega bo`ladi. Bu molekulalarning har biri impulsning $mu_2$ tashkil etuvchisiga ega bo`ladi. Molekulalar yuqorigi plastinkadan sapchib qaytganida impulsning mu_1 tashkil etuvchisiga ega bo`ladi. Har bir molekula yuqorigi, plastinkaga urilganda uning impulsi $m(u_1 - u_2)$ miqdorida kamayadi. Plastinka sirtining birlik yuziga nisbatan olganda impulsning vaqt birligi ichidagi o`zgarishi quyidagiga teng bo`ladi:

$$\frac{1}{6}nvm(u_1 - u_2)$$

ya`ni bu o`zgarish plastinka sirtining birlik yuziga ta`sir etuvchi kuchga tengdir. Pastki plastinkaning birlik sirtiga kattaligi xuddi shunday, lekin unga qarama-qarshi yo`nalgan kuch ta`sir qiladi. Ishqalanish kuchi bilan plastinkalar tezliklari ayirmasi orasidagi proporsionallik koeffitsientini ishqalanish koeffitsientiga teng deb olish mumkindir.

Ichida ultrasiyraklashgan gazi bor idishni ko`rib chiqaylik, bu idish teshikli to`siq bilan ikki qismga bo`lingan bo`lsin. Agar teshikning o`lchamlari molekulaning erkin chopish yo`li uzunligidan kichik bo`lsa, u holda molekulalar teshik orqali bir-biriga to`qnashmasdan yakka-yakka uchib o`tadi. Bunday sharoitlarda gazning teshik orqali oqishi effuziya deb ataladi.

Effuziyada bir qator o`ziga xos hodisalar yuz beradi. Ma`lumotlarni soddalashtirsak, idish ichidagi gaz shu qadar kuchli siyraklashtirilganki, erkin yugurish yo`lining uzunligi idishning chiziqli o`lchamlaridan ortiq, deb faraz qilamiz. Bu holda molekulalar to`siqdagi teshik orqali o`tib, to idishning devorlariga yetguncha to`g`ri chiziqli trayektoriyalar bo`ylab harakat qiladi.

Issiqlik effuziyasi- idishning ikkala qismi devorlarining T_1 va T_2 temperaturalari har xil bo`lsin. Erkin chopish yo`lining uzunligi teshikning diametridan ancha kichik bo`lganda idishni to`ldirib turgan gazning muvozanat sharti p_1 va p_2 bosimlarning tengligi bo`ladi. Bosim $nkT$ ga teng bo`lgani uchun idishning ikkala qismining hajm birligidagi molekulalar soni, gazning zichligi bu holda temperaturalarning nisbati teskari munosabatda bo`ladi:

$$\frac{\rho_1}{\rho_2} = \frac{n_1}{n_2} = \frac{T_2}{T_1}$$

Ultrasiyraklashgan gazda esa muvozanat shartlari boshqacha bo`ladi. Agar idishning birinchi qismidan ikkinchi qismiga teshik orqali bir sekund ichida o`tayotgan molekulalar soni teshik orqali qarama-qarshi yo`nalishda bir sekund ichida o`tayotgan molekulalar soniga teng bo`lsa, vaqt o`tishi bilan o`zgarmaydigan holat qaror topadi. Teshik orqali o`tadigan molekulalar soni nv ga proporsional bo`lgani uchun muvozanat sharti

$$n_1 v_1 = n_2 v_2$$

ko`rinishida bo`ladi. $v \sim \sqrt{T}$ bo`lgani uchun quyidagi tengliklarni yozish mumkin:

$$\frac{\rho_1}{\rho_2} = \frac{n_1}{n_2} = \sqrt{\frac{T_2}{T_1}}$$

Shunday qilib, gaz zichliklarining nisbati odatdagi sharoitlardagidan boshqacharoq bo`lar ekan.

Idishning ikkala qismida bosimlar teng bo`lganda muvozanat yuz beradigan odatdagi sharoitlardan farqli ravishda vakuum sharoitida bosim idishning devorlari temperaturasi yuqori bo`lgan qismida ortiqroq bo`lar ekan.

Ikki gazning uchrashma izotermik effuziyasi- idishning temperaturasi hamma joyda bir xil bo`lgan va avvaldan idishning har xil qismlarida molekulalarning massalari ko`p farq qiladigan har xil gazlar bor bo`lgan holni tekshiraylik. Aniqlik uchun idishning chap qismida vodorod, o`ng qismida kislorod bor deb olamiz. Vodorodning bosimi kislorodning bosimidan 2 marta kichik bo`lsin. Kislorodning konsentratsiyasi vodorodning konsentratsiyasidan 2 marta katta bo`lsin. Agar to`siqdagi teshik ochilsa, bu teshik orqali kislorod va vodorodning uchrashma effuziya oqimlari yuzaga keladi. Vodorod molekulalarning o`rtacha tezligi, kislorod molekulalarning o`rtacha tezligidan 4 marta ortiq bo`ladi. Bunda vodorod molekulalarning oqimi kislorod molekulalarining oqimidan 2 marta katta bo`ladi. Avval tezroq harakatlanuvchi molekulalar, ya`ni vodorod molekulalari konsentratsiyasi, so`ngra esa kislorod molekulalari konsentratsiyalari tenglashadi. Komponentalari ayni bir ximiyaviy elementlarning har xil izotoplaridan, ya`ni turli atomlaridan iborat ekanligi bilan farqlanuvchi gaz aralashmalarini ajratishda effuziya hodisasidan foydalaniladi. Izotoplarning ximiyaviy xossalari aynan bir xil bo`lgani uchun ularni ximiyaviy usullar bilan ajratib bo`lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.”Fizika” pedagogik bilim yurtlari uchun darslik.D.I.Saxarov 1951.

2.”Fizika” maxsus o`rta o`quv yurtlari uchun darslik.L.S.Jdanov 1979.

3.Цветков В.Н. Жесткоцепные полимерные молекулы. Л.:Наука. 1986.

4. Кленин В.И. Термодинамика систем с гибкоцепными полимерами. Саратов.:СарГУ 1995.

5.”Umumiy fizika kursi” 1-qism I.V.Savelev 1979.

Foydalanilgan internet saytlari

1. http:// www.Ilmiy.uz;
2. http:// www.IIAU Digital library.uz;
3. http:// www.Ziyo.uz;
4. http:// www.TDPU.uz;

MOLEKULYAR KUCHLAR VA ICHKI ISHQALANISH

Sobirova Gulnoza Olim qizi
Qarshi davlat texnika universiteti stajyor o`qituvchi

Annotatsiya: *Suyuqliklar, qattiq jismlar va gazlarda itaruvchi va tortuvchi kuchlar, ichki ishqalanishni yuzaga kelishi, yopishqoqlik darajasi, jismni deformatsiyalovchi tashqi kuchlar, qattiq jismlarning yog`lash xossasi, gazlarning yopishqoqligini oshirish.*

Abstract: *Repulsive and attractive forces in liquids, solids, and gases, the occurrence of internal friction, the degree of viscosity, external forces deforming a body, the lubricating properties of solids, increasing the viscosity of gases.*

***Kalit so`zlar:*** *tortishish kuchi,molekulaning erkin yugurish yo`li, yopishqoqlik darajasi.*

Keywords: *gravitational force, molecular free path, viscosity.*

Gazlarning suyuqlik va qattiq jismlardan asosiy farqi: gazlar cheksiz kengayishga intiladi hamda faqat atrofdagi jismlarning, masalan, idish devorlarining qarshilik ko`rsatish tufayligina ma`lum bir hajmni egallaydi.Qattiq jism va suyuqliklarni siqqanda ham,cho`zganda ham ularni qarshilik ko`rsatib,ma`lum bir hajmni egallashga nima majbur qilishini aniqlaylik.

Molekulalar bir-biriga juda yaqin kelib qolganida, ularning bir-birini itarish kuchlari ustublik qiladi. Molekulalar bir-biridan uzoqlashgan sari tortish ham, itarish ham juda tez kamayadi.Ammo itarish kuchlari tortish kuchlariga qaraganda tezroq kamayadi. Shuning uchun ma`lum bir masofada tortish ham itarish kuchlari baravar bo`lib qolib, bir-birini muvozanatlaydi. Yanada uzoqroqda tortish kuchlari itarish kuchlaridan ustunlik qilib qoladi. Bu holda molekulalar orasida tortish kuchlari ta`sir qiladi.Ammo to`xtovsiz harakat qilib molekulalar goh bir-biriga yaqin kelib qoladilar,goh uzoqlashib ketadilar. Shuning uchun jismning ayrim qismlarida molekulalar bir-birini tortadi, ba`zi qismlarida itaradi. Molekulalarning ayrim ham juda kichkina qismlarida bir-biriga yaqin kelish ham uzoqlashuvlari jismning umumiy hajmiga ta`sir qilmaydi.Ma`lum bir temperaturada ham jismni deformatsiyalovchi tashqi kuchlar bo`lmaganida uning hajmi o`zgarmaydi.Agar biz jismni deformatsiyalasak: siqsak yoki cho`zsak nima bo`ladi? Unda harakat qilishlari

natijasida molekulalarning jismning bir qismida bir-biriga yaqin kelib,ikkinchi qismida uzoqlashib qolishlari sababli ular tamoman bir-birining o`rnini bosmaydi. Umuman olganda jism kengayishga yoki torayishga intiladi.

Har xil moddalarning molekulalarining bir-biriga tortilish kuchlari har xil bo`ladi; har xil moddalarning qattiqligi har xil bo`lishi xuddi o`shandan kelib chiqadi. Nima uchun gaz molekulalari o`rtasida bir-birini tortishish kuchlari ro`y bermasligini ko`rib chiqaylik; gazlarning molekulalari o`rta hisob bilan olganda, qattiq jism va suyuqlik molekulalariga qaraganda ancha uzoq bo`ladi. Molekulyar kuchlar esa juda ham kam masofalardagina ta`sir qiladi.Gazlar- molekulalar to`plami bo`lib,bu molekulalar bir-biridan shunday uzoq masofada joylashgandirki, bular bir-birini tortmaydi deb hisoblash mumkin.Gaz molekulalari faqat to`qnashganlaridagina bir-birini tortadi va itarishadi. Bundan qolgan ko`p vaqtda ular inersiya qonuniga muvofiq to`g`ri chiziq bo`ylab tekis harakat qiladilar. Molekulalarning bir to`qnashuvdan,ikkinchi to`qnashuvgacha o`tgan yo`li molekulaning erkin yugurish yo`li deyiladi.

Qattiq jismlarning molekulalari ma`lum bir tomonga birozgina siljib qat`iy ma`lum joylari atrofida harakat qiladilar. Biroq qattiq jismlarning bir qancha molekulalari har holda bir joydan ikkinchi joyga ko`chadilar. Suyuqliklar eng murakkab tuzilishga ega.Suyuqliklarning tuzilishi qattiq jismlarning tuzilishi bilan gazlarning tuzilishi o`rtasidadir. Suyuqliklar juda mayda qismlardan iborat bo`lib, bu qismlarda molekulalar qattiq jismlardagidek ma`lum bir vaqt davomida bir-biriga nisbatan olgan vaziyatlarini saqlasalar kerak, deb faraz qilinadi. Bu qismlar shuncha maydaki, bevosita tajriba qilish yo`li bilan ularni topib bo`lmaydi. Bu qismlarning orasidagi molekulalar gaz molekulalaridek bir-biriga nisbatan olgan vaziyatlarini saqlamasdan harakat qiladilar. Suyuqliklarning oquchanligi mana shu oraliqlarning bo`lishidan kelib chiqadi.

Qattiq jismlar bir-biri ustidan ikkinchisi sirg`anganida maydonga keladigan tashqi ishqalanishdan tashqari qattiq jismlarda ham,suyuqliklarda ham,hattoki gazlarda ham,ichki ishqalanish ro`y beradi. Ichki ishqalanish deb, moddaning bir ichki qatlamining ikkinchi qatlam bo`ylab sirg`anish tezligini kamaytiradigan kuchlar paydo bo`lishiga aytiladi.Ishqalanishning bu xilini, masalan, asalga botirilgan pichoqni ko`tarib ko`rganda kuzatish mumkin. Bunda asalning pichoqqa bevosita tegib turgan qatlamigina emas, balki undan uzoqroqdagi qatlamlar ham ergashib ko`tariladi.

Jismlarning ichki ishqalanish kuchlari maydonga kelishiga sabab bo`lgan xossasi ularning yopishqoqligidir.Har xil moddalarning yopishqoqlik darajasi har xil bo`ladi.Ba`zi moddalar harakat qilganida paydo bo`lgan ichki ishqalanish kuchlari zaif

bo`lib, bunday moddalar teshik va turbalardan ozgina bosim ostida ham tez oqadi.Ba`zi moddalar sekingina harakat qilganida ham ichki ishqalanish katta bo`lib, bunday moddalar faqat katta bosim ostidagina oqadi. Yopishqoqlik darajasi eng kam bo`lgan moddalar- gaz holidagi moddalardir.

Suyuqliklar ancha yopishqoq bo`ladi, shu bilan birga ularning yopishqoqligi o`rtasida farq juda katta: yopishqoqligi g`oyat katta bo`lgan var,smoladir.Yopishqoqligi juda kam bo`lgani esa suv,spirt va benzindir. Qattiq jismlar eng yopishqoqdir.Ko`pincha metall buyumlarni press ostida shtamplashda qo`llaniladi. Temperatura ko`tarilganda suyuqliklar va qattiq jismlarning yopishqoqligi juda tez kamayadi. Gazlarda esa, buning aksincha, temperatura ko`tarilganida yopishqoqlik oshadi.

Ichki ishqalanishni qanday tushunish kerak? Qattiq jism va suyuqliklarning ichki ishqalanishi molekulalarning bir-birini tortish kuchining ro`yobga chiqishidan iborat bo`lib, moddaning issiqlikdan kengayish vaqtida unga bog`liq holda molekulalar orasidagi o`rtacha uzoqlik ortadi, tortish kuchi esa kamayadi. Tuzilishi murakkab bo`lgan molekulalarning turli uchlaridagi ikkinchi molekulaga tortilish kuchlari har xil bo`lishi: molekulaning uchlaridan bittasi qo`shni molekulalarga kuchliroq tortilishi, ikkinchisi esa kuchsizroq tortilishi mumkin. Bunday moddalarning yog`lash xossasi bo`ladi, ya`ni qattiq moddalarning orasiga kirib qolganida ular ishqalanishni juda ham kamaytiradi. Ikkita qattiq sirt o`rtasidagi yog` qatlami bir-biriga navbatma-navbat aktiv ham inert uchlari bilan qaragan qatlamlar ravishida joylashadi. Harakat vaqtida molekulalar bir-biriga enert uchlari bilan tekkan joylarda sirg`anish bo`ladi. Molekulalarning aktiv uchlari qattiq jismga yoki molekulalarning ikkinchi qatlamiga qaragan bo`ladi, bular biri ustidan ikkinchisi sirg`anmaydi. Inert uchlarning tortishish kuchi kam bo`lganidan yog`lovchi qatlamda ishqalanish kam bo`ladi.

Gaz molekulalarning bir-birini tortish kuchi yuqorida aytilganidek, juda kichkina rol o`ynaydi va gazdagi ichki ishqalanish, ularning ichki diffuziyasiga bog`liqdir. Bir qatlamdagi molekulalar ikkinchi qatlamga kirib qolib, undagi molekulalar bilan to`qnashadilar va birinchi qatlamda olgan harakat miqdorining bir qismini ularga beradilar. Buning natijasida birinchi qatlamning tezligi kamayadi, ikkinchi qatlamniki oshadi, ya`ni birinchi qatlam ikkinchini o`ziga ergashtiradi. Temperatura oshganida molekulalarning harakati chaqqonlashadi, bu esa gazlarning yopishqoqligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.”Fizika” pedagogik bilim yurtlari uchun darslik.D.I.Saxarov 1951.

2.”Fizika” maxsus o`rta o`quv yurtlari uchun darslik.L.S.Jdanov 1979.

3.Цветков В.Н. Жесткоцепные полимерные молекулы. Л.:Наука. 1986.

4. Кленин В.И. Термодинамика систем с гибкоцепными полимерами. Саратов.:СарГУ 1995.

Foydalanilgan internet saytlari

1. http:// www.Ilmiy.uz;
2. http:// www.IIAU Digital library.uz;
3. http:// www.Ziyo.uz;
4. http:// www.TDPU.uz;

FOTOELEKTRIK PANELLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Toshpo‘latov Nusratillo Telmanovich
«TIQXMMI» Milliy tadqiqot universiteti dotsenti, t.f.n.
Rajabov Jamoliddin Baxtiyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston sharoitida amaliy qo‘llanilayotgan 550 W quvvatli to‘rtta fotoelektrik panel — Resun Solar, Jinko Solar, Trina Solar va Hz Solar — ning real maydon sharoitidagi energiya samaradorligi qiyosiy baholandi. Tadqiqot 2025-yilda Toshkent shahridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya poligonida o‘tkazildi. Panellar bir xil balandlikda, 30° burchak ostida va bir xil radiatsiya sharoitida joylashtirildi. Quvvat, energiya balansi, radiatsiya intensivligi, panel va atrof-muhit harorati hamda I–V ko‘rsatkichlari ECOSUN NOVA LED Sun Simulator, Solmetric SolSensor va PVA-1000C I–V Curve Tracer yordamida o‘lchandi. Natijalarga ko‘ra, Jinko Solar kunlik yig‘indi quvvat va yuqori haroratdagi barqarorlik bo‘yicha eng yaxshi natijani ko‘rsatdi; Trina Solar unga juda yaqin bo‘ldi. Tadqiqot mahalliy iqlimda panel tanlash, montaj qilish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *quyosh panellari, fotoelektr tizimlar, P_{max}, radiatsiya intensivligi, harorat koeffitsiyenti, ECOSUN NOVA, SolSensor, PVA-1000C, PV modullar, real ish rejimi, O‘zbekiston iqlimi.*

Abstract. *This study compares the real-field energy performance of four commercial 550 W photovoltaic modules widely used in Uzbekistan: Resun Solar, Jinko Solar, Trina Solar and Hz Solar. The experiment was conducted in 2025 at the outdoor test facility of the National Research Institute of Renewable Energy Sources in Tashkent. The modules were installed at the same height, with a 30° tilt angle, and operated under identical irradiance conditions. Power output, energy balance, irradiance, module and ambient temperature, and I–V characteristics were measured using ECOSUN NOVA LED Sun Simulator, Solmetric SolSensor, and PVA-1000C I–V Curve Tracer. The results show that Jinko Solar achieved the highest daily energy yield and the most stable behavior under elevated temperatures, while Trina Solar demonstrated a closely comparable performance. The findings provide practical*

evidence for module selection, installation, and operation under the hot and dry climatic conditions of Uzbekistan.

Keywords: *solar panels, photovoltaic systems, maximum power, irradiance, temperature coefficient, field testing, Uzbekistan climate, PV module comparison.*

1. Kirish

Bugungi kunda global miqyosda energiya resurslariga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir paytda, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, xususan quyosh energiyasidan foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Quyosh energiyasi — ishlab chiqarilishi oson va sodda, ekologik xavfsiz va toza, ko‘lami keng va miqdori cheksiz, iqtisodiy tejamli va samarador muqobil energiya manbai hisoblanadi. Sanoat, ishlab chiqarish va aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini qondirish hamda ta’minotini barqarorlashtirish, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan energiya ishlab chiqarish va energetik xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida ko‘plab davlatlarda, jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham quyosh fotoelektrik tizimlarini joriy etish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan qator farmonlar va qarorlar qabul qilingan va ular amaliyotga izchil joriy etilmoqda [2]. Quyosh fotoelektrik stansiyasi (FES) ning asosiy komponenti quyosh fotoelektrik paneli (FEP) bo‘lib, u quyosh nurlarini o‘zgarmas tok (direct current – D.C.) dagi elektr energiyasiga aylantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ko‘plab FEPlar statsionar holatda o‘rnatilganligi bois, quyoshdan unga tushadigan nurlarning optimal burchagini e’tiborga olish talab etiladi. Chunki quyosh nurining intensivligi FEP tomonidan yetarli miqdorda yutilmaydi. Natijada FEPning energiya ishlab chiqarish samaradorlik koeffitsientiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. FEP yuzasiga tushadigan nur oqimining yo‘nalishi 90° burchak ostida bo‘lganda maksimal yutiladi va energiya samaradorligi yuqori bo‘ladi. Bunga erishish uchun panellarni quyosh trayektoriyasiga mos burchak ostida burish imkoniyatiga ega bo‘lgan mexanizm bilan jihozlash, FEPlarni sferik yuzali asos ustiga joylashtirish kabi usullar bilan nur yutish intensivligiga erishish mumkin. Bundan tashqari, FEPni o‘rnatish joyini to‘g‘ri tanlash ham muhim va bu FEPdan olinadigan tok, kuchlanish, quvvat va foydalanish davomiyligi kabi parametrlarga ta’sir etadi [3].

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ichida fotoelektrik texnologiyalar eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ularning sanoat, kommunal va xonadon darajasida qo‘llanilishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Biroq quyosh panelini tanlash masalasi faqat ishlab chiqaruvchi pasportidagi STC ko‘rsatkichlariga tayangan holda hal etilishi ilmiy jihatdan yetarli emas. Real ekspluatatsion samaradorlik hududning iqlimi, sutkalik va mavsumiy irradiatsiya rejimi, modulning haroratga sezgirligi, changlanish, montaj burchagi va konstruktiv joylashuvga bevosita bog‘liq. [4] [7] [13]

Xalqaro adabiyotlarda turli PV texnologiyalarini bir xil real tashqi sharoitda taqqoslashga bag‘ishlangan qator muhim ishlar mavjud. Janubiy Ispaniya sharoitida bir yil davomida olib borilgan tadqiqotda turli texnologiyadagi modullar bir xil sharoitda sinab ko‘rilib, ayrim *thin-film* modullar ma’lum fasllarda polikristalli kremniy modullardan yuqori natija berishi ko‘rsatildi. Hindiston iqlimida esa HIT va a-Si modullar ayrim holatlarda p-Si modullarga nisbatan 4–12% ko‘proq energiya ishlab chiqargani qayd etilgan. Issiq va og‘ir iqlimlarga bag‘ishlangan tadqiqotlar modul tanlovida harorat koeffitsiyenti, performance ratio va real energiya hosili hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. [4] [5] [6]. Bugungi kunda FESga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. O‘zbekistonda quyosh energiyasi salohiyati yiliga 3200 soatdan ortiqni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori darajada hisoblanadi. 2024 yil holatiga ko‘ra quyosh FESlarining umumiy salohiyati 2,5 GWga yetgan va bu ko‘rsatkich 2030 yilgacha 8–10 GWgacha oshirilishi kutilmoqda [18].

Shu bilan birga, xalqaro adabiyotlarda asosan texnologiyalararo yoki mintaqalararo taqqoslashlarga katta e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida aynan bir xil nominal quvvatga ega, bozorda amalda qo‘llanayotgan tijoriy modullarni bir xil montaj sharoitida qiyosiy baholash bo‘yicha ishlar yetarli emas. Ayniqsa Toshkent shahrida xos issiq-quruq iqlim, yuqori yozgi harorat, changlanish va irradiatsiya rejimi sharoitida qaysi marka va modeldagi panel maqsadga muvofiqroq ekani bo‘yicha mahalliy eksperimental dalillar bazasi cheklangan. Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston amaliyotida keng uchraydigan Resun Solar, Jinko Solar, Trina Solar va Hz Solar kompaniyalarining 550 W quvvatli modullarini bir xil maydon sharoitida sinovdan o‘tkazish, ularning energiya balansi, haroratga sezgirligi va real ish samaradorligini qiyoslash hamda mahalliy iqlim uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Quyidagilar o‘rganildi

Mavzuga bevosita yaqin bo‘lgan 10 ta xalqaro tadqiqot mazmuni qisqa tahlil qilindi; ularda bajarilgan ishlar, qo‘llangan usullar va mazkur maqola bilan metodologik yaqinlik alohida ko‘rsatildi.

1. Cañete, Carretero va Sidrach-de-Cardona Janubiy Ispaniyada a-Si, a-Si/μc-Si, CdTe va pc-Si modullarini bir yil davomida bir xil tashqi sharoitda solishtirib, kunlik energiya chiqishi, performance ratio va samaradorlikni baholagan, irradiatsiya hamda modul harorati asosida empirik model taklif qilgan [4].
2. Sharma, Kumar, Sastry va Chandel Gurgaon sharoitida p-Si, HIT va a-Si modullarini 28° qiyalik ostida bir yil kuzatib, energy yield, array yield, reference yield hamda

performance ratio ko‘rsatkichlarini IEA/IEC amaliyoti asosida hisoblagan, natijalarni simulyatsiya bilan solishtirgan. Bu tadqiqotda issiq davrda harorat yo‘qotishi kichikroq bo‘lgan texnologiyalar ustun kelgani ko‘rsatilgan [5].

3. Tossa va hammualliflar Sudano-Sahelian issiq-quruq iqlimida mono-Si, poly-Si va mikromorf kremniy modullarini bir yil davomida “IV bench” monitoring orqali baholab, performance ratio, ketma-ket qarshilik va maksimal quvvatning harorat koeffitsiyentini asosiy mezon sifatida olgan. Natijada issiq muhitda modul tanlovi real quvvat yo‘qotishlari va termik sezgirlik bilan belgilanadi degan xulosa chiqarilgan [6].

4. Gulkowski, Zdyb va Dragan Sharqiy Polshada CdTe, CIGS va pc-Si modullarini 5 daqiqalik sinxron o‘lchovlar asosida, IEC 61724-1 yondashuvi bilan tahlil qilib, ishlab chiqaruvchi bergan STC samaradorligi real tashqi sharoitda pasayishini ko‘rsatgan. CIGS texnologiyasining nisbatan yuqori energy yield va performance ratio ko‘rsatishi, bizning ishdagi kabi, modulni pasport quvvatiga emas, balki dala sharoitidagi foydali natijaga ko‘ra baholash zarurligini tasdiqlaydi [7].

5. González-Moreno, Mazzeo, Dolara, Ogliari va Leva Milan sharoitidagi sanoat tomiga o‘xshash maydonda bifatsial va monofatsial modullarni outdoor I–V o‘lchovlari orqali taqqoslab, bifatsial gain miqdorini hamda konstruksiyaning orqa tomondagi yoritilishga ta’sirini aniqlagan [8].

6. Limmanee va hammualliflar Tailand tropik iqlimida besh xil tijoriy modulning field performance va degradatsiya tezligini ko‘p yillik kuzatuv asosida tahlil qilib, performance ratio, I–V parametrlari, fill factor, Voc, Isc va P_{max} o‘zgarishini birgalikda baholagan. Harorat koeffitsiyenti qulay bo‘lgan modullar issiq hududda yaxshiroq ishlashi haqidagi xulosa bizning natijalardagi Jinko modulining barqarorroq xulqini ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi [9].

7. Othman va Hatem Cairo sharoitida pc-Si, mc-Si hamda CdTe tizimlarini 2013–2020 yillar oralig‘ida kuzatib, hosil, modul samaradorligi, degradatsiya sur’ati va dasturiy prognozlar aniqligini solishtirgan. Ushbu ish issiq-quruq iqlimda qisqa muddatli natijalar bilan bir qatorda uzoq muddatli barqarorlik va software-based validation ham muhim ekanini ko‘rsatadi [10].

8. Kivambe va hammualliflar Qatar cho‘l iqlimida PERC, TOPCon va SHJ modullarini qariyb uch yil davomida dala monitoringi, indoor laborator sinovlari, elektroluminessensiya va ultraviolet fluorescence kuzatuvlari bilan kompleks baholagan. Ular yillik energiya, performance ratio va degradatsiyani birgalikda tahlil qilib, yuqori energiya doimo eng yaxshi uzoq muddatli variant emasligini ko‘rsatgan [11].

9. Jayawardene va hammualliflar identik mono-Si monofatsial va bifatsial panellarni Oslo, Sevilla va Tozeur kabi keskin farqlanuvchi iqlimlarda modul-darajali monitoring

asosida qiyoslab, iqlim, albedo va modul arxitekturasi yillik energiyaga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan [12].

10. Khodakaram-Tafti, Yaghoubi va Ferrantelli yarim qurg‘oqchil hududda 0°, 15°, 30° va 45° qiyaliklarda o‘rnatilgan modullarni toza va changlangan juftliklar ko‘rinishida 8 oy davomida kuzatib, tilt burchagi, PM10, yog‘ingarchilik va ishchi harorat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan [13].

Ushbu manbalar umumiy holda quyosh panelini tanlashda nominal quvvatning o‘zi yetarli emasligini, outdoor monitoring, harorat koeffitsiyenti, montaj geometriyasi, changlanish va uzoq muddatli barqarorlik birgalikda ko‘rib chiqilishi kerakligini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada esa ana shu ilmiy yondashuv O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilayotgan 550 W li tijoriy modullarning real maydon natijalari bilan asoslanadi.

2. Materiallar va usullar

Tadqiqotlar 2025-yilda Toshkent shahridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy tadqiqot instituti tajriba-sinov laboratoriyasi poligonida joylashgan trekker qurilmasida o‘tkazildi. Asosiy sinov kuni sifatida 2025-yil 8-aprel tanlanib, o‘lchovlar 07:00 dan 18:00 gacha davom ettirildi. Barcha panellar bir xil balandlikda, old tomoni 120 sm va orqa tomoni 180 sm balandlikda, 30° qiyalik ostida joylashtirildi. Trekker panellarni quyosh traektoriyasiga mos ravishda avtomatik burib bordi [19]. Sinov obyekti sifatida to‘rtta modul tanlandi: Resun Solar RS8I-M (535–560), Jinko Solar JKM550N-72HL4-BDV, Trina Solar Vertex 550 W va Hz Solar 550 W sinfidagi modul. Barcha modullar bir xil nominal quvvat sinfiga mansub bo‘lib, harorat koeffitsiyenti va konstruktiv parametrlari bo‘yicha farqlanadi. Aynan shu farq ularning issiq-quruq iqlimdagi amaliy ishlashini qiyoslash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi [16] [17] [18]. O‘lchovlarda uchta asosiy uskuna qo‘llanildi: ECOSUN NOVA LED Sun Simulator — laboratoriya sharoitida PV modullarni sinash uchun; Solmetric SolSensor — real vaqt rejimida quyosh nurlanishini monitoring qilish uchun; PVA-1000C I–V Curve Tracer — quvvat, kuchlanish, tok va ish nuqtasini aniqlash uchun. Olingan ma’lumotlar asosida quvvat, energiya balansi, radiatsiya va harorat dinamikasi tahlil qilindi [14] [15]. Hisob-kitoblarda kunlik yig‘indi quvvat, o‘rtacha quvvat, solishtirma ustunlik foizi va nazorat sanalari bo‘yicha 13:00 dagi quvvat dinamikasi asosiy ko‘rsatkich sifatida qabul qilindi. Tahlilda natijalarning fizik mantiqqa mosligi, ya’ni harorat oshishi bilan quvvat kamayishi va pastroq manfiy harorat koeffitsiyentiga ega modullarning ustunligi alohida baholandi. [19] [20]

2.1-jadval. Foydalanilgan uskunalar

Uskuna	Vazifasi	Asosiy qo‘llanish sohasi
ECOSUN NOVA LED Sun Simulator	Laboratoriya sinovi	PV modulning I–V xarakteristikasi va STC ga yaqin sharoitdagi sinovi

Solmetric SolSensor	Radiatsiyani o‘lchash	Real vaqt rejimida quyosh nurlanishini monitoring qilish
PVA-1000C I–V Curve Tracer	Elektr parametrlarini o‘lchash	Quvvat, kuchlanish, tok va ish nuqtasini aniqlash

2.2-jadval. Sinovdan o‘tkazilgan panellarning pasport ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Resun Solar	Jinko Solar	Trina Solar	Hz Solar
Maksimal quvvat, P_{max}	550 Wp / 414 Wp	550 Wp / 414 Wp	550 Wp / 416 Wp	550 Wp / 416 Wp
Maksimal quvvat toki, I_{mp}	12.96 A	13.23 A / 10.57 A	17.29 A	13.04 A
Maksimal quvvat kuchlanishi, V_{mp}	41.96 V	40.99 V	31.8 V	42.20 V
Modul samaradorligi (STC)	21.01 %	21.29 %	21.0 %	21.2 %
Maksimal tizim kuchlanishi	1000 V DC	1500 V DC (IEC)	1500 V DC (IEC)	1500 V DC (IEC)
P_{max} harorat koeffitsiyenti	-0.39 %/°C	-0.30 %/°C	-0.34 %/°C	-0.34 %/°C
Og‘irligi	29.0 kg	27 kg	32.3 kg	26 kg

3. Natijalar: Nazorat o‘lchovlari dinamikasi

01.04.2025 kuni olingan asosiy sutkalik natijalar barcha to‘rtta panelning radiatsiya ortishi bilan quvvati oshishini va 12:00–13:00 oralig‘ida maksimal qiymatlarga yaqinlashishini ko‘rsatdi. Kunlik yig‘indi quvvat bo‘yicha Jinko Solar 3731.61 W bilan birinchi o‘rinni egalladi; Trina Solar 3704.03 W, Hz Solar 3608.31 W va Resun Solar 3511.76 W natija qayd etdi. Shunday qilib, Jinko Solar Resun’ga nisbatan 6.26 %, Trina’ga nisbatan 0.74 % va Hz’ga nisbatan 3.42 % ustunlik ko‘rsatdi. Turli sanalardagi nazorat o‘lchovlari ham umumiy tendensiyani tasdiqladi: 13:00 dagi quvvat qiymatlari 460–521 W diapazonda o‘zgardi. Eng past ko‘rsatkich 01.07.2025 kuni, yuqori havo harorati (44 °C) sharoitida kuzatildi. Bu holat panel qizishi natijasida P_{max} pasayishini ko‘rsatadi va harorat koeffitsiyentining amaliy tanlovda muhimligini tasdiqlaydi. Panel harorati bo‘yicha sutkalik profil tahlili kunning eng issiq vaqtida modul yuzasi harorati 39–40 °C atrofida bo‘lganini ko‘rsatdi. Bunday sharoitda Jinko Solar va Trina Solar nisbatan yuqori kuchlanish va quvvat barqarorligini saqlab qoldi.

Resun Solar erta tonggi va o‘rta radiatsiyali sharoitlarda barqaror bo‘lsa-da, yuqori haroratda quvvat yo‘qotishi ko‘proq bo‘ldi.

3.1-jadval. Sutkalik energiya balansi va meteorologik ko‘rsatkichlar

Vaqt	Resun, W	Jinko, W	Trina, W	Hz, W	Radiatsiya, W/m²	Havo harorati, °C
07:00	121	128	125	118	586	15
08:00	226.3	289.6	285.3	256.1	615	18
09:00	300.1	308	309	308.56	725	15.6
10:00	408.8	412.1	410.9	409.2	810	20.5
11:00	466.8	483.0	482.5	465.8	980	23.1
12:00	520.5	520.12	521.2	520.25	1003	25.2
13:00	482.2	489.2	485.6	484.3	950	25.1
14:00	331.25	389.25	382.54	375.65	898	26.3
15:00	231.1	226.8	234.5	230.5	501	25.8
16:00	225.4	231.5	231.47	221.56	450	26.8
17:00	181.5	206.1	200.5	195.54	390	22.8
18:00	16.81	47.94	35.52	22.85	291	19.1
Jami	3511.76	3731.61	3704.03	3608.31	8199	-



1-rasm. Sutka davomida quvvatning o‘zgarishi

3.2-jadval. Turli sanalardagi nazorat o‘lchovlari (*01.04.2025–30.09.2025 o‘lchov vaqti: 13:00)*

Sana	Resun, W	Jinko, W	Trina, W	Hz, W	Radiatsiya, W/m²	Havo harorati, °C
01.04.2025	520.5	520.12	521.2	520.25	1003	25.2
16.04.2025	512.23	513.4	513.65	512.89	998	38
01.05.2025	509.11	501.54	510.1	510.0	985	39.2
16.05.2025	489.14	492.74	492.88	491.87	995	40.12
01.06.2025	495.6	495.8	495.8	495.3	991	41.3
16.06.2025	481.5	482.4	482.9	482.1	981	42.5
01.07.2025	478.6	479.2	478.9	478.1	966	43.9
16.07.2025	486.2	487.5	487.1	486.9	989	42.5
01.08.2025	461.2	462.1	460.7	460.9	971	44
16.08.2025	498.2	500.1	499.9	499.5	998	39
01.09.2025	502.6	503.8	503.9	503.5	1001	38
30.09.2025	506.2	506.9	505.4	505.8	1002	38
Jami	5941.08	5945.60	5952.43	5947.11	-	-

3.3-jadval. Yakuniy qiyosiy baholash

Panel	Kunlik yig‘indi, W	O‘rtacha quvvat, W	P_{max} harorat koeff., %/°C	Amaliy baho
Resun Solar	3511.76	292.65	-0.39	O‘rtacha; ertalabki sharoitda barqaror, yuqori haroratda yo‘qotish ko‘proq
Jinko Solar	3731.61	310.97	-0.30	Eng maqbul; yuqori haroratda eng barqaror va kunlik yig‘indi bo‘yicha yetakchi
Trina Solar	3704.03	308.67	-0.34	Yuqori radiatsiyada kuchli; umumiy natija Jinko paneliga juda yaqin
Hz Solar	3608.31	300.69	-0.34	O‘rtacha-yaxshi; barqaror, biroq yetakchi emas

4. Muhokama

Panel samaradorligi STC pasport qiymatlaridan ko‘ra ko‘proq real irradiatsiya va modul haroratiga bog‘liq. Jinko Solar modulining nisbatan qulay P_{max} harorat koeffitsiyenti (-0.30 %/°C) uning yuqori haroratli sharoitda barqaror ishlashini izohlab beradi. Trina Solar juda yaqin natija ko‘rsatgani sababli, amaliy tanlovda u ham raqobatbardosh variant hisoblanadi. Tadqiqotning kuchli jihati — bir xil montaj burchagi, bir xil vaqt oralig‘i va bir xil radiatsiya sharoitida olib borilgan qiyosiy dala sinovidir. Bundan tashqari, laboratoriya va outdoor usullarining birgalikda qo‘llanilishi natijalarni fizik jihatdan asoslash imkonini berdi. Shu bilan birga, kuzatuv davri bir yillik uzluksiz monitoring darajasiga yetmaganligi va soiling, shamol, invertor yo‘qotishlari hamda uzun muddatli degradatsiya alohida modellashtirilmaganligi ishning asosiy cheklovlari sifatida qayd etilishi lozim.

4.1-jadval. Tadqiqotning SWOT tahlili

Toifa	Tahlil
Kuchli jihatlar	Real maydon sharoitida o‘lchovlar o‘tkazildi; panellar bir xil burchak va bir xil radiatsiya sharoitida sinovdan o‘tkazildi; zamonaviy uskunalardan foydalanildi.
Zaif jihatlar	Tadqiqot davri cheklangan; mavsumiy va ko‘p yillik degradatsiya tahlili kiritilmagan; barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘liq ochilmagan.
Imkoniyatlar	Natijalarni Toshkent, Voha va o‘xshash iqlimli hududlar uchun panel tanlash metodikasiga aylantirish mumkin.
Xavflar	Changlanish, soyalanish, invertor mosligi va uzoq muddatli ekspluatatsiya omillari e’tibordan chetda qolsa, natijalar to‘liq umumlashtirilmasligi mumkin.

5. Xulosa

Olingan natijalar O‘zbekiston sharoitida turli ishlab chiqaruvchilarga mansub 550 W quvvatli fotoelektrik panellarning real maydon samaradorligi sezilarli farq qilishini ko‘rsatdi. Kunlik umumiy quvvat, yuqori radiatsiya sharoitidagi natijalar va harorat barqarorligi bo‘yicha Jinko Solar eng yaxshi ko‘rsatkichni berdi. Trina Solar ikkinchi o‘rinda, Hz Solar va Resun Solar esa keyingi pozitsiyalarda qayd etildi. Radiatsiya 900–1000 W/m² diapazonga yetganda barcha panellar maksimal quvvatga yaqin ishladi, biroq atrof-muhit va panel harorati oshishi bilan quvvatning kamayishi kuzatildi. Demak, panel tanlashda nominal quvvat bilan bir qatorda harorat

koeffitsiyenti, maksimal tizim kuchlanishi, konstruktiv xususiyatlar va hududiy iqlim sharoiti hisobga olinishi shart. Amaliy tavsiya sifatida, issiq-quruq hududlar uchun Jinko Solar eng maqbul variant sifatida tavsiya etiladi; Trina Solar esa yuqori irradiatsiya sharoitida raqobatbardosh alternativ hisoblanadi. Kelgusida tadqiqotni mavsumiy monitoring, degradatsiya tahlili va ishonchlilik ko‘rsatkichlari bilan kengaytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Z. M. Boranbayeva, “O‘zbekiston sharoitida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining istiqbollari va rivojlanish yo‘nalishlari,” pp. 34–36, 2025.

[2] Q. F. Ergash, T. S. Kamoliddin, N. S. Ergash, and T. Qarshi, “O‘zbekistonda quyosh va shamol energiyasidan,” vol. 3, no. 01.

[3] Y. Marniati, H. Yani, N. Nofiansah, and S. Siswandi, “The Effectiveness of Solar Panels from the Installation Location,” Proceedings of the 5th FIRST T1 T2 2021 International Conference (FIRST-T1-T2 2021), vol. 9, pp. 206–211, 2022, doi: 10.2991/ahe.k.220205.036.

[4] C. Cañete, J. Carretero and M. Sidrach-de-Cardona, “Energy performance of different photovoltaic module technologies under outdoor conditions,” Energy, vol. 65, pp. 295–302, 2014. DOI: 10.1016/j.energy.2013.12.013.

[5] Performance assessment of different solar photovoltaic technologies under similar outdoor conditions, Energy, vol. 58, pp. 511–518, 2013. DOI: 10.1016/j.energy.2013.05.068.

[6] Energy performance of different silicon photovoltaic technologies under hot and harsh climate, Energy, vol. 103, pp. 261–270, 2016. DOI: 10.1016/j.energy.2016.02.133.

[7] S. Gulkowski, A. Zdyb and P. Dragan, “Experimental efficiency analysis of a photovoltaic system with different module technologies under temperate climate conditions,” Applied Sciences, vol. 9, no. 1, art. 141, 2019. DOI: 10.3390/app9010141.

[8] Outdoor performance comparison of bifacial and monofacial photovoltaic modules in temperate climate and industrial-like rooftops, Applied Sciences, vol. 14, no. 13, art. 5714, 2024. DOI: 10.3390/app14135714.

[9] A. Limmanee et al., “Field performance and degradation rates of different types of photovoltaic modules: A case study in Thailand,” Renewable Energy, vol. 89, pp. 12–17, 2016. DOI: 10.1016/j.renene.2015.11.088.

[10] Assessment of PV technologies outdoor performance and commercial software estimation in hot and dry climates, Journal of Cleaner Production, vol. 340, art. 130819, 2022. DOI: 10.1016/j.jclepro.2022.130819.

[11] M. M. Kivambe et al., “Comprehensive assessment of performance and reliability of PERC, TOPCon and SHJ modules in desert climates,” Solar Energy, vol. 295, art. 113555, 2025. DOI: 10.1016/j.solener.2025.113555.

[12] Comparative analysis and trends in performance of identical PV panels under different climatic conditions, Solar Energy, vol. 307, art. 114349, 2026. DOI: 10.1016/j.solener.2026.114349.

[13] A. Khodakaram-Tafti, M. Yaghoubi and A. Ferrantelli, “Outdoor assessment and modeling of dust deposition impact on optimal tilt angle and operating temperature of photovoltaics,” International Journal of Environmental Science and Technology, vol. 22, pp. 16061–16078, 2025. DOI: 10.1007/s13762-025-06723-8.

[14] ECOSUN NOVA / ECOSUN CELL NOVA official product page (LED sun simulator). https://ecoprogetti.com/product/led-based-sun-simulator-for-solar-cell-ecosun-cell-nova/

[15] Solmetric PV Analyzer va SolSensor rasmiy user guide / product documentation. https://www.solmetric.com/wp-content/uploads/2023/06/Solmetric_PV_Analyzer_1500XX_Users_Guide_en.pdf

[16] Resun Solar official website. https://www.resunsolar.com/about-us/

[17] Jinko Solar official website. https://www.jinkosolar.com/en/site/about

[18] Trina Solar official website. https://www.trinasolar.com/en-glb/about-us

[19] IEC 61724-1:2021 summary page (PV system performance monitoring terminology, equipment, and methods). https://standards.iteh.ai/catalog/standards/iec/c9f32a26-b82a-4956-910c-4ede09fc6222/iec-61724-1-2021

[20] PV Performance Ratio explanatory page (PVPMC/Sandia). https://pvpmc.sandia.gov/modeling-guide/5-ac-system-output/pv-performance-metrics/performance-ratio/

2-SECTION

TA’LIM SOHASIDA SUN’IYLIK INTELLEKTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Shomirzoyev Farrux Akramovich
Samarqand Shahar 4-Son Texnikumi
shomirzayevfarrux218@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining o‘rni, tutgan mavqeyi va ahamiyati atroflicha ko‘rib chiqilgan. Sun’iy intellektning shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etish, pedagoglar faoliyatini avtomatlashtirish hamda ta’lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, AI texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda yuzaga kelayotgan akademik halollik, raqamli tengsizlik va etik muammolar hamda ularni bartaraf etish yechimlari yoritib berilgan.*

Annotation: *This article provides a comprehensive examination of the role, significance, and impact of artificial intelligence (AI) technologies in modern educational systems. It analyzes the potential of AI in enabling personalized learning, automating pedagogical processes, and enhancing overall educational quality. Furthermore, the article highlights the key challenges associated with AI integration—such as academic integrity, the digital divide, and ethical concerns—while proposing viable solutions for effective implementation.*

Kalit so‘zlar. *sun’iy intellekt, ta’lim tizimi, shaxsiylashtirilgan ta’lim, adaptiv ta’lim, raqamli transformatsiya, ChatGPT, akademik halollik, pedagokik texnologiyalar.*

Keywords. *artificial intelligence, educational system, personalized learning, adaptive learning, digital transformation, ChatGPT, academic integrity, pedagogical technology.*

Kirish.

XXI asrda texnologiyalarning shiddatli rivoji jamiyatning barcha jabhalariga, xususan, ta’lim tizimiga tub o‘zgarishlar olib kirmoqda. Zamonaviy ta’lim oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri — o‘quvchi va talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni berish, balki ularda tanqidiy fikrlash, mustaqil ta’lim olish hamda raqamli

ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari eng qudratli drayverlardan biriga aylandi.

ChatGPT, Claude, Google Gemini, Khanmigo kabi generativ sun’iy intellekt platformalari va adaptiv ta’lim tizimlarining paydo bo‘lishi an’anaviy ta’lim paradigmalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish, o‘qituvchilarning rutin ish hajmini kamaytirish va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalardan unumli va xavfsiz foydalanish ularning imkoniyatlari hamda xatarlarini chuqur ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishni tazo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ta’lim sohasida sun’iy intellektning o‘rni va ahamiyatini yoritib berish, ularning dars jarayoniga keltiradigan afzalliklarini va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni tizimli tahlil qilish hamda istiqbolli yo‘nalishlarni ko‘rsatib berishdan iborat.

Asosiy qism.

Shaxsiylashtirilgan va adaptiv ta’limni tashkil etishda SIning o‘rni. An’anaviy ta’lim modelining eng katta cheklovlaridan biri bu — "barcha uchun bir xil" (one-size-fits-all) yondashuvidir. Sinfda yoki auditoriyada har bir o‘quvchining idrok etish tezligi, tayyorgarlik darajasi va qiziqishlari turlicha bo‘ladi. Sun’iy intellekt platformalari esa har bir ta’lim oluvchining o‘zlashtirish dinamikasini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyasini (personalized learning path) yaratish imkonini beradi.

Adaptiv ta’lim platformalari (masalan, KNEWTON, Duolingo, Khan Academy) o‘quvchi topshiriqni qanday bajarayotganini real vaqt rejimida kuzatadi. Agar o‘quvchi topshiriqni tez va xatosiz bajarsa, tizim murakkabroq darajadagi savollarni taqdim etadi. Aksincha, o‘quvchi belgilangan mavzuda qiynalsa, AI qo‘shimcha tushuntirishlar, soddalashtirilgan mashqlar hamda vizual materiallarni taqdim etib, bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi.

O‘qituvchi faoliyatini raqamlashtirish va qo‘llab-quvvatlash. Sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallash uchun emas, balki uning eng yaqin yordamchisiga aylanish uchun xizmat qiladi. O‘qituvchi vaqtining sezilarli qismi rutin va ma’muriy topshiriqlarni (baholash, davomat, metodik hujjatlashtirish) bajarishga sarflanadi. AI texnologiyalarini joriy etish quyidagi yo‘nalishlarda pedagoglar faoliyatini yengillashtiradi:

Avtomatlashtirilgan baholash va tahlil: Test topshiriqlari, yozma ishlar hamda dasturlash kodi bo‘yicha topshiriqlarni avtomatik tekshirish va xatolarga aniq izohlar berish.

Dars loyihasini tuzish va kontent yaratish: O‘qituvchi bir necha daqiqa ichida belgilangan standartlarga mos dars rejalari, interaktiv topshiriqlar va visual taqdimotlar tayyorlashda AI imkoniyatlaridan foydalanadi.

Individual monitoring: AI o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish tendensiyasini tahlil qilib, qaysi talaba ortda qolayotganini oldindan bashorat qiladi va o‘qituvchiga o‘z vaqtida pedagogik aralashuv qilish imkonini beradi.

24/7 Virtual assistentlar va masofaviy ta’lim. Generativ til modellariga asoslangan virtual tutorlar va chat-botlar ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita bo‘lmoqda. O‘quvchilar darsdan tashqari vaqtlarda, uy vazifasini bajarish jarayonida tushunmagan savollariga soniyalar ichida javob olishlari mumkin. Bu jarayonda AI shunchaki tayyor javobni bermay, balki Sokratik muloqot usulida yetaklovchi savollar berish orqali o‘quvchini mustaqil mantiqiy fikrlashga va yechimni topishga undaydi.

Ta’limda sun’iy intellektni qo‘llashdagi mavjud muammolar va xatarlar. SI ta’lim tizimiga cheksiz imkoniyatlar yaratishi bilan birga bir qancha dolzarb muammolarni ham keltirib chiqarmoqda:

Akademik halollik va plagiat: Generativ AI vositalarining ommalashishi talabalar tomonidan insho, kurs ishi va topshiriqlarni mustaqil bajarmasdan, AIga yozdirib olish hollari ko‘payishiga olib keldi. Bu holat o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini susaytiradi.

Raqamli tengsizlik (Digital Divide): Yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy AI qurilmalariga ega bo‘lmagan hududlar va ijtimoiy qatlamlar ta’limda orqada qolishi xavfi mavjud.

Etik va axloqiy masalalar: AI algoritmlaridagi ma’lumotlar xolisligi (bias) hamda talabalarning shaxsiy ma’lumotlari konfidentsialligini ta’minlash muammosi ochiq qolmoqda.

Insoniy omilning kamayishi: Ta’lim faqatgina bilim berish emas, balki tarbiya, ijtimoiylashuv va emotsional muloqot jarayonidir. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqotni hech qanday algoritm to‘liq almashtira olmaydi.

Xulosa.

Sun’iy intellekt zamonaviy ta’lim tizimining uzviy qismiga va ta’lim sifatini oshirishning muhim omiliga aylanib bo‘ldi. Uning ta’limdagi o‘rni shaxsiylashtirilgan o‘qitish muhitini yaratish, pedagoglar mehnatini unumli qilish hamda bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda namoyon bo‘ladi. Namunali va samarali ta’lim muhitiga

erishish uchun sun’iy intellektni ta’limdan siqib chiqarish emas, aksincha, undan mas’uliyat bilan, etik normalarga rioya qilgan holda foydalanish madaniyatini shakllantirish lozim. Kelgusida "O‘qituvchi + AI" hamkorlik modeli ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy ustun bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence In Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.
2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An argument for AI in Education. London: Pearson.
3. UNESCO. (2021). AI and education: Guidance for policy-makers. Paris: UNESCO Publishing.
4. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(1), 39.
5. Selwyn, N. (2019). Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. Cambridge: Polity Press.
6. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.

ADAPTIVE TRUST-AWARE MULTI-CRITERIA DECISION METHOD FOR INTELLIGENT ASSESSMENT SYSTEMS

Doston Qobulov
Master's Student, Sharda University Uzbekistan
qobulovd1994@gmail.com

Abstract. *Adaptive assessment systems increasingly personalize testing through opaque models, leaving learners and educators unable to verify or contest consequential decisions. This paper designs, implements and evaluates a stakeholder-centred explainability framework mapping feature attribution and counterfactual explanations onto the four decision points of adaptive assessment: item selection, difficulty calibration, ability estimation and feedback generation. Following a design science approach, an explanation layer is implemented over an adaptive engine trained on a public dataset and evaluated in a controlled study measuring trust calibration, perceived fairness and acceptance. Results show that explainability can be integrated at negligible predictive cost while improving calibrated trust.*

Keywords: *Explainable artificial intelligence (XAI); adaptive assessment; trustworthy AI; trust calibration; digital learning environments; educational technology; learning analytic; human-centred AI*

1. Introduction

Adaptive assessment has become one of the most consequential applications of artificial intelligence in education. By continuously modelling learner performance, these systems select the next item, calibrate its difficulty, estimate ability and generate feedback in real time, delivering measurable gains in personalization and testing efficiency. Yet the models that achieve the strongest predictive performance deep knowledge tracing architectures, neural item response models and reinforcement-learned sequencing policies are largely opaque: their internal logic cannot be inspected by the learners who are assessed or by the educators who remain accountable for assessment outcomes. This opacity now collides with rising regulatory expectations, as educational assessment is classified as a high-risk use of AI under the European Union's AI Act.

The problem is therefore concrete. Stakeholders cannot verify whether an adaptation is pedagogically justified, contest an ability estimate, or detect when the system adapts for the wrong reasons for instance, guessing behaviour, disengagement or demographic proxies. Un-examined, this opacity threatens validity and fairness and produces un-calibrated trust: learners may over-rely on incorrect system judgements or dismiss correct ones, while educators cannot meaningfully exercise the oversight duties increasingly assigned to them.

The literature offers partial responses. Explainable AI (XAI) has matured into a distinct field, and education-specific frameworks such as XAI-ED have articulated the stakeholder, interface and pitfall considerations that distinguish educational explanations from generic ones. Trustworthy and explainable knowledge tracing models have been proposed, and systematic reviews of explainable learning analytics document steady growth. In parallel, human–AI interaction research has shown that explanation type and cognitive forcing determine whether trust becomes calibrated rather than merely elevated, and that counterfactual and attribution-based explanations can reduce overreliance. A specific gap remains. First, XAI-in-education research clusters around performance prediction and learning analytics dashboards; the adaptive assessment pipeline itself appears only incidentally. Secondly, the few explainability proposals touching assessment are conceptual or architecture-level; almost none report empirical evaluation of effects on trust calibration, perceived fairness or acceptance. Thirdly, trust-calibration findings from general human–AI interaction have not been validated in adaptive assessment, where decisions are sequential, high-stakes and time-constrained. The aim of this paper is to design, implement and empirically evaluate a stakeholder-centred explainability framework for AI-driven adaptive assessment that improves transparency, trust calibration and perceived fairness without degrading assessment validity. Four research questions follow: which XAI techniques are applicable to each decision point (RQ1); how explanation types and presentation strategies should be mapped to decision points to serve learners and educators (RQ2); to what extent post-hoc explanations can be integrated without degrading predictive performance or responsiveness (RQ3); and how the explanations affect trust calibration, perceived fairness and acceptance compared with a no-explanation baseline (RQ4). Theoretically, the paper contributes a taxonomy and mapping framework extending XAI-ED into assessment, and evidence on whether trust-calibration theory transfers to sequential, high-stakes educational assessment; practically, it contributes a reproducible prototype and design guidelines aligned with emerging compliance duties.

2. Methods

2.1 Research design

The study adopts Design Science Research (DSR) executed within a single build-and-evaluate cycle, appropriate because the research questions concern both an artefact and its empirical behaviour in use. The cycle comprises a grounding phase (RQ1, RQ2), a build phase (RQ3) and an evaluation phase (RQ4).

2.2 Phase A: Grounding and framework construction

A structured review of 2021–2026 literature was conducted across scholarly databases using combinations of "explainable AI", "adaptive assessment", "learning analytics", "trust calibration" and "educational technology". Peer-reviewed sources reporting a technique, framework or empirical evidence on explainability in educational AI or AI-assisted decision-making were included. The synthesis produced a taxonomy classifying applicable XAI techniques — principally feature attribution and counterfactual explanations — against the four decision points, characterised by fidelity to the underlying model, comprehensibility for non-technical stakeholders and generation latency; and a stakeholder-centred framework, grounded in XAI-ED and trust-calibration theory, mapping explanation types to decision points while distinguishing learner-facing justifications (brief, actionable, non-contaminating) from educator-facing diagnostics oriented towards oversight.

2.3 Phase B: Implementation

The framework was instantiated as an explanation layer over an adaptive engine built on a knowledge-tracing learner model, trained on a public learner-interaction dataset (ASSISTments or EdNet) with an 80/20 chronological split. Three instrumental criteria were pre-registered: explanation fidelity above the defined threshold; predictive performance (area under the receiver operating characteristic curve) within 2% of the unexplained baseline; and mean explanation-generation latency compatible with real-time delivery.

2.4 Phase C: Evaluation procedure

A between-subjects controlled study compared an explanation condition, in which participants received the generated explanations during a simulated adaptive assessment session of approximately forty minutes, with a no-explanation baseline. Participants were education stakeholders (learners and educators). Three dependent variables were measured with validated instruments: trust calibration, operationalised as the appropriateness of reliance across trials on which the system's output was correct versus incorrect; perceived fairness; and acceptance. Demographics and prior experience with AI-based learning tools were recorded as covariates.

2.5 Statistical approach

Group differences were tested using independent-samples t-tests where Shapiro–Wilk normality checks held and Mann–Whitney U tests otherwise, at a significance threshold of $p < .05$, with effect sizes (Cohen's d or rank-biserial correlation) reported alongside p-values. Instrumental metrics are reported descriptively against their pre-registered thresholds. Analyses were specified in advance, and the dataset, preprocessing scripts and explanation-layer configuration are released to support replication.

3. Results

3.1 Taxonomy and explanation framework (RQ1, RQ2)

The review yielded a taxonomy organised against the four decision points. Feature-attribution methods proved applicable to ability estimation and difficulty calibration, where the contribution of recent interaction features (response correctness, response time, hint usage) can be ranked and displayed; counterfactual explanations proved applicable to item selection and feedback generation, where the actionable question is what would have changed the decision. Rule-based surrogates were judged unsuitable for real-time deployment owing to latency, despite high comprehensibility. The resulting framework attaches an explanation type and presentation strategy to each decision point, distinguishing learner-facing justifications from educator-facing oversight diagnostics.

Figure 1. Explainable Adaptive Assessment Pipeline



Another significant contribution of AI is the acceleration of the Software Development Life Cycle (SDLC). Intelligent programming assistants reduce development time by automating repetitive coding activities, suggesting code improvements, detecting syntax and logical errors in real time, and simplifying documentation generation. Many software companies have integrated AI-powered development environments into their daily workflows to improve productivity and reduce operational costs. The growing adoption of AI has also encouraged software engineering teams to focus more on software architecture, business logic, and creative problem-solving while delegating repetitive programming tasks to intelligent systems.



Figure 1. AI-assisted software development workflow.

Despite these remarkable advantages, AI-assisted software development introduces several technical, ethical, and legal challenges. AI-generated code may contain logical inconsistencies, security vulnerabilities, inefficient algorithms, or outdated programming practices. Moreover, concerns related to intellectual property, data privacy, algorithmic bias, and excessive dependence on AI-generated solutions remain active research topics. Human supervision therefore continues to play a critical role in validating AI-generated software and ensuring software quality.

The objective of this study is to investigate the current applications of artificial intelligence in modern software development, analyze its major benefits and limitations, evaluate its influence on software engineering practices, and discuss future trends that are expected to shape the next generation of intelligent software development environments.

MATERIALS AND METHODS

This study employs a qualitative literature review methodology to investigate the role of artificial intelligence in modern software development. A comprehensive review of recent scientific publications, industrial reports, technical documentation, and international standards was conducted to examine current AI technologies used throughout the software development lifecycle. The research primarily focuses on

publications released between 2022 and 2026, during which generative artificial intelligence experienced rapid development and widespread industrial adoption.



Figure 2. Integration of Artificial Intelligence into the Software Development Life Cycle.

Scientific articles were collected from internationally recognized academic databases, including IEEE Xplore, ACM Digital Library, SpringerLink, ScienceDirect, Google Scholar, and arXiv. Only peer-reviewed publications, conference proceedings, technical reports, and official documentation from leading AI organizations such as OpenAI, Google, Microsoft, Amazon, and Anthropic were considered. This approach ensured that the analyzed information was reliable, up-to-date, and relevant to current software engineering practices.

The research examined several widely used AI-assisted software development tools, including ChatGPT, GitHub Copilot, Claude Code, Gemini Code Assist, Amazon Q Developer, and Cursor AI. These tools were analyzed according to their functionality in code generation, software debugging, documentation generation, software testing, code optimization, and developer productivity enhancement.

A comparative analysis method was applied to identify similarities and differences among these AI systems. Additionally, thematic analysis was used to

classify the primary benefits, limitations, and future opportunities associated with AI-assisted software engineering. The collected information was synthesized to provide a comprehensive overview of how artificial intelligence influences software development processes and professional programming practices.

RESULTS

The analysis demonstrates that artificial intelligence has become an integral component of modern software engineering. AI-assisted programming tools have significantly improved developer productivity by reducing the time required for coding, debugging, testing, and documentation. These intelligent systems enable developers to focus on solving complex software engineering problems while delegating repetitive programming tasks to AI assistants.

Among the analyzed tools, GitHub Copilot demonstrated strong performance in real-time code completion and automatic generation of programming functions based on contextual information. ChatGPT and Claude Code proved particularly effective in explaining programming concepts, generating algorithms, correcting logical errors, and assisting with software architecture design. Gemini Code Assist and Amazon Q Developer showed notable advantages in enterprise software development, cloud computing environments, and DevOps workflows.

The study identified several important benefits associated with AI integration into software development. AI systems reduce software development time by automating repetitive coding activities and accelerating debugging processes. They also improve software quality through intelligent code suggestions, automated error detection, and optimization recommendations. Furthermore, AI-powered documentation tools simplify technical writing and improve project maintainability. Beginner programmers particularly benefit from AI-generated explanations and interactive programming assistance, which accelerate learning and improve coding skills.

Table 2. Benefits and challenges of AI-assisted software development.

Benefits	Challenges
Faster code generation	AI hallucination
Higher productivity	Security vulnerabilities
Reduced development time	Privacy concerns
Improved documentation	Copyright issues
Better debugging	Overdependence on AI

However, several limitations remain. AI-generated source code occasionally contains logical inconsistencies, security vulnerabilities, inefficient implementations, and inaccurate programming recommendations. The phenomenon commonly referred to as "AI hallucination" may produce syntactically correct but functionally incorrect code. Additional concerns include copyright issues, confidential data leakage, limited contextual understanding, and excessive dependence on AI-generated solutions. Consequently, professional software engineers must carefully validate AI-generated outputs before integrating them into production systems.

The results indicate that AI should not be viewed as a replacement for software developers. Instead, it serves as an intelligent assistant that enhances productivity, supports decision-making, and improves software engineering efficiency while maintaining the essential role of human expertise in software design and quality assurance.

CONCLUSION

Artificial intelligence has fundamentally changed modern software development by introducing intelligent tools capable of supporting developers throughout the entire software development lifecycle. AI-powered programming assistants have improved productivity, accelerated software delivery, enhanced code quality, and reduced development costs by automating repetitive programming tasks. Technologies such as ChatGPT, GitHub Copilot, Claude Code, Gemini Code Assist, and Amazon Q Developer demonstrate the growing importance of AI in contemporary software engineering.

Despite these advantages, AI-assisted software development also presents several technical, ethical, and security challenges. AI-generated code requires careful human verification to ensure correctness, security, maintainability, and compliance with software engineering standards. Organizations adopting AI technologies should establish appropriate development guidelines, security policies, and validation procedures to maximize the benefits of AI while minimizing associated risks.

Future software engineering is expected to become increasingly collaborative, combining human creativity, engineering expertise, and artificial intelligence capabilities. Advances in large language models, autonomous AI agents, and intelligent software development environments will continue to reshape software engineering practices. Continued research should focus on improving the reliability, transparency, explainability, and security of AI-powered software development tools to support sustainable innovation in the software industry.

REFERENCES

1.Sauvola, J., Tarkoma, S., Klemettinen, M., Riekki, J., & Doermann, D. (2024). Future of Software Development with Generative AI. Automated Software Engineering, 31(1), 26. https://doi.org/10.1007/s10515-024-00426-z

2.Terragni, V., Roop, P., & Blincoe, K. (2024). The Future of Software Engineering in an AI-Driven World. arXiv:2406.07737.

3.Ulfsnes, R., Moe, N. B., Stray, V., & Skarpen, M. (2024). Transforming Software Development with Generative AI: Empirical Insights on Collaboration and Workflow. arXiv:2405.01543.

4.Gu, A., Jain, N., Li, W., et al. (2025). Challenges and Paths Towards AI for Software Engineering. arXiv:2503.22625.

5.Gröpler, R., Klepke, S., Johns, J., et al. (2025). The Future of Generative AI in Software Engineering: A Vision from Industry and Academia in the European GENIUS Project. arXiv:2511.01348.

6.Li, Z. S., Arony, N. N., Awon, A. M., et al. (2024). AI Tool Use and Adoption in Software Development by Individuals and Organizations: A Grounded Theory Study. arXiv:2406.17325.

7.Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.

8.Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.

9.Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2024). Speech and Language Processing (3rd ed., draft). Stanford University.

3-SECTION

TIBBIY MULOQOT VA TERMINOLOGIYANI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLAR HAMDA SIMULYATSIYA TEXNOLOGIYALARI (ROLLI O'YINLAR, KLINIK KEYSLAR, DE-ESCALATION USULLARI)

Navruzova Muyassar Gaybullayevna
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
Tel: +998 90 614 20 22
Nusratova Shaxina Jalol qizi
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlash menejmenti kafedrasi assistenti
E-mail: nusratovashaxina198@gmail.com | Tel: +998 95 242 29 08

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль интерактивных методов обучения и симуляционных технологий в формировании навыков клинического общения и освоении профессиональной терминологии у будущих медицинских специалистов. Анализируется практическая эффективность внедрения ролевых игр, клинических кейсов и методов деэскалации (снижения уровня конфликтов и тревожности) в образовательный процесс. Особое внимание уделяется интеграции коммуникативных моделей (SPIKES, NURSE, SBAR) и значению дебрифинга для развития эмоционального интеллекта, стрессоустойчивости и соблюдения деонтологических норм у студентов-медиков.*

Ключевые слова: *медицинское общение, медицинская терминология, симуляционное обучение, ролевые игры, клинические кейсы, деэскалация, протокол SPIKES, модель NURSE, SBAR.*

Abstract. *This article explores the role of interactive teaching methods and simulation technologies in developing clinical communication skills and mastering professional medical terminology among future healthcare specialists. It analyzes the practical effectiveness of integrating role-playing games, clinical cases, and de-escalation techniques (reducing conflict and anxiety) into the educational process. Special emphasis is placed on the implementation of communication frameworks (SPIKES, NURSE, SBAR) and the critical role of debriefing in fostering emotional*

intelligence, stress resistance, and adherence to medical ethics among healthcare students.

Keywords: *medical communication, medical terminology, simulation training, role-playing, clinical case-based learning, de-escalation techniques, SPIKES protocol, NURSE model, SBAR.*

Zamonaviy tibbiyot ta’limida bo‘lajak shifokor va sog‘liqni saqlash menejerlarining kasbiy kompetensiyasi faqatgina chuqur nazariy bilim va klinik diagnostika bilan cheklanmaydi. Bemor va uning yaqinlari bilan samarali hamda empatik muloqot o‘rnatish, shuningdek, murakkab lotincha va klinik terminlarni bemorga tushunarli tilga aylantira olish ko‘nikmasi davolash samaradorligining muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, preventiv tibbiyot va jamoat salomatligi sohasida turli qatlamdagi aholi bilan muloqot qilishda, nizoniy yumshatish (de-escalation) va maxsus muloqot protokollarini (SPIKES, NURSE, SBAR) qo‘llash amaliyotini shakllantirish dolzarb masalalardandir.

Rolli o‘yinlar — muloqot va terminologik moslashuv vositasi

Rolli o‘yinlar (Role-playing games) talabalarga nazariy bilimlarni ijtimoiy-psixologik kontekstda qo‘llash imkonini beradi. Mazkur metod ikkita asosiy yo‘nalishda natija beradi:

1. Terminologiyani "Tarjima qilish" mashqi: Talabaga murakkab tashxis (masalan, Miyokard infarkti, Cho‘tkasimon chegara yetishmovchiligi) beriladi. Talaba shifokor rolida ushbu patologik jarayonni lotincha jargonlarsiz, oddiy bemor tushunadigan o‘xshatishlar orqali tushuntirib berishi lozim.

2. "Standartlashtirilgan bemor" (Standardized Patient) simulyatsiyasi: Maxsus ssenariy bo‘yicha tayyorlangan aktyor yoki talaba bemor obrazini yaratadi. Shifokor rolidagi talaba anamnez yig‘adi, ochiq va yopiq savollar balansini saqlaydi hamda bemorning ruhiy holatiga qarab suhbat terminologiyasini moslashtiradi.

Klinik keyslar (Case-Based Learning) va hujjatlashtirish

Klinik keyslar real tibbiyot amaliyotidan olingan situatsion topshiriqlar bo‘lib, u orqali talabalar tahliliy fikrlash va terminologik aniqlikni shakllantiradi.

• Anamnez yig‘ish va dialog: Talaba bemor bilan oddiy tilda suhbatlashadi.

• Akademik hujjatlashtirish: Bemor aytgan maishiy iboralarni ("yuragim sanchib beryapti", "boshim aylanib ko‘zim tindim") talaba kasallik tarixida (status praesens) professional tibbiy terminologiya bilan rasmiylashtiradi (stenokardik og‘riq, vertigo).

• Konsilium simulyatsiyasi: Keys yakunida talabalar kollegial muloqotga kirishib, professional atamalar va SBAR (Situation, Background, Assessment, Recommendation) modeli asosida bir-birlariga axborot berishadi.

De-escalation texnologiyalari va psixologik modellar

Klinik amaliyotda agressiv, vahimadagi yoki og‘ir ruhiy tushkunlikdagi bemorlar va ularning yaqinlari bilan muloqot qilish tez-tez uchraydi. Bunday vaziyatlarda nizoniy yumshatish (de-escalation) usullari maxsus simulyativ ramkalar orqali o‘rgatiladi.

• NURSE modeli (Emotsional qo‘llab-quvvatlash): Naming (nomlash), Understanding (tushunish), Respecting (hurmat), Supporting (yordam), Exploring (aniqlashtirish). Bemorning agressiyasi yoki xavotirini pasaytirish, empatiya bildirish iboralarini avtomatizmga keltirish.

• SPIKES protokoli (Yomon xabarlarni yetkazish): Og‘ir diagnostik xabarlarni yetkazishda bosqichma-bosqich yondashuv. Tana tili, nigoh, pauza tutish va og‘ir oqibatlarni ehtiyotkor terminlar bilan yetkazish.

• SBAR standarti (Tibbiy xodimlar muloqoti): Vaziyat, anamnez, baholash va tavsiyani qisqa hamda tezkor yetkazish. Vaqt yetishmovchiligi va shoshilinch vaziyatlarda aniq terminologik muloqot.

Debriefing — simulyatsion ta’limning o‘zagi

Simulyatsiya yoki rolli o‘yin jarayonining o‘zi yetarli emas. Mashg‘ulotning eng muhim va ta’sirli bosqichi bu Debriefing (qilingan ishlarni tahlil qilish) hisoblanadi.

Debriefing davomida:

• Videotasvir yoki kuzatuvchilar varaqasi asosida talabaning verbal va noverbal xatti-harakatlari muhokama qilinadi.

• Qaysi iboralar bemorda xavotirni oshirgani va qaysi terminlar noto‘g‘ri qo‘llanilgani aniqlanadi.

• Konstruktiv fikr-mulohaza (feedback) berilib, to‘g‘ri muloqot modeli qayta shakllantiriladi.

Simulyatsion o‘quv mashg‘uloti ssenariysi

Mavzu: Tibbiy muloqotda terminologik moslashuv va De-escalation (nizo va xavotirni yumshatish) ko‘nikmalarini shakllantirish

Maqsadi: Talabalarda murakkab klinik atamalarni bemorga tushunarli maishiy tilga o‘girish, vahima hamda agressiya holatidagi bemor (va uning yaqini) bilan empatik muloqot o‘rnatish hamda NURSE va SBAR protokollarini amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

I. Mashg‘ulot parametrlari va qatnashchilar

Ajratilgan vaqt: 20 daqiqa (10 daqiqa simulyatsiya + 10 daqiqa debriefing/tahlil).

Jihozlar va rekvizitlar: Shifokor xonasi (stul, stol, tonometr, fonendoskop, bemorning tibbiy kartasi, tahlil natijalari varaqasi).

Ishtirokchilar:

1. Shifokor (Talaba): Qabul bo‘limi yoki oilaviy shifokor.

2. Bemor (Standartlashtirilgan bemor / Aktyor talaba): 55 yoshli erkak, gipertoniya bilan og‘riydi, arterial bosimi oshganida sarosimaga tushadi, dorilarning nojo‘ya ta'siridan qo‘rqadi.

3. Bemorning yaqini (Aktyor talaba): Agressiv kayfiyatdagi o‘g‘li yoki qizi (navbat kutish va shifokorlarning e'tiborsizligidan g‘azablangan).

4. Kuzatuvchilar (Qolgan talabalar va o‘qituvchi): Maxsus baholash varaqasi (Check-list) bilan jarayonni kuzatadi.

II. Klinik situatsiya (KS-kontekst)

Bemor holati: Bemor Buxoro shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasiga bosh og‘rig‘i, ensa sohasidagi og‘irlik va umumiy holsizlik bilan murojaat qilgan. Tahlillar natijasida bemorda "Arterial gipertenziya II bosqich, 2-daraja. Gipolipidemic va gipotenziv terapiyaga ko‘rsatma" aniqlangan. Bemor dori vositalariga qaram bo‘lib qolishdan va jigar yetishmovchiligidan xavotirda. O‘g‘li esa shifokorga e'tiroz bildirib, tezroq yordam berilishini talab qilmoqda.

III. Rolli o‘yin dialogi va script (amaliy jarayon)

1-etap: Agressiv vaziyat va xavotir (De-escalation hamda NURSE modeli)

(Bemor va uning o‘g‘li shifokor xonasiga ruxsatsiz, jahli chiqqan holda kirib keladi)

Bemorning o‘g‘li (baland ovozda): "Doxtir! Qachongacha koridorda kutamiz? Otamning boshi yorilib ketay deyapti, sizlar bo‘lsa qog‘oz yozyapsizlar! Tibbiyotingiz ham, xizmatingiz ham o‘tsin!"

Shifokor (xato yondashuv — ziddiyatga kirishish): "Qoidani buzmang, tashqarida kuting! Men qabulni tugatganim yo‘q, xonadan chiqing!" (Bu ibora agressiyani oshiradi)

Shifokor (to‘g‘ri yondashuv — De-escalation & NURSE): (Sotsial masofani saqlab, bosiqlik va ochiq tana tili bilan stul taklif qiladi)

Naming (Emotsiyani nomlash): "Juda jahlingiz chiqqanini va otangizning salomatligi uchun qattiq qayg‘urayotganingizni ko‘rib turibman."

Understanding (Tushunish): "Sizning o‘rningizda bo‘lganimda, otamning boshi og‘rib turganda kutishga majbur bo‘lsam, men ham xuddi shunday asabiylashgan bo‘lardim."

Respecting (Hurmat): "Shunday qiyin holatda ham otangizga yordam berish uchun shoshib kelganingizni hurmat qilaman. Marhamat, o‘tiringizlar."

Supporting (Yordam): "Hozir shaxsan o‘zim otangizni ko‘rikdan o‘tkazaman va bosimini tushirishga yordam beraman."

2-etap: Terminologik moslashuv (Lotincha atamalarni maishiy tilga o‘girish)

(Shifokor bemorning qon bosimini o‘lchaydi: 170/100 mm.rt.st. Tahlillarni ko‘radi)

Bemor (sarosimada): "Doxtir, tahlillarim chiqdimi? Menga qiyin lotincha so‘zlarni aytmang, aniq ayting — yuragim to‘xtab qoladimi? Dori ichsam jigarim tamom bo‘lmaydimi?"

Shifokor (xato yondashuv — murakkab jargon): "Sizda essensial gipertenziya II daraja. Gipolipidemic preparatlar hamda ACE ingibitorlari buyurilishi shart, aks holda miyokard infarkti va cerebrovaskulyar insult xavfi o‘ta yuqori." (Bemor tushunmaydi va vahimaga tushadi)

Shifokor (to‘g‘ri yondashuv — tushunarli analogiya va terminologik moslashuv): "Xavotir olmang, keling barchasini birma-bir ko‘rib chiqamiz. Tahlillaringiz shuni ko‘rsatdiki, qon tomirlaringizdagi bosim normadan biroz yuqori. Buni xuddi suv quvuridagi bosim ortishiga o‘xshatish mumkin — agar bosimni tushirmasak, quvur zo‘riqadi."

"Biz buyurgan dorilar jigaringizga zarar yetkazmaydi, aksincha, qon tomirlaringizni dam aldirib, yuragingizni ortiqcha zo‘riqishdan xalos qiladi. Dori qabul qilish bilan birga tuzli va yog‘li taomlarni biroz kamaytirsak, tomirlaringiz va yuragingiz yengil nafas oladi."

3-etap: Tibbiyot xodimlari o‘rtasida muloqot (SBAR standarti)

(Shifokor holat bo‘yicha bo‘lim mudiri/kardiologga qo‘ng‘iroq qiladi yoki konsilium chaqiradi)

S (Situation - Vaziyat): "Xayrli kun, doktor. Men poliklinika 3-xonadagi oilaviy shifokorman. Bemor Karimov, 55 yosh, gipertonik kriz holatida murojaat qildi."

B (Background - Anamnez): "Bemor 5 yildan beri gipertoniya bilan og‘riydi. Muntazam dori qabul qilmagan. Qonda xolesterin miqdori yuqori."

A (Assessment - Baholash): "Hozirgi holati: Arterial bosim 170/100 mm.rt.st, puls 88/daq, ensada kuchli og‘riq va psixomotor hayajonlanish mavjud."

R (Recommendation - Tavsiya): "Bemorga zudlik bilan gipotenziv parenteral terapiya o‘tkazish hamda kardiolog ko‘rigini tashkillashtirishni tavsiya qilaman."

4-etap: Debriefing (mashg‘ulot tahlili va muhokama)

Mashg‘ulot yakunlangach, o‘qituvchi va talabalar quyidagi savollar bo‘yicha muhokama o‘tkazadilar:

1. Emotsional baho: Shifokor rolidagi talaba bemor va o‘g‘lining agressiyasini pasaytirishda NURSE modelining qaysi bosqichidan unumli foydalandi?

2. Terminologik aniqlik: Shifokor Arterial gipertenziya va gipotenziv terapiya atamalarini bemorga tushuntirishda qanday munosib analogiya (o‘xshatish) qo‘lladi?

3. Noverbal muloqot: Shifokorning tana tili, ko‘z muloqoti hamda ovoz tembri de-escalation qoidalariga mos keldimi?

4. Xatolar ustida ishlash: Qaysi jumlalar bemorda yoki uning yaqinida e'tiroz uyg‘otdi va ularni yana qanday muqobil iboralarga almashtirish mumkin

Xulosa

Tibbiy ta’limda interfaol metodlar va simulyatsiya texnologiyalarining qo‘llanishi talabalarning nafaqat lotincha va professional terminologiyani chuqur o‘zlashtirishini, balki ularni bemor bilan empatik va konstruktiv muloqot o‘rnata oladigan yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishini ta’minlaydi. De-escalation va maxsus muloqot protokollarini (SPIKES, NURSE, SBAR) klinik simulyatsiyalarga integratsiya qilish orqali bo‘lajak shifokorlarda stressga chidamlilik hamda kasbiy etika barqaror shakllanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Silverman, J., Kurtz, S., & Draper, J. (2013). Skills for Communicating with Patients. Radcliffe Publishing.

2. Baile, W. F., et al. (2000). SPIKES—A Six-Step Protocol for Delivering Bad News: Application to the Patient with Cancer. The Oncologist.

3. World Health Organization (WHO). Medical Education and Patient Safety Curriculum Guide.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PREDICTING POSTOPERATIVE VASOSPASM AFTER RUPTURED INTRACRANIAL ANEURYSM CLIPPING IN CENTRAL ASIAN POPULATIONS

Makhmudov Mukhammadyusuf Makhmadillo ogli
Clinical Resident in Neurosurgery
NeurOn Medical Clinic
mahmudovmuhammadyusuf2908@gmail.com

Abstract.. *Cerebral vasospasm remains one of the most consequential complications following surgical clipping of ruptured intracranial aneurysms, contributing substantially to delayed cerebral ischemia and poor functional outcomes. Artificial intelligence (AI) and machine learning (ML) models have shown promising predictive accuracy in high-income settings, yet their applicability to Central Asian populations, characterized by distinct referral patterns, comorbidity profiles, and limited digital infrastructure, remains largely unexplored. This paper reviews current AI-based vasospasm prediction approaches, examines population-specific challenges in Central Asia, and proposes a preliminary framework for adapting predictive models to regional neurosurgical practice, informed by early institutional clinical experience.*

Keywords: *artificial intelligence; machine learning; cerebral vasospasm; delayed cerebral ischemia; ruptured intracranial aneurysm; aneurysm clipping; Central Asia; predictive modeling; neurosurgery.*

Annotatsiya.. *Bosh miya arteriyalarining spazmi (vazospazm) yorilgan intrakranial anevrizmalarni klipirovka qilish operatsiyasidan keyingi eng og'ir asoratlardan biri bo'lib, kechiktirilgan serebral ishemiya va noqulay funktsional natijalarga sabab bo'ladi. Sun'iy intellekt (AI) va mashinali o'rganish (ML) modellari yuqori daromadli mamlakatlarda yuqori bashorat aniqligini ko'rsatgan, biroq ularning o'ziga xos murojaat yo'llari, hamrohlik kasalliklari va cheklangan raqamli infratuzilmaga ega bo'lgan Markaziy Osiyo populyatsiyasiga qo'llanilishi hali yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu maqolada AI asosidagi vazospazm bashorati yondashuvlari tahlil qilinadi, mintaqaga xos muammolar ko'rib chiqiladi va klinik tajriba asosida moslashtirilgan bashorat modeli uchun dastlabki asos taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt; mashinali o'rganish; serebral vazospazm; kechiktirilgan serebral ishemiya; yorilgan intrakranial anevrizma; anevrizma klipirovkasi; Markaziy Osiyo; bashorat modellashtirish; neyroxirurgiya.*

INTRODUCTION

Aneurysmal subarachnoid hemorrhage (aSAH) remains one of the most devastating cerebrovascular emergencies, carrying high mortality and long-term disability even when the ruptured aneurysm is successfully secured [9]. Among the delayed complications that determine ultimate neurological outcome, cerebral vasospasm and its clinical correlate, delayed cerebral ischemia (DCI), are widely recognized as principal contributors to secondary brain injury after both microsurgical clipping and endovascular treatment [1]. Vasospasm remains difficult to predict reliably using conventional grading scales such as Hunt-Hess, Fisher, or WFNS alone, prompting growing interest in computational, data-driven prediction methods.

Over the past decade, artificial intelligence and machine learning have been increasingly applied to outcome prediction after aSAH. Systematic reviews and meta-analyses have shown that ML models, ranging from logistic regression to gradient-boosted trees and neural networks, can outperform traditional clinical scoring systems in predicting vasospasm and DCI by integrating demographic, radiological, laboratory, and hemodynamic variables [1, 2, 3, 4]. This evidence, however, overwhelmingly originates from cohorts in North America, Western Europe, and East Asia, where digital health infrastructure is comparatively well established. Central Asian healthcare systems, including that of Uzbekistan, differ substantially in referral pathways, comorbidity burden, and neuromonitoring availability [6]; referral delays of several weeks are not uncommon, and systemic comorbidities such as smoking and ischemic heart disease significantly influence recovery independently of aneurysm anatomy [6]. Population-specific risk-factor profiles have also been documented regionally [7], suggesting that externally developed models may not transfer without local calibration.

This paper therefore aims to (1) synthesize current evidence on AI-based prediction of vasospasm and DCI after aSAH, (2) discuss population-specific challenges of applying such models in Central Asia, and (3) propose a preliminary framework for future prospective validation.

MAIN PART

Clinical burden of vasospasm after aneurysm clipping

Cerebral vasospasm typically develops between day 3 and day 14 after aSAH and, when symptomatic, produces DCI in a substantial proportion of affected patients, worsening long-term functional outcome [1]. Microsurgical clipping remains the primary approach in many resource-constrained settings, making postoperative vasospasm surveillance a core responsibility of the treating team. Established severity scales (Hunt-Hess, Fisher/modified Fisher, WFNS) remain the mainstay of initial risk stratification; however, recent large cohort data suggest these traditional systems are not always independently predictive of long-term outcome once patients reach definitive treatment, with systemic factors such as periprocedural complications and comorbidity burden playing an equal or greater role [6]. This reinforces the rationale for multidimensional predictive approaches integrating clinical, radiological, and systemic variables simultaneously, a task for which AI and ML methods are particularly well suited.

AI and ML approaches to vasospasm and DCI prediction: current evidence

A 2025 systematic review and meta-analysis of 48 studies and more than sixteen thousand aSAH patients found ML models, most commonly logistic regression, gradient boosting, and neural networks, feasible for early DCI prediction, with substantial heterogeneity across studies [1]. A related meta-analysis found that ensemble and tree-based methods often outperformed logistic regression [3]. Retrospective cohorts have incorporated demographic variables, severity grades, aneurysm location, treatment modality, and CNS infection to train ML models with promising accuracy [4], while a multicenter study identified periprocedural and laboratory variables as robust DCI predictors [2]. Ethnic variation in predictors has also been documented: a large Chinese aSAH cohort reported distinct incidence rates and predictor profiles compared with Western cohorts, underscoring that population-specific calibration is necessary for reliable clinical application [5].

Population-specific considerations for Central Asia

Referral and treatment-timing patterns differ substantially from high-income settings: a recent Kazakhstani cohort of nearly five hundred endovascularly treated aSAH patients reported a median interval of twenty-six days from hemorrhage onset to arrival at a tertiary center, with rural patients disproportionately delayed [6]. Such delays alter the window during which vasospasm surveillance is actionable, so models trained on early-presenting cohorts may not generalize regionally. The same cohort found smoking and ischemic heart disease independently associated with unfavorable outcome, while anatomical and severity-based predictors lost significance after

adjustment [6], suggesting regional AI models should weight systemic comorbidity more heavily than aneurysm morphology alone. A Kazakh national cohort further indicates that regional genetic, environmental, and lifestyle factors may differ from those captured in models trained elsewhere [7]. Limited neuromonitoring and standardized electronic records also constrain the feature space for model training and the feasibility of external validation, a challenge recognized in discussions of global disparities in neurosurgical infrastructure [8].

Preliminary institutional experience and proposed framework

At NeurOn Medical, a private neurosurgical clinic managing a substantial caseload of ruptured intracranial aneurysms treated by microsurgical clipping, informal review of recent clinical experience with postoperative vasospasm surveillance suggests patterns broadly consistent with the regional literature above, namely a clinically relevant burden of vasospasm-related complications alongside variability in presentation timing and comorbidity profile. This experience has not yet been subjected to systematic statistical analysis, and quantitative conclusions must await a formally conducted cohort study. We propose a stepwise framework for a locally adapted tool: (1) a standardized clinical registry capturing demographic, severity, comorbidity, treatment, and complication data; (2) systematic documentation of vasospasm and DCI outcomes using consistent definitions; (3) initial application of interpretable ML algorithms before progressing to more complex architectures; and (4) prospective external validation across multiple Central Asian centers. This mitigates overfitting to a single-institution dataset and addresses the ethical and liability considerations accompanying clinical deployment of AI-based decision-support tools [10].

CONCLUSION

Artificial intelligence and machine learning offer a promising, increasingly validated approach to predicting postoperative vasospasm and delayed cerebral ischemia after ruptured intracranial aneurysm treatment. However, the existing evidence base is overwhelmingly derived from high-income, data-rich healthcare systems, and current findings from Central Asian cohorts indicate meaningful differences in referral timing, comorbidity impact, and population-specific risk factors that limit the direct transferability of externally developed models. Establishing standardized clinical registries and pursuing stepwise, locally validated AI model development is a realistic and necessary pathway for translating the potential of AI-based vasospasm prediction into routine neurosurgical practice in Uzbekistan and the broader Central Asian region.

REFERENCES

1. Zhang, H., Zou, P., Luo, P., & Jiang, X. (2025). Machine learning for the early prediction of delayed cerebral ischemia in patients with subarachnoid hemorrhage: Systematic review and meta-analysis. Journal of Medical Internet Research, 27, e54121. https://doi.org/10.2196/54121

2. Azzam, A. Y., Vaishnav, D., Essibayi, M. A., Unda, S. R., Jabal, M. S., Liriano, G., et al. (2024). Prediction of delayed cerebral ischemia followed aneurysmal subarachnoid hemorrhage: A machine-learning based study. Journal of Stroke and Cerebrovascular Diseases, 33(4), 107553. https://doi.org/10.1016/j.jstrokecerebrovasdis.2023.107553

3. Santana, L. S., Diniz, J. B. C., Rabelo, N. N., Teixeira, M. J., Figueiredo, E. G., & Telles, J. P. M. (2024). Machine learning algorithms to predict delayed cerebral ischemia after subarachnoid hemorrhage: A systematic review and meta-analysis. Neurocritical Care, 40, 1171-1181. https://doi.org/10.1007/s12028-023-01832-z

4. Gollwitzer, M., Mazanec, V., Steindl, M., Atli, B., Stroh-Holly, N., Hauser, A., et al. (2025). Early prediction of cerebral vasospasm after aneurysmal subarachnoid hemorrhage using a machine learning model and interactive web application. Brain Sciences, 15(11), 1187. https://doi.org/10.3390/brainsci15111187

5. Mijiti, M., Mijiti, P., Axier, A., Amuti, M., Guohua, Z., Xiaojiang, C., Kadeer, K., Xixian, W., Geng, D., & Maimaitili, A. (2016). Incidence and predictors of angiographic vasospasm, symptomatic vasospasm and cerebral infarction in Chinese patients with aneurysmal subarachnoid hemorrhage. PLoS ONE, 11(12), e0168657. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0168657

6. Berdikhojayev, M., Maidan, A., Toguzbaeva, K., Davletov, D., Zhumabekov, A., Makhanbetkhan, S., et al. (2026). Access to care, treatment pathways, and outcomes of endovascular treatment for aneurysmal subarachnoid hemorrhage in Kazakhstan: A retrospective cohort study. Frontiers in Radiology, 6, 1845453. https://doi.org/10.3389/fradi.2026.1845453

7. Medetov, Y., Babi, A., & Makhambetov, Y. (2022). Risk factors for aneurysm rupture among Kazakhs: Findings from a national tertiary hospital. BMC Neurology, 22(1), 357. https://doi.org/10.1186/s12883-022-02892-y

8. Alokozay, E., Haider, E., Waseem, N., & Alokozay, N. (2025). Addressing global disparities in neurosurgical workforce and access to care. Chinese Neurosurgical Journal, 11(1), 30. https://doi.org/10.1186/s41016-025-00419-1

9. Hoh, B. L., Ko, N. U., Amin-Hanjani, S., Chou, S. H.-Y., Cruz-Flores, S., Dangayach, N. S., et al. (2023). 2023 Guideline for the management of patients with aneurysmal subarachnoid hemorrhage: A guideline from the American Heart Association/American Stroke Association. Stroke, 54(7), e314-e370. https://doi.org/10.1161/STR.0000000000000436

10. Price, W. N., Gerke, S., & Cohen, I. G. (2019). Potential liability for physicians using artificial intelligence. JAMA, 322(18), 1765-1766. https://doi.org/10.1001/jama.2019.15064

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YUQUMLI KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI VA TELEMEDITSINA XIZMATLARINI DAVLAT BOSHQARUVIGA INTEGRATSIYALASHNING INSTITUTSIONAL-RAQAMLI MODELI: "MAQSAD–HARAKAT–NATIJA" YONDASHUVI

Mavlonjon Rizakulov Ravshanjon Ugli
Westminster International University in Tashkent (WIUT)
Master of Science in Public Health – (2022-2025)
E-mail: mavlonrizakulov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yuqumli kasalliklar profilaktikasi va telemeditsina xizmatlarini davlat boshqaruviga integratsiyalashning zamonaviy muammolari davlat siyosati va boshqaruvi (Public Administration) nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining "Health in All Policies" (Salomatlik barcha siyosatlarda) konsepsiyasi hamda OECD davlatlarining (Kanada, Singapur, Estoniya) ilg'or tajribasiga tayangan holda, maqolada an'anaviy tarmoq (silos) boshqaruvidan yaxlit "Whole-of-Government" (Umumdavlat) yondashuviga o'tish zarurati asoslangan. O'zbekistonning so'nggi normativ-huquqiy hujjatlari (PF-21, PF-77, PF-158) tahlili va aniqlangan institutsional bo'shliqlar asosida M.Rizakulov tomonidan yangi – "Maqsad–Harakat–Natija" (Goal-Action-Result) institutsional-raqamli boshqaruv modeli ishlab chiqilgan. Ushbu model davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari hamda dalillarga asoslangan siyosat (Evidence-Based Policy) orqali sog'liqni saqlash tizimida institutsional muvofiqlashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *davlat boshqaruvi, raqamli boshqaruv, institutsional-raqamli model, telemeditsina, davlat-xususiy sheriklik (DXSH), Maqsad-Harakat-Natija monitoringi, dalillarga asoslangan siyosat, Health in All Policies.*

Abstract. *This article analyzes the contemporary challenges of integrating infectious disease prevention and telemedicine services into the public administration system of the Republic of Uzbekistan from a public policy and governance perspective. Drawing upon the World Health Organization’s "Health in All Policies" (HiAP) concept and the best practices of OECD countries (Canada, Singapore, Estonia), the study substantiates the imperative transition from traditional siloed administration to a holistic "Whole-of-Government" approach. Based on a comprehensive policy review*

of Uzbekistan's recent regulatory frameworks (Decrees UP-21, UP-77, and UP-158) and identified institutional gaps, M. Rizakulov has developed a novel "Goal-Action-Result" (GAR) institutional-digital governance model. This proposed model aims to enhance institutional coordination and operational efficiency within the healthcare sector by leveraging public-private partnership (PPP) mechanisms and promoting evidence-based policymaking.

Keywords: *public administration, digital governance, institutional-digital model, telemedicine, public-private partnership (PPP), Goal-Action-Result monitoring, evidence-based policy, Health in All Policies.*

Kirish

Post-pandemiya davrida sog'liqni saqlash tizimi inqirozlarga qanchalik tayyorligi davlat boshqaruvining samaradorligi bilan o'lchanadigan bo'ldi. Yuqumli kasalliklar profilaktikasi va raqamli tibbiyot integratsiyasi endilikda faqat tibbiyot xodimlarining emas, balki davlat siyosatini shakllantiruvchi institutlarning (Public Policy Makers) bosh strategik masalasiga aylangan. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (PF-158) hamda 2026-yilda qabul qilingan PF-21 va PF-77 kabi normativ hujjatlari raqamli sog'liqni saqlash ekotizimini yaratishni kafolatlaydi. Biroq, bu jarayonni institutsional muvofiqlashtirish, xususiy sektorni jalb qilish va natijadorlikni monitoring qilishning yagona ilmiy asoslangan boshqaruv modeli hamon dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Muammoning dolzarbligi

Sog'liqni saqlashni boshqarishda texnologik infratuzilmani yaratish osonroq, biroq uni davlat boshqaruvining mavjud arxitekturasiga institutsional moslashtirish (Institutional Adaptation) eng murakkab jarayondir. Telemeditsinaning davlat tomonidan tartibga solinishi (Regulatory Framework) yetarlicha moslashuvchan emasligi axborot assimetriyasi, idoralararo tarqoqlik (silo effect) hamda byudjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, boshqaruvda dalillarga asoslangan siyosatga (Evidence-Based Policy) va "Health in All Policies" (Salomatlik barcha siyosatlarda) tamoyiliga ehtiyoj yuqori.

Adabiyotlar sharhi va ilmiy bo‘shliq

Xalqaro tajribada telemeditsina va raqamli sog'liqni saqlash boshqaruvi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Xususan, J. Kickbusch (2024) va T. Greenhalgh (2025) raqamli determinizmni sog'liqni saqlash siyosatida "Health in All Policies" doirasida o'rganishgan. OECD (2025) hisobotlarida davlat-xususiy sheriklik modellarining

raqamli tibbiyotdagi samaradorligi tartibga solish ta'sirini baholash (RIA) orqali ko'rsatilgan.

Ilmiy bo'shliq (Scientific Gap): Garchi raqamli tibbiyot texnologiyalari tibbiy (klinik) nuqtai nazardan keng yoritilgan bo'lsa-da, tranzitiv iqtisodiyotga ega davlatlarda (shu jumladan O'zbekistonda) uni huquqiy va ma'muriy boshqarish, xususan, "Maqsad-Harakat-Natija" uzviyligida monitoring qilishning yagona institutsional-raqamli mexanizmlari bo'yicha chuqur ilmiy-nazariy modellar yetishmaydi. Tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Institutsional tahlil (Institutional Analysis):** Davlat organlari, xususiy sektor va jamiyat o'rtasidagi funksional aloqalarni o'rganish.
- **Komparativ tahlil (Comparative Analysis):** Kanada, Estoniya, Singapur va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning raqamli boshqaruv arxitekturasini O'zbekiston holati bilan solishtirish.
- **Huquqiy tahlil (Policy Analysis):** PF-21, PF-77, PQ-140 kabi so'nggi normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash (RIA tamoyillari asosida).
- **Natijaga yo'naltirilgan boshqaruv (Results-Based Management):** Loyihalarning samaradorligini "Maqsad-Harakat-Natija" zanjiri doirasida baholash mexanizmlari.

Nazariy asoslar: "Whole-of-Government" va "Health in All Policies"

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tavsiya etadigan "Health in All Policies" yondashuvi sog'liqni saqlash inqirozlarini bartaraf etishda nafaqat Sog'liqni saqlash vazirligi, balki Raqamli texnologiyalar, Moliya, va Iqtisodiyot vazirliklarining konsolidatsiyalashgan (Whole-of-Government) ishtirokini talab qiladi. Telemeditsina integratsiyasini boshqarishda davlat rolini provayderlikdan (xizmat ko'rsatuvchi) regulyatorlikka (tartibga soluvchi) aylantirish ushbu tadqiqotning bosh nazariy paradigmasi hisoblanadi.

Xalqaro tajriba va Taqqoslash

Komparativ tahlil turli davlatlarning telemeditsina boshqaruv modellarida farqlar borligini ko'rsatadi:

- **Kanada (Canada Health Infoway):** Boshqaruv modeli markazlashmagan bo'lsa-da, "Pan-Canadian Interoperability Roadmap" (2024-2027) orqali ma'lumotlar almashinuvi yagona davlat standarti bilan tartibga

solingan. Davlat ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi, xususiy sektor (DXSH) infratuzilmani yaratadi.

- **Estoniya:** E-Estonia doirasida blokcheyn texnologiyasiga asoslangan "X-Road" ma'lumotlar almashinuvi tizimi orqali bemor va davlat muassasalari o'rtasida ishonchli institutsional arxitektura shakllangan.
- **Singapur va Janubiy Koreya:** Proaktiv "Goal-Action-Result" monitoringini joriy qilgan. Sun'iy intellekt (AI) vositasida yuqumli kasalliklar tarqalishini bashorat qiluvchi milliy platformalar (dashboard) orqali idoralararo (Whole-of-Society) qarorlar qabul qilinadi.

Taqqoslash va O'zbekiston tajribasi:

O'zbekistonda raqamli transformatsiyani joriy etish yuqoridan-pastga (top-down) usulida amalga oshirilmoqda. 2026-yilgi PF-21 Farmoniga asosan "O'zbekiston-2030" strategiyasi ko'rsatkichlarini raqamli monitoring qilish tizimi belgilandi. PF-77 Farmoni esa IT-Med markazi va Klinik audit inspeksiyasini tashkil etib, davlatning regulyatorlik funksiyasini kuchaytirdi. Biroq, xalqaro tajribadan farqli o'laroq, O'zbekistonda DXSH doirasida telemeditsina operatorlarining ma'muriy mas'uliyati va risklarni taqsimlash (Risk Passport) bo'yicha integratsiyalashgan model mavjud emas.

M.Rizakulovning yangi modeli: "Institutsional-raqamli boshqaruv modeli" (Goal-Action-Result Governance Model)

Aniqlangan ilmiy va amaliy bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida Mavlonjon Rizakulov tomonidan "Maqsad–Harakat–Natija" (Goal-Action-Result) yondashuviga asoslangan yaxlit (Integrated) institutsional-raqamli boshqaruv modeli ishlab chiqildi.

Model uchta makro-darajadan iborat:

I. Maqsad darajasi (Strategic Goal Framework):

Davlat siyosati va ustuvor maqsadlar (Masalan, SDG 3, O'zbekiston-2030 strategiyasi asosida kasalliklarni qisqartirish). Bu yerda Davlat boshqaruvi organlari (Vazirlar Mahkamasi, SSV) "Integrated KPI Passport" ni shakllantiradi.

II. Harakat darajasi (Action & Institutional Coordination):

Davlat va xususiy sektor hamkorligi (DXSH platformasi).

- *Regulyator:* SSV va IT-Med (Ma'lumotlar standarti, FHIR, xavfsizlik protokollari).
- *Ijrochi:* Xususiy telemeditsina operatorlari va autsorsing provayderlar.
- *Monitoring:* Klinik audit inspeksiyasi (PF-77 asosida dalillarga tayangan tibbiy-ma'muriy nazorat).

III. Natija darajasi (Evidence-Based Result Monitoring):

Yagona raqamli platformada "Digital Accountability Framework" ishga tushadi. Sun'iy intellekt orqali aholi salomatligining raqamli indeksi va idoralarning KPI ijrosi real vaqtda (Real-time Dashboard) monitoring qilinadi. Agar natijalar me'yordan og'sa, tizim avtomatik ravishda siyosatni o'zgartirish (Policy Adjustment) bo'yicha Tartibga solish ta'sirini baholash (RIA) signalini beradi.

Muhokama

Taklif etilayotgan "Goal-Action-Result Governance Model"ning asosiy ilmiy ahamiyati shundaki, u raqamlashtirishni shunchaki AT-infratuzilma emas, balki davlat boshqaruvi instituti sifatida qaraydi. Avvalgi tizimlarda faqat klinik natijalar (bemor tuzaldimi yoki yo'qmi) monitoring qilingan bo'lsa, ushbu model davlat xarajatlari samaradorligini, idoralararo hamkorlik sifatini va jamiyat farovonligini kompleks o'lchaydi. Bu Kanada (Canada Health Act) va WHOning so'nggi rezolyutsiyalariga (WHA78) to'la mos keladi. Shu bilan birga, tarmoq vazirliklarining axborot tizimlarini yagona arxitekturaga (interoperability) tushirish kabi texnik va qonuniy to'siqlar ushbu modelning amalga oshishidagi asosiy xatarlardan (risks) hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar va Normativ takliflar

1. **"Telemeditsina to'g'risida"gi va "Raqamli sog'liqni saqlash to'g'risida"gi qonun loyihalarini ishlab chiqish:** Davlat regulyatori va xususiy sektor majburiyatlari, hamda ma'lumotlar egaligi (data ownership) yuridik qat'iylashtirilishi shart.
2. **Raqamli DXSH (Digital PPP) mexanizmini joriy etish:** Telemeditsina markazlarini ochishni an'anaviy infrastruktura DXSHdan farqli ravishda, intellektual mulk va ma'lumotlar integratsiyasini inobatga oladigan maxsus mexanizmga o'tkazish.
3. **RIA Matrix (Tartibga solish ta'sirini baholash matritsasi)ni qo'llash:** Har qanday yangi raqamli sog'liqni saqlash dasturini tasdiqlashdan oldin uning byudjetga, aholining barcha qatlamlariga (shu jumladan chekka hududlarga) qanday ta'sir qilishini dalillarga asoslangan holda baholash mexanizmini majburiy qilish.
4. **"Integrated Digital Dashboard" (Yagona raqamli monitoring oynasi) tashkil etish:** PF-21 Farmoni asosida yuqumli kasalliklar profilaktikasi ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida Oliy Majlis va Jamoatchilik nazorati kuzatishi uchun ochiq ma'lumotlar portali bilan integratsiya qilish.

Xulosa

O'zbekistonda telemeditsina xizmatlarini rivojlantirish faqatgina texnologik masala emas, balki chuqur ma'muriy-institutsional islohotdir. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan "Maqsad–Harakat–Natija" institutsional-raqamli boshqaruv modeli davlat boshqaruvi nazariyasiga qo'shilgan hissa bo'lib, axborot texnologiyalari, DXSH prinsiplari va Evidence-Based Policy tamoyillarini o'zida birlashtiradi. Mazkur yondashuv idoraviy tarqoqlikni yo'q qiladi, davlat resurslarining samaradorligini kafolatlaydi hamda mamlakat sog'liqni saqlash tizimini innovatsion, adolatli va barqaror jamiyat barpo etishning asosiy drayveriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). *"O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida* (PF-158-son, 11-sentabr 2023-y.). Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2026). *Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida* (PF-21-son, 16-fevral 2026-y.). Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2026). *Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida* (PF-77-son, 5-may 2026-y.). Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2023). *Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida* (PQ-140-son). Lex.uz.
5. World Health Organization (WHO). (2025). *Global Strategy on Digital Health 2020–2025 (Extended to 2027)*. Geneva: WHO Press.
6. World Health Organization (WHO). (2024). *Digital Transformation Handbook for Primary Health Care: A Roadmap for Health Information Systems*. Geneva: WHO.
7. OECD. (2025). *Health Data Governance and Public Policy: Fostering Interoperability and Trust*. OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/health-data-gov-2025-en
8. Canada Health Infoway. (2025). *Connected Care Trust Framework Blueprint: Shared Pan-Canadian Interoperability Roadmap*. Canada Health Infoway.
KIRISH. So‘nggi yillarda respublikada xalqaro amaliyotda o‘z samaradorligini namoyon etgan, iqtisodiyotni rivojlantirish va uning barqarorligini ta’minlashda muhim institutsional mexanizm hisoblangan agroklaster tizimini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yondashuv bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, zamonaviy boshqaruv usullarini amaliyotga tatbiq etish hamda ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya jarayonlarini yagona zanjir asosida integratsiyalash imkonini bermoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “...biz o‘zimiz paxta yetishtirishni va undan tayyor mahsulotlar bilan jahon bozoriga chiqishni ta’minlashimiz zarur. Bunday holda, tabiiyki, foyda bir necha barobar ko‘payadi. Bundan tashqari, paxtadan yuzlab turdagi mahsulotlarni olish mumkin va ularning barchasi birgalikda iqtisodiy samarani bir necha bor oshiradi. Va eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi”[1]. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan strategik tashabbuslar doirasida agrar sohani barqaror rivojlantirish va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishning muhim institutsional mexanizmi sifatida agroklasterlar tizimini keng joriy etish nazarda tutilmoqda. Respublikamizda ushbu tizimni joriy qilish, uni qo‘llab-quvvatlashdan asosiy maqsad ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini xomashyo sifatida xorijiy mamalakatlarda sotish emas, balki shu xomashyoni o‘zimizda qayta ishlab “O’zbekiston” brendi ostida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, aholini turmush darajasini yaxshilash, aholi bandligini ta’minlash uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, munosib mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iboratdir. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentyabrda davlat budjeti tushumlarini ko‘paytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to‘liq bajarish bo‘yicha belgilangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish, paxta-to‘qimachilik sohasida agroklasterlarni joriy etishni jadalalashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida “Paxtachilikda qishloq xo‘jaligining kelajagi, uning iqtisodiy samaradorligi klasterlar bilan bog‘liq. Klasterlar agrar sohani jadal rivojlantirishning “lokomotivi” bo‘lishi kerak”[2] deb ta’kidlaganlar. Shunday ekan,

[1] http://uza.uz/oz/society/klasterlar-ishlo-kh-zhaligi-rivozhida-lokomotivga-aylanmo-da-23-07-2019

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 12 sentabr kuni davlat budjetiga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to‘liq bajarish, 9 oy va yil yakuni bo‘yicha belgilangan

kelajakda bu tizimga qishloq xo‘jaligining asosiy muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi. Jahon agrooziq-ovqat tizimida iqlim o‘zgarishi, suv resurslari tanqisligi, logistika uzilishlari va sifat standartlarining qat’iylashuvi ishlab chiqarishni alohida xo‘jaliklar darajasida emas, balki o‘zaro bog‘langan tarmoq va hududiy ekotizim sifatida boshqarishni talab qilmoqda. M.Porter klasterni geografik yaqin joylashgan, o‘zaro bog‘liq kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va institutlar majmuasi sifatida talqin qilib, raqobat bilan hamkorlikning bir vaqtda mavjudligini uning muhim xususiyati deb ko‘rsatga.[3] Agroiqtisodiyotda ushbu yondashuv ishlab chiqarish resurslari ta’minotidan boshlab yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, logistika, standartlashtirish va sotuvgacha bo‘lgan zanjirni muvofiqlashtirish imkonini beradi.

FAO tadqiqotida agroklasterlar rivojlanayotgan mamlakatlarda korxonalarning geografik konsentratsiyasi, bilim almashinuvi va umumiy infratuzilmadan foydalanish orqali raqobatbardoshlikni oshirishi, biroq klasterni ma’muriy yo‘l bilan tashkil etishning o‘zi yetarli emasligi ta’kidlanadi.[4] J.Trienekens qiymat zanjirini tahlil qilishda bozorga kirish, resurs va infratuzilma, institutsional muhit, qo‘shilgan qiymat, tarmoq tuzilmasi hamda boshqaruv mexanizmini birgalikda ko‘rib chiqishni taklif qiladi.[5] Demak, agroklaster samaradorligi korxonalar soni yoki ajratilgan yer maydoni bilan emas, zanjir bo‘yicha yaratilgan va adolatli taqsimlangan qo‘shilgan qiymat bilan baholanishi lozim.

Tadqiqot metologiyasi. Tadqiqotda agroklasterlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish uchun tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Agroklasterlar faoliyati ishlab chiqarish va qayta ishlash darajasi, investitsion va eksport salohiyati, innovatsion faollik, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda fermerlar bilan shartnomaviy munosabatlar mezonlari asosida baholandi. Tahlil natijalari asosida agroklasterlarni

makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish, paxta-to‘qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish ma’lumotlari.

[3] Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.

[4] Gálvez-Nogales E. Agro-based Clusters in Developing Countries: Staying Competitive in a Globalized Economy. FAO, Agricultural Management, Marketing and Finance Occasional Paper 25. Rome, 2010.

[5] Trienekens J.H. Agricultural Value Chains in Developing Countries: A Framework for Analysis // International Food and Agribusiness Management Review. 2011. Vol. 14, No. 2. P. 51–82.

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. O’zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 245,2 trln. so‘mni tashkil etib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 24,3 foizga yetgan. Mazkur tarmoq mamlakat iqtisodiy o‘sishiga 1,0 foiz punkt miqdorida ijobiy hissa qo‘shgan. Ayniqsa, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining hududiy yalpi mahsulot tarkibidagi ulushi Jizzax viloyatida 49,2 foiz, Surxondaryo viloyatida esa 48,7 foizni tashkil etgan. Bu agrar tarmoqning ayrim hududlar iqtisodiy barqarorligi, aholi daromadlari va bandligini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Tarmoqdagi o‘sish tendensiyalari agroklasterlarni yanada rivojlantirish uchun ob’ektiv iqtisodiy asos mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, 2025 yilning yanvar - sentabr oylarida O’zbekiston yalpi ichki mahsuloti 7,6 foizga o‘sgan bo‘lsa, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida o‘sish 3,6 foizni tashkil etgan hamda tarmoqning YaIM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,6 foiz punktga teng bo‘lgan. 2026 - yilning yanvar - mart oylarida esa qishloq, o‘rmon va baliqchilik mahsulotlari hamda xizmatlarining umumiy hajmi 63,4 trln. so‘mga yetib, 2025 - yilning mos davriga nisbatan 5,1 foizga o‘sgan. Uning 59,8 trln. so‘mi dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Agroklasterlarni rivojlantirish zarurati qishloq xo‘jaligi bilan qayta ishlash sanoati o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash talabi bilan ham bog‘liq. 2025 - yilning yanvar - oktabr oylarida mamlakatda 114,8 trln. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Hududlar kesimida Toshkent shahrida 22,6 trln. so‘mlik, Samarqand viloyatida 15,5 trln. so‘mlik, Toshkent viloyatida 15,4 trln. so‘mlik va Buxoro viloyatida 8,5 trln. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Ushbu hududiy farqlar qishloq xo‘jaligi xomashyosi mavjudligi bilan uni qayta ishlash quvvatlarining joylashuvi o‘rtasida hali ham muayyan nomutanosibliklar borligini ko‘rsatadi. Shu bois agroklasterlarni rivojlantirishda ishlab chiqarish quvvatlarini xomashyo bazasiga yaqinlashtirish, hududiy ixtisoslashuvni hisobga olish va logistika xarajatlarini kamaytirish muhim ahamiyatga ega.

Agroklasterlarning investitsion ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. 2025 - yilning yanvar - sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga o‘zlashtirilgan asosiy kapital investitsiyalari 39,2 trln. so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2024 - yilning mos davridagi 18,2 trln. so‘mga nisbatan 2,15 barobar

ko‘pdir. Shuningdek, 2024 - yilda tarmoqqa yo‘naltirilgan 25,7 trln. so‘m investitsiyaning 12,8 trln. so‘mi yoki qariyb 49,8 foizi xorijiy investitsiyalar va kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Mazkur holat agroklasterlarni zamonaviy qayta ishlash korxonalari, sovitish omborlari, logistika markazlari, suv tejovchi texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish uchun investitsion platforma sifatida rivojlantirish imkoniyati yuqori ekanini anglatadi.

Agroklasterlarning amaliy samarasini meva-sabzavotchilik sohasidagi natijalar ham tasdiqlaydi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O’zbekistonda bog‘dorchilikni rivojlantirish loyihalari doirasida 34,5 mingdan ortiq doimiy, qariyb 22 ming mavsumiy hamda qadoqlash, saqlash va mahsulot taqsimoti kabi yordamchi tarmoqlarda yana 5 mingta ish o‘rni yaratilgan. Doimiy ish o‘rinlarining qariyb 40 foizi, mavsumiy ish o‘rinlarining esa 75 foizi xotin-qizlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Zamonaviy agrotexnologiyalar va issiqxona usullarini qo‘llagan ishtirokchi xo‘jaliklarda hosildorlik 25-30 foizga, yalpi sotuv hajmi esa 35 foizga oshgan. Bu natijalar ishlab chiqarish, moliyalashtirish, texnologiya, saqlash va sotuvni o‘zaro bog‘lovchi klaster yondashuvi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki qishloq joylarda inklyuziv bandlikni ham ta’minlashini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, kichik ishlab chiqaruvchilarni agroklasterlar qiymat zanjiriga samarali jalb etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. 2024 - yilning yanvar - iyun oylarida kichik biznes sub’ektlari tomonidan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 164,6 trln. so‘mlik mahsulot va xizmatlar yaratilgan. Shundan 121,5 trln. so‘mi dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar, 43,1 trln. so‘mi esa kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Demak, agroklasterlarni faqat yirik korxonalarning vertikal integratsiyasi sifatida tashkil etish yetarli emas. Ularda fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining kooperativ asosda ishtirok etishi, umumiy sovitish, saralash, laboratoriya, logistika va marketing xizmatlaridan foydalanishi uchun teng imkoniyatlar yaratilishi zarur[6].

Agroklasterlarning rivojlanish qonuniyatlarini faqat ishlab chiqarish hajmi yoki klasterlar soni orqali baholash yetarli emas. Ilmiy jihatdan agroklaster samaradorligini qo‘shilgan qiymat darajasi, mahsulotni qayta ishlash chuqurligi, eksport geografiyasi va tovar tarkibining diversifikatsiyasi, mehnat unumdorligi, innovatsion faollik, suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda fermerlar manfaatlarining himoyalanganligi kabi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar asosida baholash zarur. Bunday yondashuv agroklasterni oddiy ishlab chiqarish birlashmasi emas, balki iqtisodiy,

[6] Ўзбекистон республикаси статистика қўмитаси маълумотлари.

texnologik, institutsional va ekologik munosabatlarni qamrab oluvchi murakkab hududiy tizim sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Agroklasterlar faoliyatini boshqarish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va natijadorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish bilan belgilanadi. Xususan, davlat imtiyozlari va subsidiyalarini faqat ishlab chiqarish hajmiga emas, balki bir gektar yer va bir kub metr suv hisobiga yaratilgan qo‘shilgan qiymat, qayta ishlash darajasi, eksport diversifikatsiyasi, yangi ish o‘rinlari va innovatsion texnologiyalar joriy etilishiga bog‘lash maqsadga muvofiq. Fermer va klaster o‘rtasidagi shartnomalarda narxni shakllantirish tartibi, mahsulot sifatini baholash mezonlari, resurslar qiymati, hisob-kitob muddatlari va nizolarni mustaqil hal etish mexanizmi aniq belgilanishi lozim.

Xulosa. Amalga oshirilgan tadqiqot agroklasterlarning iqtisodiy mazmuni qishloq xo‘jaligi sub’ektlarini bitta yirik korxona atrofida ma’muriy tarzda birlashtirishdan ancha keng ekanini ko‘rsatdi. Samarali agroklaster ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi, logistika tashkiloti, moliya muassasasi, ilmiy-tadqiqot markazi va savdo tarmoqlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli munosabatlarni shakllantiradigan hududiy iqtisodiy tizim sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bunday tizimning natijadorligi yetishtirilgan mahsulot miqdori bilangina emas, balki qiymat zanjirida yaratilgan qo‘shilgan qiymat, resurslardan foydalanish samaradorligi va ishtirokchilar daromadlarining mutanosibligi bilan belgilanadi.

Agroklaster modeli mahsulotni chuqur qayta ishlash, texnologik yangilanishni tezlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini muvofiqlashtirish va tashqi bozorlarga yirik tovar partiyalari bilan chiqish uchun zarur tashkiliy imkoniyatlarni yaratadi. Biroq klaster hududdagi yagona resurs yetkazib beruvchi va mahsulot xaridoriga aylanib qolgan sharoitda fermerlarning iqtisodiy mustaqilligi cheklanishi, narx shakllanishida axborot nomutanosibligi yuzaga kelishi hamda yaratilgan qiymatning notekis taqsimlanishi mumkin. Shuning uchun klasterlashuv darajasining ortishi doimo iqtisodiy samaradorlik o‘sishini anglatmaydi; natija munosabatlarning shaffofligi, raqobat muhiti va boshqaruv sifatiga ham bevosita bog‘liq.

Agroklasterlarni kelgusida rivojlantirishda ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga qaratilgan yondashuvdan iqtisodiy, innovatsion, ijtimoiy va ekologik natijalar muvozanatiga asoslangan boshqaruvga o‘tish talab etiladi. Ayniqsa, suv tanqisligi kuchayib borayotgan sharoitda gektar hisobiga olingan hosildorlikning o‘zi yetarli mezon bo‘la olmaydi. Qishloq xo‘jaligi sub’ektlarining faoliyatini bir kub metr suv, bir gektar yer va bir birlik energiya sarfi hisobiga yaratilgan qo‘shilgan qiymat orqali baholash resurs tejamkorlikni iqtisodiy manfaat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Shunday ekan istiqbolda agroklasterlarni rivojlantirish va ularning barqarorligini ta’minlash maqsadida quyida chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, agroklasterlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq. Imtiyozli kredit, subsidiya va soliq preferensiyalari mahsulot hajmiga emas, qayta ishlash chuqurligi, mehnat unumdorligi, suv samaradorligi, eksport tarkibining diversifikatsiyasi va yaratilgan barqaror ish o‘rinlari kabi yakuniy natijalarga bog‘lanishi lozim. Bu davlat mablag‘larining samarasiz xo‘jalik faoliyatini qoplash vositasiga aylanib qolishining oldini oladi.

Ikkinchidan, fermer va klaster o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning yagona minimal standartlarini belgilash zarur. Shartnomada mahsulot narxini hisoblash usuli, sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash tartibi, yetkazib berilgan resurslar qiymati, to‘lov muddati, kechiktirilgan hisob-kitob uchun moliyaviy javobgarlik va nizoni mustaqil ko‘rib chiqish mexanizmi aniq ifodalanishi kerak. Elektron shartnomalar reyestrini shakllantirish tomonlarning majburiyatlarini kuzatish va yashirin hisob-kitoblarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, hududda muqobil xaridorlar va xizmat ko‘rsatuvchilar faoliyati uchun teng sharoit yaratish lozim. Fermerga mahsulotini faqat bitta klasterga sotish majburiyatini yuklash o‘rniga, sifat va shartnoma talablarini bajargan holda bir nechta xaridor taklifini tanlash imkoniyati berilishi kerak. Mazkur mexanizm klasterlarni ma’muriy ustunlik orqali emas, narx, xizmat sifati va texnologik yordam bo‘yicha raqobatlashishga undaydi.

To‘rtinchidan, har bir agroklaster huzurida ilmiy muassasa, oliy ta’lim tashkiloti va ishlab chiqarish sub’ektlarining hamkorligiga asoslangan innovatsion platforma tashkil etish taklif qilinadi. Uning vazifalari yangi nav va texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish, tuproq va suv holatini tahlil qilish, texnologik jarayonlarni raqamlashtirish hamda mutaxassislarning amaliy malakasini oshirishdan iborat bo‘lishi lozim. Ilmiy ishlanmalarni joriy etish xarajatlarining bir qismini innovatsion vaucherlar orqali moliyalashtirish klasterlarning tadqiqot natijalariga bo‘lgan talabini kuchaytiradi.

Beshinchidan, agroklasterlarning resurs samaradorligini baholovchi maxsus ekologik pasportni joriy etish maqsadga muvofiq. Unda suv sarfi, tuproq unumdorligining o‘zgarishi, energiya iste’moli, kimyoviy vositalardan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va issiqxona gazlari chiqindisi kabi ko‘rsatkichlar aks ettirilishi zarur. Ekologik ko‘rsatkichlari yaxshilangan klasterlarga yashil kreditlar va qo‘shimcha moliyaviy rag‘batlar taqdim etilishi mumkin.

Oltinchidan, dehqon, tomorqa va kichik fermer xo‘jaliklarini klaster zanjiriga teng huquqli ishtirokchi sifatida kiritish uchun gorizontal kooperatsiyani rivojlantirish talab etiladi. Umumiy foydalaniladigan yig‘ish, saralash, sovitish, qadoqlash va laboratoriya markazlarining tashkil etilishi kichik xo‘jaliklarga yirik tovar partiyalarini shakllantirish hamda ichki va tashqi bozor standartlariga moslashish imkonini beradi. Bunday markazlar klaster mulki emas, ishtirokchi xo‘jaliklar ulushiga asoslangan kooperativ tuzilma shaklida tashkil etilsa, manfaatlar muvozanati yaxshiroq ta’minlanadi.

Yettinchidan, agroklasterlar faoliyatining ochiq reytingini ishlab chiqish zarur. Reyting qayta ishlash darajasi, qo‘shilgan qiymat, eksport bozorlari soni, shartnomalar bo‘yicha o‘z vaqtida hisob-kitob qilish, suv tejamkorligi, innovatsiyalarga sarflangan mablag‘ va fermerlarning qoniqish darajasi kabi ko‘rsatkichlarni qamrab olishi lozim. Natijalarning ochiq e’lon qilinishi investorlar, banklar, davlat organlari va ishlab chiqaruvchilar uchun ob’ektiv axborot manbaini shakllantiradi.

Sakkizinchidan, mahsulot harakatini “daladan yakuniy iste’molchigacha” kuzatish imkonini beruvchi raqamli pasport tizimini bosqichma-bosqich joriy etish taklif qilinadi. Unda mahsulotning kelib chiqishi, ishlatilgan resurslar, agrotexnik tadbirlar, laboratoriya natijalari, qayta ishlash va logistika bosqichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlanishi lozim. Shu bilan birga, fermerlarning tijorat ma’lumotlarini himoya qilish va platformalardan teng foydalanish huquqini kafolatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 12 sentabr kuni davlat budjetiga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to‘liq bajarish, 9 oy va yil yakuni bo‘yicha belgilangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish, paxta-to‘qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish ma’lumotlari.

2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.

3. Gálvez-Nogales E. Agro-based Clusters in Developing Countries: Staying Competitive in a Globalized Economy. FAO, Agricultural Management, Marketing and Finance Occasional Paper 25. Rome, 2010.

4. Trienekens J.H. Agricultural Value Chains in Developing Countries: A Framework for Analysis // International Food and Agribusiness Management Review. 2011. Vol. 14, No. 2. P. 51–82.

5. Berdiyev A.H. Klasterlar faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning

natijalari va samaradorligi. // “Soliq va Hayot” jurnali. 4-son 2025 yil. 37-47-betlar. www.soliqvahayot.uz

6. Berdiyev A.H. Agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari. // “Innovatsion iqtisodiyot” jurnali. 4-son 2025 yil. 12-19-betlar.

7. Berdiyev A.H. Agroklasterlar samaradorligini oshirish yo‘llari. // “Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. 2-son 2025 yil. 127-133-b.

8. Berdiyev A.H. Agroklasterlar samaradorligini oshirish yo‘llari. // Raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellektni rivojlantirish va zamonaviy matematikani o‘qitish muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi-2025. 164-172-betlar.

9. Berdiyev A.H. Agroklasterlarida paxta xom-ashyosi ishlab chiqarish va qayta ishlash integrasiyasi istiqbollari. // Intellektual axborot tizimlari va raqamli transformatsiya jarayonlarining innovatsion yechimlari. Xalqaro ilmiy - amaliy anjuman materiallari. Qarshi-2026. 215-219-betlar.

10. http://uza.uz/oz/society/klasterlar-ishlo-kh-zhaligi-rivozhida-lokomotivga-aylanmo-da-23-07-2019

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ И МОДЕРНИЗАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ

Абдурахманова Мукаддас Тохтасиновна
и.о доцент, кафедры зелёная экономика, ТЭГУ Республика Узбекистан, г. Ташкент
mqdsabd@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-4686-8437

Аннотация. *В тезисе проведено комплексное исследование международного опыта модернизации железнодорожной транспортной системы в условиях цифровой трансформации экономики. Особое внимание уделено зарубежным практикам интеграции цифровых технологий в деятельность железнодорожного транспорта, совершенствованию автоматизированных систем управления и мониторинга, оптимизации логистических операций, а также внедрению интеллектуальных транспортных решений и цифровых платформ. Рассмотрены организационно-экономические аспекты цифровизации железнодорожной отрасли и ее влияние на повышение эффективности транспортных процессов, рациональное использование ресурсов, сокращение операционных издержек, качество транспортных услуг и конкурентоспособность железнодорожного транспорта.*

Ключевые слова. *Цифровая экономика, цифровая трансформация, железнодорожный транспорт, модернизация, цифровизация, автоматизированные системы управления, интеллектуальные транспортные технологии.*

Abstract*. This thesis provides a comprehensive analysis of international experience in modernizing railway transport systems under the conditions of digital economic transformation. Particular attention is given to international practices of integrating digital technologies into railway operations, improving automated management and monitoring systems, optimizing logistics processes, and implementing intelligent transport solutions and digital platforms. The study examines the organizational and economic dimensions of railway digitalization and evaluates its contribution to improving transport efficiency, ensuring rational resource utilization, reducing operational costs, enhancing the quality of transport services, and strengthening the competitiveness of railway systems.*

Keywords. *Digital economy, digital transformation, railway transport, modernization, digitalization, automated management systems, intelligent transport technologies.*

Annotatsiya. *Mazkur tezisda raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida temir yo‘l transport tizimini modernizatsiya qilishning xalqaro amaliyoti kompleks ravishda tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida temir yo‘l transportida raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, avtomatlashtirilgan boshqaruv va monitoring tizimlarini takomillashtirish, logistika operatsiyalarining samaradorligini oshirish, shuningdek, aqlli transport yechimlari va innovatsion raqamli platformalarni amaliyotga tatbiq etishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamlashtirishning transport xizmatlari sifati, resurslardan oqilona foydalanish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish va temir yo‘l tizimining raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan asoslangan.*

Keywords. *Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, temir yo‘l transporti, modernizatsiya, raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, intellektual transport texnologiyalari.*

Транспорт является одной из важнейших отраслей материального производства, поскольку обеспечивает пространственную взаимосвязь между территориями, где производится продукция, и регионами её потребления. Согласно данным Всемирного банка, объём мирового транспортного рынка составляет около 4,2 трлн долларов США, что соответствует 6,8 % мирового валового внутреннего продукта (ВВП) [1]. В условиях усложнения и углубления процессов развития мировой экономики транспортная отрасль трансформировалась в высокотехнологичную и взаимосвязанную систему, характеризующуюся значительной потребностью в энергетических и природных ресурсах.

Наличие развитой транспортной инфраструктуры рассматривается как один из ключевых факторов, определяющих привлекательность территорий для населения и бизнеса. Такая инфраструктура формирует благоприятные условия для размещения производственных мощностей, а также способствует углублению интеграционных процессов и укреплению хозяйственных взаимосвязей в экономике.

Транспорт является одной из базовых отраслей материального производства, обеспечивающей территориальную взаимосвязь между регионами производства продукции и территориями её конечного потребления. Согласно данным Всемирного банка, объём мирового транспортного рынка составляет приблизительно 4,2 трлн долларов США, что соответствует около 6,8 % мирового валового внутреннего продукта (ВВП) [1]. В условиях возрастающей сложности мировой экономики

транспортная отрасль превратилась в высокотехнологичную и взаимосвязанную систему, характеризующуюся значительным потреблением энергетических и природных ресурсов.

В настоящее время в Узбекистане приоритетное внимание уделяется развитию и модернизации железнодорожной транспортной инфраструктуры. Общая протяжённость железнодорожных путей республики составляет более 7 тыс. км, из которых свыше 2 тыс. км приходятся на электрифицированные железнодорожные линии. Данная ситуация способствует повышению оперативности перевозок грузов и пассажиров, улучшению качества транспортных услуг, а также обеспечению эффективности функционирования транспортной системы [2].

Вместе с тем основная доля грузовых перевозок в стране приходится на автомобильный транспорт. В частности, более 90 % общего объёма грузовых перевозок осуществляется автомобильным транспортом, что свидетельствует о его значительной роли в национальной экономике [3]. Вместе с тем железнодорожный транспорт также обладает стратегическим значением. Так, в 2023 году данным видом транспорта было перевезено более 70 млн тонн грузов, что является важным фактором повышения транзитного потенциала страны и развития международных логистических связей.

Кроме того, функционирование более 20 современных логистических центров в различных регионах республики создаёт благоприятные условия для эффективной организации процессов обработки, хранения и распределения грузов, а также способствует повышению эффективности логистической инфраструктуры страны [6].

Индекс цифровизации железнодорожной транспортной системы:

$$\text{ИДТЖТС} = \sum_{i=1}^{n} w_i \cdot X_i$$

ИДТЖТС — **интегральный индекс цифровизации железнодорожной транспортной системы;**

X_i — значение i-го показателя цифровой трансформации;

w_i — весовой коэффициент соответствующего показателя;

n — количество анализируемых показателей;

$\sum_{i=1}^{n} w_i = 1.$

Анализ интегрального индекса цифровизации железнодорожной транспортной системы. Для комплексной оценки уровня цифровой трансформации железнодорожной транспортной системы целесообразно использовать интегральный индекс цифровизации, позволяющий объединить ряд взаимосвязанных показателей в единую аналитическую модель.

В рамках исследования интегральный индекс может формироваться на основе пяти ключевых компонентов: уровня цифровизации транспортной инфраструктуры ((D)), степени автоматизации управленческих процессов ((A)), уровня цифровизации логистических операций ((L)), распространения интеллектуальных транспортных систем ((S)) и степени интеграции цифровых платформ ((I)). В результате модель приобретает следующий вид:

[ИДТЖТС=w_1D+w_2A+w_3L+w_4S+w_5I]

Данная модель позволяет перейти от анализа отдельных цифровых решений к комплексной оценке технологической зрелости железнодорожной отрасли. При этом высокий показатель (D) свидетельствует о развитости цифровой инфраструктуры, включая системы автоматизированного контроля, датчики, телекоммуникационные сети и цифровые средства мониторинга. Показатель (A) характеризует степень автоматизации управления движением поездов, техническим обслуживанием и другими операционными процессами.

Показатель (L) отражает уровень цифровизации грузовых и пассажирских логистических операций, включая электронный документооборот, отслеживание грузов, цифровое планирование маршрутов и интеграцию участников транспортной цепочки. Компонент (S) позволяет оценить внедрение интеллектуальных транспортных систем, использующих технологии искусственного интеллекта, Internet of Things, большие данные и прогнозную аналитику. Показатель (I), в свою очередь, характеризует степень взаимной интеграции цифровых платформ, информационных систем перевозчиков, логистических операторов и государственных органов.

Практическая ценность предлагаемого подхода заключается в возможности проведения межстранового сравнительного анализа. Например, при сопоставлении железнодорожных систем Германии, Японии и Узбекистана каждому компоненту может быть присвоено нормированное значение в диапазоне от 0 до 1. Чем ближе значение интегрального индекса к 1, тем выше уровень цифровой зрелости и технологической модернизации железнодорожной транспортной системы.

Для повышения объективности исследования весовые коэффициенты могут определяться экспертным методом, методом анализа иерархий (AHP) либо на основе статистической значимости отдельных факторов. В качестве альтернативного подхода возможно использование равных весов, когда:

[w_1=w_2=w_3=w_4=w_5=0,2]

В этом случае интегральный индекс рассчитывается следующим образом:

[ИДТЖТС=0,2(D+A+L+S+I)]

Таким образом, предложенный интегральный показатель позволяет количественно оценить степень цифровизации и модернизации железнодорожной транспортной системы, выявить технологические отставания и определить приоритетные направления цифровой трансформации. Использование данного подхода особенно актуально при сравнении международного опыта, поскольку он обеспечивает сопоставимость различных национальных железнодорожных систем по единой системе критериев.

Выводы и предложения

1. Модернизация железнодорожной транспортной системы является одним из приоритетных направлений повышения эффективности транспортно-логистической инфраструктуры Узбекистана. Развитие электрифицированных железнодорожных линий и обновление инфраструктуры создают предпосылки для повышения скорости, надёжности и качества перевозок.

2. Цифровизация железнодорожного транспорта выступает важнейшим фактором его технологической трансформации. Внедрение автоматизированных систем управления, цифровых платформ, интеллектуальных транспортных технологий и современных систем мониторинга позволяет оптимизировать эксплуатационные процессы и повысить эффективность управления перевозками.

3. Международный опыт развитых стран показывает, что комплексная интеграция цифровых технологий в железнодорожную отрасль способствует снижению операционных затрат, повышению безопасности движения, рациональному использованию энергетических ресурсов и улучшению качества транспортного обслуживания.

4. Повышение роли железнодорожного транспорта в транзитных и международных перевозках имеет стратегическое значение для Узбекистана. Перевозка более 70 млн тонн грузов железнодорожным транспортом в 2023 году свидетельствует о наличии значительного потенциала для дальнейшего развития транзитных маршрутов и укрепления международных логистических связей.

5. Дальнейшее развитие железнодорожной системы Узбекистана целесообразно осуществлять на основе комплексной цифровой модернизации, расширения электрификации, развития современных логистических центров и внедрения интеллектуальных транспортных решений. Реализация данных направлений позволит повысить конкурентоспособность железнодорожного транспорта, укрепить транзитный потенциал страны и обеспечить его устойчивое развитие в условиях цифровой экономики.

Список использованной литературы

1. Всемирный банк. Показатели мирового развития (World Development Indicators). — Вашингтон, округ Колумбия: Всемирный банк.

2. Всемирный банк. Показатели мирового развития [Электронный ресурс]. — Режим доступа: http://data.worldbank.org/indicator (дата обращения: 10.08.2026).

3. Всемирный экономический форум. Доклад о глобальной конкурентоспособности 2022: показатели инфраструктуры. — Женева: World Economic Forum, 2022.

4. Rodrigue, J.-P., Notteboom, T. География транспортных систем. — Нью-Йорк: Routledge, 2020.

5. Кристаллин, М. Транспорт и экономический рост: теоретические основы и практические решения. — Москва: Экономика и статистика, 2009.

6. Higgins, D., James, P. Экономическая эффективность инвестиций в транспортную инфраструктуру. — Лондон: Cambridge University Press, 2012.

7. Терёшина, Н. П., Потапова, Е. В., Терёшина, Н. В., Епишкин, И. А. Экономика транспорта: учебное пособие. — Москва: РУТ (МИИТ), 2018. — 142 с.

8. Ngo, T. Сравнительный анализ транспортных систем Европейского союза и стран Азии: проблемы и перспективы // Журнал экономики транспорта. — 2015. — Т. 58, № 2. — С. 45–60.

REGIONAL INTEGRATION IN THE GULF COOPERATION COUNCIL: THEORETICAL PERSPECTIVES AND TRANSFORMATION IN THE CONTEXT OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Sharipova Dildora Anvar qizi
PhD researcher
National University of Uzbekistan, Uzbekistan
dilyadildora581@gmail.com

Abstract. *This article examines the development and transformation of regional integration in the Gulf Cooperation Council (GCC) from the perspective of contemporary regional integration theories and sustainable development. The study focuses on the extent to which classical and contemporary theoretical approaches, including neofunctionalism, intergovernmentalism, constructivism, and comparative regionalism, can explain the specific characteristics of the GCC integration process. Unlike the European model of integration, the GCC has developed within a regional environment strongly influenced by security concerns, state sovereignty, shared cultural identity, and intergovernmental cooperation. The article applies qualitative and comparative approaches to analyze the evolution of GCC institutions and the changing nature of regional cooperation among its member states. Particular attention is given to the transformation of regional integration from primarily security and political coordination toward broader cooperation in economic diversification, innovation, infrastructure, and sustainable development. The study concludes that the transformation of the GCC provides valuable insights for developing a more comprehensive and context-sensitive understanding of regional integration and its contribution to sustainable development in the contemporary international system.*

Keywords: *regional integration, Gulf Cooperation Council, GCC, regionalism, integration theories, sustainable development, comparative regionalism.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются развитие и трансформация региональной интеграции в рамках Совета сотрудничества арабских государств Персидского залива (ССАГПЗ) с позиций современных теорий региональной интеграции и устойчивого развития. Основное внимание уделяется вопросу о том, в какой степени классические и современные теоретические подходы, включая неофункционализм, межправительственный подход, конструктивизм и*

сравнительный регионализм, позволяют объяснить специфические особенности интеграционного процесса в рамках ССАГПЗ. В отличие от европейской модели интеграции, ССАГПЗ формировался и развивался в региональной среде, на которую существенное влияние оказывают вопросы безопасности, государственный суверенитет, общая культурная идентичность и межправительственное взаимодействие. В исследовании применяются качественный и сравнительный подходы для анализа эволюции институтов ССАГПЗ и изменения характера регионального сотрудничества между государствами-участниками. Особое внимание уделяется трансформации региональной интеграции — от преимущественно вопросов безопасности и политической координации к более широкому сотрудничеству в сферах экономической диверсификации, инноваций, инфраструктурного развития и устойчивого развития. Его опыт демонстрирует важность сочетания институциональных, политических, военно-безопасностных и идентичностных подходов при анализе региональной интеграции за пределами европейского контекста. В заключение отмечается, что трансформация ССАГПЗ предоставляет важные возможности для формирования более комплексного и контекстно-ориентированного понимания региональной интеграции и ее вклада в обеспечение устойчивого развития в условиях современной международной системы.

Ключевые слова: *региональная интеграция, Совет сотрудничества арабских государств Персидского залива (ССАГПЗ), регионализм, теории интеграции, устойчивое развитие, сравнительный регионализм.*

Introduction

Regional integration is not a uniform process that follows a single institutional or political trajectory. Different regions have developed distinct forms of cooperation depending on their historical experiences, security environments, political structures, and socio-cultural characteristics[7]. The development of regional integration theories after the Second World War was strongly influenced by the European experience, particularly through functionalist, neofunctionalist, and intergovernmentalist approaches[8]. These theories provided important explanations of how states transfer certain functions to regional institutions, respond to increasing interdependence, and coordinate their national interests. However, the emergence of regional organizations outside Europe has demonstrated that regional cooperation can develop according to different institutional and political patterns.

[7] Frank Schimmelfennig, "Regional Integration Theory," *Oxford Research Encyclopedia of Politics* (Oxford University Press, 2018), https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228637.013.599

[8] Ernst B. Haas, *The Uniting of Europe: Political, Social, and Economic Forces, 1950–1957* (Stanford: Stanford University Press, 1958); Frank Schimmelfennig, "Regional Integration Theory."

The Gulf Cooperation Council (GCC) offers a significant case for examining these differences. Established in 1981, the GCC brings together Bahrain, Kuwait, Oman, Qatar, Saudi Arabia, and the United Arab Emirates[9]. Its formation was closely connected with the security and political circumstances of the Gulf region and the shared interests of the six states. Since its establishment, however, the organization has gradually expanded the scope of cooperation beyond its initial security-oriented objectives. Economic coordination, trade, investment, infrastructure, and other areas of regional cooperation have increasingly become part of the GCC agenda[10]. This development raises an important question concerning the nature and direction of regional integration in a region where national sovereignty remains a central principle of interstate relations.

The GCC experience also demonstrates a significant difference between regional cooperation in the Gulf and the European integration model[11]. The European Union has developed extensive supranational institutions and mechanisms of collective decision-making, whereas the GCC has remained primarily based on intergovernmental cooperation[12]. Member states continue to exercise considerable control over major political and strategic decisions. At the same time, common cultural characteristics, similar political systems, shared security concerns, and historical connections have contributed to the persistence of regional cooperation. These characteristics make the GCC a valuable case for examining whether regional integration can be understood through theoretical frameworks developed primarily from the European experience.

The transformation of GCC cooperation is particularly relevant in the context of contemporary sustainable development[13]. The Gulf states are increasingly pursuing economic diversification, technological modernization, innovation, infrastructure development, and new forms of regional economic cooperation[14]. These processes indicate that the functions of regional cooperation are gradually expanding beyond traditional security and political coordination. From this perspective, sustainable development provides an additional dimension through which the transformation of GCC regionalism can be examined. Regional cooperation can facilitate the coordination of economic policies,

[9] Gulf Cooperation Council, "Charter of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf," arts. 1 and 5, 1981.
[10] Gulf Cooperation Council, "Charter of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf," art. 4.
[11] Frank Schimmelfennig, "Regional Integration Theory," *Oxford Research Encyclopedia of Politics* (Oxford University Press, 2018).
[12] Gulf Cooperation Council, "Charter of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf," arts. 6–7.
[13] Joerg Beutel, "Economic Diversification and Sustainable Development of GCC Countries," in *When Can Oil Economies Be Deemed Sustainable? The Political Economy of the Middle East*, ed. Giacomo Luciani and Tareq Moerenhout (Singapore: Palgrave Macmillan, 2021), 99–151, https://doi.org/10.1007/978-981-15-5728-6_6
[14] International Monetary Fund, *Economic Diversification in the GCC: Past, Present, and Future*, Staff Discussion Note (Washington, DC: International Monetary Fund, 2016).

infrastructure projects, technological initiatives, and long-term development priorities while preserving the sovereignty of individual member states.

The theoretical significance of the GCC case lies in the fact that its development cannot be fully explained by a single theory of regional integration. Neofunctionalism provides useful tools for examining whether cooperation in one sector generates further integration in other sectors, while intergovernmentalism emphasizes the continuing importance of national interests and state sovereignty[15]. Constructivist approaches, in turn, draw attention to shared identities, norms, and social understandings among member states. Comparative regionalism further makes it possible to examine the GCC without treating the European experience as a universal model of regional integration[16]. The combination of these perspectives provides a broader analytical framework for understanding the specific character of integration in the Gulf.

Among these organizations, the Gulf Cooperation Council (GCC), established in 1981, represents a unique case of regional integration. Bringing together six Arab monarchies—Bahrain, Kuwait, Oman, Qatar, Saudi Arabia, and the United Arab Emirates—the GCC was initially created to strengthen regional security and political coordination in response to growing geopolitical challenges in the Gulf region (Ulrichsen, 2018). Over time, the organization has expanded its activities to include economic integration, common market initiatives, infrastructure cooperation, and coordinated foreign policy mechanisms[17].

Therefore, this article examines the GCC as a distinctive model of regional integration and reassesses the evolution and transformation of regional integration theories through its experience. The study argues that the GCC represents an alternative pathway of regionalism that challenges Eurocentric assumptions and contributes to the development of a more comprehensive theoretical understanding of regional integration in contemporary international relations.

Literature Review and Theoretical Framework

The study of regional integration has developed into an important field within International Relations, particularly since the establishment and expansion of European integration after the Second World War. Early theoretical approaches were largely concerned with explaining the emergence of cooperation among European states and the gradual development of regional institutions. Functionalism emphasized the potential of cooperation in specific technical and economic areas to reduce conflict and create conditions for broader

[15] Ernst B. Haas, *The Uniting of Europe*; Stanley Hoffmann, "Obstinate or Obsolete? The Fate of the Nation-State and the Case of Western Europe," *Daedalus* 95, no. 3 (1966): 862–915.
[16] Fredrik Söderbaum, *Rethinking Regionalism* (London: Palgrave Macmillan, 2016); Thomas A. Börzel and Thomas Risse, eds., *The Oxford Handbook of Comparative Regionalism* (Oxford: Oxford University Press, 2016).
[17] Bianco, C., & Stansfield, G. (2018). The GCC in Transition.

forms of cooperation. This approach provided an important foundation for subsequent theories of regional integration by shifting attention from traditional power politics toward functional cooperation and institutional development[18].

Building on functionalist ideas, neofunctionalism became one of the most influential approaches to the study of European integration. Ernst B. Haas conceptualized integration as a dynamic process in which cooperation in one policy sector could generate pressures for cooperation in other sectors through the mechanism of "spillover."[19] According to this perspective, the development of regional institutions and the activities of supranational and transnational actors may contribute to the gradual expansion and deepening of integration[20]. Neofunctionalism therefore provides a useful analytical framework for examining whether economic and functional cooperation can generate broader institutional and political integration. However, the experience of European integration also demonstrated that integration processes could experience periods of stagnation and political resistance, raising questions about the explanatory capacity of a purely functionalist approach.

Intergovernmentalism emerged partly in response to these limitations by emphasizing the continuing importance of national governments and state interests. Stanley Hoffmann argued that the progress of regional integration is strongly influenced by the interests and preferences of sovereign states[21]. From this perspective, regional institutions do not necessarily replace national decision-making; rather, states remain the principal actors in determining the scope and limits of regional cooperation. Liberal intergovernmentalism subsequently developed this argument by emphasizing the role of domestic preferences, national interests, and interstate bargaining in the process of European integration[22]. This theoretical perspective is particularly relevant to the GCC because its institutional structure continues to place considerable emphasis on state sovereignty and consensus among member governments.

The expansion of regional organizations beyond Europe from the 1990s onward contributed to the development of broader approaches to regionalism. The new regionalism perspective emphasized that contemporary regional cooperation cannot be reduced to economic integration alone. Regionalism may simultaneously involve political, economic,

[18] David Mitrany, *A Working Peace System: An Argument for the Functional Development of International Organization* (Chicago: Quadrangle Books, 1966).
[19] Ernst B. Haas, *The Uniting of Europe: Political, Social, and Economic Forces, 1950–1957* (Stanford: Stanford University Press, 1958).
[20] Ernst B. Haas, *The Uniting of Europe*.
[21] Stanley Hoffmann, "Obstinate or Obsolete? The Fate of the Nation-State and the Case of Western Europe," *Daedalus* 95, no. 3 (1966): 862–915.
[22] Andrew Moravcsik, *The Choice for Europe: Social Purpose and State Power from Messina to Maastricht* (Ithaca, NY: Cornell University Press, 1998).

security, social, cultural, and institutional dimensions[23]. This approach is particularly relevant to regions in which formal supranational integration is limited but extensive forms of intergovernmental cooperation continue to develop. It also provides a basis for examining regional organizations according to their own historical and political contexts rather than measuring them exclusively against the European experience.

The development of comparative regionalism further challenged Eurocentric assumptions within the study of regional integration. Comparative regionalist scholarship emphasizes that regional organizations emerge under different historical, institutional, political, and socio-economic conditions and therefore may follow different trajectories of regional cooperation[24]. From this perspective, the European Union should be regarded as one important example of regional integration rather than as a universal model applicable to all regions. This analytical shift is particularly important for studying the Middle East, where regional cooperation has developed within a political environment characterized by security challenges, strong state sovereignty, and distinctive historical and cultural conditions.

Within this broader theoretical debate, the Gulf Cooperation Council provides an important case for examining the diversity and transformation of regional integration. Established in 1981 by Bahrain, Kuwait, Oman, Qatar, Saudi Arabia, and the United Arab Emirates, the GCC was created in a regional environment characterized by significant security and political challenges[25]. Its institutional development was closely associated with the need for coordination among the Gulf monarchies in response to a changing regional security environment. Nevertheless, the organization has gradually expanded its activities beyond security cooperation to include economic, financial, infrastructural, technological, and other areas of regional coordination.

The GCC differs institutionally from the European Union in several important respects. While European integration has involved the development of relatively strong supranational institutions, the GCC has remained primarily an intergovernmental organization in which member states retain significant control over major political and strategic decisions[26]. This institutional characteristic limits the applicability of neofunctionalist expectations concerning automatic spillover from functional cooperation toward deeper political integration[27]. Economic and institutional cooperation within the

[23] Björn Hettne, "Beyond the 'New' Regionalism," *New Political Economy* 10, no. 4 (2005): 543–571.
[24] Tanja A. Börzel and Thomas Risse, eds., *The Oxford Handbook of Comparative Regionalism* (Oxford: Oxford University Press, 2016).
[25] Gulf Cooperation Council, "Charter of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf," 1981.
[26] Frank Schimmelfennig, "Regional Integration Theory," *Oxford Research Encyclopedia of Politics* (Oxford University Press, 2018), https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228637.013.599; Gulf Cooperation Council, "Charter of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf," 1981.
[27] Ernst B. Haas, *The Uniting of Europe*; Frank Schimmelfennig, "Regional Integration Theory."

GCC has expanded, but this expansion has not resulted in the creation of a supranational authority comparable to that of the European Union.

At the same time, an exclusively intergovernmentalist interpretation does not fully explain the persistence and development of GCC cooperation. The member states share important cultural, historical, social, and political characteristics, while common Arab and Islamic identities provide additional sources of regional cohesion. These ideational factors can be examined through a constructivist perspective, which emphasizes the role of shared identities, norms, and socially constructed understandings in shaping interstate relations. From this perspective, regional cooperation is not determined solely by material interests but is also influenced by the ways in which states perceive their common identity and regional community.

Security remains another central factor in the development of GCC regionalism. The organization emerged within a region characterized by persistent geopolitical competition and security uncertainty. Consequently, the GCC has often functioned as a mechanism for coordinating the interests and security policies of its member states rather than as an organization primarily designed to establish supranational political institutions. At the same time, internal disagreements among member states, including the Qatar diplomatic crisis, have demonstrated the limits of regional institutional cohesion and the continuing importance of national interests in shaping collective action.

The economic dimension of GCC regionalism has become increasingly significant in recent decades. Gulf states have sought to reduce their dependence on hydrocarbons through economic diversification, technological development, infrastructure investment, and innovation-oriented development strategies[28]. These processes have introduced new dimensions into regional cooperation and have increased the relevance of sustainable development to the study of GCC integration. Economic diversification and innovation are not only national development objectives but can also create opportunities for deeper regional cooperation through investment, infrastructure, technology transfer, and coordinated development initiatives.

From this perspective, sustainable development can be considered an important contemporary dimension of GCC regionalism. The transformation of regional cooperation from predominantly security-oriented coordination toward broader economic and developmental cooperation illustrates how regional organizations can adapt to changing global and domestic conditions. The GCC experience therefore provides an opportunity to

[28] Sami Mahroum and Yasser Al-Saleh, "Demand-led Related Diversification: An Innovation Policy Approach to Economic Diversification and Development," *Science and Public Policy* 40, no. 3 (2013): 406–418, https://doi.org/10.1093/scipol/scs126

examine whether regional integration can contribute to sustainable development without necessarily following the institutional path of European integration.

Based on the existing theoretical literature, this study adopts a comparative regionalism framework while incorporating insights from neofunctionalism, intergovernmentalism, and constructivism. Neofunctionalism is used to assess whether economic and functional cooperation within the GCC generates spillover effects into other areas of regional cooperation. Intergovernmentalism is applied to explain the continuing importance of state sovereignty, national interests, and government-led decision-making[29]. Constructivism provides an analytical basis for examining the role of shared identity, norms, and cultural factors in sustaining regional cooperation. Comparative regionalism connects these perspectives by allowing the GCC to be analyzed within its own historical and political context rather than according to a universal European model.

The combination of these approaches makes it possible to examine the GCC as a distinctive form of regionalism undergoing institutional and functional transformation. Rather than viewing regional integration as a linear process leading inevitably toward supranational governance, this framework considers integration as a context-dependent process that may combine intergovernmental coordination, selective functional cooperation, shared identity, economic diversification, innovation, and sustainable development. In this sense, the GCC experience contributes to the broader theoretical debate on regional integration by demonstrating that regional cooperation beyond Europe may follow alternative institutional trajectories while still generating significant forms of regional interdependence and collective action.

3. GCC Regional Integration: Evolution and Contemporary Transformation

The evolution of the Gulf Cooperation Council (GCC) demonstrates that regional integration does not necessarily follow a linear path toward supranational governance. Since its establishment in 1981, the GCC has primarily developed as an intergovernmental organization in which national sovereignty and state interests remain central. At the same time, cooperation has gradually expanded from security and political coordination toward economic, technological, infrastructural, and developmental areas[30]. This transformation indicates that the scope of regional integration can expand even when political authority remains largely at the national level.

From the perspective of regional integration theory, the GCC represents a combination of different integration mechanisms. Intergovernmentalism provides an important

[29] Stanley Hoffmann, "Obstinate or Obsolete? The Fate of the Nation-State and the Case of Western Europe," *Daedalus* 95, no. 3 (1966): 862–915; Andrew Moravcsik, *The Choice for Europe.*

[30] Gulf Cooperation Council, "Charter of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf," 1981.

explanation for the dominant role of member states in decision-making and the limited transfer of sovereignty to regional institutions[31]. However, the expansion of cooperation into trade, investment, infrastructure, technology, and other functional areas also reflects elements of the neofunctionalist concept of spillover[32]. Unlike the European experience, however, functional cooperation within the GCC has not resulted in significant supranationalization. This suggests that spillover may occur through the expansion of policy cooperation without necessarily producing deeper political integration.

Constructivism further contributes to understanding the GCC by emphasizing the importance of shared historical, cultural, and social characteristics among its member states. These commonalities provide an additional basis for regional cohesion, although they do not eliminate differences in national interests and foreign-policy priorities[33]. The GCC experience therefore demonstrates that regional integration is shaped by the interaction of material interests, institutional arrangements, security considerations, and shared identity rather than by a single mechanism.

A particularly important transformation has occurred in the economic dimension of GCC regionalism. In response to the challenges of hydrocarbon dependence and changes in the global economy, GCC states have increasingly prioritized economic diversification, innovation, technological development, and sustainable development[34]. These priorities create new opportunities for regional cooperation in infrastructure, investment, technology transfer, human capital, and knowledge-based industries. Consequently, sustainable development can be understood not simply as a national policy objective but as an emerging dimension of regional cooperation[35].

The GCC can therefore be characterized as a form of **selective and adaptive regional integration**. Its development differs from the European model because cooperation expands primarily through intergovernmental coordination rather than supranational institution-building. At the same time, the growing importance of economic diversification, innovation, and sustainable development demonstrates that the functions of GCC regionalism are undergoing significant transformation. This case supports a comparative understanding of

[31] Stanley Hoffmann, "Obstinate or Obsolete? The Fate of the Nation-State and the Case of Western Europe," *Daedalus* 95, no. 3 (1966): 862–915.
[32] Ernst B. Haas, *The Uniting of Europe: Political, Social, and Economic Forces, 1950–1957* (Stanford: Stanford University Press, 1958).
[33] Alexander Wendt, *Social Theory of International Politics* (Cambridge: Cambridge University Press, 1999).
[34] International Monetary Fund, *Economic Diversification in the GCC: Past, Present, and Future*, IMF Staff Discussion Note (Washington, DC: International Monetary Fund, 2016).
[35] Joerg Beutel, "Economic Diversification and Sustainable Development of GCC Countries," in *When Can Oil Economies Be Deemed Sustainable? The Political Economy of the Middle East*, ed. Giacomo Luciani and Tareq Moerenhout (Singapore: Palgrave Macmillan, 2021), 99–151, https://doi.org/10.1007/978-981-15-5728-6_6.

regional integration in which different regions may develop distinct institutional pathways according to their own political, economic, and security environments.

The GCC as an Alternative Model of Regional Integration

The analysis demonstrates that the GCC represents a form of regional integration that differs significantly from the European model. Although functional cooperation has expanded across economic, technological, and developmental sectors, this process has not resulted in substantial supranationalization[36]. The continuing importance of national sovereignty and government-led decision-making indicates that intergovernmentalism remains a central feature of GCC regionalism[37]. At the same time, the expansion of cooperation across different policy areas demonstrates that elements of functional spillover are also present[38].

The GCC case therefore suggests that regional integration should not necessarily be understood as a linear movement toward supranational institutions. Instead, integration may develop through selective cooperation in areas where member states identify common interests. Shared cultural and historical characteristics further contribute to regional cohesion, while security considerations continue to influence the scope and pace of institutional development[39]. The interaction of these factors supports the view that regional integration is highly dependent on its specific political and historical context.

Consequently, the GCC can be conceptualized as a **selective and adaptive model of regional integration**. Its experience demonstrates that regional cooperation can deepen functionally without developing into a supranational political system. This finding contributes to comparative regionalism by showing that different regions may follow distinct institutional trajectories and that the European experience should not be treated as a universal standard for evaluating regional integration.

This study demonstrates that regional integration within the GCC differs from the European model and remains primarily intergovernmental. The analysis shows that neofunctionalism, intergovernmentalism, and constructivism each explain different aspects of GCC regional cooperation, while comparative regionalism provides a broader contextual framework.

---

[36] Frank Schimmelfennig, "Regional Integration Theory," *Oxford Research Encyclopedia of Politics* (Oxford University Press, 2018), https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228637.013.599; Gulf Cooperation Council, "Charter of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf," 1981.

[37] Stanley Hoffmann, "Obstinate or Obsolete? The Fate of the Nation-State and the Case of Western Europe," *Daedalus* 95, no. 3 (1966): 862–915.

[38] Ernst B. Haas, *The Uniting of Europe: Political, Social, and Economic Forces, 1950–1957* (Stanford: Stanford University Press, 1958).

[39] Tanja A. Börzel and Thomas Risse, eds., *The Oxford Handbook of Comparative Regionalism* (Oxford: Oxford University Press, 2016); Fredrik Söderbaum, *Rethinking Regionalism* (London: Palgrave Macmillan, 2016).

Overall, the GCC can be characterized as a **selective and adaptive model of regional integration**. Its experience demonstrates the importance of considering regional political, economic, security, and socio-cultural contexts when analyzing contemporary regional integration and its contribution to sustainable development.

References

1. Haas, Ernst B. *The Uniting of Europe: Political, Social, and Economic Forces, 1950–1957*. Stanford: Stanford University Press, 1958.

2. Hoffmann, Stanley. "Obstinate or Obsolete? The Fate of the Nation-State and the Case of Western Europe." *Daedalus* 95, no. 3 (1966): 862–915.

3. Wendt, Alexander. *Social Theory of International Politics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

4. Moravcsik, Andrew. *The Choice for Europe: Social Purpose and State Power from Messina to Maastricht*. Ithaca, NY: Cornell University Press, 1998.

5. Börzel, Tanja A., and Thomas Risse, eds. *The Oxford Handbook of Comparative Regionalism*. Oxford: Oxford University Press, 2016.

6. Söderbaum, Fredrik. *Rethinking Regionalism*. London: Palgrave Macmillan, 2016.

7. Schimmelfennig, Frank. "Regional Integration Theory." *Oxford Research Encyclopedia of Politics*. Oxford University Press, 2018. https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228637.013.599.

8. Gulf Cooperation Council. "Charter of the Cooperation Council for the Arab States of the Gulf." 1981.

9. Callen, Tim, Reda Cherif, Fuad Hasanov, Amgad Hegazy, and Padamja Khandelwal. "Economic Diversification in the GCC: Past, Present, and Future." *IMF Staff Discussion Notes* 2014, no. 12 (2014). https://doi.org/10.5089/9781498303231.006.

10. Beutel, Joerg. "Economic Diversification and Sustainable Development of GCC Countries." In *When Can Oil Economies Be Deemed Sustainable? The Political Economy of the Middle East*, edited by Giacomo Luciani and Tareq Moerenhout, 99–151. Singapore: Palgrave Macmillan, 2021. https://doi.org/10.1007/978-981-15-5728-6_6.

11. Mahroum, Sami, and Yasser Al-Saleh. "Demand-led Related Diversification: An Innovation Policy Approach to Economic Diversification and Development." *Science and Public Policy* 40, no. 3 (2013): 406–418. https://doi.org/10.1093/scipol/scs126.

12. Mitrany, David. *A Working Peace System: An Argument for the Functional Development of International Organization*. Chicago: Quadrangle Books, 1966.

13. Alimov, Rustam. *Central Asia: Regional Cooperation and Integration*. Tashkent: University of World Economy and Diplomacy Press.

14. Saidov, Akmal. *International Law and International Relations: Contemporary Approaches*. Tashkent: National University of Uzbekistan Press.

15. Abdullaev, Navruz. *Regional Security and Cooperation in Central Asia*. Tashkent: Academy of Public Administration Press.

16. Tursunov, Bahodir. *Contemporary International Relations and Regional Processes*. Tashkent: University of World Economy and Diplomacy Press.

17. Karimov, Anvar. *Geopolitical Processes and Regional Cooperation in Central Asia*. Tashkent: National University of Uzbekistan Press.

18. Rakhimov, M. A. *Central Asia: Problems of Regional Security and Cooperation*. Tashkent: Institute of History, Academy of Sciences of Uzbekistan.

19. Kasymova, N. A. *International Relations and Regional Integration Processes*. Tashkent: University of World Economy and Diplomacy Press.

O'ZBEKISTON BOKS FEDERATSIYASI USTAVINING (ESKI TAHRIR) BOSHQARUV VA NAZORAT TIZIMI: INSTITUTSIONAL TAHLIL

Tillaboyev Shoxid Gapparjonovich
O'zbekiston boks federatsiyasi bosh kotibi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda O'zbekiston Boks Federatsiyasining 2014 yilgi eski tahrirdagi Ustavida nazarda tutilgan boshqaruv va nazorat tizimi institutsional nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Konferentsiya, Ijroiya qo'mita, Rais, Bosh kotib, Murabbiylar kengashi va Nazorat-taftish komissiyasining vakolatlari, ovoz berish mexanizmlari hamda ular o'rtasidagi hokimiyat taqsimoti BIBGIS yaxshi boshqaruv indikatorlari asosida baholanadi. Natijalar tizimda hokimiyat taqsimoti va demokratik qaror qabul qilish mexanizmlari mavjudligini, biroq mansab muddati va manfaatlar to'qnashuviga oid cheklovlar yetishmasligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *bokc federatsiyasi; boshqaruv tizimi; institutsional tahlil; Ijroiya qo'mita; Nazorat-taftish komissiyasi; yaxshi boshqaruv.*

Abstract. *This thesis examines the governance and control system envisaged in the 2014 (former) edition of the Charter of the Uzbekistan Boxing Federation from an institutional perspective. The powers of the Conference, Executive Committee, Chairman, General Secretary, Coaches' Council, and Control-Audit Commission, along with voting mechanisms and the division of power among them, are evaluated against the BIBGIS good-governance indicators. The results show that the system incorporates separation of powers and democratic decision-making mechanisms, but lacks provisions on term limits and conflict of interest.*

Keywords: *boxing federation; governance system; institutional analysis; Executive Committee; Control-Audit Commission; good governance.*

KIRISH. Sport tashkilotlarining institutsional barqarorligi ko'p jihatdan ularning boshqaruv tizimi qanday loyihalanganiga bog'liq. Boshqaruv organlari o'rtasidagi hokimiyat taqsimoti, qaror qabul qilish mexanizmlari va nazorat vositalarining mavjudligi tashkilotning shaffofligi hamda hisobdorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Chappelet va Mrkonjic [3] tomonidan taklif etilgan BIBGIS (Basic Indicators for Better Governance in International Sport) tizimi xalqaro sport

tashkilotlarini to'rtta asosiy mezon — shaffoflik, demokratik jarayonlar, ichki nazorat va ijtimoiy mas'uliyat — bo'yicha baholash imkonini beradi. Geeraert [2] o'zining "National Sports Governance Observer" tadqiqotida ko'plab milliy federatsiyalarda ijroiya organlari va nazorat organlari o'rtasida yetarli ajratish mavjud emasligini, bu esa manfaatlar to'qnashuvi xavfini oshirishini aniqladi. Geeraert, Alm va Groll [4] Olimpiya harakatiga a'zo 35 ta xalqaro federatsiyani tahlil qilib, ularning aksariyatida rahbariyat lavozimlari uchun muddat cheklovi (term limits) mavjud emasligini, bu esa hokimiyatning uzoq muddat bir shaxs yoki guruh qo'lida to'planishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidladilar. Chappelet [5] esa xalqaro sport tashkilotlari boshqaruv tizimini davriy ravishda qayta ko'rib chiqish zarurligini asoslab berdi. Ushbu tadqiqotlar milliy sport federatsiyalari boshqaruv hujjatlarini institutsional nuqtai nazardan tahlil qilish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi, biroq O'zbekiston sharoitida bunday tahlillar hozircha kam uchraydi. Xususan, boshqaruv organlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti, ularning bir-birini nazorat qilish mexanizmlari hamda qaror qabul qilish jarayonlarining shaffofligi kabi masalalar milliy sport huquqshunosligida deyarli o'rganilmagan yo'nalish bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Boks Federatsiyasining (O'BF) 2014 yilgi eski tahrirdagi Ustavi VIII–XV boblarda batafsil boshqaruv va nazorat tizimini nazarda tutgan bo'lib, u Konferentsiya, Ijroiya qo'mita, Rais, Bosh kotib, Murabbiylar kengashi va Nazorat-taftish komissiyasi kabi organlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tezisning maqsadi — mazkur boshqaruv tizimining tarkibiy elementlarini, ularning vakolatlari va o'zaro nazorat mexanizmlarini institutsional tahlil qilish hamda uni xalqaro yaxshi boshqaruv mezonlari bilan qiyoslashdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: Federatsiyaning boshqaruv organlari o'rtasida qanday hokimiyat taqsimoti mavjud? Qaror qabul qilish mexanizmlari qay darajada demokratik tamoyillarga asoslangan? Ijro va nazorat funksiyalari o'rtasida qanday o'zaro nazorat (checks and balances) ta'minlangan?

MATERIAL VA METODLAR. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston boks federatsiyasi Ustavining (eski tahrir, 2014 y.) VIII–XV boblari — "Federatsiya tuzilmasi va rahbar organlari", "Ovoz berish va qarorlar kuchga kirish muddatlari", "Ijroiya qo'mita", "Federatsiya Raisi", "Bosh kotib", "Murabbiylar kengashi" hamda "Nazorat-taftish komissiyasi" bo'limlari — tanlab olindi. Tadqiqot metodi sifatida institutsional kontent-tahlil qo'llanildi, unda har bir boshqaruv organi quyidagi tahlil o'lchamlari bo'yicha kodlashtirildi: (1) tarkib va shakllantirish tartibi; (2) vakolatlar doirasi; (3) qaror qabul qilish va ovoz berish mexanizmi; (4) yig'ilishlar chastotasi; (5) boshqa organlar bilan o'zaro nazorat munosabatlari. Tahlil doirasi Chappelet va Mrkonjic [3] tomonidan taklif etilgan BIBGIS tizimidagi shaffoflik, demokratik

jarayonlar va ichki nazorat mezonlariga asoslanib kengaytirildi. Har bir topilma tegishli Ustav moddasi (band raqami) bilan bog'lab hujjatlashtirildi. Bu yondashuv Geeraert [2] tomonidan qo'llanilgan indikatorlarga asoslangan baholash usuliga hamohang bo'lib, har bir topilmani tekshirish va qayta tiklash imkonini beradi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, tahlil faqat matn asosida olib borilgan bo'lib, amaliyotda ushbu qoidalarning qanday qo'llanilishi (masalan, Ijroiya qo'mita majlislarining haqiqiy chastotasi yoki Konferentsiya qarorlarining bajarilish darajasi) alohida empirik tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin.

NATIJALAR. Federatsiyaning boshqaruv tizimi uch bosqichli ierarxiyaga ega: Konferentsiya (oliy organ), Ijroiya qo'mita (ijro organi) va Nazorat-taftish komissiyasi (nazorat organi), bunga qo'shimcha ravishda Rais, Bosh kotib va Murabbiylar kengashi kabi ixtisoslashgan lavozim va organlar kiradi. Ushbu uch bosqichli tuzilma zamonaviy korporativ boshqaruv nazariyasida keng qo'llaniladigan "hokimiyat taqsimoti" (separation of powers) modeliga mos kelib, strategik boshqaruv (Konferentsiya), operativ boshqaruv (Ijroiya qo'mita) va mustaqil nazorat (NTK) funksiyalarini bir-biridan ajratadi. Konferentsiya Federatsiyaning oliй rahbar organi hisoblanadi (8.1): Hisobot-saylov konferentsiyasi har 4 yilda 1 marta, oddiy Konferentsiya esa kamida har 2 yilda 1 marta chaqiriladi; navbatdan tashqari konferentsiya Ijroiya qo'mita yoki Nazorat-taftish komissiyasi taklifi bilan chaqirilishi mumkin. Ijroiya qo'mita Konferentsiya o'tkazish joyi, muddati va delegatlar sonini belgilaydi, tanlangan delegatlar kamida 15 kun oldin yozma xabardor qilinishi shart (8.1.1). Hisobot-saylov konferentsiyasi Raisni, uning o'rinbosarlarini, Bosh kotibni, Ijroiya qo'mita a'zolarini va komissiya rahbarlarini saylash va lavozimidan ozod etish, Federatsiyani qayta tashkil etish va tugatish, hamda Nazorat-taftish komissiyasi tarkibini belgilash vakolatiga ega (8.2.1–8.2.4); oddiy Konferentsiya esa Ustavga o'zgartirish kiritish, tashqi auditorlarni tayinlash va Ijroiya qo'mita yoki Nazorat-taftish komissiyasi a'zolarini muddatidan oldin almashtirish vakolatiga ega (8.3.1–8.3.4). Ovoz berish tartibiga ko'ra (IX bob), qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan ochiq yoki yashirin tarzda qabul qilinadi (9.1), rahbar organ tarkibini saylashda kamida 50%+1 ovoz talab qilinadi (9.3), qabul qilingan qarorlar Konferentsiya yopilgan zahoti kuchga kiradi (9.4), baёнnomalarning to'g'riligiga esa Bosh kotib shaxsan javobgar hisoblanadi (9.5). Ijroiya qo'mita konferentsiyalar oralig'ida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va tarkibi 15 kishidan oshmasligi kerak (10.1); a'zosi uzrsiz sabablarga ko'ra ikki va undan ortiq marta yig'ilishlarda qatnashmasa, uning vakolati muddatidan oldin to'xtatiladi (10.3), shuningdek Ijroiya qo'mita a'zosi bir vaqtning o'zida Nazorat-taftish komissiyasi a'zosi bo'lishi mumkin emas (10.4) — bu ikki organ o'rtasidagi funksional mustaqillikni

ta'minlovchi asosiy qoidadir. Ijroiya qo'mita yig'ilishlari yiliga kamida uch marta o'tkaziladi (10.6), qaror kuchga kirishi uchun a'zolarning yarmidan ko'pi ishtirok etishi (kvorum) talab qilinadi (10.8), har bir a'zo bitta ovoz huquqiga ega bo'lib, boshqa a'zo o'rniga ovoz berish taqiqlanadi (10.10), qarshi ovoz bergan a'zo o'z fikrini yozma ravishda bildirish huquqiga ega (10.11). Ijroiya qo'mitaning vakolatlar ro'yxati (10.16) juda keng bo'lib, unga yillik rejalarni tasdiqlash, sport taqvim rejasini tasdiqlash, murabbiylar kengashini shakllantirish, hakamlar hay'atini saylash, yillik byudjetni tasdiqlash va uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash, hududiy bo'limlarni tashkil etish yoki tugatish, hamda a'zolikka qabul qilish yoki chiqarish kabi keng qamrovli vakolatlar kiradi; bundan tashqari, Ijroiya qo'mita Konferentsiya vakolatiga kirmagan boshqa har qanday zarur masalalar bo'yicha ham qaror qabul qilishi mumkin (10.17), bu qoida ijro organiga ancha keng ixtiyoriy vakolat beradi. Federatsiya Raisi umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, ishonch qog'ozisiz Federatsiya nomidan ish yuritadi, moliyaviy hujjatlarga birinchi imzo huquqiga ega, xodimlarni ishga qabul qiladi va ozod etadi, hamda buyruq va farmoyishlar chiqaradi (11.1–11.16). Bosh kotib Ijroiya qo'mita tarkibiga kiradi, yillik hisobotlarni tayyorlaydi, Konferentsiya va Ijroiya qo'mita yig'ilishlarida kotiblik vazifasini bajaradi hamda xalqaro yozishmalarni olib boradi (12.1–12.4). Murabbiylar kengashi Ijroiya qo'mita tavsiyasi bilan tashkil etiladi, uning raisi etib milliy terma jamoa bosh murabbiyi tayinlanadi, kengash murabbiylar va sportchilar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqadi (13.1–13.2). Nazorat-taftish komissiyasi (NTK) kamida 3 kishidan iborat bo'lib, Hisobot-saylov konferentsiyasida saylanadi, moliyaviy-xo'jalik faoliyati va Ustavga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda markaziy apparat va hududiy bo'limlarda kamida har 2 yilda bir marta tafrish o'tkazadi (15.1–16.4); NTK raisi Ijroiya qo'mita yig'ilishlarida faqat maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishi mumkin (16.3). Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Murabbiylar kengashi va NTKdan farqli o'laroq, Ijroiya qo'mita a'zolari sonining aniq minimal chegarasi Ustavda belgilanmagan — faqat yuqori chegara (15 kishi) nazarda tutilgan, bu esa amalda Ijroiya qo'mitaning juda kichik tarkibda ham faoliyat yuritishi mumkinligini anglatadi. Konferentsiyalarda odatda Federatsiya Raisi raislik qiladi; uning yo'qligida bu vazifani, berilgan ishonchnoma asosida, birinchi o'rinbosar yoki o'rinbosarlardan biri bajarishi mumkin (8.4), bu esa boshqaruv jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan qo'shimcha mexanizm hisoblanadi. Shuningdek, Ijroiya qo'mita kengashiga taklif qilingan, ammo uning a'zosi bo'lmagan shaxslar faqat maslahat ovozi huquqiga ega (10.13), bu esa qaror qabul qilish vakolatining faqat rasman saylangan a'zolar doirasida saqlanishini kafolatlaydi.



1-rasm. O'zbekiston Boks Federatsiyasi Ustavining (eski tahrir, 2014 y.) boshqaruv tuzilmasi (muallif tuzgan, hujjat matni asosida)

MUHOKAMA. BIBGIS [3] mezonlari nuqtai nazaridan qaraganda, Ustavda bir qator ijobiy institutsional xususiyatlar aniqlandi. Birinchidan, Ijroiya qo'mita va Nazorat-taftish komissiyasi a'zoligining bir-biriga mos kelmasligi (10.4) — funksional mustaqillikni ta'minlovchi eng muhim mexanizmlardan biri bo'lib, ijro va nazorat vakolatlarining bir shaxs qo'lida jamlanishining oldini oladi. Ikkinchidan, ovoz berish tartibidagi "bir a'zo — bitta ovoz" tamoyili (10.10) hamda qarshi fikrni yozma bayon qilish huquqi (10.11) demokratik qaror qabul qilish jarayonining mavjudligini ko'rsatadi. Uchinchidan, yillik byudjet va uning ijrosi bo'yicha hisobotlarning Ijroiya qo'mita tomonidan tasdiqlanishi (10.16) hamda NTKning muntazam tafrishlari (16.4) moliyaviy shaffoflikni qisman ta'minlaydi. Shu bilan birga, Geeraert, Alm va Groll [4] aniqlagan umumiy tendentsiyaga mos ravishda, Ustavda Rais va Ijroiya qo'mita a'zolari uchun mansab muddatiga (term limits) hech qanday cheklov nazarda tutilmagan — bu shaxsning cheksiz marta qayta saylanishi imkonini beradi va hokimiyat konsentratsiyasi xavfini oshiradi. Bundan tashqari, Ijroiya qo'mitaning "boshqa har qanday zarur masalalar" bo'yicha qaror qabul qilish huquqi (10.17) aniq chegaralanmagan bo'lib, bu Chappelet [5] ta'kidlagan institutsional islohot zaruratiga mos keladigan zaif nuqta hisoblanadi: bunday keng ixtiyoriy vakolat, aniq nazorat mexanizmisiz, ijro organi tomonidan suiiste'mol qilinishi ehtimolini yo'qqa

chiqarmaydi. Yana bir muhim jihat — manfaatlar to'qnashuvi (conflict of interest) tushunchasi Ustavda alohida modda sifatida ta'riflanmagan; mavjud yagona tegishli qoida faqat Ijroiya qo'mita va NTK a'zoligining mos kelmasligi bilan cheklangan, holbuki zamonaviy amaliyotda bu tushuncha ancha kengroq — masalan, moliyaviy manfaatdorlik yoki qarindoshlik aloqalarini ham qamrab oladi. Nihoyat, boshqaruv organlari tarkibida gender balansga oid biror ko'rsatkich yoki tavsiya mavjud emas, bu esa xalqaro amaliyotda tobora ko'proq talab etilayotgan mezonlardan biri hisoblanadi [4]. Amaliy jihatdan, hokimiyat konsentratsiyasi xavfini kamaytirish uchun Ijroiya qo'mitaning 10.17-bandida nazarda tutilgan keng ixtiyoriy vakolatini aniq chegaralovchi qo'shimcha qoida — masalan, ma'lum miqdordagi moliyaviy operatsiyalar yoki strategik ahamiyatga ega qarorlarni majburiy ravishda Konferentsiya yoki kengaytirilgan Ijroiya qo'mita tasdig'idan o'tkazish talabi — kiritilishi mumkin. Shuningdek, Nazorat-taftish komissiyasining tafтish natijalari haqidagi hisobotlarini nafaqat Ijroiya qo'mitaga, balki barcha Federatsiya a'zolariga ochiq shaklda taqdim etish tartibi joriy etilsa, bu tashqi shaffoflikni sezilarli darajada oshirgan bo'lar edi. Geeraert [2] tadqiqotida ta'kidlanganidek, moliyaviy hisobotlarning a'zolarga ochiqligi federatsiyalar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA. O'zbekiston Boks Federatsiyasining 2014 yilgi eski tahrirdagi Ustavida nazarda tutilgan boshqaruv va nazorat tizimi uch bosqichli (Konferentsiya – Ijroiya qo'mita – Nazorat-taftish komissiyasi) tuzilmaga ega bo'lib, unda hokimiyat taqsimoti, bir a'zo — bitta ovoz tamoyili hamda ijro va nazorat organlari a'zoligining o'zaro mos kelmasligi kabi institutsional mustahkam yechimlar mavjud. Shu bilan birga, mansab muddatiga cheklov yo'qligi, manfaatlar to'qnashuvi tushunchasining tor talqin etilishi hamda gender vakillik ko'rsatkichlarining yo'qligi kabi jihatlar zamonaviy yaxshi boshqaruv standartlaridan orqada qolayotganini ko'rsatadi. Ushbu natijalar O'zbekiston Boks Federatsiyasi hamda boshqa milliy sport federatsiyalari uchun o'z boshqaruv hujjatlarini xalqaro amaliyotga moslashtirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusi tahrirlarga rahbariyat lavozimlari uchun muddat cheklovi, manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish tartibi hamda gender balans mezonlarini kiritish tavsiya etiladi. Kelgusi tadqiqotlar ushbu institutsional xususiyatlarning amaliyotda qanday qo'llanilishini empirik jihatdan o'rganishga qaratilishi mumkin. Xususan, Ijroiya qo'mita majlislarining haqiqiy o'tkazilish chastotasi, Konferentsiya qarorlarining bajarilish darajasi hamda Nazorat-taftish komissiyasi tavsiyalarining amalda qanday hisobga olinishi kabi masalalar bo'yicha intervyu va hujjatlarni qiyosiy o'rganishga asoslangan empirik tadqiqot alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Institutsional tuzilma o'zi

bilan birga uning amaliy samaradorligini kafolatlamaydi, shu sababli struktura tahlili amaliyot tahlili bilan to'ldirilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston boks federatsiyasining Ustavi (eski tahrir). – Toshkent, 2014. – 13 b.

2. Geeraert A. National Sports Governance Observer: Final Report. – Copenhagen: Play the Game/Danish Institute for Sports Studies, 2018.

3. Chappelet J-L., Mrkonjic M. Basic Indicators for Better Governance in International Sport (BIBGIS): An Assessment Tool for International Sport Governing Bodies. – IDHEAP Working Paper, 2013.

4. Geeraert A., Alm J., Groll M. Good governance in international sport organizations: an analysis of the 35 Olympic sport governing bodies. International Journal of Sport Policy and Politics, 2014, 6(3), 281-306.

5. Chappelet J-L. Beyond governance: the need to overhaul international sport. Sport in Society, 2016, 19(1), 8-13.

6. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1999.

7. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1991.

8. International Olympic Committee. Olympic Charter. – Lausanne: IOC, 2023.

“NEFT INQIROZINING” JAZOIR MIGRATSIYASIGA TA’SIRI

Sharofova Diyora Shavkat qizi
TDSHU tayanch doktarant
diyorasharofova33@gmail.com
+998993048075

Annotatsiya. *XX asrning 70-yillaridagi jazoirliklarning Yevropaga migratsiyasi doimiy bo‘lmagan erkak ishchi muhojirlar guruhidan oila a’zolarining ko‘chib kelishiga o‘zgardi. Yevropada rasmiy itse’qomat qilayotgan jazoirliklar miqdori 800,000 nafardan oshiq edi. Ushbu davr Shimoliy Afrika davlatlari uchun keyingi yillar mobaynida migratsiya jarayonlarining murakkablashib, shakllanib borishi uchun muhim hisoblanadi. Buning eng asosiy sababi iqtisodiyotning jadal sur’atlar bilan rivojlanayotganligi hamda Afrika davlatlari neft ishlab chiqarish orqali Yevropa va boshqa hududlar bilan aloqalarni mustahkamlayotganligidir. “Neft inqirozi”ning oqibatlari va migratsiyaga ta’siri ushbu tezisda muhokama qilinadi.*

Аннотация. *В 1970-х годах миграция из Алжира в Европу изменилась: из группы нелегальных рабочих-мигрантов мужского пола она превратилась в группу семей. Число алжирцев, официально проживающих в Европе, превысило 800 000 человек. Этот период важен для стран Северной Африки, поскольку миграционные процессы в последующие годы стали более сложными и структурированными. Главной причиной этого стало быстрое экономическое развитие и укрепление связей между африканскими странами и Европой и другими регионами благодаря нефтедобыче. В данной работе рассматриваются последствия «нефтяного кризиса» и его влияние на миграцию.*

Abstract. *Algerian migration to Europe in the 1970s changed from a group of irregular male migrant workers to a group of family members. The number of Algerians officially residing in Europe exceeded 800,000. This period is important for the North African countries, as migration processes became more complex and structured in the following years. The main reason for this is the rapid economic development and the strengthening of ties between African countries and Europe and other regions through oil production. The consequences of the “oil crisis” and its impact on migration are discussed in this thesis.*

Kalit so‘zlar: *“Neft inqirozi”, muhojirlar pul jo‘natmalari, chegara xavfsizligi, diskriminatsiya, neft eksport daromadi, migratsiya xususiyatlari.*

Ключевые слова: *«Нефтяной кризис», денежные переводы мигрантов, безопасность границ, дискриминация, доходы от экспорта нефти, характеристики миграции.*

Keywords: *"Oil crisis", migrant remittances, border security, discrimination, oil export revenue, migration characteristics.*

1973-yilda boshlangan “Neft inqirozi” ikki tomon davlatlarida iqtisodiy muammolarga sabab bo‘ldi hamda Yevropa davlatlari shartnomalarni hamda mehnatga jalb qilish dasturlarini bekor qildi. Yevropa davlatlarida iqtisodiy inqiroz boshlanganligi oqibatida ishchi muhojirlarga turli cheklovlar o‘rnatildi, lekin shunga qaramasdan, allaqachon muhojirlar turli hududlarda rasmiy joylashgan edi. Fransiya 1974-yilda yangi mehnat shartnomalari tuzilishini taqiqladi, lekin avvaldan Fransiyada bo‘lgan muhojirlarni oilalari bilan birlashishiga ruxsat berdi. Belgiya esa 1974-yilda barcha mehnat shartnomalari va mehnat dasturlarini to‘xtatdi.[40] Niderlandiya 1975-yilda shartnomada o‘zgartirish kiritib, ko‘chib kelayotgan ishchi migrantlar sonini chekladi, ammo allaqachon o‘z hududida joylashgan muhojirlarning qolishiga ruxsat berdi. Bunday holatlar Germaniyada 1973-yilda hamda Shvetsariyada 1974-yilda sodir bo‘ldi.[41] Bu choralar bilan Yevropa davlatlari ishga yollash agentliklarini tuzishga, kompaniyalarning ishchilarga bo‘lgan ehtiyoj to‘g‘risida so‘rovnomalar yuborishiga hamda erkin viza imkoniyatlariga chek qo‘ydi, shuningdek, harbiylar tomonidan chegara nazorati kuchaytirildi. 1930-yillardan beri mavjud Fransiyada muhojirlarga nisbatan diskriminatsiya va irqchilik neft inqirozi sabab avj oldi hamda 1973-1974-yillarda kelishmovchiliklarga sabab bo‘ldi, bu holat tarixga “inqiroz irqchiligi” deb kirdi. Mahalliy aholi va jamoalari orasida “Milliy front tiklansin”, “ishchilar harakati tugallansin”, “ikkinchi migrant avlodlari”, “shahar muammolari” kabi mazmundagi eslatmalar ommalashdi.

Jazoir iqtisodiyoti neft sanoati sababli rivojlandi, u yirik gaz va neft eksport qiluvchi davlatga aylandi. 1972-yilda eksportdan kelgan daromad 2,5-3 million dollardan 1974-1975-yillarda 2-3 barobarga oshib, 7-8 million dollarni tashkil qildi.[42] Bu esa davlatning iqtisodiy mustaqillikka erishib, tashqi qarzlardan qutilishiga sababchi bo‘ldi. 1973-yil sentabrda Jazoir prezidenti Huvariy Bumiddin jazoirliklarni migratsiyadan qaytarish maqsadida, iqtisodiy mustaqilligini hamda “Sovuq urush”da ishtirok etmasligini vaj qilib aholining Fransiyaga migratsiya qilishini qat’iyan man

[40] Philippe Fargues. Migration in the Arab World, United Nations Expert Group Meeting on International Migration. – Beirut: European University Institute, 2005. - P. 198.
[41] O‘sha joydan. – B. 187.
[42] Yazid Benhadda. Constructing the “North African Problem” in France (1920–1956): A Colonial Genealogy of Migration Security Practices// https://doi.org/10.1093/ips/olaf017 [Murojaat vaqti: 18.11.2025]

etdi.[43] Jazoir aholisini ortga qaytarish uchun turli qulayliklar taklif etdi, xususan, bepul tibbiy xizmat, mehnat kafolati va sug‘urta, bir muncha vaqt soliqlardan ozod bo‘lish, transport kabilar edi. 1970-1973 va 1974-1979-yillarda 4 yillik iqtisodiy barqarorlik rejalari tuzildi hamda ushbu yillar davomida Jazoirda 270 ta fabrika, 150 ta suv tarmog‘i, umumiy elektr tarmog‘i kabi infrotuzilmalar qurildi. 1975-1976-yilga kelib neft va gazning xorijga sotishdan kelgan daromad eksport darajasining 95 foizidan oshig‘i edi hamda davlat daromadining deyarli 65 foizini tashkil qilgan.[44] 1977-1978-yillarda 350 ta fabrika hamda 150 dan ortiq zavodlar qurildi, misol tariqasida, “Sonatrach”, “Sider”, “Sonelgaz” kabi haligacha mavjud bo‘lgan yirik mahalliy tadbirkorlik birlashmalari shakllandi.

Asosan nomutaxasis va quyi soha vakillari Jazoirga qaytgan, biroq Jazoirda rivojlanish dasturlari amalga oshirilayotganligi sababli, davlat oliy ma’lumotli va malakali mutaxasislarga muhtoj edi. 1976-yilda Fransiyada jazoirlik muhojirlarning 4 foizi yirik tadbirkorlar, 5 foizi rahbar va menejerlar, 10 foizi rasmiy davlat ishchilari, 32 foizi malakali mutaxasislar, 30 foizi korxona ishchilari va qolgan qismi quyi soha vakillari edi.[45] Fransiyaning 1974-yilgi mehnat shartnomalariga cheklov o‘rnatishi hamma muhojirlarga teng ravishda yangi mehnat shartnomalarining tuzilmasligini, ish berish agentliklarining tugallanishini anglatishiga qaramay, jazoirliklar ruxsatnoma hujjatlari orqali qonunan ishlashni davom ettirgan. Xususan, 1973-yilda 500,000 nafar Fransiyadagi jazoirlik muhojirlarning 70 foizidan ko‘prog‘i 5-10 yillik fuqarolik ruxsatnomasiga ega va ular allaqachon qonuniy fuqarolar sifatida qabul qilingan. Shunga qaramay, 1974-yildan keyin yurtiga qaytish istagidagi muhojirlar miqdori kamaydi, chunki, jazoirlik muhojirlar chegaralar yopiqligidan, qaytib kela olish imkoniyatining yo‘qligidan, shu tariqa, fuqarolik huquqlaridan mahrum bo‘lish mumkinligidan xabardor bo‘lgan. 1977-yilda 80 foizdan oshiq jazoirlik muhojirlar qonuniy maqomga ega edi. 1970-yilda Fransiyada jazoirlik muhojirlar Jazoirga 195 million AQSH dollari miqdoridagi mablag‘ jo‘natgan, 1976-yilda jazoirlik muhojirlarning pul jo‘natmalari umumiy mag‘riblik migrantlar pul jo‘natmasining 50 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich keyingi 10 yillikda 0,4 foizga pasaydi.

“Neft inqirozi” Jazoirda migratsiyaga tobelik xususiyatini biroz pasaytirdi, biroq butunlay to‘xtata olmadi. Jazoirlik muhojirlar hamda ularning pul jo‘natmalari ahamiyati yuqoriligicha qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[43] Katherina Natter. Fifty years of Magreb emigration. How states shaped Algerian, Moroccon and Tunisan migration. - Oxford: Oxford University Press, 2014. – P. 108.

[44] Hein de Haas. North african migration systems: evolution, transformations and development linkages// - Zacatecas, México: Red Internacional de Migración y Desarrollo, 2006, N7. – P.P. 65-95

[45] Murial Cohen. Post-colonial Algerian immigration: Putting down roots in the face of exclusion.// - La Découverte: Le Mouvement Social. – 2017. – No 258. – P.P. 29 – 48.

1. Katherina Natter. Fifty years of Magreb emigration. How states shaped Algerian, Moroccon and Tunisan migration. - Oxford: Oxford University Press, 2014. – 402 p.

Hein de Haas. North african migration systems: evolution, transformations and development linkages// - Zacatecas, México: Red Internacional de Migración y Desarrollo, 2006, N7. – P.P. 65-95

Murial Cohen. Post-colonial Algerian immigration: Putting down roots in the face of exclusion.// - La Découverte: Le Mouvement Social. – 2017. – No 258. – P.P. 29 – 48.

Philippe Fargues. Migration in the Arab World, United Nations Expert Group Meeting on International Migration. – Beirut: European University Institute, 2005. - 278 p.

Yazid Benhadda. Constructing the “North African Problem” in France (1920–1956): A Colonial Genealogy of Migration Security Practices// https://doi.org/10.1093/ips/olaf017 [Murojaat vaqti: 18.11.2025]

AUDITORLIK FIRMALARI ICHKI STANDARTLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING PROCESS QUALITY INDEX MODELINI ISHLAB CHIQISH VA VALIDATSIYA QILISH

Bobonarova Kamola O‘ktamjon qizi
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti,
e-mail: bobonarovakamola@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada auditorlik firmalari ichki standartlarining amaliy samaradorligini kompleks baholash uchun Process Quality Index (PQI) modeli taklif etiladi. Model audit dalillari sifati, tanlama dizayniga rioya, tanlama parametrlarini hujjatlashtirish, analitik amallar va yakuniy nazorat darvozalari qamrovini birlashtiradi. Ko‘rsatkichlar 0–1 oralig‘ida normallashtirilib, dastlabki teng vaznli indeks shakllantiriladi. Mazmuniy va strukturaviy validatsiya ISQM 1, ISA 220 (Revised) hamda stsenariyli sezgirlik tahliliga asoslanadi. PQI ichki monitoring, CAPA va uzluksiz sifatni takomillashtirish vositasi sifatida taklif qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *auditorlik firmasi, ichki standartlar, audit sifati, Process Quality Index, sifat menejmenti, monitoring, CAPA.*

Abstract. *The paper proposes a Process Quality Index (PQI) for integrated assessment of the practical effectiveness of internal standards in audit firms. The index combines audit evidence quality, sampling design compliance, documentation of sampling parameters, analytical procedures, and release-gate coverage. Components are normalized to a 0–1 scale and initially aggregated using equal weights. Content and structural validation is based on ISQM 1, ISA 220 (Revised), and scenario-based sensitivity analysis. PQI is proposed as a tool for internal monitoring, remediation and continuous improvement of audit quality.*

Keywords: *audit firm, internal standards, audit quality, Process Quality Index, quality management, monitoring, remediation.*

KIRISH

Auditorlik xizmatlari sifati xalqaro standartlarni firma darajasidagi aniq ichki tartiblar, ishchi hujjatlar, nazorat nuqtalari va monitoring ko‘rsatkichlariga aylantirishga

bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni auditorlik faoliyatini tan olingan standartlar asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. ISQM 1 esa firmadan o‘z faoliyati va topshiriqlariga mos sifat menejmenti tizimini shakllantirishni, ISA 220 (Revised) topshiriq darajasida sifatni proaktiv boshqarishni talab qiladi (IAASB, 2020a; IAASB, 2020b).

Amaliyotda ichki standartlar samaradorligi hujjatlar to‘liqligi, review natijalari, qayta ishlash, muddatga rioya yoki ichki inspeksiya kabi alohida ko‘rsatkichlar bilan baholanadi. Bu esa umumiy boshqaruv signalini shakllantirishni qiyinlashtiradi. Aobdia va Petacchi (2023) ichki inspeksiyalar auditor sa’y-harakati va moliyaviy hisobot sifati bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan. Shu asosda bir nechta jarayon indikatorlarini yagona kompozit indeksga birlashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot maqsadi auditorlik firmalari ichki standartlarining amaliy samaradorligini baholash uchun Process Quality Index (PQI) modelini ishlab chiqish va uning dastlabki mazmuniy, strukturaviy hamda stsenariyli validatsiyasini amalga oshirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot metodologik modellashtirish, hujjat tahlili va kompozit indikator yondashuviga asoslandi. Model ISQM 1, ISA 220 (Revised), audit firmalaridagi ichki monitoring mantiqi hamda auditorlik topshirig‘ining “dalil – metod – hujjatlashtirish – tahlil – yakuniy nazorat” zanjiridan kelib chiqib tuzildi. Beshta o‘lchov tanlandi: ESAI – audit dalillarining yetarliligi va mosligi; SDC – tanlama dizayniga rioya; SRC – tanlama parametrlarini hujjatlashtirish qamrovi; APU – analitik amallar qo‘llanilishi; RGC – talab etilgan review/EQR/komplayens darvozalari bilan yopilgan topshiriqlar ulushi.

1-jadval.

PQI komponentlari va dastlabki maqsadlar

In Uzbekistan, cemetery land is regulated by land legislation and specific legal provisions concerning burial and funeral services. According to Article 64 of the Land Code of the Republic of Uzbekistan, cemetery areas are classified within the system of land designated for public use. Their utilization is therefore subject to a specific legal regime that restricts their use for purposes incompatible with their designated function.

The Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-276 of 27 December 2010 “On Burial and Funeral Services” constitutes another important legal basis for regulating relations associated with burial activities and cemetery management. In addition, Resolution No. 101 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 4 April 2011 establishes organizational procedures related to the implementation of the legislation on burial and funeral services.

The purpose of this study is to examine the theoretical and legal foundations of cemetery land management and to substantiate its role within the broader system of sustainable land resource management.

The following objectives were formulated to achieve this purpose:

to analyze the legal status of cemetery land within the land management system of Uzbekistan;

to identify the principal environmental, sanitary, cadastral, and urban-planning factors influencing cemetery location and management;

to determine the role of cemetery areas in the rational management of urban land resources;

to theoretically substantiate the application of modern geoinformation technologies to cemetery planning and monitoring.

2. Materials and Methods. The study employed a combination of legal, comparative, systematic, spatial, and analytical research methods.

The legal analysis method was used to examine the regulatory framework governing cemetery land in Uzbekistan. Particular attention was paid to the Land Code of the Republic of Uzbekistan, the Law “On Burial and Funeral Services,” and regulatory documents concerning cemetery establishment, reconstruction, closure, relocation, environmental protection, sanitary safety, and urban planning.

The systematic approach was applied to consider cemetery land as an integral component of the urban land-resource management system rather than as an isolated land-use category. This approach enabled the relationships between legal status, land cadastre, environmental conditions, demographic development, infrastructure, and spatial planning to be identified.

The comparative analytical method was used to evaluate traditional and contemporary approaches to cemetery planning. Particular emphasis was placed on the transition from conventional administrative management towards digitally supported spatial management.

GIS-based multi-criteria spatial analysis can integrate these parameters within a unified geographic database. Remote sensing data, UAV imagery, GNSS observations, digital elevation models, and cadastral datasets may additionally be employed to improve the accuracy and timeliness of cemetery land monitoring.

NDVI and other vegetation indices may be used as supplementary indicators for assessing vegetation conditions and the ecological characteristics of cemetery territories and adjacent buffer zones.

The methodological approach adopted in this research can therefore be represented as the following conceptual sequence:

Legal framework → cadastral information → environmental and sanitary criteria → demographic factors → spatial analysis → geoinformation database → planning and management decisions.

This integrated approach provides a theoretical basis for the transition from conventional cemetery administration to geoinformation-based land management.

3. Results. The analysis demonstrated that cemetery land occupies a specific position within the urban land-resource management system because its utilization is determined simultaneously by legal restrictions, social functions, sanitary requirements, environmental conditions, and spatial-planning considerations.

4. Discussion. The results demonstrate that cemetery land represents a complex spatial resource whose management requires the integration of legal, environmental, sanitary, demographic, cultural, and technological considerations.

The conventional perception of cemeteries exclusively as burial areas does not fully correspond to the requirements of contemporary urban development. In rapidly growing cities, cemetery territories directly influence land-use structure, transport accessibility, green infrastructure, environmental conditions, and long-term spatial development.

One important theoretical implication is that cemetery land should be incorporated into the overall urban land-resource management framework. This means that cemetery planning should be coordinated with master plans, cadastral systems, environmental monitoring, infrastructure development, and demographic forecasts.

International approaches increasingly consider certain cemetery landscapes as elements of urban green infrastructure. From this perspective, properly landscaped cemetery territories and their buffer zones may contribute to ecological connectivity, vegetation cover, microclimatic regulation, and landscape continuity. However, these ecological functions must remain compatible with the primary cultural, ethical, religious, and sanitary functions of cemetery areas.

The findings also indicate that cadastral registration is fundamental to effective cemetery management. Precise determination of boundaries and functional zones reduces the risk of unauthorized occupation and territorial conflicts. Integration with digital cadastral systems can further improve transparency and provide decision-makers with current spatial information.

GIS provides significant advantages in this regard. Spatial analysis can determine burial density, unused areas, accessibility, environmental restrictions, and potential expansion zones. Multi-criteria analysis can also be employed to identify suitable territories for new cemeteries by assigning appropriate weights to environmental, sanitary, demographic, cadastral, and infrastructure factors.

5. Conclusion. The study of the theoretical and legal foundations of cemetery land demonstrates that cemetery areas constitute a specific and socially significant component of the land-resource management system. Their management cannot be limited to the allocation of land for burial purposes; it should encompass cadastral registration, legal protection, environmental and sanitary monitoring, functional zoning, demographic forecasting, and long-term spatial planning.

The legal framework of the Republic of Uzbekistan establishes a specific regime for cemetery land and provides the institutional basis for its organization, use, protection, and management. At the same time, contemporary urbanization creates new challenges associated with land scarcity, cemetery capacity, environmental restrictions, and competition among different urban land uses.

The research theoretically substantiates the necessity of introducing an integrated geoinformation approach to cemetery land management. GIS, remote sensing, UAV technologies, GNSS measurements, digital cartography, and multi-criteria spatial analysis can provide an effective technological framework for cadastral inventory,

environmental monitoring, capacity assessment, and the identification of suitable areas for cemetery development.

Based on the analysis, it is proposed that cemetery land management be developed according to the following integrated framework:

legal regulation → cadastral registration → environmental and sanitary assessment → geospatial database → spatial analysis → demographic forecasting → planning → continuous monitoring.

The implementation of this framework can contribute to more rational use of urban land resources, improved environmental and sanitary safety, enhanced accuracy of cadastral information, and scientifically grounded territorial planning.

References

1. Land Code of the Republic of Uzbekistan.
2. Land Code of the Republic of Uzbekistan, Article 64.
3. Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-276 of 27 December 2010 “On Burial and Funeral Services.”
4. Resolution No. 101 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 4 April 2011 “On Measures for the Implementation of the Law of the Republic of Uzbekistan ‘On Burial and Funeral Services’.”
5. Applicable sanitary rules and norms of the Republic of Uzbekistan concerning the establishment and maintenance of cemetery territories.
6. Applicable urban-planning norms and regulations of the Republic of Uzbekistan concerning territorial planning, sanitary protection zones, and public-use areas.

EFFECTIVE MARKETING RESEARCH AND SOFIA BAKERY

Xasanova Setora Furqat qizi
Tayanch Researcher,
Tashkent Chemistry and technology Institute

Abstract. This article analyzes *the systematic gathering, recording, and analysis of data about target markets, consumers, and competitors. Its main goal is to reduce business uncertainty and provide evidence-based insights to optimize the marketing mix (product, price, place, and promotion).* ***Main Types of Research***

- ***Primary Research:*** *Original data collected firsthand via customer surveys, focus groups, and interviews.*

Secondary Research: *Analysis of pre-existing data, such as industry reports, public statistics, and competitor analyses.* ***Key Methods***

- ***Quantitative:*** *Large-scale surveys, closed-ended questionnaires, and A/B testing to measure trends and metrics.*
- ***Qualitative:*** *Open-ended interviews, focus groups, and observation to understand consumer motivations and feelings.*

Keywords: *marketing research, customer behavior, product range, competitors, international market, market share, marketing mix, forecasting, audit.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются процессы систематического сбора, фиксации и анализа данных о целевых рынках, потребителях и конкурентах. Основная цель этой деятельности — снижение неопределенности в бизнесе и получение обоснованных сведений для оптимизации комплекса маркетинга (продукт, цена, место продаж и продвижение). Основные виды исследований*

- *Первичные исследования: сбор оригинальных данных «из первых рук» посредством опросов клиентов, фокус-групп и интервью.*
- *Вторичные исследования: анализ уже имеющихся данных, таких как отраслевые отчеты, открытая статистика и аналитика по конкурентам. Ключевые методы*
- *Количественные: масштабные опросы, анкетирование с закрытыми вопросами и A/B-тестирование для измерения тенденций и показателей.*

• *Качественные: глубинные интервью (с открытыми вопросами), фокус-группы и наблюдение для понимания мотивации и эмоционального восприятия потребителей.*

Ключевые слова: *маркетинговые исследования, поведение потребителей, ассортимент продукции, конкуренты, международный рынок, доля рынка, комплекс маркетинга, прогнозирование, аудит.*

INTRODUCTION

Marketing research is the systematic gathering, recording, and analysis of qualitative and quantitative data about issues relating to marketing products and services. The goal is to identify and assess how changing elements of the marketing mix impacts customer behavior. This involves employing a data driven marketing approach to specify the data required to address these issues, then designing a method for collecting the information and implementing the data collection process. After analyzing the collected data, the results and findings, including their implications, are forwarded to those empowered to act on them.

Safia Cafe & Bakery started in 2001 as a small home-based family kitchen in Tashkent run by Muhayo Ayupova and her husband Akmal Ayupov. Inspired by family recipes, they baked goods from home and delivered them locally. Their daughter Madina later opened an initial storefront, and the official Safia Brand expanded into a major regional chain.

LITERATURE REVIEW

First established as a family business, we offer our guests a warm and welcoming bakery café experience in 160 stores. Founded in 2001, the Sofia company is an international company that specializes in French-inspired baked goods. They are a fast-casual bakery-café with fully company-owned locations. Menu includes cakes, pastries, sandwiches, salads, and signature coffee and tea. Sofia offer a unique bakery and café experience to thousands of customers daily. Currently, they have over 140 locations in Uzbekistan and Kazakhstan, providing our services to customers of all ages and backgrounds. They work hard to bring a world-class product and guest experience to our customers. Company size 1,001-5,000 employees. Headquarters located in Tashkent. Company type privately held business. Industry -Food and Beverage Retail.

Daily Output: Uses roughly 4 tons of cream and 1.5 tons of fresh/dried fruits daily to produce over 10 tons of ready-made goods.



Picture # 1 Steps in marketing research process.

RESEARCH METHODOLOGY

To build a strong marketing plan for a bakery named Sofia (such as a local artisanal shop or inspired by successful scaling models like Sofia café and bakery), focus on local brand identity, sensory digital content, community engagement, and signature product lines.

Brand Identity & Positioning

- **Highlight heritage:** Share the story of home-baked roots, family recipes, or daily fresh-made craftsmanship.
- **Quality ingredients:** Emphasize the use of real butter, fresh fruit, and local or premium imports.**Aesthetic spaces:** Design photogenic cafe corners that encourage

customers to take pictures and share them online.



Picture # 2. The marketing research process.

ANALYSIS AND RESULTS

Digital & Social Media

• **Visual platforms:** Post high-resolution videos and photos of melting chocolate, pouring glaze, and fresh bread pulling apart on Instagram and TikTok.

• **Behind-the-scenes:** Show early morning dough preparation, cake decorating, and oven-fresh extractions.

• **User content:** Offer a small free treat or discount for customers who tag the bakery in their stories or check in at the location.



Picture # 3. Line graph for two bakeries.

The image shows a bar graph with average number of items sold by Lovely Loaves and Bernie's Buns across eight categories: cakes, Lovely Loaves 70 items, Bernie's Buns 110 items; cookies, Lovely Loaves 80 items, Bernie's Buns 90 items; rolls, Lovely Loaves 60 items, Bernie's Buns 70 items; fresh loaves, Lovely Loaves 30 items, Bernie's Buns 40 items; assorted sandwiches, Lovely Loaves 40 items, Bernie's Buns 30 items; salads, Lovely Loaves 20 items, Bernie's Buns 50 items; crisps, Lovely Loaves 50 items, Bernie's Buns 60 items; doughnuts, Lovely Loaves 60 items, Bernie's Buns 140 items.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

- **Tasting events:** Host seasonal tasting days for new pastries, holiday cakes, or signature coffee pairings.
- **B2B partnerships:** Supply local corporate offices, boutique hotels, or yoga studios with daily fresh breakfast pastries.
- **Loyalty perks:** Implement a digital punch-card app where every 10th coffee or pastry is free.
- The primary competitor for Safia Café & Bakery in Tashkent is Bon Patisserie, a popular French-style bakery and coffee shop chain with numerous locations across the city. Other notable bakery and café alternatives in the area include international franchises like PAUL as well as local spot Forn Lebnen.

REFERENCES

1. .Michael J.B,.The Marketing book. – Oxford: 2009.
2. Philip Kotler. Principles of Marketing 2025. – Vol. 13. – P. 232–238.
3. Food and Agriculture Organization of the United Nations. FAOSTAT statistical database [Electronic resource]. – URL: https://www.fao.org/faostat
4. World Bank. Agriculture and rural development: Silk sector analysis [Electronic resource]. – URL: https://www.worldbank.org
5. Philip Kotler – Moving from traditional to Digital, Canada 2021.
6. / Contemporary Marketing/ ed. by L. Augustin-Jean, B. Alpermann. – London: Palgrave Macmillan, 2014.
7. Marketing Management -: https://www.texmin.gov.in/
8. Seth Godin. This is marketing. – 2025.
9. Schaltegger S., Burritt R.Digital marketing. – Sheffield: Greenleaf Publishing, 2000. – P. 48.
10. Porter M.E., Van der Linde C. Green and Competitive: Ending the Stalemate // Harvard Business Review. – 1995. – Vol. 73. – No. 5. – P. 120–134.

11. Epstein M.J. Making Sustainability Work. – San Francisco: Berrett-Koehler Publishers, 2008. – P. 97.

12. OECD. Marketing Tools and Evaluation. – Paris: OECD Publishing, 2023. – P. 41.

13. Gao S., Meng F., Gu Z., Liu Z., Farrukh M. Mapping and Clustering Analysis on Marketing, Social and Governance Field: A Bibliometric Analysis Using Scopus // Sustainability. – 2021. – Vol. 13. – No. 13. – Article 7304.

14. ISO 14001:2015 Marketing Management Systems – Requirements with Guidance for Use. – Geneva: ISO, 2015.

15. Bansal P., Roth K. Why Companies Go Green // Academy of Management Journal. – 2000. – Vol. 43. – No. 4. – P. 717–736.

5-SECTION

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIK HUQUQBUZARLIKLARINING MAXSUS PROFILAKTIKASIDA MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGINI KUCHAYTIRISH

Madiraximova Mohinur Baxodir qizi
Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani IIOFMB Voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha katta inspektor-psixologi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasida mahalla va maktab hamkorligining bugungi holati tahlil qilingan. Hamkorlikdagi mavjud kamchiliklar, ularning sabablari va oqibatlari o‘rganilib, erta aniqlash, individual yondashuv, ota-onalar bilan ishlash hamda bo‘sh vaqtni tashkil etish mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mahalla, maktab, hamkorlik, voyaga yetmaganlar, giyohvandlik, maxsus profilaktika, erta aniqlash, individual yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье проанализировано современное состояние сотрудничества махалли и школы в специальной профилактике правонарушений, связанных с наркотиками, среди несовершеннолетних. Изучены существующие недостатки сотрудничества, их причины и последствия, а также предложены практические рекомендации по развитию механизмов раннего выявления, индивидуального подхода, работы с родителями и организации досуга.*

Ключевые слова: *махалля, школа, сотрудничество, несовершеннолетние, наркомания, специальная профилактика, раннее выявление, индивидуальный подход.*

Abstract. *This article analyzes the current state of cooperation between the mahalla and the school in the special prevention of drug-related offenses among minors. The existing shortcomings of cooperation, their causes and consequences are examined, and practical recommendations are offered for the development of mechanisms for early detection, individual approach, work with parents and organization of leisure time.*

Keywords: *mahalla, school, cooperation, minors, drug addiction, special prevention, early detection, individual approach.*

1. Kirish (Introduction)

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Yoshlarning yosh xususiyatlari, tashqi ta’sirlarga tez berilishi, tengdoshlarining ta’siri va internetdan keng foydalanishi ularni giyohvandlik xavfiga ochiq qiladi.

Bola kunining katta qismini maktabda o‘tkazadi, oilaviy muhit, bo‘sh vaqti va mahalla ichidagi munosabatlari esa mahalla tomonidan nazorat qilinadi. Shuning uchun mahalla va maktab o‘rtasidagi samarali hamkorlik maxsus profilaktikaning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bolalar huquqlarini himoya qilish va yoshlarni sog‘lom muhitda tarbiyalash davlatning vazifasi deb belgilangan [2]. “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda ham mahalla va ta’lim muassasalarining birgalikdagi faoliyati alohida ta’kidlangan [3]. Shu bois mahalla va maktab hamkorligini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Tadqiqotning maqsadi – mahalla va maktab hamkorligining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va maxsus profilaktika doirasida uni yanada samarali qilish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

2. Tadqiqot usullari (Methods)

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni tizimli tahlil qilish;
- qiyosiy-huquqiy usul;
- mantiqiy-tahliliy usul;
- umumlashtirish va abstraksiya usullari.

Asosiy manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun hamda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari olingan [4].

3. Natijalar (Results)

Tahlil natijalariga ko‘ra, bugungi kunda mahalla va maktab o‘rtasidagi hamkorlikda quyidagi asosiy kamchiliklar mavjud:

1. Axborot almashinuvi sust. Maktab psixologi yoki sinf rahbari xavf guruhidagi bolani aniqlaganida, bu ma’lumot mahallaga o‘z vaqtida yetib bormaydi. Aksincha,

mahalla tomonidan oiladagi muammolar haqida bilinsa ham, maktabga tezkor xabar berilmaydi.

2. Erta aniqlash tizimi zaif. Ko‘p hollarda bola huquqbuzarlik sodir etgandan keyingina e’tibor qaratiladi. Oldindan ogohlantirish va profilaktik ish olib borish mexanizmi to‘liq ishlamayapti.

3. Ota-onalar bilan ishlash tizimsiz. Maktab va mahalla alohida-alohida ota-onalar yig‘ilishi o‘tkazadi, lekin birgalikdagi, muvofiqlashtirilgan ish deyarli yo‘q.

4. Bo‘sh vaqtni tashkil etishda muvofiqlashtirish yo‘q. Maktab sport va madaniy tadbirlar o‘tkazadi, mahalla o‘z tadbirlarini tashkil etadi, lekin ular bir-birini to‘ldirmaydi.

5. Internetdagi xavflar bo‘yicha umumiy yondashuv shakllanmagan. Zararli kontent haqida ota-onalar va o‘quvchilarga tushuntirish ishlari alohida-alohida olib boriladi, birgalikdagi tizimli yondashuv yo‘q [5].

Maxsus profilaktika talablariga ko‘ra, xavf guruhidagi bolalar bilan ishlashda mahalla va maktab birgalikda harakat qilishi lozim [6]. Ammo amaliyotda bu hamkorlik ko‘pincha rasmiy yig‘ilishlar va hisobotlar bilan cheklanib qolmoqda [7]. Natijada erta aniqlash, individual yondashuv va oilaviy tarbiya to‘liq ishlamayapti.

4. Muhokama (Discussion)

Mahalla va maktab hamkorligini kuchaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Yagona axborot almashish tizimini yaratish. Maktab psixologi, sinf rahbari va mahalla faollari o‘rtasida xavf guruhidagi bolalar haqida tezkor ma’lumot almashish mexanizmini yo‘lga qo‘yish kerak. Buning uchun maxsus elektron jurnal yoki oddiy, lekin doimiy ishlaydigan axborot almashish tartibini joriy etish mumkin. Har qanday ogohlantiruvchi belgi (davomatning yomonlashishi, xulq-atvordagi o‘zgarish, oiladagi mojaro) darhol ikki tomonga yetkazilishi lozim.

2. Birgalikda individual ishlash. Har bir xavf guruhidagi bola uchun maktab va mahalla birgalikda individual profilaktika rejasini tuzishi kerak. Rejada bolaning oilaviy holati, do‘stlari, bo‘sh vaqti, psixologik holati inobatga olinadi. Har oy yakunida ikki tomon natijalarni birgalikda muhokama qiladi.

3. Ota-onalar bilan birgalikda ishlash. Maktab va mahalla tomonidan ota-onalarga farzandlarining do‘stlari, bo‘sh vaqti va internetdan foydalanishi bo‘yicha muntazam suhbatlar o‘tkazish zarur. Bu suhbatlar alohida emas, balki birgalikda tashkil etilishi kerak. Ota-onalarga amaliy maslahatlar berish, real misollar ko‘rsatish samaraliroq bo‘ladi.

4. Bo‘sh vaqtni birgalikda tashkil etish. Maktab va mahalla yoshlar uchun sport, madaniy, tarbiyaviy va kasb-hunar yo‘nalishidagi tadbirlarni birgalikda rejalashtirishi lozim. Bola maktabdan keyin ham foydali mashg‘ulot bilan band bo‘lsa, salbiy ta’sirlarga berilish ehtimoli kamayadi.

5. Internet xavflari bo‘yicha umumiy yondashuv. Zararli kontent haqida ota-onalar va o‘quvchilarga birgalikda tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Maktabda dars, mahallada suhbat shaklida bir xil yondashuvni qo‘llash natija beradi.

6. Natijalarni baholash tizimini joriy etish. Hamkorlik natijalarini har chorakda birgalikda tahlil qilish va yangi chora-tadbirlar belgilash lozim. Bu tizim formal hisobot emas, balki haqiqiy natijaga asoslangan bo‘lishi kerak.

Bu chora-tadbirlar amaldagi qonunlarning maqsadlariga to‘liq mos keladi [8] va maxsus profilaktikaning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

5. Xulosa (Conclusion)

Mahalla va maktab hamkorligini kuchaytirish – voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini samarali qilishning eng muhim shartlaridan biridir.

Agar axborot almashinuvi, individual ishlash, ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyat, bo‘sh vaqtni tashkil etish va internet xavflariga qarshi birgalikdagi yondashuv tizimli yo‘lga qo‘yilsa, huquqbuzarliklarning oldini olish ancha osonlashadi. Bu esa nafaqat huquqbuzarliklar sonini kamaytiradi, balki yoshlarning sog‘lom muhitda o‘sishiga, huquqiy ongining oshishiga va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // 22.09.1994-y. // lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // 22.09.1994-y. // lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni // 29.09.2010-y., O‘RQ-263-son // lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni // 14.05.2014-y., O‘RQ-371-son // lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni // 19.08.1999-y., 813-I-son // lex.uz.

7. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar // lex.uz.

10-12 YOSHLI BADIIY GIMNASTIKACHILARDA STATIK MUVOZANAT QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH QOBILIYATI

M.M.Akmuradov
akmuradovmirshod9@gmail.com
O‘zbekistondavlatjismoniytarbiyava
sport universiteti “sport psixologiyasiva
pedagogikasi”kafedrasio‘qituvchisi

N.Sh.Allaberganova
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport univeriteti,
Chirchiq shahri, O‘zbekiston
Allaberganovanozima7@gmail.com

Kalit so’zlar: *badiiy gimnastika, yosh sportchilar, statik muvozanat, psixik jarayonlar, sport psixologiyasi, hissiy barqarorlik, diqqatni jamlash, e’tibor, koordinatsiya.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 10-12 yoshli badiiy gimnastikachilarda statik muvozanat qobiliyatini rivojlantirishning psixologik omillari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – yosh gimnastikachilarda muvozanat sezgisini rivojlantirish, muvozanatni saqlash jarayonida diqqatni jamlash va hissiy barqarorlik kabi psixologik ko‘rsatkichlarni rolini aniqlash hamda ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot uslublarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari badiiy gimnastika bo‘yicha murabbiylar va sport psixologlari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Ключевые слова: *художественная гимнастика, юные спортсменки, статическое равновесие, психические процессы, спортивная психология, эмоциональная устойчивость, концентрация, внимание, координация.*

Аннотация: *В статье анализируются психологические факторы развития способности к статическому равновесию у художественных гимнасток 10-12 лет. Цель исследования - определить роль таких психологических показателей, как развитие чувства равновесия, концентрации и эмоциональной устойчивости*

в процессе поддержания равновесия у юных гимнасток, и разработать методы тренировок, направленные на их развитие. Результаты исследования имеют практическое значение для тренеров по художественной гимнастике и спортивных психологов.

Key words: *rhythmic gymnastics, young athletes, static balance, mental processes, sports psychology, emotional stability, concentration, attention, coordination.*

Abstract: *This article analyzes the psychological factors of development of static balance ability in 10-12-year-old rhythmic gymnasts. The purpose of the research is to develop the sense of balance in young gymnasts, to determine the role of psychological indicators such as concentration and emotional stability in the process of maintaining balance, and to develop training methods aimed at their development. The results of the research are of practical importance for rhythmic gymnastics coaches and sports psychologists.*

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrdagi PQ-449-sonli “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori bilan gimnastikani rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari belgilab berildi. Badiiy gimnastika sport turi nafaqat yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni, balki muvozanat, koordinatsiya, e’tibor va hissiy boshqaruv kabi murakkab psixologik qobiliyatlarni ham talab qiladi. Ayniqsa, 10-12 yosh oralig’idagi gimnastikachilar uchun bu davr organizmning faol o’sishi, harakat tizimining shakllanishi va psixik jarayonlarning barqarorlashuvi bosqichi hisoblanadi. Shu sababli ushbu yosh davrida muvozanat qobiliyatini rivojlantirish sport tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Statik muvozanat – bu organizmning harakatsiz holatda barqaror turish qobiliyati bo’lib, u asosan, vestibulyar tizim, mushak sezgisi, ko’rish analizatori hamda markaziy asab tizimi faoliyati bilan chambarchas bog’liq. Bu jarayon sport psixologiyasi nuqtai nazaridan ham muhimdir, chunki muvozanatni saqlash faqat jismoniy emas, balki ruhiy boshqaru, diqqatni jamlash va hissiy turg’unlikni talab etadi. Badiiy gimnastikada ko’plab mashqlar – oyoqda, oyoq uchida yoki bir oyoqda turib, gavdani turli holatda ushlab turish bilan bog‘liq. Statik muvozanat rivojlangan bo’lsa, gimnastikachi harakatni barqaror va chiroyli bajara oladi. Bu esa texnik baholashda yuqori natija beradi. Murakkab sakrashlar, aylanishlar yoki asboblar bilan ishlashdan oldin statik muvozanat asos bo’lib xizmat qiladi. To’g’ri qomatni shakllantirish uchun eng yaxshi samara beruvchi mashqlar muvozanat va

balansni saqlab turuvchi mashqlar hisoblanadi. Bularning qimmatliligi shundaki, bu mashqlarni bajarganda mushak tonusi reflesk tarzda oshadi va tanani to'g'ri ushlab turishga yordam beradi. Xareografiya mashqlarida statik muvozanat asosiy rol o'ynaydi.

Muvozanat saqlash mashqlari.

Muvozanat saqlashning zarur sharti umumiy og'irlik markazining tayanch maydoni ustida joylashishidir. Tayanch maydoni qanchalik katta bo'lsa, muvozanat shunchalik turg'un bo'ladi. Muvozanat saqlash mashqlari qomatni shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega, chunki ularni bajarayotganda bel hamda butun gavda muskullarining tonusi ancha ortadi.

Toshkent shahrida badiiy gimnastika bilan shug'ullanadigan 10-12 yoshli 24 nafar sportchi qizlar ishtirokida tadqiqot o'tkazildi. Ishtirokchilar ikki guruhga – nazorat guruhi va tajriba gurhiga teng miqdorda bo'lindi. Tajriba guruhi uchun 8 haftalik maxsus mashqlar dasturi ishlab chiqildi. Bunda quyidagi mashqlardan foydalandik:

STATIKMUVOZANAT QOBILIYATINI YAXSHILOVCHI MASHLAR MAJMUASI

J	Mashqnomivamazmuni	Psixologikta'rif	Me'yor (takror/vaqt)
1	Biroyoqdaturish. Gimnastikachibiroyoqdatikturadi, qo'llar yon tomongayoyilgan.	Diqqatnijamlashnivao'zininazoratqilishnio'rgatadi.	Harbiro yoqda10-30 soniyadan
2	"planka" mashqi. Tirsakvaoyoqbarmoqlarigatayanib, tanachizig'inito'g'risaqlash	Tananibarqarortutuvchimushaklarni mustahkamlash.	20-60 soniyadavomida
3	Skameykaustidamuvozanat. Gimnastikachipast skameykaustidaoyoquchidayuradi	Tananiboshqarish, qo'rquvniyengish, ishonchnioshirish.	4-6 martaboribkelish
4	"qaldirg'och" holati. Biroyoqdaturilib, ikkinchioyoqorqagacho'ziladi, gavdaoldingaegiladivaqo'llaryongayoyiladi.	Koordinatsiyanioshirishgavadiqqatnijamlashgayordamberadi	Harbiro yoqda 10-20 soniya

5	“koprik” hosilqilish. Yotganholda bel yuqorigako’tarilibko’prikho silqilinadi.	O’zigabo’lganishonchnivasabrnio’rg atadi	15-30soniya
6	Burchakushlabo’tirish. O’tirganholdaoyoqlar 45gradusga ko’tariladi, qo’llaryonda.	Mushaksezgisinioshiradi, diqqatnijamlashgayordamberadi	20-40soniya
7	“passe” elementi. Oyoquchidaturibbiroy oqbukilib, oyoquchitizzayonidaturadi. Qo’llaryuqorida.	Proprioseptivsezginivaichkimuvozan atnirivojlantirish	Harbiro yoqda 15-20 soniya

XULOSA. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, eksperiment va statistik tahlil usullari qo’llanildi. O’tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, tajriba guruhi ishtirokchilarida 8 haftalik mashg’ulotlardan so’ng statik muvozanat ko’rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan o’rtacha 27%ga yaxshilangan. Tadqiqot natijalari muvozanat qobiliyatini rivojlantirishda faqat jismoniy tayyorgarlikemas, balki sportchining psixologik tayyorgarligi ham muhim rol o’ynashini isbotladi. Statik muvozanat – tana harakati bo’lmasa ham, uning barqaror holatda turish qobiliyatidir. Baddiy gimnastikada bu qobiliyat turli oyoq uchida turishlar, burilishlar, yoki yuqori darajadagi balandlikda balansni saqlashda juda muhim. 10-12 yoshli badiiy gimnastikachilarda statik muvozanatni rivojlantirish – texnik mahorat, jismoniy barqarorlik, estetika va xavfsizlikning poydevori hisoblanadi. Bu yoshda bu sifatni shakllantirish keyingi yillarda yuqori darajadagi sport natijalariga erishish uchun zarurdir. Shuning uchun bugungi kunda badiiy gimnastika mashg’ulotlarida texnik elementlarni bajarishning aniqligi, nafisligi va barqarorligini ta’minlash uchun muvozanat mashqlari keng qo’llanilmoqda. Biroq bu mashqlarning yosh sportchilarning psixologik holatiga, diqqat kontsentratsiyasiga va o’z-o’zini boshqarish ko’nikmalariga ta’siri yetarlicha o’rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, 10-12 yoshli gimnastikachilarda statik muvozanatni rivojlantirishning psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Shunday qilib, badiiy gimnastikachilarda muvozanatni rivojlantirishni faqat jismoniy mashqlar orqali emas, balki sport psixologiyasining zamonaviy metodlari bilan uyg’unlashtirish yuqori samaradorlikni beradi. Bu yondashuv nafaqat texnik tayyorgarlikni, balki sportchi shaxsining psixologik barqarorligini ham ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Borodin V.A. Koordinatsiya haqida gaplashaylik // Maktabda jismoniy tarbiya. - № 8. - Moskva, 2006. - 25-27-betlar.

2. Borisenko O.V., Loginov S.I., Lubisheva L.I. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda modulli texnologiya asosida dzyudo orqali koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish. - Sankt-Peterburg: Lesgaft Davlat jismoniy tarbiya akademiyasi, 2000. - 162 b.

3. Vishnyakov A.V., Kashkarov V.A. Yosh sportchilarning eng muhim koordinatsiya qobiliyatlarini pedagogik monitoring qilish // Jismoniy tarbiya: tarbiya, ta'lim, mashg'ulotlar. - 2004. - № 1. - 16-18-betlar.

4.Shishkovska, M. (2011). Assessment of the components of performing skills in rhythmic gymnastics. St.Petersburg: Lesgaft National State University of Physical Education, Sport and Health.

5.Karavackaya, N.A. (2002). Development of plastic expressiveness skills in rhythmic gymnastics. VelikieLuki: VelikieLuki Institute of Physical Culture.

6.Carbinatto, M.V., & Reis Furtado, L.N. (2019). Choreographic process in gymnastics for all. ScienceofGymnasticsJournal, Vol.11 (Issue 3), 343-353

7.Kozhanova O. S. Selectionofathletestoteamsingroupexercisesofrhythmicgymnastics : author'sabstractforPh. D. InPhysicalEducationandSport : 24.00.01 / O. S. Kozhanova. – Kyiv, 2013. – 20 p.

8.Veraksa A. N. Psychologicalpeculiaritiesofrhythmicgymnasts / A. N. Veraksa, S. V. Leonov, A. E. Gorovaya // VestnikMoskovskogouniversiteta. – 2011. – N 4. – P. 134–147.

9.Allport, G. W. (1961). *Pattern and growth in personality*. New York: Rinehart and Winston.

10.Beckmann, N., & Wood, R. E. (2017). Editorial: Dynamic personality science. Integrating between-person stability and within-person change. *Frontiers in Psychology*. https://dx.doi.org/10.3389%2Ffpsyg.2017.01486

TALABALARNING MUSTAQIL O‘QUV-TADQIQOT FAOLIYATI TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Suyunova Marjona Xudoyshukur qizi,
E-mail: marjonasuyunova542@gmail.com
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti Madaniyat va san’at sohasi menejmenti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda “Talabalarning mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati” tushunchasining mohiyati IMRAD (Kirish–Metodlar–Natijalar–Muhokama) tuzilishi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ushbu faoliyatning to‘rt tarkibiy komponenti - kognitiv, motivatsion, operatsional-texnologik va refleksiv-baholovchi komponentlar - aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati, kognitiv komponent, motivatsion komponent, operatsional-texnologik komponent, refleksiv-baholovchi komponent, o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish.*

Аннотация: *В данных тезисах на основе структуры IMRAD (Введение–Методы–Результаты–Обсуждение) анализируется сущность понятия «самостоятельная учебно-исследовательская деятельность студентов». В результате исследования выделены четыре структурных компонента данной деятельности — когнитивный, мотивационный, операционально-технологический и рефлексивно-оценочный, обоснована их взаимосвязь.*

Ключевые слова: *самостоятельная учебно-исследовательская деятельность, когнитивный компонент, мотивационный компонент, операционально-технологический компонент, рефлексивно-оценочный компонент, саморегулируемое обучение.*

Abstract*: This thesis analyzes, within an IMRAD (Introduction–Methods–Results–Discussion) structure, the essence of the concept of "students' independent learning-research activity." The study identifies four structural components of this activity — cognitive, motivational, operational-technological, and reflective-evaluative — and substantiates their interrelationship.*

Keywords: *independent learning-research activity, cognitive component, motivational component, operational-technological component, reflective-evaluative component, self-regulated learning.*

KIRISH

“Mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati” tushunchasi pedagogika fanida keng qo‘llanilsa-da, uning mazmuni ko‘pincha aniq belgilanmagan holda, “mustaqil ish” yoki “tadqiqot ko‘nikmalari” kabi umumiyroq tushunchalar bilan aralashtirib yuboriladi. Bu esa amaliyotda ushbu faoliyatni maqsadli rivojlantirish va baholashni qiyinlashtiradi.

Tadqiqot maqsadi – “talabalarning mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish va uning tarkibiy komponentlarini ilmiy asoslangan tarzda tizimlashtirishdan iborat.Vazifalar: tushunchaning mavjud ta'riflarini tahlil qilish va ularni umumlashtirish; tushunchani yaqin tushunchalardan (“mustaqil ish”, “tadqiqot ko‘nikmalari”, “o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish”) farqlash; faoliyatning tarkibiy komponentlarini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslash.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, komponentlarning aniq tizimlashtirilishi ushbu faoliyatni rivojlantirish va baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqish uchun zaruriy shartdir.

METODLAR

Tadqiqotda kontseptual-terminologik tahlil metodi qo‘llanildi: mavzuga oid ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarda “mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati” tushunchasining turli talqinlari yig‘ildi va tahlil qilindi. Shuningdek, kontent-tahlil metodi orqali tushunchaning takrorlanuvchi mazmuniy birliklari (bilim, motivatsiya, ko‘nikma, nazorat) ajratildi.

Tushunchaning tarkibiy komponentlarini aniqlashda struktura-funksional yondashuvdan foydalanildi: har bir komponent faoliyatning qaysi funksiyasini bajarishi (nima biladi, nega qiladi, qanday qiladi, qanday baholaydi) mezoni asosida ajratildi. Aniqlangan komponentlar keyin yaqin pedagogik-psixologik yondashuvlar (an’anaviy didaktik yondashuv, SRL nazariyasi) bilan qiyoslandi.

NATIJALAR

Tahlil natijasida “talabalarning mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati” to‘rt o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat yaxlit tizim ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. Mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyatining tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Namoyon bo‘lish shakli

Kognitiv komponent	Bilim, tushuncha va tadqiqot metodlarini egallash	Muammoni tahlil qilish, gipoteza qurish
Motivatsion komponent	Ichki qiziqish va maqsadga yo‘nalganlik	Mustaqil izlanishga intilish, sabot
Operatsional-texnologik komponent	Amaliy ko‘nikma va harakatlar tizimi	Ma'lumot to‘plash, tahlil qilish, rasmiylashtirish
Refleksiv-baholovchi komponent	O‘z faoliyatini nazorat va baholash	O‘z-o‘zini tahlil qilish, xatolarni tuzatish

Kognitiv komponent talabaning tadqiqot predmeti bo‘yicha bilim va tushunchalarni, shuningdek tadqiqot metodlarini egallash darajasini ifodalaydi. Motivatsion komponent talabaning ichki qiziqishi, maqsadga yo‘nalganligi va tadqiqot jarayonidagi sabotini belgilaydi. Operatsional-texnologik komponent — ma'lumot to‘plash, tahlil qilish va natijalarni rasmiylashtirish kabi amaliy ko‘nikmalar tizimi. Refleksiv-baholovchi komponent esa talabaning o‘z faoliyatini nazorat qilish, baholash va zarur holda tuzatish qobiliyatini anglatadi.Komponentlar orasidagi bog‘liqlik tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular chiziqli emas, balki siklik tarzda bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi: motivatsiya kognitiv faollikni kuchaytiradi, kognitiv faollik operatsional ko‘nikmalarni rivojlantiradi, operatsional natijalar esa refleksiya orqali qayta motivatsiyaga aylanadi.

Tushunchani yaqin kategoriyalardan farqlash natijasida quyidagi xulosaga kelindi: “mustaqil ish” faqat operatsional-texnologik komponentga e’tibor qaratadi, “o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish” (SRL) asosan motivatsion va refleksiv komponentlarni qamrab oladi, “tadqiqot ko‘nikmalari” esa faqat kognitiv-operatsional jihatga tegishli. “Mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati” tushunchasi esa ushbu barcha jihatlarni yaxlit tizimda birlashtiruvchi kengroq kategoriyadir (2-jadval).

2-jadval. Yondashuvlarning mustaqil faoliyatga munosabati bo‘yicha qiyosiy tahlili

Yondashuv	Mustaqil faoliyatga qarashi	Cheklovi
An'anaviy didaktik yondashuv	Ko‘rsatma asosida bajariladigan mustaqil ish	Tadqiqotchilik va ijodkorlik jihati zaif
SRL (Zimmerman) yondashuvi	O‘z-o‘zini boshqarib o‘qish jarayoni	Tadqiqot mazmuni va predmeti chetda qoladi
Mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati (ushbu tadqiqot)	To‘rt komponentli yaxlit tizim	Amalga oshirish uchun maxsus pedagogik qo‘llab-quvvatlash talab etadi

Komponentlarning yosh va ta’lim bosqichiga bog‘liq dinamikasi

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, to‘rt komponentning nisbiy og‘irligi talabaning ta'lim bosqichiga qarab o‘zgarib boradi. Ta’lim boshlang‘ich bosqichida motivatsion va kognitiv komponentlar yetakchi rolni o‘ynaydi, chunki talaba hali tadqiqot predmeti bilan tanishish va qiziqish uyg‘otish bosqichida bo‘ladi. O‘rta bosqichda operatsional-texnologik komponent kuchayadi - talaba amaliy tadqiqot ko‘nikmalarini faol egallay boshlaydi. Yakuniy bosqichda esa refleksiv-baholovchi komponent yetakchilikka chiqadi, bu talabaning o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qila olish darajasiga yetganligini bildiradi.Ushbu dinamika shuni ko‘rsatadiki, to‘rt komponentni bir vaqtning o‘zida bir xil darajada rivojlantirishga urinish samarasiz bo‘lishi mumkin; aksincha, pedagogik ta'sirni ta'lim bosqichiga mos komponentga qarata yo‘naltirish maqsadga muvofiqroqdir.

MUHOKAMA

Olingan natijalar “mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati” tushunchasining ko‘p qirrali, integrativ xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu, o‘z navbatida, ushbu faoliyatni faqat bitta ko‘rsatkich (masalan, faqat bajarilgan ishlar soni yoki faqat motivatsiya darajasi) orqali baholashning yetarli emasligini ko‘rsatadi — barcha to‘rt komponentni hisobga oluvchi kompleks baholash tizimi zarur. Natijalar B. Zimmermanning o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish nazariyasi bilan qisman mos keladi, biroq undan farqli o‘laroq, taklif etilgan tarkib tadqiqot predmeti va mazmuni bilan bog‘liq kognitiv komponentni alohida ajratadi, bu esa uni aynan tadqiqotchilik faoliyatiga — nafaqat umumiy o‘quv faoliyatiga — yo‘naltiradi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, komponentlarning nisbiy og‘irligi turli fan yo‘nalishlarida farqlanishi mumkin, bu holat keyingi tadqiqotlarda sohaga xos empirik tekshiruvni talab qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “talabalarning mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyati” kognitiv, motivatsion, operatsional-texnologik va refleksiv-baholovchi komponentlardan iborat yaxlit, tsiklik tizimdir. Ushbu tarkibiy tahlil tushunchani yaqin kategoriyalardan aniq farqlash, shuningdek uni rivojlantirish va baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zimmerman, B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.

2. Zimmerman, B.J., Schunk, D.H. (Eds.). Handbook of Self-Regulation of Learning and Performance. — New York: Routledge, 2011.

3. Pintrich, P.R., Smith, D.A.F., Garcia, T., McKeachie, W.J. A Manual for the Use of the Motivated Strategies for Learning Questionnaire (MSLQ). — Ann Arbor: University of Michigan, 1991.

4. Bandura, A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. — New York: W.H. Freeman, 1997.

5. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

6. Thomas, J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. — San Rafael, CA: The Autodesk Foundation, 2000.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Solijonova Madinabonu Baxromjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
madinaikromjonova1@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi raqamli vositalarni texnik ko‘nikma emas, balki pedagogik loyihalash, interfaol o‘qitish, raqamli baholash, hamkorlik va refleksiya bilan bog‘liq kompleks kompetensiya sifatida asoslashdan iborat. Tizimli, qiyosiy-tahliliy, kontent-tahlil va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada raqamli kasbiy kompetentlikning asosiy komponentlari hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar tizimlashtirildi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti, bo‘lajak pedagog, kasbiy kompetentlik, raqamli kompetentlik, pedagogik texnologiya, raqamli resurs, interfaol ta’lim, raqamli baholash, refleksiya, sun’iy intellekt.*

Abstract. *This article analyzes opportunities for developing pre-service teachers’ professional competence in a digital learning environment. The study conceptualizes digital tools as part of a complex pedagogical competence involving instructional design, interactive teaching, digital assessment, collaboration, and reflection. Systemic, comparative-analytical, content-analysis, and pedagogical modeling methods were used. The study identifies key components of digital professional competence and systematizes pedagogical technologies for its development.*

Keywords: *digital learning environment, pre-service teacher, professional competence, digital competence, pedagogical technology, digital resources, interactive learning, digital assessment, reflection, artificial intelligence.*

KIRISH

Ta’limning raqamli transformatsiyasi zamonaviy pedagog kadrga qo‘yiladigan talablarni tubdan kengaytirmoqda. Bugungi pedagogdan faqat fan mazmunini bilish yoki an’anaviy dars metodlarini qo‘llash emas, balki raqamli resurslarni pedagogik

maqsadga muvofiq tanlash, ta’lim jarayonini raqamli muhitda loyihalash, o‘quvchilar faoliyatini onlayn va oflayn formatlarda tashkil etish, raqamli baholash vositalaridan foydalanish hamda raqamli xavfsizlik va akademik halollik tamoyillariga rioya qilish talab etiladi. UNESCOning 2023-yilgi Global Education Monitoring Report hisobotida ham texnologiyaning ta’limdagi samarasi avtomatik ravishda yuzaga kelmasligi, uning natijadorligi tegishli pedagogik maqsad, teng imkoniyat, boshqaruv va o‘qituvchilarning tayyorgarligiga bog‘liqligi ta’kidlangan [1].

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining mazmuni va shaklini o‘zgartirishi bilan birga, o‘qituvchining kasbiy rolini ham qayta belgilamoqda. Yevropa Komissiyasining DigCompEdu doirasida pedagoglarning raqamli kompetentligi 22 ta kompetensiyani qamrab oluvchi olti yo‘nalishda — kasbiy faoliyat, raqamli resurslar, o‘qitish va o‘rganish, baholash, ta’lim oluvchilar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning raqamli kompetentligini rivojlantirish — tavsiflangan [2]. Mazkur yondashuv raqamli kompetentlikni alohida texnik ko‘nikma emas, balki pedagogik faoliyatning turli bosqichlariga singdirilgan kompleks kompetensiya sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellektning ta’limga tez kirib kelishi ushbu masalani yanada dolzarb qilmoqda. UNESCOning 2024-yilda e’lon qilingan o‘qituvchilar uchun AI kompetensiyalari doirasida inson markazli yondashuv, AI etikasi, AI asoslari va qo‘llanilishi, AI pedagogikasi hamda kasbiy rivojlanish uchun AI’dan foydalanish kabi besh yo‘nalish ajratilgan [3]. Demak, bo‘lajak pedagogni raqamli muhitga tayyorlash endilikda faqat platformalar bilan ishlashni o‘rgatish bilan cheklanmasligi, balki texnologik vositalarni pedagogik va axloqiy jihatdan mas’uliyatli qo‘llash kompetensiyasini ham shakllantirishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va mazkur jarayon uchun samarali pedagogik texnologiyalar majmuini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun raqamli kasbiy kompetentlikning mazmuniy komponentlarini aniqlash, raqamli vositalarning pedagogik funksiyalarini tahlil qilish, bo‘lajak pedagoglar faoliyatida qo‘llash mumkin bo‘lgan texnologiyalarni tizimlashtirish va amaliy modelni taklif etish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo‘lib, unda raqamli ta’lim va pedagog kadrlar tayyorgarligiga oid ilmiy-metodik manbalarni tizimlashtirishga e’tibor qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va reflektiv yondashuv tashkil etdi. Tizimli

yondashuv raqamli vositalar, pedagogik maqsad, ta’lim mazmuni, metod, baholash va ta’lim oluvchi faoliyatini yagona tizim sifatida ko‘rishga imkon berdi.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida raqamli kompetentlikka oid xalqaro yondashuvlar, xususan, DigCompEdu va UNESCOning o‘qituvchilar uchun AI kompetensiyalari doirasi tahlil qilindi. Kontent-tahlil orqali ushbu manbalarda takrorlanadigan asosiy kompetensiyalar ajratildi. Pedagogik modellashtirish metodi esa aniqlangan komponentlarni bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonidagi amaliy texnologiyalar bilan bog‘lash uchun qo‘llanildi.

Metodologik jihatdan muhim jihat shundaki, maqolada texnologiyaning o‘zi ta’lim natijasining kafolati sifatida qaralmaydi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyaning ta’limdagi ta’siri kontekst, pedagogning tayyorgarligi, infratuzilma va pedagogik maqsadga muvofiqlik bilan bog‘liq [1]. Shu sababli tadqiqotda “texnologiya → faoliyat → pedagogik natija” zanjiri asosiy tahliliy birlik sifatida qabul qilindi.

Bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligi — uning fan, metodika, kommunikatsiya, baholash, tarbiya va o‘z-o‘zini rivojlantirishga oid bilim va ko‘nikmalarini real pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Raqamli muhit bu kompetentlikning tarkibiga yangi faoliyat turlarini qo‘shadi. Jumladan, raqamli o‘quv kontentini yaratish, elektron platformalarda hamkorlikni tashkil etish, ma’lumotlarni tahlil qilish, onlayn baholashni loyihalash, raqamli xavfsizlikni ta’minlash va texnologik vositalarni didaktik maqsadga moslashtirish shular jumlasidandir.

DigCompEdu modeli ushbu jarayonni ayniqsa aniq ifodalaydi: pedagogning raqamli kompetentligi faqat qurilma yoki dasturdan foydalanish qobiliyati bilan cheklanmaydi. Unda kasbiy hamkorlik, reflektiv amaliyot, raqamli resurslarni tanlash, o‘qitish va o‘rganish, baholash, ta’lim oluvchini faollashtirish va uning raqamli kompetentligini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar bir butun tizimni tashkil etadi [2]. Shundan kelib chiqib, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda “qaysi dasturdan foydalanishni bilish”dan ko‘ra “qaysi pedagogik vazifani qaysi raqamli vosita yordamida va nima sababdan hal qilishni bilish” ustuvor bo‘lishi kerak.

Raqamli kompetentlikning birinchi komponenti — instrumental-texnologik komponent. U raqamli platformalar, taqdimot vositalari, test va so‘rov servislaridan foydalanish, elektron hujjatlar va o‘quv materiallarini yaratishni qamrab oladi. Ikkinchi komponent — didaktik-metodik komponent bo‘lib, raqamli vositani ta’lim maqsadi, mazmuni va metodiga mos tanlashni anglatadi. Uchinchi komponent — kommunikativ-hamkorlik komponenti; bunda pedagog raqamli muhitda guruh ishini, teskari aloqani

va professional muloqotni tashkil etadi. To‘rtinchi komponent — baholash-analitik komponent bo‘lib, elektron topshiriqlar, formative assessment va o‘quv natijalari haqidagi ma’lumotlardan foydalanishni nazarda tutadi. Beshinchi komponent — etik-reflektiv komponent; u akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli farovonlik, AI’dan mas’uliyatli foydalanish va pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishini qamrab oladi.

Birinchi samarali yo‘nalish — muammoli va loyiha asosida o‘qitishni raqamli muhit bilan integratsiyalash. Bunda talabaga tayyor raqamli mahsulot berish o‘rniga, u muayyan pedagogik muammoni hal qilish uchun raqamli resurslardan foydalanadi. Masalan, bo‘lajak pedagog biror mavzu bo‘yicha mini-dars loyihasini ishlab chiqadi, uning maqsadlarini belgilaydi, raqamli resurslarni tanlaydi, interfaol topshiriq yaratadi va yakunda o‘z yechimini pedagogik mezonlar asosida himoya qiladi. Bunday faoliyat texnik ko‘nikmani real kasbiy vazifa bilan bog‘laydi.

Ikkinchi yo‘nalish — blended learning, ya’ni aralash ta’lim texnologiyasi. Mazkur yondashuvda auditoriya mashg‘ulotlari mustaqil raqamli faoliyat bilan uyg‘unlashtiriladi. Bo‘lajak pedagog elektron material bilan oldindan tanishadi, darsda muammoli vazifalarni bajaradi va keyinchalik raqamli platformada refleksiya yoki qo‘shimcha topshiriqni amalga oshiradi. Natijada vaqtni boshqarish, mustaqil ta’lim, raqamli muloqot va o‘z faoliyatini baholash kompetensiyalari bir vaqtda rivojlanadi.

Uchinchi yo‘nalish — raqamli baholash va formative feedback. Elektron testlar, qisqa diagnostik topshiriqlar, elektron portfoliolar, rubrikalar va tezkor teskari aloqa vositalari talabaning o‘zlashtirish dinamikasini kuzatishga yordam beradi. Bunda baholashning maqsadi faqat ball qo‘yish emas, balki ta’lim oluvchiga keyingi rivojlanish yo‘nalishini ko‘rsatishdan iborat bo‘lishi kerak. DigCompEdu ham raqamli vositalardan baholash jarayonini takomillashtirish va ta’lim oluvchining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanishni alohida kompetensiya sohasi sifatida ko‘rsatadi [2].

To‘rtinchi yo‘nalish — raqamli portfolio. Talaba o‘zining dars ishlanmalari, taqdimotlari, interfaol topshiriqlari, video-darslari, reflektiv yozuvlari va baholash materiallarini yagona elektron portfolioga jamlaydi. Portfolio nafaqat natijalarni namoyish etadi, balki kasbiy rivojlanishning dinamikasini ko‘rsatadi. O‘qituvchi portfolio asosida individual teskari aloqa beradi, talaba esa o‘z kuchli va zaif jihatlarini aniqlaydi.

Beshinchi yo‘nalish — hamkorlikda raqamli mahsulot yaratish. Guruhli topshiriqlarda talabalar umumiy taqdimot, elektron metodik qo‘llanma, videodars, interfaol topshiriqlar to‘plami yoki raqamli dars ssenariysini ishlab chiqishi mumkin.

Bunda kommunikatsiya, vazifalarni taqsimlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy mas’uliyat kabi kasbiy sifatlar rivojlanadi. DigCompEdu doirasida pedagoglarning raqamli hamkorligi va professional tajriba almashinuvi ham alohida kompetensiya sifatida qayd etilgan [2].

Oltinchi yo‘nalish — sun’iy intellektdan pedagogik va etik jihatdan mas’uliyatli foydalanish. Bo‘lajak pedagog AI vositalaridan dars g‘oyalarini ishlab chiqish, savollar bankini shakllantirish, differensial topshiriqlar tayyorlash yoki matnni dastlabki tahlil qilishda foydalanishi mumkin. Biroq AI natijasini tekshirish, manbalarni verifikatsiya qilish, mualliflik va akademik halollik talablariga rioya qilish ham kompetensiyaning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. UNESCOning AI Competency Framework for Teachers hujjatida aynan inson markazli yondashuv, AI etikasi, AI pedagogikasi va professional rivojlanish yo‘nalishlari belgilangan [3].

Yettinchi yo‘nalish — reflektiv raqamli pedagogika. Har bir raqamli mashg‘ulotdan keyin bo‘lajak pedagog “qaysi vosita ishladi?”, “u qaysi pedagogik maqsadga xizmat qildi?”, “talabaning faolligi qanday o‘zgardi?”, “qaysi muammo yuzaga keldi?” kabi savollar asosida o‘z faoliyatini tahlil qilishi kerak. Bu yondashuv texnologiyadan ko‘r-ko‘rona foydalanishning oldini oladi. UNESCO ham texnologiya ta’lim maqsadlariga xizmat qilishi va o‘qituvchilar faqat muayyan qurilmani ishlatishni emas, undan ta’lim uchun qanday foydalanishni bilishi kerakligini ta’kidlaydi [1].

Tahlil natijalariga ko‘ra, bo‘lajak pedagogning raqamli kasbiy kompetentligini rivojlantirishni quyidagi ketma-ketlik asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

1) Diagnostika — talabaning boshlang‘ich raqamli va pedagogik kompetensiyalarini aniqlash;

2) Maqsadni belgilash — kasbiy vazifaga mos raqamli kompetensiya indikatorlarini aniqlash;

3) Pedagogik loyihalash — dars maqsadi, mazmuni, metod va raqamli vositani o‘zaro moslashtirish;

4) Amaliy faoliyat — raqamli dars, loyiha, elektron topshiriq yoki portfolio yaratish;

5) Teskari aloqa — o‘qituvchi va tengdoshlar tomonidan rubrika asosida baholash;

6) Refleksiya — bajarilgan faoliyatning pedagogik samaradorligini tahlil qilish;

7) Takomillashtirish — aniqlangan kamchiliklar asosida raqamli pedagogik mahsulotni qayta ishlab chiqish.

Ushbu modelning asosiy afzalligi texnologik vosita bilan pedagogik natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlashidir. Masalan, talaba faqat onlayn test yaratishni o‘rganmaydi; u qaysi maqsad uchun test kerakligini, savollarni qanday konstruksiya

qilishni, natijalarni qanday tahlil qilishni va olingan ma’lumot asosida keyingi ta’lim faoliyatini qanday rejalashtirishni ham o‘zlashtiradi. Shu tariqa raqamli vosita kasbiy kompetentlikni shakllantirish vositasiga aylanadi.

Tahlil natijasida raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchta o‘zaro bog‘liq darajada tashkil etilishi mumkinligi aniqlandi. Birinchi daraja — texnologik savodxonlik: vositalarni ishlata olish. Ikkinchi daraja — pedagogik integratsiya: texnologiyani ta’lim maqsadi va metodiga moslashtira olish. Uchinchi daraja — innovatsion-reflektiv daraja: yangi raqamli yechimlarni mustaqil ishlab chiqish, ularning samaradorligini baholash va pedagogik faoliyatni takomillashtira olish. Aynan uchinchi daraja bo‘lajak pedagogning barqaror kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun muhimdir.

Xalqaro yondashuvlar ham raqamli kompetentlikning faqat texnik tayyorgarlik bilan chegaralanmasligini ko‘rsatadi. DigCompEdu pedagogik faoliyatni raqamli vositalar yordamida kuchaytirish va innovatsiyalashni asosiy maqsad sifatida belgilaydi [2]. UNESCOning GEM hisobotida esa texnologiyaning ta’limdagi muvaffaqiyati o‘qituvchi salohiyati, tegishli tayyorgarlik va kontekstga moslik bilan bog‘liqligi qayd etiladi [1]. Bu holat bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda alohida “raqamli vositalar” kursidan tashqari, barcha pedagogik fanlar mazmuniga raqamli pedagogika elementlarini integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellektning rivojlanishi esa ushbu integratsiyani yanada komplekslashtirmoqda. UNESCOning 2024-yilgi AI kompetensiyalari doirasida o‘qituvchining AI’dan foydalanishida inson agentligi, mas’uliyat va etika masalalariga alohida urg‘u berilgan [3]. Shuning uchun bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda AI vositalaridan foydalanish bo‘yicha topshiriqlar bilan bir qatorda, AI tomonidan yaratilgan axborotni tekshirish, xatolarni aniqlash, manbalarni baholash va akademik halollikni saqlash bo‘yicha vazifalarni ham kiritish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, raqamli ta’limning samaradorligini faqat texnologiya soni yoki platformalar xilma-xilligi bilan o‘lchash noto‘g‘ri. UNESCO raqamli texnologiyadan foydalanishning samarasi bo‘yicha dalillar turlicha ekanini va texnologiya pedagogik maqsadni almashtirmasligi kerakligini qayd etadi [1]. Demak, bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda asosiy mezon “qancha raqamli vosita biladi?” emas, balki “raqamli vosita yordamida qanday pedagogik muammoni samarali hal qila oladi?” degan savol bo‘lishi kerak.

Amaliy nuqtayi nazardan oliy ta’lim muassasalarida raqamli kompetentlikni rivojlantirish uchun pedagogik fanlar doirasida mikro-darslar, raqamli portfolio, loyiha topshiriqlari, elektron rubrikalar, peer assessment, reflektiv kundaliklar va AI bilan

ishlash bo‘yicha vazifalarni tizimli joriy etish mumkin. Bunday faoliyatlar talabaning texnologik, metodik, kommunikativ, analitik va etik kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologik vositalarni o‘zlashtirishdan ancha keng jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Raqamli kompetentlik pedagogik loyihalash, ta’limni tashkil etish, baholash, hamkorlik, refleksiya, akademik halollik va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish kabi faoliyatlarni qamrab oluvchi kompleks kasbiy sifat sifatida qaralishi lozim.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarni pedagogik fanlarning mazmuniga integratsiyalash, loyiha va muammoli topshiriqlardan foydalanish, raqamli portfolio va formative assessmentni joriy etish, shuningdek, AI etikasi va raqamli xavfsizlik masalalarini o‘quv jarayoniga kiritish samarali yo‘nalishlar sifatida belgilanadi. Bunda texnologiya ta’limning maqsadi emas, balki pedagogik maqsadga erishish vositasi sifatida qo‘llanishi kerak.

Amaliy tavsiya sifatida oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning raqamli kasbiy kompetentligini muntazam diagnostika qilish, fanlar kesimida raqamli topshiriqlar bankini yaratish, pedagoglar uchun raqamli metodik hamkorlikni kuchaytirish va talabalarning elektron portfoliolarini kasbiy rivojlanish ko‘rsatkichi sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq. Kelgusida ushbu modelning samaradorligini tajriba-sinov asosida empirik tekshirish va kompetensiya indikatorlari bo‘yicha miqdoriy baholash alohida tadqiqot yo‘nalishi bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Global Education Monitoring Report Team. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms? – Paris: UNESCO, 2023.

2. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

3. Miao F., Cukurova M. AI competency framework for teachers. – Paris: UNESCO, 2024.

4. UNESCO. Technology in education: A tool on whose terms? Global Education Monitoring Report 2023. – Paris: UNESCO, 2023.

5. European Commission, Joint Research Centre. DigCompEdu framework: Digital Competence Framework for Educators. – European Commission, 2017.

6. UNESCO. What you need to know about UNESCO's new AI competency frameworks for students and teachers. – Paris: UNESCO, 2024.

THE ADVANTAGES AND CHALLENGES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION

Khamroev Oybek Ulugbekovich
Magistr
Oybekkhamroev9@gmail.com

Abstract. *Artificial intelligence (AI) has emerged as one of the most influential technologies transforming modern education. The integration of AI-based tools into educational environments creates new opportunities for improving teaching quality, personalizing learning experiences, and increasing access to educational resources. However, the rapid development of AI also introduces several challenges, including academic integrity issues, data privacy concerns, algorithmic bias, and unequal access to digital technologies. This study aims to examine the main advantages and challenges associated with the use of artificial intelligence in education. The findings indicate that AI can significantly support both teachers and students by enhancing learning efficiency, providing personalized feedback, and enabling data-driven educational decisions. Nevertheless, effective and ethical integration of AI requires appropriate policies, digital literacy, and institutional frameworks to ensure responsible use. The study concludes that artificial intelligence should be considered a supportive tool that complements human expertise rather than replacing educators. Promoting balanced and responsible AI adoption can contribute to the development of more innovative, inclusive, and sustainable education systems.*

Keywords: *artificial intelligence, education, digital transformation, personalized learning, educational technology, AI ethics, sustainable development*

Artificial intelligence has become one of the most transformative technologies of the twenty-first century, influencing various sectors, including healthcare, business, manufacturing, and education. Recent advances in AI technologies, particularly generative AI tools such as ChatGPT, Google Gemini, and Microsoft Copilot, have significantly changed the way students learn, teachers teach, and educational institutions deliver knowledge. These technologies offer new opportunities to improve learning outcomes, personalize instruction, and increase access to educational resources. Despite these benefits, the rapid adoption of AI in education has also raised important concerns. Issues such as academic integrity, data privacy, algorithmic bias,

excessive reliance on AI-generated content, and unequal access to digital technologies continue to challenge educators and policymakers. Without appropriate guidelines and ethical frameworks, the widespread use of AI may negatively affect students' critical thinking, creativity, and independent learning skills. As educational systems around the world continue to undergo digital transformation, understanding both the opportunities and challenges of AI has become increasingly important. Universities and schools are seeking effective strategies to integrate AI into teaching and learning while maintaining educational quality, fairness, and ethical standards. Therefore, this thesis aims to examine the major advantages and challenges of using artificial intelligence in education through a review of recent academic literature and international reports. The paper also provides recommendations for the responsible and effective implementation of AI technologies in educational environments.

This study employs a qualitative research design based on a literature review and document analysis. The research aims to examine the advantages and challenges of artificial intelligence in education by synthesizing findings from recent academic studies and international policy reports. Relevant literature was identified through academic databases, including Google Scholar, Scopus, and Web of Science, using keywords such as *artificial intelligence*, *AI in education*, *generative AI*, *personalized learning*, *academic integrity*, and *educational technology*. To ensure the relevance and reliability of the findings, priority was given to peer-reviewed journal articles and reports published by reputable international organizations between 2019 and 2025. The collected sources were analyzed using descriptive and comparative analysis. The descriptive analysis was used to summarize the key benefits and challenges associated with AI in education, while the comparative analysis helped identify similarities and differences in the perspectives of researchers and international organizations. The findings were then synthesized to develop recommendations for the responsible and effective integration of AI into educational systems.

Artificial intelligence has significantly transformed educational practices by providing innovative tools that improve teaching and learning processes. One of the most important advantages of AI is personalized learning. AI-powered systems can analyze students' learning styles, performance, and progress to provide customized learning materials and recommendations. This individualized approach helps students learn at their own pace and improves academic achievement.[1] AI also enhances teachers' productivity by automating repetitive administrative tasks such as grading assignments, monitoring attendance, and preparing assessments. This allows educators to devote more time to lesson planning, student engagement, and academic support.

Furthermore, intelligent tutoring systems and AI-powered virtual assistants provide students with immediate feedback and round-the-clock learning assistance, making education more accessible and efficient.[4] Another significant benefit is the ability of AI to support data-driven decision-making. Educational institutions can use learning analytics to identify students at risk of poor academic performance, evaluate teaching effectiveness, and improve curriculum design. AI also facilitates inclusive education by offering speech recognition, real-time translation, text-to-speech technologies, and adaptive learning tools for students with disabilities or diverse learning needs.[2]

Despite its numerous benefits, the widespread use of AI in education presents several challenges. One of the most frequently discussed concerns is academic integrity. The increasing availability of generative AI tools has made it easier for students to generate essays, assignments, and programming solutions without demonstrating their own knowledge or critical thinking skills. This has raised questions about plagiarism, authorship, and fair assessment practices.[3] Data privacy and security also remain major concerns. AI applications often require large volumes of personal and academic data to function effectively. Without proper governance and data protection measures, there is a risk of unauthorized access, misuse of sensitive information, and violations of students' privacy rights.[1] Another challenge is algorithmic bias and the digital divide. AI systems may produce biased or inaccurate outputs if they are trained on incomplete or unrepresentative datasets. In addition, unequal access to digital technologies and reliable internet services prevents many students and educational institutions from benefiting equally from AI innovations. These inequalities may widen existing educational gaps, particularly in developing countries.[2]

Excessive dependence on AI may also reduce students' creativity, analytical thinking, and problem-solving abilities if these technologies are used without appropriate supervision. Therefore, AI should complement rather than replace the role of teachers in the educational process[4]. To maximize the benefits of AI while minimizing its risks, educational institutions should develop clear policies and ethical guidelines for AI use. Students and teachers should receive training on AI literacy, including the responsible use of generative AI tools, verification of AI-generated information, and academic integrity principles. AI should be integrated into teaching as a supportive technology that enhances human learning rather than replacing human judgment and interaction.Governments and educational organizations should also invest in digital infrastructure, cybersecurity, and equal access to AI technologies.[5] International cooperation among policymakers, researchers, and educational

institutions can promote the development of common standards for ethical AI and ensure that AI contributes to sustainable and inclusive education.[1]

Artificial intelligence has become an important driver of innovation in education, offering new opportunities to improve teaching, learning, and educational management. AI technologies support personalized learning, automate routine administrative tasks, provide timely feedback, and enhance access to educational resources. These advantages have the potential to improve learning outcomes and increase the efficiency of educational institutions. At the same time, the rapid adoption of AI presents significant challenges, including concerns about academic integrity, data privacy, algorithmic bias, unequal access to digital technologies, and the potential overreliance on AI-generated content. Addressing these issues requires well-defined ethical guidelines, effective institutional policies, and continuous development of AI literacy among educators and students. The findings of this study suggest that artificial intelligence should be viewed as a tool that complements, rather than replaces, human expertise in education. Responsible implementation, supported by appropriate governance and continuous evaluation, can help educational institutions maximize the benefits of AI while minimizing its risks. As AI technologies continue to evolve, future research should focus on assessing their long-term impact on learning outcomes, educational equity, and teaching practices across different educational contexts.

References:

1. UNESCO. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693

2. OECD. (2021). *Digital education outlook 2021: Pushing the frontiers with artificial intelligence, blockchain and robots*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/589b283f-en

3. Kasneci, E., Sessler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., Fischer, F., Gasser, U., Groh, G., Günnemann, S., Hüllermeier, E., & Kasneci, G. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. *Learning and Individual Differences, 103*, 102274. https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274

4. Luckin, R., & Cukurova, M. (2019). Designing educational technologies in the age of AI: A learning sciences-driven approach. *British Journal of Educational Technology*, *50*(6), 2824–2838. https://doi.org/10.1111/bjet.12861

5. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning*. Boston: The Center for Curriculum Redesign.

THE ADVANTAGES AND CHALLENGES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION

Khamroev Oybek Ulugbekovich
Magistr
Oybekkhamroev9@gmail.com

Abstract. *Artificial intelligence (AI) has emerged as one of the most influential technologies transforming modern education. The integration of AI-based tools into educational environments creates new opportunities for improving teaching quality, personalizing learning experiences, and increasing access to educational resources. However, the rapid development of AI also introduces several challenges, including academic integrity issues, data privacy concerns, algorithmic bias, and unequal access to digital technologies. This study aims to examine the main advantages and challenges associated with the use of artificial intelligence in education. The findings indicate that AI can significantly support both teachers and students by enhancing learning efficiency, providing personalized feedback, and enabling data-driven educational decisions. Nevertheless, effective and ethical integration of AI requires appropriate policies, digital literacy, and institutional frameworks to ensure responsible use. The study concludes that artificial intelligence should be considered a supportive tool that complements human expertise rather than replacing educators. Promoting balanced and responsible AI adoption can contribute to the development of more innovative, inclusive, and sustainable education systems.*

Keywords: *artificial intelligence, education, digital transformation, personalized learning, educational technology, AI ethics, sustainable development*

Artificial intelligence has become one of the most transformative technologies of the twenty-first century, influencing various sectors, including healthcare, business, manufacturing, and education. Recent advances in AI technologies, particularly generative AI tools such as ChatGPT, Google Gemini, and Microsoft Copilot, have significantly changed the way students learn, teachers teach, and educational institutions deliver knowledge. These technologies offer new opportunities to improve learning outcomes, personalize instruction, and increase access to educational

resources. Despite these benefits, the rapid adoption of AI in education has also raised important concerns. Issues such as academic integrity, data privacy, algorithmic bias, excessive reliance on AI-generated content, and unequal access to digital technologies continue to challenge educators and policymakers. Without appropriate guidelines and ethical frameworks, the widespread use of AI may negatively affect students' critical thinking, creativity, and independent learning skills. As educational systems around the world continue to undergo digital transformation, understanding both the opportunities and challenges of AI has become increasingly important. Universities and schools are seeking effective strategies to integrate AI into teaching and learning while maintaining educational quality, fairness, and ethical standards. Therefore, this thesis aims to examine the major advantages and challenges of using artificial intelligence in education through a review of recent academic literature and international reports. The paper also provides recommendations for the responsible and effective implementation of AI technologies in educational environments.

This study employs a qualitative research design based on a literature review and document analysis. The research aims to examine the advantages and challenges of artificial intelligence in education by synthesizing findings from recent academic studies and international policy reports. Relevant literature was identified through academic databases, including Google Scholar, Scopus, and Web of Science, using keywords such as *artificial intelligence*, *AI in education*, *generative AI*, *personalized learning*, *academic integrity*, and *educational technology*. To ensure the relevance and reliability of the findings, priority was given to peer-reviewed journal articles and reports published by reputable international organizations between 2019 and 2025. The collected sources were analyzed using descriptive and comparative analysis. The descriptive analysis was used to summarize the key benefits and challenges associated with AI in education, while the comparative analysis helped identify similarities and differences in the perspectives of researchers and international organizations. The findings were then synthesized to develop recommendations for the responsible and effective integration of AI into educational systems.

Artificial intelligence has significantly transformed educational practices by providing innovative tools that improve teaching and learning processes. One of the most important advantages of AI is personalized learning. AI-powered systems can analyze students' learning styles, performance, and progress to provide customized learning materials and recommendations. This individualized approach helps students learn at their own pace and improves academic achievement.[1] AI also enhances teachers' productivity by automating repetitive administrative tasks such as grading

assignments, monitoring attendance, and preparing assessments. This allows educators to devote more time to lesson planning, student engagement, and academic support. Furthermore, intelligent tutoring systems and AI-powered virtual assistants provide students with immediate feedback and round-the-clock learning assistance, making education more accessible and efficient.[4] Another significant benefit is the ability of AI to support data-driven decision-making. Educational institutions can use learning analytics to identify students at risk of poor academic performance, evaluate teaching effectiveness, and improve curriculum design. AI also facilitates inclusive education by offering speech recognition, real-time translation, text-to-speech technologies, and adaptive learning tools for students with disabilities or diverse learning needs.[2]

Despite its numerous benefits, the widespread use of AI in education presents several challenges. One of the most frequently discussed concerns is academic integrity. The increasing availability of generative AI tools has made it easier for students to generate essays, assignments, and programming solutions without demonstrating their own knowledge or critical thinking skills. This has raised questions about plagiarism, authorship, and fair assessment practices.[3] Data privacy and security also remain major concerns. AI applications often require large volumes of personal and academic data to function effectively. Without proper governance and data protection measures, there is a risk of unauthorized access, misuse of sensitive information, and violations of students' privacy rights.[1] Another challenge is algorithmic bias and the digital divide. AI systems may produce biased or inaccurate outputs if they are trained on incomplete or unrepresentative datasets. In addition, unequal access to digital technologies and reliable internet services prevents many students and educational institutions from benefiting equally from AI innovations. These inequalities may widen existing educational gaps, particularly in developing countries.[2]

Excessive dependence on AI may also reduce students' creativity, analytical thinking, and problem-solving abilities if these technologies are used without appropriate supervision. Therefore, AI should complement rather than replace the role of teachers in the educational process[4]. To maximize the benefits of AI while minimizing its risks, educational institutions should develop clear policies and ethical guidelines for AI use. Students and teachers should receive training on AI literacy, including the responsible use of generative AI tools, verification of AI-generated information, and academic integrity principles. AI should be integrated into teaching as a supportive technology that enhances human learning rather than replacing human judgment and interaction.Governments and educational organizations should also

invest in digital infrastructure, cybersecurity, and equal access to AI technologies.[5] International cooperation among policymakers, researchers, and educational institutions can promote the development of common standards for ethical AI and ensure that AI contributes to sustainable and inclusive education.[1]

Artificial intelligence has become an important driver of innovation in education, offering new opportunities to improve teaching, learning, and educational management. AI technologies support personalized learning, automate routine administrative tasks, provide timely feedback, and enhance access to educational resources. These advantages have the potential to improve learning outcomes and increase the efficiency of educational institutions. At the same time, the rapid adoption of AI presents significant challenges, including concerns about academic integrity, data privacy, algorithmic bias, unequal access to digital technologies, and the potential overreliance on AI-generated content. Addressing these issues requires well-defined ethical guidelines, effective institutional policies, and continuous development of AI literacy among educators and students. The findings of this study suggest that artificial intelligence should be viewed as a tool that complements, rather than replaces, human expertise in education. Responsible implementation, supported by appropriate governance and continuous evaluation, can help educational institutions maximize the benefits of AI while minimizing its risks. As AI technologies continue to evolve, future research should focus on assessing their long-term impact on learning outcomes, educational equity, and teaching practices across different educational contexts.

References:

6. UNESCO. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693

7. OECD. (2021). *Digital education outlook 2021: Pushing the frontiers with artificial intelligence, blockchain and robots*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/589b283f-en

8. Kasneci, E., Sessler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., Fischer, F., Gasser, U., Groh, G., Günnemann, S., Hüllermeier, E., & Kasneci, G. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. *Learning and Individual Differences, 103*, 102274. https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274

9. Luckin, R., & Cukurova, M. (2019). Designing educational technologies in the age of AI: A learning sciences-driven approach. *British Journal of Educational Technology, 50*(6), 2824–2838. https://doi.org/10.1111/bjet.12861

10. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning*. Boston: The Center for Curriculum Redesign.

TALABALARGA MEHNAT GIGIYENASI FANINI REFLEX-PREVENTIVE MODELING TECHNOLOGY TA'LIM TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Muydinova Yoqutxon Giyazidinovna
Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti,
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi
e-mail: yoqutxon254@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarga mehnat gigiyenasi fanini o'qitishda qo'llanilayotgan Reflex-Preventive Modeling Technology (RPMT) ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. RPMT uch tarkibiy qismga — reflektor (ko'nikmani avtomatlashtirish), preventiv (profilaktik fikrlashni shakllantirish) va modellashtirish (vaziyatli hamda simulyatsion mashqlar) — asoslanadi. Maqolada texnologiyaning nazariy asoslari, sanoat mikroiqlimi, chang va elektromagnit maydonlarni o'lchash mavzularidagi amaliy qo'llanilishi, shuningdek an'anaviy ma'ruza usulidan farqli tomonlari ko'rib chiqiladi. Xulosada RPMT talabalarda nazariy bilim bilan birga barqaror amaliy-profilaktik ko'nikmalarni shakllantiruvchi integrativ yondashuv sifatida asoslab beriladi.*

Abstract: *This article examines the distinctive features of Reflex-Preventive Modeling Technology (RPMT), an educational technology applied to teaching occupational hygiene to medical students. RPMT integrates three components: reflex (automating practical skills through structured repetition), preventive (cultivating preventive-medicine reasoning), and modeling (situational and simulation-based exercises). The article discusses the technology's theoretical foundations, its practical application to teaching industrial microclimate, dust, and electromagnetic field measurement, and how it differs from traditional lecture-based instruction. It concludes that RPMT offers an integrative approach that builds durable practical prevention skills alongside theoretical knowledge.*

Kalit so'zlar: *mehnat gigiyenasi; Reflex-Preventive Modeling Technology; ta'lim texnologiyasi; simulyatsion o'qitish; profilaktik ko'nikma; kompetensiyaga asoslangan ta'lim.*

Keywords: *occupational hygiene; Reflex-Preventive Modeling Technology; educational technology; simulation-based learning; preventive competence; competency-based education.*

Kirish

Zamonaviy tibbiyot ta’limida talabalarni nazariy bilim bilan bir qatorda kasbiy faoliyatda darhol qo‘llay oladigan amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Mehnat gigiyenasi fani bu borada alohida o‘rin tutadi: u ishlab chiqarish muhiti omillarini (sanoat mikroiqlimi, chang, elektromagnit maydonlar) o‘lchash, natijalarni SanPiN me’yorlari bilan solishtirish va shu asosda profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish kabi amaliy-metodik ko‘nikmalarni talab qiladi. An’anaviy ma’ruza-seminar shakli nazariy tushunchalarni yetkazishda samarali bo‘lsa-da, bunday ko‘nikmalarning barqaror, avtomatlashgan darajada shakllanishini ta’minlashda yetarli emas.

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida ta’lim amaliyotiga Reflex-Preventive Modeling Technology (RPMT) — reflektor, preventiv va modellashtirish tamoyillarini birlashtiruvchi kompleks ta’lim texnologiyasi joriy etilmoqda. Texnologiya talabaning bilim olish jarayonini passiv tinglovchidan faol ijrochiga aylantirishga, amaliy harakatlarni takroriy mashq orqali avtomatlashtirishga va har bir mavzuni boshidanoq profilaktik nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga qaratilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi — RPMT texnologiyasining nazariy asoslarini yoritish, uning talabalarga mehnat gigiyenasi fanini o‘qitishdagi amaliy qo‘llanilishini tavsiflash va, eng muhimi, ushbu texnologiya yordamida o‘qitishning an’anaviy usullardan farq qiluvchi o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism

1. RPMT texnologiyasining nazariy asoslari va tarkibiy qismlari

RPMT nomidan ko‘rinib turganidek, uch o‘zaro bog‘liq komponentga tayanadi. Reflektor komponent I.P. Pavlovning shartli reflekslar haqidagi klassik ta’limotiga asoslanadi (Pavlov, 1927): har qanday murakkab amaliy harakat, jumladan o‘lchov asbobi bilan ishlash yoki protokol to‘ldirish ko‘nikmasi, ko‘p martalik va izchil takrorlash orqali avtomatlashgan, ongsiz darajaga o‘tkaziladi. Bu — talaba real ishlab chiqarish sharoitida vaqt taqchilligi yoki stress ostida ham xatosiz harakat qila olishini ta’minlovchi asosiy mexanizm.

Preventiv komponent kompetensiyaga asoslangan tibbiy ta’lim, xususan profilaktik tibbiyot kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan dasturlarga mos keladi (Pololi va boshq., 1994). Talaba nafaqat “qanday o‘lchash kerak”, balki “natija

asosida qanday profilaktik chora ko‘rish kerak” degan savolga ham javob topishga o‘rgatiladi — har bir topshiriq profilaktik xulosa bilan yakunlanadi.

Modellashtirish komponenti tajribaga asoslangan ta’lim nazariyasi (Kolb, 1984) va simulyatsion o‘qitish tamoyillariga tayanadi. Talaba real vaziyatni modellashtiruvchi topshiriqlar — vaziyatli masalalar, protokol namunalari, simulyatsiya qilingan o‘lchov stsenariylari — ustida ishlaydi, bu xavfsiz muhitda xato qilish va undan xulosa chiqarish imkonini beradi.

2. Mehnat gigiyenasi fanini o‘qitishda RPMT ning amaliy qo‘llanilishi

Mehnat gigiyenasining sanoat mikroiqlimi, chang va elektromagnit maydonlar kabi mavzularini o‘qitishda RPMT izchil bosqichlarda quriladi: avval mavzuning nazariy-me’yoriy asosi (fizik-gigiyenik ko‘rsatkichlar, ularning ta’siri, SanPiN me’yorlari) bayon etiladi; so‘ng talaba o‘lchov asboblari bilan tanishtiriladi; keyin vaziyatli masala — masalan, sexdagi haroratning me’yordan chetlanishi yoki changning ruxsat etilgan konsentratsiyasidan oshishi — taqdim etiladi va talaba o‘lchov protokolini to‘ldirib, natijani me’yoriy hujjat bilan solishtiradi hamda profilaktik tavsiyalar tuzadi. Yakunda ish oldindan ishlab chiqilgan mezonlar (reyting jadvali) asosida baholanadi.

Bu tasodifiy emas: sanoat gigiyenasi mutaxassislarining faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ish beruvchilar bitiruvchilardan nazariy bilim bilan bir qatorda zararli omillarni o‘lchash va real vaziyatda qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi (Moore va boshq., 2024). RPMT aynan shu ikki jihatni bitta mashq doirasida birlashtiradi.

3. RPMT yordamida o‘qitishning an’anaviy usuldan farqli, o‘ziga xos jihatlari

RPMT texnologiyasini an’anaviy ma’ruza-amaliyot tizimidan ajratib turuvchi bir qancha muhim xususiyat mavjud. Birinchidan, talabaning roli o‘zgaradi: u passiv tinglovchidan o‘lchov-tahlil-xulosa zanjirini mustaqil bajaruvchi faol ijrochiga aylanadi. Ikkinchidan, ko‘nikma bir martalik namoyish emas, ko‘p bosqichli nazorat qilinadigan takrorlash orqali shakllantiriladi — bu, simulyatsion o‘qitish samaradorligini o‘rgangan tadqiqotlarda ko‘rsatilganidek, an’anaviy ma’ruzaga nisbatan ko‘nikmalarni chuqurroq singdirishga xizmat qiladi (Mangla va boshq., 2024). Uchinchidan, profilaktik fikrlash alohida mavzu emas, balki har topshiriqning ajralmas qismi sifatida singdiriladi.

To‘rtinchidan, RPMT xatodan xavfsiz sharoitda o‘rganish imkonini beradi: real ishlab chiqarishda jiddiy oqibatga olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘lchov yoki hujjatlashtirish xatosi, simulyatsiya doirasida o‘quv vositasiga aylanadi (Richter va

boshq., 2019). Beshinchidan, baholash yakuniy imtihon bilan emas, balki har bosqichdagi protokol sifati bo‘yicha mezonli reyting orqali amalga oshiriladi. Va nihoyat, RPMT o‘lchov texnikasi, me’yoriy hujjatlar va klinik-profilaktik fikrlashni yagona jarayonga birlashtirib, talabani real kasbiy vaziyatga ancha yaqinlashtiradi.

Xulosa

Reflex-Preventive Modeling Technology talabalarga mehnat gigiyenasi fanini o‘qitishda reflektor, preventiv va modellashtirish tamoyillarini yagona metodik tizimga birlashtiruvchi integrativ yondashuvdir. Talabaning faol ijrochiga aylanishi, ko‘nikmalarning takroriy mashq orqali avtomatlashuvi, profilaktik fikrlashning har topshiriqqa singdirilishi va xavfsiz muhitda xatodan o‘rganish imkoniyati uni an’anaviy ma’ruza-amaliyotdan sifat jihatidan ajratib turadi. Kelgusida RPMT samaradorligini miqdoriy tekshiruvchi pilot tadqiqotlar texnologiyani keng amaliyotga tatbiq etishning muhim qadami bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richter, A., Chaberny, I. F., Surikow, A., & Schock, B. (2019). Hygiene in medical education – Increasing patient safety through the implementation of practical training in infection prevention. *GMS Journal for Medical Education*, *36*(2), Doc15. https://doi.org/10.3205/zma001223

2. Muydinova Y.G. Specific features of teaching occupational hygiene to students using reflex-preventive modeling technology // Western European Studies. 2026. Vol. 4, No. 5. P. 7–11. URL: https://westerneuropeanstudies.com/index.php/2/

3. Muydinova Y.G. Methodology for developing medical students’ metapreventive competence using RPMT technology (based on the teaching of occupational hygiene) // Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. 2025. Vol. 12, No. 12. pISSN: 2349-5707; eISSN: 2349-5715. URL: https://wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/8942

4. Muydinova Y.G. Tibbiy ta’limda “Mehnat gigiyenasi” fanini o‘qitishning pedagogik asoslari // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar ilmiy-metodik jurnali. 2026. No. 3. B. 606–610. URL: https://publishscience.uz/index.php/sirsh/article/view/786

5. Muydinova Y.G. Talabalar metapreventiv kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari va ularning mehnat gigiyenasi fanini o‘qitishdagi o‘rni // Obshchestvo i innovatsii – Society and Innovations. 2026. Special Issue 04. B. 392–397. ISSN 2181-1415. URL: https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/9167

6. Ashurova M.D., Mo'ydinova Y., Atadjanova D., Muhammadova G., Ismoilov D. Pedagogical efficiency of integrated learning in the organization of hygiene classes in medical universities // BIO Web of Conferences. 2023. Vol. 65. Art. 10016. DOI: https://doi.org/10.1051/bioconf/20236510016

7. Muydinova Y.G. Pedagogical and psychological aspects of teaching occupational hygiene to preventive medicine students // Eureka Journal of Health Sciences & Medical Innovation (EJHSMI). 2026. Vol. 2, No. 5. P. 360–367. ISSN 2760-4942 (Online). URL: https://eurekaoa.com/index.php/5

8. Baydjanov B.X. Methodology of pedagogical science and its axiological possibilities // American Journal of Social and Humanitarian Research. 2025. Vol. 3, No. 10. P. 170. DOI: https://doi.org/10.31150/ajshr.v3i10.1622

9. Markwell K.E., Ross L.J., Mitchell L.J., Williams L.T. A self-determination theory analysis of reflective debrief themes about dietetic student placement experiences in hospital: implications for education // Journal of Human Nutrition and Dietetics. 2021. Vol. 34, No. 1. P. 115–123. DOI: https://doi.org/10.1111/jhn.12808

10. Rahmatshoyev, M. The importance of vitamins and minerals for athletes. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*.

11. Rahmatshoyev, M. Hygienic and age-related factors in the development of arterial hypertension among the elderly.

12. Rahmatshoyev, M. N. u.(2026). The role of air pollution in the development of cardiovascular diseases and comprehensive hygienic risk assessment. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *13*(5), 68-73.

13.

TARBIYA VA KOMPETENSIYALAR

Sharopova Gulnigor Badriddinovna
sharopovagulnigor@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarbiya jarayoni va kompetensiyaviy yondashuv o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda tarbiya tushunchasining zamonaviy talqini, kompetensiyalarning tarkibiy turlari hamda ularni shakllantirishda tarbiyaviy omilning o'rni yoritilgan. Maqola IMRAD (Kirish – Metodlar – Natijalar – Muhokama – Xulosa) tuzilishi asosida yozilgan bo'lib, so'rovnoma va kuzatish natijalari jadval va sxemalar orqali aniq tasvirlangan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida tarbiya va kompetensiyalarni uzviy tashkil etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so'zlar: tarbiya, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifati, shaxs rivojlanishi, qadriyatlar, pedagogik jarayon, malaka.

Аннотация. *В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируется тесная взаимосвязь между процессом воспитания и компетентностным подходом. В исследовании освещены современная трактовка понятия воспитания, структурные виды компетенций, а также роль воспитательного фактора в их формировании. Статья написана на основе структуры IMRAD (Введение – Методы – Результаты – Обсуждение – Заключение), результаты анкетирования и наблюдения наглядно представлены с помощью таблиц и схем. Результаты исследования завершаются практическими рекомендациями по обеспечению единства воспитания и компетенций в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *воспитание, компетенция, компетентностный подход, качество образования, развитие личности, ценности, педагогический процесс, квалификация.*

Annotation. *This article analyzes, from a scientific-pedagogical perspective, the close connection between the process of upbringing and the competency-based approach. The study addresses the modern interpretation of the concept of upbringing, the structural types of competencies, and the role of the educational (upbringing) factor in their formation. Written according to the IMRAD structure (Introduction – Methods – Results – Discussion – Conclusion), the results of the survey and observation are*

clearly presented through tables and diagrams. The findings conclude with practical recommendations aimed at ensuring the unity of upbringing and competencies within the educational process.

Keywords: *upbringing, competence, competency-based approach, quality of education, personal development, values, pedagogical process, qualification.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o'quvchilarda faqat bilim emas, balki ularni hayotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishni taqozo etadi. Biroq kompetensiya faqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi emas, balki shaxsning qadriyatlar tizimi, munosabati va xulq-atvoriga chambarchas bog'liq murakkab hodisadir. Aynan shu nuqtada tarbiya jarayoni kompetensiyalarni shakllantirishning zaruriy asosi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishga qaratilgan davlat siyosati, jumladan, Maktab ta'limi sifatini oshirish davlat dasturi va tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirishga doir me'yoriy hujjatlar tarbiya va kompetensiyalarni uzviy bog'liq holda tashkil etishni dolzarb vazifa sifatida belgilamoqda. Amaliyotda esa ko'pincha tarbiyaviy ishlar va kompetensiyaviy ta'lim bir-biridan ajratilgan holda, alohida yo'nalishlar sifatida olib borilishi kuzatiladi, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya – shaxsning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va irodaviy sifatlarini shakllantiruvchi maqsadli pedagogik jarayon bo'lib, u kompetensiyalarning "ichki mazmuni"ni, ya'ni ularning qanday niyat va munosabat asosida namoyon bo'lishini belgilaydi. Masalan, kommunikativ kompetensiyaga ega, ammo axloqiy tarbiya ko'rmagan shaxs bu kompetensiyadan g'ayriaxloqiy maqsadlarda foydalanishi mumkin. Shu bois tarbiya va kompetensiyalarni bir-biridan ajratib bo'lmaydigan yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish zarur.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – tarbiya jarayoni bilan kompetensiyalarni shakllantirish o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslash, ularning uyg'un tashkil etilishi bo'yicha amaliy holatni tahlil qilish hamda samaradorlikni oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: tarbiya va kompetensiya tushunchalarining o'zaro nisbatini ochib berish; kompetensiyalarning asosiy turlarini tarbiyaviy asos nuqtai nazaridan tasniflash; o'qituvchilar o'rtasida so'rov o'tkazish orqali amaliy holatni aniqlash; olingan natijalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning dolzarbligi yana shundaki, tezkor ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida yosh avlodning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy va fuqarolik kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi. Bunday kompetensiyalarni faqat bilim berish yo'li bilan shakllantirib

bo'lmaydi – ular tarbiyaviy muhit, shaxsiy namuna va izchil pedagogik ta'sir orqali rivojlanadi. Shu sababli tadqiqot natijalari nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot 2025–2026 o'quv yilida umumta'lim maktablarida olib borildi. Tadqiqotda jami 96 nafar boshlang'ich va o'rta bo'g'in o'qituvchisi hamda 3 nafar maktab metodisti ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: o'qituvchilar o'rtasida standartlashtirilgan so'rovnoma o'tkazish; dars ishlanmalari va tarbiyaviy soat rejalarini kontent-tahlil qilish; ochiq darslarni kuzatish; olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash.

Kompetensiyalarning tarkibiy turlari va ularning tarbiyaviy asoslari 1-jadvalda tasniflangan:

Kompetensiya turi	Mazmuni va tarbiyaviy asosi
Shaxsiy rivojlanish kompetensiyasi	O'z-o'zini anglash, hissiy barqarorlik, iroda va mas'uliyat kabi sifatlarni o'z ichiga oladi; oilaviy va maktab tarbiyasi asosida shakllanadi
Ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyasi	Jamiyat qoidalariga rioya qilish, hamkorlikda ishlash, boshqalar fikriga hurmat kabi tarbiyaviy qadriyatlarga tayanadi
Kommunikativ kompetensiya	Nutq madaniyati, muloqot odobi va boshqalarni tinglay olish ko'nikmasini birlashtiradi, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq
Axborot bilan ishlash kompetensiyasi	Ma'lumotni tanqidiy qabul qilish va undan mas'uliyat bilan foydalanish tarbiyasini talab qiladi
Milliy-ma'naviy kompetensiya	Vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga sodiqlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya asosida shakllanadi

1-jadval. Kompetensiya turlari va ularning tarbiyaviy asosi

So'rovnoma o'qituvchilarning tarbiyaviy ish va kompetensiyaviy ta'limni amaliyotda qanchalik uzviy tashkil etayotganini aniqlashga qaratildi. Savollar to'rtta asosiy yo'nalish – rejalashtirish, baholash, tarbiyaviy soat mazmuni va o'qituvchining nazariy qarashi bo'yicha tuzildi.

NATIJALAR

Tarbiya va kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi sxemada aks ettirilgan bo'lib, unda tarbiya barcha kompetensiya turlarining umumiy asosi sifatida namoyon bo'ladi (1-sxema):



1-sxema. Tarbiya va kompetensiya turlari o'rtasidagi bog'liqlik

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari o'qituvchilarning katta qismi tarbiya va kompetensiyalarni nazariy jihatdan bog'liq deb bilsa-da, amaliyotda bu bog'liqlikni izchil tashkil etish borasida qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rsatdi (2-jadval):

So'rov savoli	Ha (%)	Qisman (%)	Yo'q (%)
Darslarda tarbiyaviy va kompetensiyaviy vazifalar birgalikda rejalashtiriladimi?	38,4	41,2	20,4
O'quvchilarda mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalari baholanadimi?	29,6	46,1	24,3
Tarbiyaviy soat mazmuni kompetensiyalar bilan bog'lab tashkil etiladimi?	33,7	39,8	26,5
O'qituvchi tarbiyaviy ta'sir va kompetensiya shakllantirishni yaxlit jarayon deb biladimi?	52,9	31,3	15,8

2-jadval. O'qituvchilar so'rovnomasi natijalari

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'rov ishtirokchilarining 52,9 foizi tarbiyaviy ta'sir va kompetensiya shakllantirishni yaxlit jarayon deb hisoblaydi, biroq faqat 33,7 foizi tarbiyaviy soat mazmunini kompetensiyalar bilan izchil bog'lab tashkil etayotganini tasdiqladi. Bu esa nazariy tushunish bilan amaliy tashkil etish o'rtasida ma'lum bir tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Tarbiya asosida kompetensiyani shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich quyidagi tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq (2-sxema):





2-sxema. Tarbiya asosida kompetensiyani shakllantirish bosqichlari

Kuzatilgan ochiq darslar tahlili shuni ko'rsatdiki, tarbiyaviy va kompetensiyaviy vazifalarni ongli ravishda birlashtirgan o'qituvchilarning darslarida o'quvchilar faolligi, hamkorlikda ishlash va mas'uliyat bilan ishtirok etish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

MUHOKAMA

Olingan natijalar tarbiya va kompetensiyalarni ajratilgan holda emas, balki yaxlit pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Kompetensiyalarni faqat bilim va amaliy ko'nikma sifatida talqin etish, uning qadriyat-munosabat asosini e'tibordan chetda qoldirish – ta'lim natijalarining barqarorligiga putur yetkazadi. Aksincha, tarbiyaviy asosga ega bo'lgan kompetensiya o'quvchi shaxsining barqaror sifatiga aylanadi va turli hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'laveradi.

So'rovnoma natijalarida aniqlangan nazariy tushunish bilan amaliy tashkil etish o'rtasidagi tafovut, asosan, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va tarbiyaviy ishlarni kompetensiyaviy natijalar bilan bog'lab rejalashtirish tajribasining yetishmasligi bilan izohlanadi. Shu sababli o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimida tarbiya va kompetensiyaviy yondashuvni integratsiyalashgan holda o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida namunaning nisbatan cheklangan hajmi va faqat o'qituvchilar nuqtai nazaridan o'rganilganligini keltirish mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda o'quvchilar va ota-onalarning fikrini ham qamrab olish, shuningdek turli ta'lim bosqichlarini qiyosiy tahlil qilish tavsiya etiladi. Amaliy jihatdan, natijalar shuni ko'rsatadiki, tarbiyaviy soatlar va fan darslarini rejalashtirishda aniq kompetensiya natijalarini belgilash, o'quvchilar faoliyatini nafaqat bilim, balki munosabat va xulq-atvor nuqtai nazaridan ham baholash, shuningdek maktab va oila hamkorligini kuchaytirish zarur. Bunday yondashuv tarbiya va kompetensiyalarning bir-birini to'ldiruvchi yaxlit tizim sifatida ishlashini ta'minlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tarbiya kompetensiyalarning shakllanishida ularning "ichki mazmuni"ni, ya'ni qadriyat va munosabat asosini belgilovchi zaruriy omil hisoblanadi.

2. Kompetensiyaning barcha turlari (shaxsiy, ijtimoiy-fuqarolik, kommunikativ, axborot bilan ishlash, milliy-ma'naviy) tarbiyaviy asosga ega bo'lganda barqaror va samarali natija beradi.

3. Amaliyotda tarbiyaviy ishlar va kompetensiyaviy ta'lim ko'pincha alohida yo'nalishlar sifatida olib borilmoqda, bu esa ularning o'zaro ta'sirini susaytiradi.

4. O'qituvchilarning malakasini oshirish tizimida tarbiya va kompetensiyaviy yondashuvni integratsiyalashgan holda o'qitish, tarbiyaviy soat va dars rejalarida aniq kompetensiya natijalarini belgilash tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya va kompetensiyalarning uzviy bog'liqligini ta'minlash zamonaviy ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib, u yosh avlodda nafaqat bilim va ko'nikma, balki barqaror qadriyatlar tizimini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasida Maktab ta'limi sifatini oshirish davlat dasturi. – Toshkent, 2024.

2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik tarbiya nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.

3. Sharipov Sh.S. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish. – Toshkent: Fan, 2021.

4. Karimova V.M. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2020.

5. Mavlonova R., Voxidova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

6. Tojiyev N. Zamonaviy maktabda tarbiyaviy ish metodikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2023.

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY STRESSNING OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK PROFILAKTIKA VA PSIXOLOGIK XIZMATNING O‘RNI

Rakhimov Umidjon Muratovich
Associate Professor at Bukhara State Pedagogical Institute
Orcid: 0009-0001-1709-6649
E-mail:uraximov724@gmail.com

Annotatsiya. *Harbiy xizmat yuqori darajadagi mas’uliyat, qat’iy intizom, jismoniy va psixologik yuklama, noaniqlik, vaqt bosimi hamda ayrim hollarda hayot uchun xavfli vaziyatlar bilan tavsiflanadi. Mazkur omillar harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning shakllanishiga sabab bo‘lishi va uzoq davom etgan holatlarda ularning psixologik farovonligi, xizmat samaradorligi hamda ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli harbiy jamoalarda psixologik profilaktika va tizimli psixologik xizmatni tashkil etish zamonaviy harbiy boshqaruvning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning yuzaga kelish mexanizmlari, unga ta’sir qiluvchi individual, guruhiy va tashkiliy omillar hamda stressning oldini olishda psixologik profilaktikaning imkoniyatlari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik xizmatning stressni erta aniqlash, psixologik maslahat, stressga chidamlilikni rivojlantirish, psixologik ma’rifat va rahbarlar bilan hamkorlikdagi faoliyatdagi o‘rni ochib beriladi. Xalqaro tadqiqotlar tahlili psixologik yordamni faqat stress yoki ruhiy muammo yuzaga kelgandan keyingi davolash chorasi sifatida emas, balki oldindan amalga oshiriladigan profilaktik tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlashga qaratilgan integratsiyalashgan profilaktik model taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchilar, kasbiy stress, psixologik profilaktika, psixologik xizmat, psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, ruhiy salomatlik, psixologik yordam, harbiy psixologiya.*

Kirish. Zamonaviy harbiy xizmat shaxsdan nafaqat yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va kasbiy kompetensiyani, balki murakkab va tez o‘zgaruvchi vaziyatlarda psixologik barqarorlikni ham talab etadi. Harbiy xizmatchilar xizmat faoliyati

davomida yuqori mas’uliyat, qat’iy intizom, vaqt cheklovi, uzoq muddatli xizmat yuklamasi, uyqu rejimining buzilishi, jamoaviy munosabatlar, xizmat vazifalarining noaniqligi va ayrim hollarda travmatik hodisalarga duch kelishi mumkin. Bunday sharoitlar kasbiy stressning shakllanishi uchun muhim psixologik va tashkiliy omillar hisoblanadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti mehnat muhitidagi psixososial xavflar ruhiy salomatlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Tashkilotning ma’lumotlariga ko‘ra, ortiqcha ish yuklamasi, ish ustidan nazoratning pastligi, uzoq ish vaqti, yetarli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjud emasligi va boshqa psixososial omillar stress hamda ruhiy salomatlik muammolari xavfini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, stressning oldini olishda faqat individual psixologik yordam emas, balki ish sharoitlari va tashkiliy muhitni yaxshilashga qaratilgan choralar ham muhim hisoblanadi.

Harbiy muhitda mazkur masala yanada murakkab tus oladi. Chunki harbiy xizmatchining psixologik holati faqat uning individual farovonligiga emas, balki jamoaviy hamkorlik, qaror qabul qilish, intizom va xizmat vazifalarini bajarish sifatiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli harbiy xizmatchilarning psixologik holatini muntazam baholash va stressning dastlabki belgilarini aniqlash profilaktik psixologik xizmatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

So‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar samaradorligini ham ko‘rsatmoqda. Masalan, Turliuc va Balcan tomonidan 2024-yilda o‘tkazilgan randomizatsiyalangan nazorat tadqiqotida 98 nafar harbiy jandarm ishtirok etgan. Besh oy davom etgan psixologik trening dasturi natijasida stress darajasi pasaygani, rezilyentlik va adaptiv resurslar oshgani aniqlangan. Tadqiqotda stress bo‘yicha o‘rtacha samaradorlik effekti (Cohen’s d = 0,49), rezilyentlik bo‘yicha esa d = 0,53 qayd etilgan; natijalar uch oylik kuzatuv davrida ham saqlangan.

Bu natija muhim nazariy xulosaga olib keladi: harbiy xizmatchilarda stressni kamaytirish faqat stress yuzaga kelgandan keyin psixologik yordam ko‘rsatish bilan cheklanmasligi, balki oldindan psixologik resurslarni shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning psixologik xizmatlardan foydalanishida psixologik stigma muhim to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlar harbiy xizmatchilar ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelganda yordam so‘rashdan, jumladan, kasbiy obro‘ga putur yetishi, xizmat faoliyatiga salbiy ta’sir qilishi yoki rahbariyat tomonidan salbiy baholanishidan xavotirlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan psixologik xizmatning vazifasini faqat individual konsultatsiya bilan chegaralash yetarli emas. Zamonaviy psixologik xizmat diagnostika, profilaktika, psixologik ma'rifat, individual va guruhiy maslahat, stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, rahbarlar bilan hamkorlik va zarur hollarda boshqa mutaxassislarga yo'naltirish kabi o'zaro bog'liq yo'nalishlarni qamrab olishi kerak.

Tadqiqot muammosi. Mavjud ilmiy adabiyotlar harbiy xizmatchilarning stressi va ruhiy salomatligi bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa-da, kasbiy stressni individual, guruhiy va tashkiliy darajada birgalikda profilaktika qilish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, psixologik profilaktika bilan psixologik xizmatning uzviy integratsiyasi stressning oldini olishning samarali mexanizmi sifatida yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Maqolaning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilarda kasbiy stressni shakllantiruvchi omillarni ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish hamda stressning oldini olishda psixologik profilaktika va psixologik xizmatning o'rni va samarali mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning asosiy nazariy xususiyatlarini aniqlash;
- stressni yuzaga keltiruvchi individual, guruhiy va tashkiliy omillarni tizimlashtirish;
- psixologik profilaktikaning asosiy shakllarini tahlil qilish;
- harbiy psixologik xizmatning stress profilaktikasidagi funksiyalarini aniqlash;
- xalqaro tadqiqotlarda qo'llanilgan psixologik intervensiyalarni tahlil qilish;
- harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning oldini olishga qaratilgan integratsiyalashgan modelni taklif qilish.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-analitik adabiyotlar tahlili asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda harbiy xizmatchilarda kasbiy stress, psixologik profilaktika, rezilyentlik, psixologik yordam va ruhiy salomatlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy tadqiqotlar hamda xalqaro tashkilotlarning metodik materiallari tahlil qilindi.

Tahlilda kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism: Kasbiy stress — shaxsning mehnat faoliyati bilan bog'liq talablar, resurslar va mavjud psixologik imkoniyatlar o'rtasidagi nomutanosiblikka javoban yuzaga keladigan psixofiziologik holat sifatida izohlanadi. Oddiy qisqa muddatli stress ayrim holatlarda insonning diqqatini oshirishi va murakkab vazifani bajarishga safarbar

qilishi mumkin. Biroq stressning uzoq muddat davom etishi yoki tiklanish imkoniyati yetarli bo‘lmagan sharoitda takrorlanishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar faoliyatida stressning o‘ziga xosligi shundaki, stress manbalari bir vaqtning o‘zida bir nechta darajada shakllanishi mumkin.

1. Individual omillar. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shaxsning stressga chidamlilik darajasi; hissiy barqarorlik; o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati; oldingi travmatik tajriba; uyqu sifati; jismoniy charchoq; shaxsiy muammolar; oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi.

2. Kasbiy omillar. Harbiy xizmatning o‘ziga xos talablari ham stressning muhim manbai hisoblanadi: yuqori mas’uliyat; xizmat vazifalarining murakkabligi; doimiy tayyorgarlik holati; vaqt bosimi; yuqori intizom talablari; xizmat rejimining o‘zgaruvchanligi; uzoq muddatli navbatchilik;
xavfli vaziyatlar.

3. Ijtimoiy-psixologik omillar. Harbiy jamoada shaxslararo munosabatlar ham stress darajasiga ta’sir qilishi mumkin. Rahbar va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi munosabatlar, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash, nizolar, kommunikatsiya sifati va jamoaga mansublik hissi harbiy xizmatchining psixologik holatini belgilovchi muhim omillardir.

Tadqiqotlar rahbariyatning munosabati harbiy xizmatchilarning psixologik yordamga murojaat qilish qaroriga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi rahbarlik yordam izlashga ijobiy ta’sir qilsa, salbiy yoki jazolovchi rahbarlik psixologik yordamdan foydalanishni kamaytirishi mumkin.

4. Tashkiliy omillar. Stressni faqat harbiy xizmatchining shaxsiy xususiyatlari bilan tushuntirish ilmiy jihatdan yetarli emas. Tashkilotdagi ish yuklamasi, xizmat jadvali, dam olish va tiklanish imkoniyatlari, rahbariyat bilan kommunikatsiya, psixologik yordamning mavjudligi va undan foydalanish qulayligi ham muhimdir.

WHO ham mehnatdagi ruhiy salomatlikni himoya qilishda individual intervensiyalar bilan bir qatorda ish sharoitlari va tashkiliy muhitga qaratilgan choralarni birgalikda qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi.



1-rasm. Harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning oldini olishda psixologik profilaktika va psixologik xizmatning integratsiyalashgan modeli

Psixologik profilaktika stressni yuzaga kelgandan keyin bartaraf etishga emas, balki uning shakllanish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Harbiy xizmatchilar bilan ishlashda profilaktikaning uch bosqichli modelini qo‘llash maqsadga muvofiq: Birlamchi profilaktika → Ikkilamchi profilaktika → Uchlamchi profilaktika.

Birlamchi profilaktika. Bunda hali yaqqol psixologik muammo shakllanmagan harbiy xizmatchilarning stressga chidamliligini oshirishga e’tibor qaratiladi.

Asosiy yo‘nalishlar: stress haqida psixologik ma’rifat; emotsiyalarni boshqarish; kognitiv qayta baholash; nafas olish va relaksatsiya texnikalari; uyqu gigiyenasi; jismoniy faollik; ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish; jamoaviy treninglar. Ikkilamchi profilaktika.

Bu bosqichda stressning dastlabki belgilarini aniqlash va ularning chuqurlashishiga yo‘l qo‘ymaslik asosiy maqsad hisoblanadi.

Bunda:

diagnostika → xavf guruhini aniqlash → individual maslahat → qisqa muddatli psixologik intervensiya → monitoring ketma-ketligi qo‘llanishi mumkin.

Uchlamchi profilaktika.Uzoq davom etgan yoki jiddiy psixologik muammolar yuzaga kelgan holatlarda professional psixologik yoki tibbiy-psixologik yordamga yo‘naltirish amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning oldini olishda psixologik xizmat alohida institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi faqat psixologik muammoga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilarga yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Zamonaviy yondashuvda psixologik xizmat profilaktik, diagnostik, maslahat, korreksion, ma’rifiy va monitoring funksiyalarini o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirishi lozim.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining mehnat muhitidagi ruhiy salomatlik bo‘yicha tavsiyalarida ham individual yordam bilan bir qatorda tashkilot darajasidagi choralar, rahbarlarni tayyorlash va xodimlarning ruhiy salomatlik bo‘yicha savodxonligini oshirish muhimligi ta’kidlangan.

Harbiy psixologik xizmatning asosiy funksiyalarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

Psixologik diagnostika funksiyasi. Psixologik diagnostika stressning dastlabki belgilarini aniqlash va xavf guruhiga kiruvchi shaxslarni belgilash imkonini beradi.

Diagnostika jarayonida: stress darajasi; emotsional holat; xavotir va zo‘riqish; psixologik barqarorlik; moslashuv imkoniyatlari; kasbiy motivatsiya; ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash; uyqu va tiklanish holati kabi ko‘rsatkichlarni baholash mumkin.

Bunda diagnostika faqat muammoli shaxslarni aniqlash vositasi sifatida emas, balki profilaktik monitoring mexanizmi sifatida qaralishi kerak. Harbiy xizmatchilarda psixologik profilaktikaning samaradorligini baholashda muhim muammolardan biri — psixologik yordamga ehtiyoj mavjud bo‘lsa-da, undan foydalanmaslik holatidir.

Harbiy muhitda bu masala boshqa kasbiy guruhlarga qaraganda murakkabroq bo‘lishi mumkin. Chunki harbiy xizmat kuchlilik, chidamlilik, intizom va vazifani bajarishga tayyorlik kabi qadriyatlar bilan bog‘liq. Natijada ayrim xizmatchilar psixologik yordamga murojaat qilishni zaiflik belgisi sifatida qabul qilishi mumkin.

Coleman va hammualliflarning harbiy kuchlarda ruhiy salomatlik bo‘yicha yordam izlashga bag‘ishlangan tizimli sharhida stigma, yordamga ehtiyojni yashirish, kasbiy oqibatlardan qo‘rqish va shaxsiy e’tiqodlar yordam izlashga to‘sqinlik qiluvchi muhim omillar sifatida aniqlangan.

Harbiy xizmatchilarda psixologik xizmatlardan foydalanish bo‘yicha 111 ta ilmiy maqolani qamrab olgan tizimli sharhda esa ruhiy salomatlik muammosi bo‘lgan harbiy xizmatchilar orasida o‘tgan yil davomida xizmatlardan foydalanish darajasi o‘rtacha 29,3% atrofida bo‘lgani qayd etilgan. Tadqiqotlarda stigma va xizmat faoliyatiga salbiy ta’sir qilishdan xavotir keng tarqalgan to‘siqlar sifatida ko‘rsatilgan.

Shuning uchun psixologik xizmatning samaradorligi faqat psixologning professional kompetensiyasiga emas, balki xizmatdan foydalanish uchun xavfsiz psixologik muhit yaratilganiga ham bog‘liq.

Bu borada quyidagi mexanizmni taklif qilish mumkin:

Ishonch → Maxfiylik → Murojaat qilish imkoniyati → Erta aniqlash → Psixologik yordam → Monitoring

Mazkur zanjirning dastlabki bosqichlaridan biri buzilsa, profilaktikaning keyingi bosqichlari ham samaradorligini yo‘qotishi mumkin. Rezilyentlikni shaxsning stressli yoki noqulay vaziyatlardan keyin psixologik muvozanatni saqlashi, moslashishi va funksional faoliyatni davom ettirishi imkoniyati sifatida talqin qilish mumkin.

Harbiy xizmatchilar bilan o‘tkazilgan intervension tadqiqotlarda psixologik treninglar stressni kamaytirish va psixologik resurslarni kuchaytirishga yordam berishi ko‘rsatilgan. Bu profilaktik dasturlarni stress yuzaga kelgandan keyingi yordam bilan cheklamasdan, xizmatning dastlabki bosqichlaridan boshlab joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Bunda muhim metodologik xulosa shundan iboratki, eng samarali yondashuv individual psixologik treningni tashkiliy choralar bilan birlashtirishdan iborat.

WHO ham mehnatdagi ruhiy salomatlikni himoya qilishda faqat individual stressni boshqarish treninglari emas, balki ish sharoitlarini yaxshilash, rahbarlarni tayyorlash va tashkilotdagi psixososial xavflarni kamaytirishni birgalikda qo‘llashni tavsiya qiladi.

Muhokama.

Tadqiqotda tahlil qilingan ilmiy manbalar harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning ko‘p omilli hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Uni faqat individual psixologik xususiyatlar bilan izohlash yetarli emas. Harbiy xizmatning tashkiliy sharoitlari, rahbarlik uslubi, jamoaviy munosabatlar, xizmat yuklamasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi ham stressning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, stress profilaktikasining faqat individual treninglarga asoslanishi cheklangan natija berishi mumkin.

Masalan, harbiy xizmatchiga stressni boshqarish texnikalari o‘rgatilgan bo‘lsa-yu, uning xizmat yuklamasi haddan tashqari yuqori, dam olish imkoniyati cheklangan yoki jamoada psixologik xavfsizlik mavjud bo‘lmasa, individual ko‘nikmalarning uzoq muddatli samaradorligi pasayishi mumkin.

WHOning 2022-yilgi ko‘rsatmalarida ham psixososial xavflarni kamaytirish uchun tashkilot darajasidagi intervensiyalarni individual yordam bilan birgalikda amalga oshirish zarurligi ta’kidlangan.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning psixologik yordamga murojaat qilishiga stigma sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli psixologik xizmatning yana bir strategik vazifasi — psixologik yordamga murojaat qilish madaniyatini shakllantirishdir.

Buning uchun psixologik yordamni “muammo yuzaga kelganda murojaat qilinadigan xizmat” sifatida emas, balki:

“Harbiy kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi” sifatida ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Bu yondashuv harbiy xizmatchilarning psixologik yordamga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishi va yordam izlashdagi stigma to‘siqlarini kamaytirishi mumkin.

Xulosa. Harbiy xizmatning yuqori mas’uliyat, intizom, jismoniy va psixologik yuklama hamda ayrim holatlarda xavf bilan bog‘liqligi harbiy xizmatchilarni kasbiy stressning potensial xavf guruhlaridan biriga aylantiradi. Stressning uzoq muddat davom etishi individual psixologik farovonlik bilan bir qatorda xizmat faoliyati samaradorligi va jamoaviy munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqotda amalga oshirilgan nazariy-analitik tahlil shuni ko‘rsatdiki, harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning oldini olish faqat individual psixologik maslahat yoki stressni kamaytirish treninglari bilan cheklanmasligi kerak. Samarali profilaktika individual, guruhiy, rahbarlik va tashkiliy darajalarni birlashtiruvchi kompleks tizimni talab qiladi.

Psixologik xizmat ushbu tizimning markaziy institutsional elementi sifatida stressni erta aniqlash, psixologik diagnostika, individual va guruhiy maslahat, psixologik ma’rifat, rezilyentlikni rivojlantirish, rahbarlar bilan ishlash va uzoq muddatli monitoringni amalga oshirishi mumkin.

Tadqiqot asosida taklif etilgan integratsiyalashgan model “diagnostika – erta aniqlash – profilaktika – intervensiya – monitoring – qayta baholash” tamoyiliga asoslanadi. Mazkur yondashuv psixologik yordamni reaktiv modeldan proaktiv modelga o‘tkazishga imkon beradi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning psixologik yordamga murojaat qilishida stigma va kasbiy oqibatlardan xavotir muhim to‘siqlardan biri bo‘lishi mumkin. Shu sababli zamonaviy harbiy psixologik xizmatning strategik vazifalaridan biri nafaqat psixologik yordam ko‘rsatish, balki psixologik yordamdan foydalanish madaniyatini shakllantirishdan ham iborat bo‘lishi kerak. Harbiy xizmatchi psixologga murojaat qilishni zaiflik emas, balki kasbiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida qabul qilishi muhim.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning oldini olish bo‘yicha samarali tizim individual psixologik resurslarni kuchaytirish, sog‘lom jamoaviy muhit yaratish, qo‘llab-quvvatlovchi rahbarlikni rivojlantirish va tashkiliy psixososial xavflarni kamaytirish tamoyillariga asoslanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Campbell, D. J., & Nobel, O. B. (2009). Occupational stressors in military service: A review and framework. Military Psychology, 21(Suppl. 2), S47–S67. https://doi.org/10.1080/08995600903249149

2. Coleman, S. J., Stevelink, S. A. M., Hatch, S. L., Denny, J. A., & Greenberg, N. (2017). Stigma-related barriers and facilitators to help seeking for mental health issues in the armed forces: A systematic review and thematic synthesis of qualitative literature. Psychological Medicine, 47(11), 1880–1892. https://doi.org/10.1017/S0033291717000356

3. Hom, M. A., Stanley, I. H., Schneider, M. E., & Joiner, T. E. (2017). A systematic review of help-seeking and mental health service utilization among military service members. Clinical Psychology Review, 53, 59–78. https://doi.org/10.1016/j.cpr.2017.01.008

4. Turliuc, M. N., & Balcan, A.-D. (2024). Psychological intervention programme for developing resilience in the military personnel: A randomized controlled trial. Stress and Health, 40(4), e3399. https://doi.org/10.1002/smi.3399

5. Joyce, S., Shand, F., Tighe, J., Laurent, S. J., Bryant, R. A., & Harvey, S. B. (2018). Road to resilience: A systematic review and meta-analysis of resilience training programmes and interventions. BMJ Open, 8(6), e017858. https://doi.org/10.1136/bmjopen-2017-017858

6. Hobfoll, S. E. (1989). Conservation of resources: A new attempt at conceptualizing stress. American Psychologist, 44(3), 513–524. https://doi.org/10.1037/0003-066X.44.3.513

7. World Health Organization. (2022). Guidelines on mental health at work. World Health Organization. https://doi.org/10.1016/j.mhpa.2022.100433
8. World Health Organization & International Labour Organization. (2022). Mental health at work: Policy brief. World Health Organization.

SPORT MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA REFLEKTIV VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Xasanov Javohir Muxtorovich
Buxoro davlat pedagogika institute tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sport mashg‘ulotlari jarayonida reflektiv va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Sport faoliyati nafaqat jismoniy sifatlarni takomillashtirish, balki sportchilarning mustaqil fikrlashi, vaziyatni tahlil qilishi, qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini baholashi va takomillashtirishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida yoritilgan. Mashg‘ulotlar davomida muammoli vaziyatlar yaratish, videotasvirlar asosida tahlil qilish, reflektiv suhbatlar, o‘z-o‘zini baholash va jamoaviy muhokamalar orqali sportchilarda analitik fikrlash, refleksiya va tanqidiy yondashuvni shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, reflektiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligi, musobaqa faoliyati va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishdagi o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *reflektiv fikrlash, tanqidiy fikrlash, sport mashg‘ulotlari, sport pedagogikasi, refleksiya, qaror qabul qilish, muammoli vaziyat, analitik fikrlash, sportchi, pedagogik texnologiyalar.*

Abstract: *This article analyzes the pedagogical opportunities for developing reflective and critical thinking competencies in the process of sports training. Sports activities are considered not only as a means of improving physical qualities but also as an important pedagogical tool that promotes athletes’ independent thinking, situation analysis, decision-making, self-assessment, and continuous self-improvement. The article reveals the possibilities of developing analytical thinking, reflection, and a critical approach in athletes through the creation of problem-based situations, video-based performance analysis, reflective discussions, self-assessment, and group discussions during training sessions. It also substantiates the role of reflective and critical thinking in improving athletes’ technical and tactical preparation, competitive performance, and professional competencies.*

Keywords: *reflective thinking, critical thinking, sports training, sports pedagogy, reflection, decision-making, problem-based situation, analytical thinking, athlete, pedagogical technologies.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы педагогические возможности развития компетенций рефлексивного и критического мышления в процессе спортивных тренировок. Спортивная деятельность рассматривается не только как средство совершенствования физических качеств, но и как важный педагогический инструмент, способствующий развитию у спортсменов самостоятельного мышления, способности анализировать ситуацию, принимать решения, оценивать и совершенствовать собственную деятельность. Раскрыты возможности формирования у спортсменов аналитического мышления, рефлексии и критического подхода посредством создания проблемных ситуаций, анализа видеозаписей, проведения рефлексивных бесед, самооценивания и коллективных обсуждений в ходе тренировочных занятий. Кроме того, обоснована роль рефлексивного и критического мышления в совершенствовании технико-тактической подготовки, соревновательной деятельности и профессиональных компетенций спортсменов.*

Ключевые слова: *рефлексивное мышление, критическое мышление, спортивные тренировки, спортивная педагогика, рефлексия, принятие решений, проблемная ситуация, аналитическое мышление, спортсмен, педагогические технологии.*

Reflektiv va tanqidiy fikrlash XXI asrda insonning murakkab vaziyatlarda ongli harakat qilishi, axborotni tahlil etishi, muqobil yechimlarni baholashi hamda asoslangan qaror qabul qilishini ta’minlovchi muhim tayanch kompetensiyalar hisoblanadi. Mazkur kompetensiyalar zamonaviy sport ta’limi va sportchilarni tayyorlash tizimida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki sport faoliyati tez o‘zgaradigan vaziyatlarni anglash, raqib harakatlarini oldindan baholash, texnik-taktik yechimlarni tanlash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash va keyingi faoliyatni takomillashtirishni talab qiladi.

Reflektiv fikrlash sportchining o‘z tajribasi, harakati, hissiy holati va natijalarini qayta ko‘rib chiqishi, ularning sabablarini aniqlashi hamda kelgusi faoliyatini rejalashtirishini anglatadi. Tanqidiy fikrlash esa mavjud axborot va dalillarni tekshirish, turli fikr va strategiyalarni qiyoslash, xulosalarning asoslanganligini baholash hamda eng maqbul qarorni tanlash jarayonini qamrab oladi. Demak, reflektiv fikrlash ko‘proq

“Men nima qildim va bundan qanday xulosa chiqaraman?” degan savolga, tanqidiy fikrlash esa “Qaysi qaror ishonchli dalillarga asoslangan va nima sababdan?” degan savolga javob topishga yo‘naltiriladi.

Shu nuqtayi nazardan, sport mashg‘ulotlari faqat kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik va koordinatsiyani rivojlantiruvchi jismoniy jarayon emas, balki sportchining analitik tafakkuri, metakognitiv nazorati, mustaqil qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini boshqarishini shakllantiruvchi pedagogik muhit sifatida qaralishi lozim.

Reflektiv fikrlashning zamonaviy pedagogik talqini amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui qarashlari bilan bog‘liq. Uning dastlab 1910-yilda nashr etilib, 1933-yilda qayta ishlangan “How We Think” asarida reflektiv fikrlash muammo yoki shubha asosida yuzaga keladigan, dalillarni izlash va asoslangan xulosaga kelishga yo‘naltirilgan izchil tafakkur jarayoni sifatida tushuntirilgan. Dyui uchun tajribaning o‘zi yetarli emas; ta’limiy natija tajriba tahlil qilinib, undan tegishli xulosa chiqarilgandagina yuzaga keladi.

1983-yilda Donald Shon “The Reflective Practitioner” asarida kasbiy faoliyatdagi refleksiyaning ikki muhim shaklini asoslagan: “faoliyat jarayonidagi refleksiya” va “faoliyatdan keyingi refleksiya”. Birinchi holatda mutaxassis vaziyat davomida o‘z harakatini kuzatib, uni tezkor o‘zgartiradi. Ikkinchi holatda esa tugallangan faoliyatga qaytib, uning natijalari va sabablarini tahlil qiladi. Sportda bu yondashuv sportchining o‘yin vaqtida taktikasini o‘zgartirishi hamda mashg‘ulot yoki musobaqadan keyin o‘z harakatlarini videotasvir asosida qayta ko‘rib chiqishida namoyon bo‘ladi.

David Kolb 1984-yilda tajribaviy o‘rganishni konkret tajriba, reflektiv kuzatish, mavhum konsepsiyalashtirish va faol tajriba o‘tkazishdan iborat uzluksiz sikl sifatida tavsiflagan. Sport mashg‘ulotlarida ushbu sikl mashqni bajarish, natijani kuzatish, xato sabablarini tushuntirish, yangi strategiya ishlab chiqish va uni keyingi mashg‘ulotda sinash orqali amalga oshadi.

Tanqidiy fikrlashning zamonaviy kompetensiyaviy mazmunini belgilashda Piter Fasion rahbarligida amalga oshirilgan 1990-yilgi Delphi tadqiqoti muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda tanqidiy fikrlashning asosiy kognitiv ko‘nikmalari sifatida interpretatsiya, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, fikrni tushuntirish va o‘z faoliyatini nazorat qilish ajratib ko‘rsatilgan. Bu ko‘nikmalar sportchining vaziyatni tushunishi, raqib strategiyasini baholashi, xatolarning sabablarini aniqlashi va qarorini asoslashida bevosita namoyon bo‘ladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida sport pedagogikasida murabbiy markazidagi direktiv tayyorgarlikdan sportchi faoliyatiga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tish kuchaydi. Natijada sportchi murabbiy ko‘rsatmalarini mexanik bajaruvchi emas, balki

vaziyatni tushunuvchi, savol beruvchi, qaror qabul qiluvchi va o‘z rivojlanishini boshqaruvchi faol subyekt sifatida talqin qilina boshladi. 2000–2024-yillardagi tadqiqotlarni qamrab olgan ilmiy tahlilda ham jismoniy ta’limdagi refleksiya masalalariga qiziqish ortgani, tadqiqotlar markazi murabbiy va o‘qituvchilardan talabalar hamda sportchilarning o‘z-o‘zini refleksiya qilish faoliyatiga tomon siljigani ko‘rsatilgan.

Sport mashg‘ulotlarida reflektiv va tanqidiy fikrlash o‘zaro bog‘langan quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

a) sport vaziyatini kuzatish va muammoni aniqlash;
b) texnik, taktik, jismoniy va psixologik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish;
c) harakat natijasiga ta’sir qilgan sabablarni aniqlash;
d) murabbiy tavsiyasi, videotasvir va raqamli ma’lumotlarni qiyoslash;
e) muqobil texnik-taktik yechimlarni ishlab chiqish;
f) tanlangan qarorni dalillar asosida tushuntirish;
g) yangi yechimni amaliyotda sinab ko‘rish;
h) natijani baholash va keyingi rivojlanish vazifasini belgilash.

Sportchi harakatining muvaffaqiyatsiz bo‘lishini faqat “mashq noto‘g‘ri bajarildi” deb baholash refleksiya hisoblanmaydi. To‘laqonli refleksiyada sportchi xatoning qaysi bosqichda yuzaga kelgani, unga texnika, charchoq, diqqat, hissiy zo‘riqish, raqib bosimi yoki noto‘g‘ri taktik tanlov qanday ta’sir qilganini aniqlashi kerak. Tanqidiy fikrlash esa ushbu sabablar orasidan asosiylarini ajratish, ularni dalillar bilan tekshirish va maqbul tuzatish yo‘lini tanlashga xizmat qiladi 1-jadvalga qarang.

1-jadval.

Metod	Amalga oshirish mazmuni	Rivojlantiriladigan ko‘nikma
Muammoli sport vaziyati	Sportchiga bir nechta texnik yoki taktik yechimni talab qiladigan vaziyat taqdim etiladi	Muammoni anglash, muqobil yechim yaratish
Yo‘naltiruvchi savollar	“Nima sodir bo‘ldi?”, “Nega bunday bo‘ldi?”, “Boshqa qanday yechim bor?” kabi savollar beriladi	Sabab-oqibatni aniqlash, qarorni asoslash
Videotahlil	Mashq yoki musobaqa yozuvi mezonlar asosida qayta ko‘rib chiqiladi	Xatoni ko‘rish, dalillar asosida baholash
Reflektiv suhbat	Mashg‘ulot yakunida sportchi va murabbiy faoliyat natijalarini muhokama qiladi	O‘z fikrini ifodalash, xulosa chiqarish
Debrifing	Jamoa musobaqa yoki mashg‘ulotdan keyin qarorlar va natijalarni birgalikda tahlil qiladi	Jamoaviy refleksiya, o‘zaro fikr almashish

Sport kundaligi	Sportchi maqsad, natija, qiyinchilik, hissiy holat va keyingi vazifalarni qayd etadi	Metakognitiv nazorat, o‘zini rivojlantirish
O‘z-o‘zini baholash	Sportchi oldindan belgilangan mezonlar asosida faoliyatini baholaydi	Xolis baholash, mas’uliyat
O‘zaro baholash	Sportchilar bir-birining faoliyatiga mezonli fikr bildiradi	Dalillash, muloqot va hamkorlik
Raqamli monitoring	Video, sensor, mobil dastur yoki tahlil platformasi ma’lumotlaridan foydalaniladi	Ma’lumotni talqin qilish, dalillarga asoslanish
Vaziyatli modellashtirish	Musobaqaga yaqin murakkab va noaniq vaziyatlar tashkil etiladi	Tezkor fikrlash va qaror qabul qilish

Muammoli vaziyatlarni qo‘llashda murabbiy sportchiga tayyor yechimni darhol aytib bermasligi kerak. Aksincha, u sportchini kuzatish, taxmin qilish, qarorining oqibatini baholash va tanlovini izohlashga undashi lozim. Masalan, jamoaviy sport turida murabbiy o‘yin vaziyatini to‘xtatib, “Ushbu vaziyatda qaysi uzatma samaraliroq?”, “Raqibning joylashuvi qarorga qanday ta’sir qildi?” yoki “Mazkur taktikani o‘zgartirish zarurmi?” kabi savollar berishi mumkin. Sportchi qarorini faqat aytishi emas, uni dalillar bilan tushuntirishi ham talab etiladi.

Videotahlil subyektiv taassurotni obyektiv kuzatuv bilan taqqoslash imkonini beradi. Sportchi harakatini sekinlashtirilgan tasvirda ko‘rib, tana holati, harakat amplitudasi, muvozanat, vaqt tanlovi va taktikasini tahlil qiladi. Biroq raqamli ma’lumot yakuniy hukm sifatida qabul qilinmasligi kerak. U sportchining jismoniy holati, musobaqa sharoiti, hissiy kechinmalari va taktik vazifa bilan birgalikda talqin qilinishi zarur (1-diagramma).

Sport mashg‘ulotlarida reflektiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy afzalligi sportchining o‘z tayyorgarligiga ongli munosabatini shakllantirishidir. An’anaviy direktiv yondashuvda sportchi murabbiy ko‘rsatmasini bajarishi



mumkin, biroq uning nima sababdan aynan shu harakatni bajarishi kerakligini har doim ham tushunmaydi. Reflektiv yondashuvda esa sportchi texnika va taktikaning mohiyatini anglaydi, qarorning sababini tushuntiradi va o‘zgargan vaziyatga moslasha oladi.

Tanqidiy fikrlash, ayniqsa, jamoaviy sport turlarida taktik kompetensiyani rivojlantirishda muhimdir. Dinamik va oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan vaziyatlarda sportchi tayyor algoritmni takrorlash bilan cheklanmay, raqib joylashuvi, vaqt, makon va jamoadoshlar harakatini bir vaqtning o‘zida baholashi kerak. Tadqiqotlarda ham tanqidiy fikrlash sportchilarning dinamik vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishi va taktik kompetensiyasini rivojlantiruvchi omil sifatida qayd etilgan.

Shu bilan birga, refleksiyani tashkil etishda ayrim pedagogik muammolar mavjud. Har bir mashqdan keyin uzoq muhokama o‘tkazish mashg‘ulotning motor zichligini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun refleksiya qisqa, maqsadli va aniq mezonlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Yuqori intensivlikdagi mashqlar vaqtida chuqur refleksiya qilish qiyin bo‘lgani sababli tezkor refleksiya bilan mashg‘ulotdan keyingi kengaytirilgan tahlil o‘zaro uyg‘unlashtirilishi zarur.

Refleksiya psixologik xavfsiz muhitda tashkil etilmasa, sportchi xatolarini yashirishga yoki murabbiy fikrini takrorlashga moyil bo‘ladi. Shu sababli xato jazolash uchun asos emas, balki rivojlanish manbai sifatida talqin qilinishi kerak. Murabbiy sportchining shaxsini emas, uning qarori va harakatini baholashi, savol berish va muqobil fikr bildirishiga sharoit yaratishi muhim.

Sun’iy intellekt, videokuzatuv, mobil ilovalar va sensor qurilmalar refleksiyani aniq ma’lumotlar bilan boyitadi. Biroq ulardan foydalanishda sportchining shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, algoritmik xulosalarni murabbiy ekspertizasi bilan tekshirish va texnologiyaga haddan tashqari qaramlikning oldini olish talab etiladi. Raqamli vosita fikrlashning o‘rnini bosmasligi, balki dalillarni taqdim etuvchi yordamchi manba bo‘lishi kerak.

A similarly positive trend is observed in the reduction of CO_2 emissions. Prior to the introduction of environmentally oriented technologies, the emission-reduction indicator stood at 20%, whereas following their implementation, it increased to 55%, corresponding to a 35-percentage-point improvement. This considerable progress underscores the effectiveness of contemporary decarbonization technologies and low-carbon transport solutions, including railway electrification, the integration of renewable and alternative energy sources, and the deployment of digital energy-management systems. Collectively, these measures contribute to reducing the carbon intensity of railway operations while simultaneously enhancing the long-term environmental and economic sustainability of the transport sector.

Conclusion

The implementation of green technologies in the railway sector represents a strategically important pathway toward achieving sustainable development, resource efficiency, and long-term environmental resilience. The analysis demonstrates that the transition to environmentally sustainable railway systems should not be limited to the introduction of individual energy-saving technologies; rather, it requires a systemic transformation of technological, organizational, managerial, and institutional mechanisms.

At the same time, sustainable railway development requires the integration of environmental, social, and governance (ESG) principles into corporate and sectoral management. The application of ESG-oriented performance indicators can strengthen institutional accountability, improve transparency, facilitate evidence-based decision-making, and align railway enterprises with international sustainability standards. Therefore, the green transformation of railway transport should be considered not only as an environmental initiative but also as an important component of economic modernization, technological innovation, and sustainable competitiveness.

Recommendations

Based on the findings, the following strategic recommendations are proposed:

1. Accelerate railway electrification and energy modernization. Priority should be given to the electrification of strategically important railway routes and the modernization of traction power infrastructure. Energy-efficient locomotives, regenerative braking systems, and advanced energy-storage technologies should be progressively integrated into railway operations.

2. Expand the integration of renewable energy sources. Railway enterprises should increase the utilization of solar, wind, and other renewable energy technologies, particularly

for railway stations, maintenance facilities, logistics terminals, and auxiliary infrastructure. The development of decentralized renewable-energy systems can reduce dependence on conventional energy sources and improve energy security.

3. Introduce digital energy-management systems. The implementation of smart monitoring, automated energy-consumption control, Internet of Things (IoT) technologies, and data-driven management tools would enable railway enterprises to identify energy losses, optimize consumption patterns, and improve operational efficiency in real time.

4. Establish a comprehensive Green KPI system. Railway enterprises should develop measurable Green Key Performance Indicators (Green KPIs) covering energy consumption, CO_2 emissions, renewable-energy utilization, waste reduction, resource productivity, and environmental compliance. These indicators should be incorporated into corporate strategic planning and performance evaluation mechanisms.

5. Strengthen ESG-based corporate governance. ESG principles should be integrated into investment decisions, corporate risk management, procurement policies, and strategic planning. Regular sustainability reporting based on internationally recognized frameworks would improve transparency and strengthen stakeholder confidence.

References

1. World Bank. (2020). *Connecting to compete: Trade logistics in the global economy*. Washington, DC: World Bank. Available at: World Bank Data (Accessed: July 31, 2026).

2. Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2019, April 19). *Resolution No. 336 "On approval of the Regulation on the Ministry of Transport of the Republic of Uzbekistan"*. Available at: LexUZ (Accessed: July 31, 2026).

3.Ministry of Transport of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Annual report on the activities of the Ministry of Transport of the Republic of Uzbekistan for 2023*. Tashkent. Available at: Ministry of Transport of Uzbekistan (Accessed: July 31, 2026).

4. Bowersox, D. J., & Closs, D. J. (2010). *Logistical management: The integrated supply chain process* (English ed.). Moscow: Olimp-Business.

5. Hummels, D. (2007). Transportation costs and international trade in the second era of globalization. *Journal of Economic Perspectives*.

6. McKinnon, A. (2018). *Decarbonizing logistics: Distributing goods in a low-carbon world*. London: Kogan Page.

7. Perlin, H. (2020). The coming digital age. *Journal of Transport Economics*, *24*(2), 25–45.

8. Porter, M. E. (2008). The five competitive forces that shape strategy. *Harvard Business Review*, *86*(1), 78–93.

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA QURILMALARI XARIDIGA KOMPENSATSIYA VA SUBSIDIYALAR AJRATISH HAMDA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Ochilov Abdujabbor Akramovich
mustaqil izlanuvchi
Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O‘zbekiston.
e-mail: abdujabborochilov1973@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari xaridini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini raqamlashtirishning ahamiyati tahlil qilingan. O‘zbekistonda kompensatsiya va subsidiyalar ajratish jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari raqamli platformalardan foydalanish davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishi, shaffoflikni ta’minlash, inson omilini kamaytirish va aholi uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, kompensatsiya va subsidiyalarni boshqarishning integratsiyalashgan raqamli modeli taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *qayta tiklanuvchi energiya, subsidiya, kompensatsiya, raqamlashtirish, energymarket.uz, raqamli platforma, yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi.*

Abstract. *This article analyzes the importance of digitalizing state support mechanisms for the procurement of renewable energy equipment. The study examines the ongoing efforts in Uzbekistan to digitalize the processes of allocating compensation and subsidies for renewable energy technologies. The findings indicate that the use of digital platforms contributes to the targeted and efficient utilization of public funds, enhances transparency, reduces the influence of human factors, and expands public access to government support services. Furthermore, an integrated digital model for the management of compensation and subsidy mechanisms is proposed to improve the effectiveness of renewable energy support policies.*

Keywords: *renewable energy, subsidy, compensation, digitalization, energymarket.uz, digital platform, green economy, energy efficiency.*

Kirish

Ko‘plab davlatlarda aholi va tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini xarid qilish uchun subsidiyalar, kompensatsiyalar va imtiyozli moliyalashtirish dasturlari joriy etilgan. Biroq mazkur jarayonlarni an’anaviy usullarda tashkil qilish ortiqcha qog‘ozbozlik, ma’lumotlarni qayta ishlashda kechikishlar va inson omili bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Raqamlashtirish esa mazkur jarayonlarni avtomatlashtirish, shaffoflikni ta’minlash va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqotlar raqamlashtirish qayta tiklanuvchi energiya sohasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlamoqda.

Tadqiqotning maqsadi qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari xaridiga kompensatsiya va subsidiyalar ajratish jarayonlarini raqamlashtirishning ahamiyatini baholash hamda ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va raqamli platformalar faoliyatini baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot manbalari sifatida: O‘zbekiston Respublikasining qayta tiklanuvchi energiya sohasiga oid qonun hujjatlari, Energetika vazirligi va Energiya samaradorligi milliy agentligi ma’lumotlari, IEA, IRENA va Jahon banki hisobotlaridan foydalanildi.

Tahlil doirasida raqamlashtirishning xizmat ko‘rsatish tezligi, shaffoflik darajasi, inson omilining qisqarishi, davlat mablag‘larining samaradorligi va foydalanuvchilar uchun qulaylik kabi mezonlari baholandi.

Natijalar va muhokama

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda quyosh panellari, quyosh suv isitgichlari va boshqa energiya tejovchi qurilmalarni o‘rnatish uchun kompensatsiya va subsidiyalar ajratish mexanizmi joriy qilindi. Bu jarayon aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini xarid qilish xarajatlarini qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona elektron platformasi – **energymarket.uz** orqali 2022-yil 1-oktabrdan 2025-yil 1-sentabr holatiga aholi tomonidan xarid qilingan

QTEM qurilmalarini sotib olish xarajatlari uchun **6370 nafar** fuqaroga **65,3 mlrd.so‘m** kompensatsiya mablag‘i ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligining Energiya samaradorligini oshirish raqamli platformasi – **esma.uzex.uz** orqali 2026-yil birinchi yarim yillik davomija **5,7 mingdan ortiq** xonadonga quyosh panellari, geliokollektorlar hamda issiqlik nasoslari o‘rnatish uchun **42,4 mlrd so‘mdan ortiq** subsidiya ajratildi. Natijada, 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga muvofiq **2,6 mlrd kVt/soat elektr energiyasi** va **974 mln kub metr tabiiy gaz i**qtisod qilinishi ta’minlandi.

Shuningdek “Quyoshli xonadon” dasturi orqali quyosh panellarini o‘rnatgan jismoniy shaxslar o‘z ehtiyojidan ortiq ishlab chiqargan va umumiy elektr energetika tizimiga uzatgan **har bir kVt·soat elektr energiyasi uchun 1 000 so‘mdan** subsidiya olish imkoniyati yaratilgan. Amaldagi dasturdan ***2025-yil davomida*** **45,4 ming nafar jismoniy shaxs** foydalandi va davlat budjetidan **209,2 mlrd so‘m** subsidiya olgan bo‘lsa, ***2026-yilning 6 oyida*** **68,6 ming nafar jismoniy shaxs** amaldagi dasturdan foydalanib davlat budjetidan **330,822 mlrd so‘m**dan ortiq subsidiya oldi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, raqamlashtirish qayta tiklanuvchi energiya sohasida investitsiyalarni jalb qilish, energiya samaradorligini oshirish va yashil innovatsiyalarni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari xaridi uchun davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya va kompensatsiyalar mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mazkur jarayonlarni an’anaviy usulda tashkil etish ortiqcha ma’muriy xarajatlar, hujjatlar aylanmasi va vaqt sarfini keltirib chiqaradi.

Raqamli platformalar orqali boshqaruvni joriy etish hisobiga arizalarni ko‘rib chiqish muddatining qisqarishi, ma’muriy xarajatlarning kamayishi, davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishi, noqonuniy to‘lovlar xavfining pasayishi hamda aholi va tadbirkorlar uchun tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi kabi iqtisodiy natijalarga erishiladi.

Raqamlashtirishning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, axborot tizimlari o‘rtasida integratsiyaning yetarli emasligi, internet infratuzilmasining barcha hududlarda bir xil rivojlanmaganligi, raqamli savodxonlik darajasining turlicha ekanligi, kiberxavfsizlik bilan bog‘liq xatarlar, ma’lumotlar bazasining muntazam yangilanmasligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish raqamli transformatsiyaning keyingi bosqichlarida muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasida qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari xaridi uchun davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini boshqarishning intellektual raqamli modeli taklif etiladi. Model quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

Fuqaro → Elektron ariza → Avtomatik identifikatsiya → Davlat reestrlari bilan solishtirish → Sun’iy intellekt asosida baholash → Qaror qabul qilish → Elektron to‘lov → Monitoring → Hisobot.

Mazkur modelni qo‘llash orqali inson omilini minimallashtiradi ya’ni inson omili bilan bog‘liq xatolar 70 foizgacha kamayadi, qaror qabul qilish tezligini oshiradi, arizalarni ko‘rib chiqish muddati 40–60 foizga qisqaradi, korrupsiya xavfini kamaytiradi, davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlaydi, real vaqt rejimida monitoringni amalga oshiradi va tahliliy ma’lumotlar bazasini shakllantiradi, qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini joriy qilish sur’atlari ortadi hamda aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining davlat xizmatlaridan foydalanish darajasi Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

energymarket.uz va esma.uzex.uz platformalari o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvini ta’minlovchi yagona integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish;

qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari bo‘yicha subsidiya va kompensatsiya ajratish jarayonlariga sun’iy intellekt asosida avtomatik baholash mexanizmlarini joriy qilish;

Big Data texnologiyalari asosida tahliliy markaz tashkil qilish;

blokcheyn texnologiyalarini qo‘llash orqali shaffoflikni oshirish;

barcha qurilmalarni QR-kod va elektron pasport asosida identifikatsiya qilish tizimini joriy etish;

davlat tomonidan ajratilgan mablag‘larning samaradorligini baholash uchun raqamli monitoring platformasini tashkil etish;

energiya tejamkorlik va uglerod chiqindilarining qisqarishini avtomatik hisoblaydigan tahliliy modullarni joriy qilish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari xaridiga kompensatsiya va subsidiyalar ajratish jarayonlarini raqamlashtirish davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda davlat qo‘llab-quvvatlash tizimlarini raqamli platformalar orqali boshqarish, monitoring qilish va baholashning yagona konseptual arxitekturasi ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan model an’anaviy subsidiyalash mexanizmlaridan farqli ravishda davlat reestrlari, elektron savdo platformalari, sun’iy intellekt elementlari va tahliliy ma’lumotlar bazalarini yagona raqamli ekotizimga birlashtiradi.

Kelgusida energymarket.uz, esma.uzex.uz va boshqa davlat axborot tizimlarini integratsiya qilish, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarini joriy etish orqali subsidiya va kompensatsiyalarni boshqarish samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Energy Agency. (2025). Renewables 2025: Analysis and forecast to 2030. Paris: IEA.
2. International Renewable Energy Agency. (2025). Renewable Energy Statistics 2025. Abu Dhabi: IRENA.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston.
4. O‘zbekiston Respublikasi. (2019). Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to‘g‘risidagi Qonun. Toshkent.
5. World Bank. (2025). Digitalization of Energy Systems: Global Trends and Policy Recommendations. Washington, DC: World Bank.
6. El Zein, M., & Gebresenbet, G. (2024). Digitalization in the renewable energy sector. Energies, 17(9), 1985. https://doi.org/10.3390/en17091985
7. Zheng, M., & Zhang, X. (2025). Digitalization and renewable energy development: Analysis based on cross-country panel data. Energy, 319, 135077. https://doi.org/10.1016/j.energy.2025.135077
8. Abduganiyev, M. S. (2026). Issues of digital technologies and renewable energy integration. The Innovation Economy, 2(2), 1–10.
9. Rahman, M., et al. (2025). How renewable energy consumption and digitalization contribute to environmental sustainability. Journal of Environmental Management, 380, 124379.
10. Latif, Y., et al. (2025). From digitalization to renewable energy: How the tech-energy connection drives green energy. Energy Economics, 144, 108324.
11. Hua, W., Chen, Y., Qadrdan, M., Jiang, J., Sun, H., & Wu, J. (2022). Applications of blockchain and artificial intelligence technologies for enabling prosumers in smart grids: A review.
12. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. (2025). Official statistical reports on renewable energy development. Tashkent.

13. Energy Efficiency Agency of Uzbekistan. (2025). Annual report on energy efficiency and renewable energy support mechanisms. Tashkent.

7-SECTION

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИНИНГ 1941 ЙИЛДАГИ БЮДЖЕТ-СОЛИҚ СИЁСАТИ ТАРИХИ

Дусчанов Р.Р.
Тарих фанлари фалсафа доктори (PhD), доцент,
Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети

Abstract. *This article examines the budgetary and tax policy pursued by the Soviet government in the Central Asian republics during the Second World War as a key component of its broader economic policy. Particular attention is paid to the formation of the state budgets of the USSR and the Uzbek SSR in 1941, the structure of budget revenues and expenditures, and the role of taxes and fees in generating budgetary revenues. Based on archival documents and budgetary data, the principal sources of revenue of the Uzbek SSR, Kazakh SSR, Tajik SSR, Turkmen SSR, and Kyrgyz SSR are comparatively analyzed. The study also highlights the dominant role of taxes and fees as major sources of revenue in the budgets of the Union republics, examines the position of local budgets within the centralized Soviet financial system, and identifies regional differences in the structure of budget revenues and expenditures.*

Key words: *Central Asia, budgetary and tax policy, USSR, Uzbek SSR, taxes and fees, state revenues, state expenditures, turnover tax, military tax, local budgets.*

Аннотация. *Ушбу мақолада Совет ҳукумати томонидан Марказий Осиё давлатларида Иккинчи жаҳон уруши йилларида юритилган иқтисодий сиёсатининг асосий бўғини бўлган бюджет-солиқ сиёсати таҳлил қилинади. Бундан ташқари 1941-йилда СССР ва Ўзбекистон ССР давлат бюджетларининг шаклланиши, даромад ва харажатлар таркиби ҳамда солиқлар ва йиғимларнинг бюджет даромадларидаги ўрни ёритилади. Архив ҳужжатлари ва бюджет маълумотлари асосида Ўзбекистон ССР, Қозоғистон ССР, Тожикистон ССР, Туркманистон ССР ва Қирғизистон ССР бюджетларининг асосий даромад манбалари қиёсий ўрганилган. Шунингдек, иттифоқ республикалари бюджетларида солиқлар ва йиғимларнинг асосий даромад манбаи бўлганлиги, маҳаллий бюджетларнинг марказлашган молия тизимидаги ўрни ҳамда даромад-харажатлар таркибидаги ҳудудий фарқлар ёритилади.*

Калит сўзлар: *Марказий Осиё, бюджет-солиқ сиёсати, СССР, Ўзбекистон ССР, солиқ ва йиғимлар, давлат даромадлари, давлат харажатлари, айланма солиқ, ҳарбий солиқ, маҳаллий бюджетлар.*

Иккинчи жаҳон уруши Марказий Осиё давлатлари ҳудудида юз бермаган бўлсада уларнинг **бюджет-солиқ сиёсатига** жуда катта салбий таъсир кўрсатган. Бюджет учун аҳамиятли бўлган солиқ ставкалари оширилди, янги солиқ турлари жорий этилди, аҳоли ва корхоналардан мажбурий тўловлар ундирила бошланди. Айниқса, бир-бирига яқин соҳаларни бирлаштириш ва қисқариш масалалари олиб борилган ҳамда ҳеч бир хонадон уруш таъсиридан четда қолмаган.

1941 йил 1 мартда СССРнинг давлат бюджети тўғрисидаги қонун қабул қилиниб унда даромадлар бўйича 216 миллиард 840 миллион 224 минг рубл ва харажатлар бўйича ҳаммаси 216 миллиард 52 миллион 224 минг рубл миқдорида, яъни даромад харажатлардан 788 миллион рубл[1, 2-с.]ни ортиқни ташкил этган. Бироқ, шу йилда СССР бюджетида даромадларнинг 19 та ҳамда 30 та харажат тури қайд этилади, давлат бюджетида солиқ ва йиғимларнинг улуши 76 фоизга тўғри келганлиги, бундан ташқари, давлат заёмлар, АССР бюджетлари ва маҳаллий кенгашларга маҳаллий манбалардан тушадиган даромадлар ва бошқалар киритилган. Шу даврдаги маҳаллий бюджетнинг марказ бюджетидаги ўрни республикалар кесимида 42 фоиз улушига тўғри келган. Шундай маҳаллий бюджет бири бўлган Қозоғистон ССР бюджети ҳисобланади.

Маҳаллий бюджетлар ичида Қозоғистон ССР бюджети маблағ бўйича биринчи ўринда яъни, 1.717.147 минг рубл ҳисобида даромад ва харажат бир хил миқдорда белгиланган. Даромаднинг 13 тури бўлса, улардан тўрттасини, яъни айланма солиқ – 51,1 фоиз, фойдадан ажратмалар – 9,3 фоиз, корхона ва ташкилотлардан таворсиз операциялар олинадиган даромад солиғи – 2,9 фоиз, аҳолидан олинадиган солиқ ва йиғимлар – 14 фоизини ташкил қилган бўлса, умумий ҳисобда солиқ ва йиғимларнинг улиши 77,3 фоизини, бошқа даромадлар 23,4 фоизини ташкил этган.

Шу йилги Ўзбекистон ССР Олий Советининг IV сессиясида қабул қилинган “Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг 1941 йилги давлат бюджети ҳақидаги қонуни”да давлат бюджетнинг даромадига 1 миллиард 631 миллион 136 минг рубл ва харажат қисми 1 миллиард 616 миллион 781 минг рубл миқдорида, яъни даромаддан харажат қисми 14 миллион 355 минг рубл оширилиб тасдиқланган. Лекин архив ҳужжатларига келтирилган маълумотларга кўра, даромад ва харажатлар бир хил миқдорда тақсимланган[2, 3-с.].

Архив ҳужжатларидаги Ўзбекистон ССРнинг давлат бюджетининг 1941 йил даромадлар тўплами кўра, булар 4 тага ажратилади, биринчидан, айланма солиқ (налог с оборота) – пахта, нефт ва тамаки тайёрлашдан ажратма; қишлоқ хўжалик маҳсулотлари тайёрлашдан ажратма; колхоз савдосидан ва қишлоқ матлубот кооперациясининг марказлаштирилмаган тартибда маҳсулот тайёрлашидан олинадиган айланма солиғи бўлиб, даромаднинг биринчи устунида 483 965 минг рубл миқдорида берилиб, 29 фоиздан ортиғига тўғри келади.

Тожикистон ССР бюджетидаги даромад ва харажат бир хил миқдорда 581.366 минг рублни бўлиб, даромаднинг 12 тури келтирилади. Улардан биринчи ўринда турадиган даромад тури айланма солиқ бўлиб, унинг улуши – 48 фоиз, фойдадан ажратмалар – 18 фоиз, корхона ва ташкилотлардан таворсиз операциялар олинадиган даромад солиғи – 3,5 фоиз, аҳолидан олинадиган даромад солиғи – 11 фоизини 80,5 фоиз улиши солиқ ва йиғимлардан олинган бўлса, 19,5 фоизи бошқа даромадлардан йиғилган. Тожикистон ССРда ҳам давлат харажати иккита тоифага бўлинган бўлинган, уларнинг тури 15 тани ташкил қилган**[3, 44-47-с.]**.

Туркманистон ССР бюджетидаги даромад ва харажат бир хил миқдорда 536.694 минг рублни ташкил этган бўлса, бу биринчи ўринда турадиган даромад тури айланма солиқ бўлиб, унинг улуши – 41 фоиз, фойдадан ажратмалар – 14,1 фоиз, корхона ва ташкилотлардан таворсиз операциялар олинадиган даромад солиғи – 4 фоиз, аҳолидан олинадиган даромад солиғи – 12,3 фоизини 71,4 фоиз улиши солиқ ва йиғимлардан олинган бўлса, 28,6 фоизи бошқа даромадлар жамланган. Турманистон ССРда ҳам давлат харажати иккита тоифага бўлинган бўлма, уларнинг тури 14 тани ташкил қилган**[4, 36-39-с.]**.

Давлат бюджетига ажратилган маблағлар ичида кейинги ўринда Қирғизистон ССР бўлиб, унга 481.115 минг рублни маблағ ажратилган. Улардан айланма солиқ – 48,9 фоиз, фойдадан ажратмалар – 12,3 фоиз, корхона ва ташкилотлардан таворсиз операциялар олинадиган даромад солиғи – 4 фоиз, аҳолидан олинадиган даромад солиғи – 11,9 фоиз бўлган. умумий ҳисобда уларнинг даромаддаги улуши 77,1 фоиз улиши солиқ ва йиғимлардан олинган бўлса, 22,9 фоизи бошқа даромадлар жамланган. Турманистон ССРда ҳам давлат харажати иккита тоифага бўлинган бўлса, лекин харажатларнинг тури бўйича 18 тани яъни, бошқа ҳудудларда бўлмаган Коммунал хўжалиги халқ комиссарлиги ҳамда фуқароларнинг ҳова флоти каби фарқли жиҳатлари қайд қилган[5, 52-55-с.]**.**

1941 йил 21 ноябрда СССР Олий Советининг “СССРдаги бўйдоқ, ёлғиз ва фарзандсиз фуқароларга солинган солиқлар тўғрисида”ги[6, 11-с.] Фармонига

кўра бўйдоқ, ёлғиз ва фарзандсиз СССР фуқароларининг солиқ тўлаши қонун билан белгилаб қўйилди. Бу эркаклар учун 20 ёшдан 50 ёшгача, аёллар учун 20 ёшдан 45 ёшгача қилиб белгиланди. 50 ёш ва ундан юқори ёшда бўлган эркаклар ва 45 ёш ва ундан юқори ёшда бўлган аёллар учун йилига бир кишига 100 рубль қилиб белгиланди. Фарзанди бўлмаган фуқаролар, фарзандли бўлган тақдирда улардан солиқнинг олиниши кейинги тўлов муддатидан бошлаб бекор қилинган. Умуман олганда, бу даврда фарзандининг ёши ва сонидан қатъий назар фуқаролар солиқ тўлашдан озод қилинган[7, 15-с.].

Бўйдоқ, ёлғиз ва фарзандсиз СССР фуқароларидан олинадиган солиқ иш ҳақи олинадиган жойда ҳисобланиб, даромад солиғи билан бир вақтда ушлаб қолинар эди. Бошқа фуқаролардан (ҳунармандлар, бино эгалари, хусусий амалиёт билан шуғулланувчилар) ушбу солиқ бевосита молия органлари томонидан мазкур йилда даромад солиғини ҳисоблаш учун аниқланган даромад суммасидан 6 фоиз миқдорда ундирилган. Солиқлар бир йилда 4 маротаба тенг қисмларга бўлиб тўланган[8, 252-с.]. Шунингдек, бу солиқни тўлашда фуқаролар тоифага ҳам бўлинади ва улар белгиланган миқдорда солиқ тўлайдиган бўлдилар. Солиқ суммалари қаттиқ ва фоизли ставкаларда белгиланди. Масалан, ишчилар ва хизматчиларга бир ойлик маоши 150 рубль бўлганда солиқ миқдори 5 рубль, маош 150 рублдан ошса ойлик маошининг 5 фоизи тўланадиган бўлди. Адабиёт ва санъат соҳасида ишлайдиган кишиларга ҳам ойлик маошининг 5 фоизи миқдорида солиқ белгиланди. Қолган фуқаролар, хусусан колхоз, деҳқон хўжаликларига кирувчи шахслар йилига 100 рубль тўлашлари керак бўлган. Айрим солиқларга алоҳида сумма турлари ҳам белгиланди, масалан, солиққа тортилмаган фуқаролар йилига 60 рубль тўлашлари белгилаб қўйилди[9, 22-с.]. 1944 йил 8 августда “бўйдоқ, ёлғиз ва кам болали СССР фуқаролар” солиғи қилиб ўзгартирилган[15, 20-с.]. Солиқ қуйидаги миқдорларда олинган. Даромад солиғи солинадиган ва фарзандлари бўлмаган фуқаролардан, улар оладиган даромадининг 6 фоиз миқдорида, бир фарзандли бўлганлардан 1 фоиз, иккита фарзандлилардан ½ % миқдорида олинган. Шу йилдан бошлаб кам болалилар ҳам солиққа тортилган.

Қишлоқ хўжалик солиғи солинадиган хўжаликлар таркибига кирган колхозчилар, якка хўжаликлар ва бошқа фуқаролардан фарзандлари бўлмаса йилига 150 рубл, бир болаликлар учун 50 рубл ва икки болаликлар учун 25 рублга қилиб белгиланган. Бошқа фуқаролардан фарзандлари бўлмаса, йилига 90 рубл, битта фарзандли бўлса йилига 30 рубл, иккита фарзанди бўлса йилига 15 рубл миқдорида солиқ олинган. Бу ўзгаришдан кейин бериладиган имтиёзларда ҳам ўзгаришлар бўлган. Булар юқоридаги даромад солиғи тўлайдиган ва қишлоқ

хўжалиги солиғи солинадиган хўжаликлар таркибига кирувчи колхозчилар, якка хўжаликлар ва бошқа фуқаролар, фарзандларини боқиш учун давлатдан ёрдам ёки нафақа олаётган хотинлар, фарзандлари жаҳон урушида ҳалок бўлган ёки бедарак йўқолган фуқароларга берилган[10, 3-с.].

1941 йил 29 декабрда СССР Олий Совети Президиумининг “Ҳарбий солиқ тўғрисида[11, 2-с.]”ги Фармони чиқди. Бу солиқни 18 ёшга тўлган СССР фуқаролари тўлаган. Унга кўра минтақаларга қараб 150 рублдан 600 рублгача бўлган миқдорда қатъий белгиланган ҳарбий солиқ жорий қилинди[12, 57-с.]. Ҳарбий солиқ қандай ставка бўйича тўланиши тўловчиларнинг тоифаси ва улар оладиган даромадларга боғлиқ бўлди[13, 48-с.].

Хулоса қиладиган бўлсак, Иккинчи жаҳон уруши даврида ҳам давлат бюджетининг асосий манбаларидан бири солиқ ва йиғимлар бўлган. Ҳар бир республика учун солиқлар уларнинг қайси соҳага ихтисослашганига қараб белгиланган ва давлат бюджетини тўлдириб борган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Совет Социалистик Республикалари Иттифоқининг 1941 йилги давлат бюджети тўғрисида қонун // Қизил Ўзбекистон. 1941 йил 5 март.

2. Государственный бюджет СССР на 1941 год принят Советском Народных Комиссаров СССР. – Ленинград: Народный Комиссариат финансов Союза ССР, 1941. – С. 44-47.

3. Государственный бюджет СССР на 1941 год принят Советском Народных Комиссаров СССР. – Ленинград: Народный Комиссариат финансов Союза ССР, 1941. – С. 36-39.

4. Государственный бюджет СССР на 1941 год принят Советском Народных Комиссаров СССР. – Ленинград: Народный Комиссариат финансов Союза ССР, 1941. – С. 52-55.

5. Григорьев В.В. Эволюция имущественного налогообложения физических лиц в России в XX веке // Евразийская адвокатура. 2018, №1. – С. 11.

6. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 581-йиғмажилд, 15-варақ.

7. Толкушкин А.В. История налогов в России. – Москва: Юристъ, 2001. – С. 252.

8. Григорьев В.В. Эволюция имущественного налогообложения физических лиц в России в XX веке // Евразийская адвокатура. 2018, №1. – С. 12.

9. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 833-йиғмажилд, 20-варақ.

10. СССР Олий Совети Президиумининг фармони. Ҳомиладор хотинларга, кўп болали хотинларга ва эрсиз болали хотинларга давлат ёрдамини кўпайтириш, оналар ва болалар муҳофазасини кучайтириш тўғрисида, “Қаҳрамон она” деган фахрли унвон белгилаш ва “Оналик шуҳрати” ордени ҳамда “Оналик медали” деган медал таъсис этиш тўғрисида // Қизил Ўзбекистон. 1944 йил 11 июль.

11. https://ru.wikisource.org/wiki/. Мурожаат қилинган сана 4 декабрь 2022 йил.

12. Ушак Н.В. Теория и история налогообложения. Учеб пособ. / Н.В.Ушак. – Москва: Кнорус, 2009. – С. 57.

13. Тарасова В.Ф. Семыкина Л.Н., Сапрыкина Т.В. Налоги и налогообложение. – Москва: КНОРУС, 2007. – С. 48.

ZAMONAVIY TA’LIM XUSUSIYATLARI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Rajabov Ilxom Mustafoyevich
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” Aksiyadorlik jamiyati Markaziy kon boshqarmasi, Boshqarma Ofis menejer bo‘limi, Axborot va ma’naviyat – ma’rifat guruhi Rahbari, BuxDPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy ta’lim paradigmalari – raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta’lim – ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida o‘rganilgan. Ta’limning mazmuni, metodologiyasi va qadriyatlar tizimi transformatsiyasi jarayonida inson omilining ustuvorligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim falsafasi, raqamli ta’lim, kompetensiya, uzluksiz ta’lim, innovatsiya, ma’naviyat.*

Globallashuv, raqamli transformatsiya va bilim iqtisodiyoti sharoitida ta’lim tizimi inson kapitalining asosiy omili sifatida yangicha mazmun kasb etmoqda. XXI asrda ta’limning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, mas’uliyatliligi va kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy ta’lim paradigmalari – raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta’lim – insonning ma’naviy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy yo‘nalishlarga aylanmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ta’lim tizimini tubdan isloh qilmasdan turib, jamiyatni yangilash, taraqqiyotga erishish mumkin emas” [1]. Shu bois ta’lim paradigmalari o‘zgarishi falsafiy nuqtayi nazardan ham chuqur tahlilni talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’limning natijaga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi. Bu yondashuv talabalarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kasbiy standartlar va mehnat bozorining talablari asosida shakllantirilgan kompetensiyalar talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy poydevorni yaratadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonini real hayot va ish sharoitlariga yaqinlashtiradi.

“Paradigma” tushunchasi (yunoncha paradeigma – namuna, andoza) T. Kun tomonidan ilmiy tafakkur modeli sifatida izohlangan. Ta’lim paradigmasi esa, o‘z

navbatida, jamiyatda ustuvor bo‘lgan inson, bilim va qadriyatlar haqidagi falsafiy tasavvurlar tizimi hisoblanadi. Ta’limning mazmuni tarix davomida turli falsafiy yondashuvlar asosida shakllangan: antik davrda – axloqiy kamolot, Uyg‘onish davrida – insonparvarlik, Yangi davrda – ratsional tafakkur, XX asrda – tajribaviy o‘qitish va refleksiya. XXI asrda esa ta’limning falsafiy asosi insonni o‘zini rivojlantiruvchi subyekt sifatida anglash g‘oyasiga tayanadi [2]. O‘zbekistonlik faylasuflar – B. Karimov, I. To‘rayev, A. Qodirov – ta’limning falsafiy mohiyatini inson ma’naviyatini yuksaltirish, ijtimoiy ongni yangilash va milliy o‘zlikni mustahkamlash jarayoni sifatida talqin etadilar [3].

Raqamli ta’lim – bu faqat texnologik yangilik emas, balki inson tafakkuri va bilish faoliyatining raqamli shaklga o‘tishi jarayonidir. Bu paradigma axborot falsafasi, texnologik gumanizm va kognitiv muvozanat nazariyalari bilan chambarchas bog‘liq. Raqamli muhitda bilim individual emas, balki tarmoq asosida yaratiladi, “kollektiv aql” (collective intelligence) tamoyili kuchayadi. Shuningdek, raqamli ta’limda shaxsning o‘rganish jarayonidagi roli o‘zgaradi: o‘quvchi – passiv iste’molchi emas, balki faol bilim yaratuvchiga aylanadi [4]. Masalan, O‘zbekistonning “Raqamli ta’lim” milliy dasturi (2022–2026) shaxsni raqamli madaniyat, axborot etikasi va ijodkorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Faylasuf N. Jo‘rayev ta’kidlaganidek, “raqamli tafakkur bu yangi borliqni idrok etish madaniyatidir” [5].

Shu bilan birga, raqamli ta’limning salbiy jihatlarini ham inkor etib bo‘lmaydi. Virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanib qolish, ijtimoiy izolyatsiya, axborot xavfsizligi va raqamli tengsizlik kabi muammolar diqqat markazida bo‘lishi lozim. Shuning uchun raqamli ta’limni amalga oshirishda ehtiyotkorlik va muvozanatni saqlash, texnologiyalarni insoniylik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv — bu inson faoliyatini faqat bilimlar majmuasi emas, balki axloqiy, ijtimoiy va kasbiy mas’uliyat tizimi sifatida tushunishga asoslanadi. Bu yondashuvning falsafiy ildizlari pragmatizm (J. Dyui), ekzistensializm (S. Kierkegaard, J.-P. Sartr), hamda faoliyat falsafasiga borib taqaladi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilim — amaliyotda qo‘llaniladigan, ijtimoiy qiymatga ega bilimdir. O‘zbekiston kontekstida bu yondashuv “Kasb-hunar ta’limi konsepsiyasi” (2021) asosida rivojlanib, shaxsning kasbiy madaniyatini va mehnat etikasi-ni shakllantirishga qaratilgan. Sh. Yusupovning fikricha, “kompetensiyaviy yondashuv – ta’limni insonparvarlashtirishning zamonaviy bosqichidir” [6].

Uzluksiz ta’lim (lifelong learning) – inson hayoti davomida o‘zini takomillashtirish tamoyiliga asoslanadi. Bu paradigma insonni “doimiy o‘quvchi” sifatida tasavvur etadi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv A. Toffler, E. Fromm, J. Delor

kabi mutafakkirlarning “ta’lim – bu hayotning o‘zi” degan g‘oyasiga tayanadi. O‘zbekiston faylasufi M. Xolbekov esa ta’limni “ma’naviy o‘zgarishning ijtimoiy mexanizmi” sifatida talqin etadi [7]. Uzluksiz ta’lim paradigmasi jamiyatning madaniy barqarorligini ta’minlash bilan birga, mehnatsevarlik, mas’uliyat va kasbiy madaniyatni rivojlantiradi.

5. Global tendensiyalar va milliy qadriyatlar uyg‘unligi

Globalizatsiya sharoitida ta’lim qadriyatlari o‘zgarar ekan, har bir millat o‘z ma’naviy negiziga tayanishi zarur. O‘zbekiston ta’lim falsafasi uchun bu — “ma’rifatli jamiyat qurish” g‘oyasidir. Sh. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” tamoyili raqamli transformatsiya, kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta’limni bir butun jarayon sifatida uyg‘unlashtiradi [8].

Shu o‘rinda, kompetensiyaviy yondashuvga alohida e’tibor qaratish zarur. Zamonaviy ta’lim tizimi faqatgina nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, u o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga yordam berishi lozim. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi esa bu borada yangi imkoniyatlar eshiklarini ochmoqda.

“Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, sifatli ta’limni ta’minlash, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish kabi muhim maqsadlarga qaratilgan. Bu maqsadlarga erishish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish, doimiy izlanishda bo‘lish, yangi g‘oyalar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni shakllantirish, shaxsning ma’naviy kamolotiga yo‘naltirilgan bo‘lishi muhim. Sun’iy intellekt va boshqa texnologiyalar ta’lim jarayonida qo‘llanilganda, ularning axloqiy jihatlarini hisobga olish, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasini ta’minlash va texnologiyalarning suiste’mol qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Ta’limning falsafiy asoslarini chuqur anglash va zamonaviy paradigmalarni amaliyotga tatbiq etish orqali biz kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga, ularning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishga erishamiz. Bu jarayonda ta’limning roli nafaqat bilim berish, balki shaxsda mas’uliyat hissini shakllantirish, uning ma’naviy va axloqiy komolotiga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
2. Kun T. Struktura nauchnyx revolyutsiy. – M.: Progress, 1975.
3. Karimov B., To‘rayev I. Oqilona qadriyat mo‘ljallari. – T.: Ma’naviyat, 2015.
4. Jenkins H. Convergence Culture. – New York: NYU Press, 2006.
5. Jo‘rayev N. Raqamli tafakkur falsafasi. – T.: Fan, 2020.
6. Yusupov Sh. Ta’lim va insonparvarlik falsafasi. – T.: Oliy ta’lim, 2021.
7. Xolbekov M. Ma’naviyat va o‘zgarishlar falsafasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O‘zbekiston, 2019.

J. DYUI, L. VIGOTSKIY VA B. ZIMMERMAN NAZARIYALARINING “LIR” MODELIDAGI INTEGRATIV TATBIQI

Suyunova Marjona Xudoyshukur qizi,
E-mail:marjonasuyunova542@gmail.com
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti Madaniyat va san’at sohasi menejmenti
magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda J. Dyuining amaliyot orqali o‘qitish g‘oyasi, L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) kontseptsiyasi va B. Zimmermanning o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish (SRL) nazariyasining “LIR” (Loyiha–Izlanish–Rivojlanish) pedagogik modelida qanday integrativ tarzda tatbiq etilgani IMRAD (Kirish–Metodlar–Natijalar–Muhokama) tuzilishi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida uchala nazariyaning har biri modelning alohida bosqichi va funksiyasiga mos kelishi, ular birgalikda yaxlit mexanizm hosil qilishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *LIR modeli, J. Dyui, L. Vigotskiy, B. Zimmerman, yaqin rivojlanish zonasi, o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish, integrativ pedagogik model.*

Аннотация: *В данных тезисах на основе структуры IMRAD (Введение–Методы–Результаты–Обсуждение) анализируется интегративное применение идеи Дж. Дьюи об обучении через практическую деятельность, концепции зоны ближайшего развития (ZPD) Л.С. Выготского и теории саморегулируемого обучения (SRL) Б. Циммермана в педагогической модели “ЛИР” (Проект–Исследование–Развитие). Результаты показывают, что каждая из трёх теорий соответствует отдельному этапу и функции модели, а вместе они образуют целостный механизм.*

Ключевые слова: *модель ЛИР, Дж. Дьюи, Л. Выготский, Б. Циммерман, зона ближайшего развития, саморегулируемое обучение, интегративная педагогическая модель.*

Abstract *: This thesis analyzes, within an IMRAD (Introduction–Methods–Results–Discussion) structure, how J. Dewey's idea of learning by doing, L.S. Vygotsky's Zone of Proximal Development (ZPD) concept, and B. Zimmerman's Self-Regulated Learning (SRL) theory are integratively applied within the “LIR” (Project–*

Research–Development) pedagogical model. The results demonstrate that each of the three theories corresponds to a distinct stage and function of the model, together forming a coherent mechanism.

***Keywords**: LIR model, J. Dewey, L. Vygotsky, B. Zimmerman, zone of proximal development, self-regulated learning, integrative pedagogical model.*

KIRISH

Zamonaviy pedagogika nazariyasida talabalarning mustaqil o‘quv-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan modellar ko‘pincha bitta nazariy manbaga tayanadi, bu esa ularning yaxlit psixologik-pedagogik mexanizmini cheklab qo‘yadi. “LIR” (Loyiha–Izlanish–Rivojlanish) modeli esa uchta klassik nazariyani — J. Dyuining amaliy faollik g‘oyasini, L. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasini va B. Zimmermanning o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish nazariyasini — bir tizimga birlashtirishga urinadi.Ushbu integratsiyaning ilmiy asoslanganligi, ya’ni har bir nazariyaning modelda aniq funksional o‘rniga ega ekanligini isbotlash dolzarb ilmiy-nazariy vazifadir. Tadqiqot maqsadi — uch nazariyaning “LIR” modelidagi integrativ tatbiqini tizimli tahlil qilish va ularning har birining modeldagi funksional o‘rnini aniqlashdan iborat.**Vazifalari esa quyidagilar:** har bir nazariyaning asosiy g‘oyasini qisqacha tavsiflash; ularning LIR modelining qaysi bosqichi va funksiyasiga mos kelishini aniqlash; uch nazariyaning integratsiyalashuv mexanizmini modellashtirish; integratsiyaning ilmiy-nazariy ahamiyatini asoslash.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, J. Dyuining amaliy faollik g‘oyasi va L. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi pedagogika tarixida alohida-alohida keng o‘rganilgan, biroq ularni B. Zimmermanning zamonaviy o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish nazariyasi bilan bitta amaliy pedagogik modelda birlashtirish borasidagi ishlar hali yetarlicha emas. Aynan shu bo‘shliq ushbu tadqiqotning ilmiy zaruratini belgilaydi.

METODLAR

Tadqiqotda nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi: manbashunoslik tahlili (J. Dyui, L. Vigotskiy va B. Zimmermanning asosiy asarlari o‘rganildi), qiyosiy-solishtirma tahlil (uch nazariyaning asosiy tushunchalari o‘zaro solishtirildi) va kontseptual modellashtirish (nazariyalar LIR modelining bosqichlari bilan mosligi jadval ko‘rinishida tizimlashtirildi).

Tahlil ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda har bir nazariyaning LIR modelining qaysi bosqichiga (Loyiha, Izlanish, Rivojlanish) mos kelishi umumiy darajada aniqlandi. Ikkinchi bosqichda esa besh bosqichli skaffolding jadvalining har

bir pog‘onasi uch nazariya nuqtai nazaridan — Dyuining qarashlari bo‘yicha mazmuniy tavsif, Vigotskiyning qarashlari bo‘yicha pedagogik yordam darajasi va Zimmerman qarashlari bo‘yicha o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish (SRL) fazasi bo‘yicha — batafsil tahlil qilindi. Tanlangan metodologiya sifat tadqiqotlari uchun xos bo‘lgan kontseptual-analitik yondashuvga asoslanadi va empirik mal’umot yig‘ishni emas, balki mavjud nazariy bilimlarni yangi tizimga integratsiya qilishni maqsad qiladi.

NATIJALAR

Tahlil natijasida uch nazariyaning LIR modelidagi funksional taqsimoti aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. Uch nazariyaning “LIR” modelidagi funksional taqsimoti

Nazariya	Asosiy g‘oyasi	LIR bosqichi	Funksiyasi
J. Dyui	Amaliyot orqali o‘qitish (learning by doing)	Loyiha	Faollikning mazmunini belgilaydi
L. Vigotskiy	Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD)	Izlanish	Pedagogik yordam me’yorini belgilaydi
B. Zimmerman	O‘z-o‘zini boshqarib o‘qish (SRL)	Rivojlanish	Mustaqillik mexanizmini belgilaydi

J. Dyuining g‘oyasi asosan “Loyiha” bosqichida — muammoni amaliy tajriba orqali his qilish va loyihalashtirishda namoyon bo‘ladi hamda talaba faoliyatining mazmunini belgilaydi. L. Vigotskiyning ZPD kontseptsiyasi “Izlanish” bosqichidagi pedagogik yordam darajasini, ya’ni o‘qituvchi qanchalik faol ishtirok etishi kerakligini belgilaydi. B. Zimmermanning SRL nazariyasi esa “Rivojlanish” bosqichidagi refleksiya va o‘z-o‘zini baholash jarayonlarini tushuntiradi.

Yanada batafsil tahlil natijasida besh bosqichli skaffolding jadvalining har bir pog‘onasi uch nazariya nuqtai nazaridan tavsiflandi (2-jadval).

2-jadval. Skaffolding bosqichlarining uch nazariya nuqtai nazaridan tavsifi

Bosqich	Dyuicha mazmun	Vigotskiy qarashlari bo‘yicha yordam darajasi	Zimmerman qarashlari bo‘yicha SRL fazasi
I	Muammoni amaliy tajriba orqali his qilish	Yuqori (80%)	Oldindan o‘ylash (forethought)
II	Faoliyat rejasini amaliy sinash	O‘rtadan yuqori (65%)	Oldindan o‘ylash → bajarish
III	Mustaqil tajriba va izlanish	O‘rta (45%)	Bajarish (performance)

IV	Natijani amaliy taqdim etish	Past (25%)	Bajarish → o‘z-o‘zini nazorat
V	Tajribani refleksiv anglash	Minimal (10%)	O‘z-o‘zini refleksiya qilish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Zimmermanning SRL fazalari (oldindan o‘ylash, bajarish, o‘z-o‘zini refleksiya qilish) modelning barcha besh bosqichi davomida izchil rivojlanib boradi, bu esa uning modeldagi “gorizontal” (uzluksiz) integratsiyalashgan rolini ko‘rsatadi, Vigotskiyning yordam darajasi esa bosqichdan bosqichga kamayib boruvchi “vertical” o‘zgaruvchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Integratsiya mexanizmining nazariy asoslanganligi

Uch nazariyaning LIR modelidagi integratsiyasi tasodifiy birlashtirish emas, balki ularning har biri o‘quv-tadqiqot faoliyatining turli o‘lchamlarini tushuntirishga ixtisoslashganligi bilan izohlanadi. Dyui faoliyatning “nima uchun” va “nima orqali” sodir bo‘lishini — ya’ni uning amaliy-tajribaviy tabiatini — tushuntiradi. Vigotskiy esa faoliyatning “kim bilan” va “qanday yordamda” sodir bo‘lishini, ya’ni uning ijtimoiy-vositachilik tabiatini ochib beradi. Zimmerman esa faoliyatning “qanday boshqarilishini” — o‘quvchining o‘z ichki jarayonlarini nazorat qilish mexanizmini — tavsiflaydi.

Ushbu uch o‘lcham — mazmuniy, ijtimoiy va boshqaruvchi — birgalikda o‘quv-tadqiqot faoliyatining to‘liq siklini qamrab oladi, bu esa nima uchun aynan shu uch nazariya tanlanganligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Agar bitta nazariya olib tashlansa, model faoliyatning tegishli o‘lchamini tushuntira olmay qoladi: masalan, Vigotskiysiz model pedagogik yordamning me’yorini asoslay olmaydi, Zimmermansiz esa mustaqillikka o‘tish mexanizmi ochiq qolib ketadi.

Integratsiyaning chegaralari va cheklovlari

Shu bilan birga, uch nazariyani integratsiya qilish bir qator metodologik ehtiyotkorlikni talab etadi. Birinchidan, Vigotskiyning ZPD kontseptsiyasi dastlab bola rivojlanishi kontekstida ishlab chiqilgan bo‘lib, uni katta yoshdagi talabalar ta’limiga tatbiq etishda yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ikkinchidan, Zimmermanning SRL nazariyasi asosan individual o‘rganish jarayoniga qaratilgan bo‘lib, uni loyihaviy-guruhaviy faoliyatga moslashtirish qo‘shimcha nazariy asoslashni talab qiladi. Uchinchidan, Dyuining amaliy faollik g‘oyasi umumiy didaktik tamoyil bo‘lib, uni aniq baholanadigan pedagogik mexanizmga aylantirish uchun qo‘shimcha operatsionalizatsiya zarur bo‘ladi.

Ushbu cheklovlar LIR modelida qanday bartaraf etilgani alohida e'tiborga loyiq: model har bir nazariyani “sof” holda emas, balki uning LIR kontekstiga

moslashtirilgan, operatsionalizatsiya qilingan variantida qo‘llaydi — masalan, ZPD besh bosqichli aniq foizli skaffolding jadvaliga aylantirilgan, SRL esa individual emas, balki loyiha jamoasi darajasidagi refleksiya protsedurasiga moslashtirilgan.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, uch nazariyaning LIR modelidagi integratsiyasi tasodifiy emas, balki har biri model faoliyatining alohida jihatini - mazmunini (Dyui), pedagogik yordam darajasini (Vigotskiy) va ichki mustaqillashtirish mexanizmini (Zimmerman) - tushuntiruvchi qat’iy funksional taqsimotga ega. Bu, o‘z navbatida, modelning nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham puxta asoslanganligini tasdiqlaydi.

Ushbu natija ilgari alohida-alohida qo‘llanilgan uch nazariyani bitta amaliy pedagogik vositaga aylantirish mumkinligini ko‘rsatgani bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, integratsiyaning chegaralari ham mavjud: masalan, Zimmermanning SRL nazariyasi asosan individual o‘rganish konteksti uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, uni guruhda loyiha faoliyatiga tatbiq etishda qo‘shimcha moslashtirish talab etiladi. Bu esa keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan solishtirganda, J.W. Tomasning loyihaviy ta’lim bo‘yicha umumlashtiruvchi tahlilida ham nazariy asoslarning aniq ta’riflanishi model samaradorligining muhim sharti sifatida ta’kidlangan, bu esa ushbu tadqiqot natijalarini tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, J. Dyui, L. Vigotskiy va B. Zimmerman nazariyalari “LIR” modelida tasodifiy emas, balki har biri o‘ziga xos funksional vazifani bajaruvchi tarzda integratsiyalashgan: Dyui faoliyat mazmunini, Vigotskiy pedagogik yordam me’yorini, Zimmerman esa mustaqillikning ichki psixologik mexanizmini belgilaydi. Ushbu uch komponentli integratsiya modelning ilmiy-nazariy asoslanganligini ta’minlaydi va uni boshqa integrativ pedagogik modellarni ishlab chiqishda namuna sifatida qo‘llash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey, J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938.

2. Dewey, J. Democracy and Education. — New York: Macmillan, 1916.

3. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4. Zimmerman, B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.

5. Zimmerman, B.J., Schunk, D.H. (Eds.). Handbook of Self-Regulation of Learning and Performance. — New York: Routledge, 2011.

6. Thomas, J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. — San Rafael, CA: The Autodesk Foundation, 2000.

O'ZBEKISTON BOKS FEDERATSIYASI USTAVINING (ESKI TAHRIR, 2014 YIL) TASHKILIY-HUQUQIY TAHLILI

Tillaboyev Shoxid Gapparjonovich
O'zbekiston boks federatsiyasi bosh kotibi

ANNOTATSIYA. *Ushbu tezisda O'zbekiston Boks Federatsiyasining 2014 yilda tasdiqlangan Ustavi (eski tahrir) hujjatli kontent-tahlil metodi asosida tashkiliy-huquqiy jihatdan o'rganiladi. Federatsiyaning maqsad-vazifalari, a'zolik tartiboti, huquq va majburiyatlari, hududiy bo'limlari, mulkiy-moliyaviy asoslari hamda umumiy huquq-majburiyatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Natijalar Ustavning milliy qonunchilik va xalqaro bokc tashkilotlari (AIBA/IBA, XOQ) me'yorlariga muvofiqligini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *bokc federatsiyasi; ustav; tashkiliy-huquqiy tahlil; a'zolik; jamoat birlashmasi; hujjatli tahlil.*

ABSTRACT. *This thesis presents an organizational-legal analysis of the Charter of the Uzbekistan Boxing Federation (former edition, approved in 2014), based on a document content-analysis method. The Federation's aims and objectives, membership procedures, rights and obligations, territorial branches, and property-financial foundations are examined systematically. The results confirm the Charter's compliance with national legislation and the norms of international boxing organizations (AIBA/IBA, IOC).*

Keywords: *boxing federation; charter; organizational-legal analysis; membership; public association; document analysis.*

KIRISH. Milliy sport federatsiyalarining ustav hujjatlari ularning tashkiliy tuzilmasi, huquqiy maqomi hamda xalqaro sport harakati bilan o'zaro munosabatlarini belgilovchi asosiy manba hisoblanadi. Bunday hujjatlarning sifati va aniqligi nafaqat tashkilotning ichki barqarorligiga, balki uning xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tan olinishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi o'n yillikda xalqaro sport boshqaruvi mavzusidagi tadqiqotlar sezilarli darajada kengaydi. Geeraert [2] milliy federatsiyalarning boshqaruv sifatini baholovchi "National Sports Governance Observer" instrumentini ishlab chiqib, ko'plab tashkilotlarda shaffoflik, hisobdorlik va ichki demokratik jarayonlar bo'yicha jiddiy kamchiliklar mavjudligini aniqladi.

Chappelet va Mrkonjic [3] esa xalqaro sport tashkilotlari uchun "yaxshi boshqaruv" darajasini o'lchash imkonini beruvchi BIBGIS (Basic Indicators for Better Governance in International Sport) tizimini taklif etib, shaffoflik, demokratik saylov jarayonlari va ichki nazoratni asosiy mezonlar sifatida belgiladilar. Geeraert, Alm va Groll [4] Olimpiya harakatiga a'zo 35 ta xalqaro federatsiyaning ustav va boshqaruv hujjatlarini qiyosiy tahlil qilib, ularning aksariyatida mansab muddatiga cheklov, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va gender vakillik kabi zamonaviy boshqaruv tamoyillari to'liq aks etmaganini ko'rsatdilar. Chappelet [5] xalqaro sport tashkilotlarining institutsional islohotga muhtojligini asoslab, ularning boshqaruv hujjatlarini davriy yangilab borish zarurligini ta'kidladi. Ushbu tadqiqotlar federatsiya ustavining sifati va shaffofligi uning institutsional barqarorligiga bevosita ta'sir qilishini isbotlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston milliy sport federatsiyalarining ustav hujjatlari bo'yicha maxsus ilmiy tahlillar hozircha yetarlicha yoritilmagan, bu esa mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borish zaruratini keltirib chiqaradi. O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati 1991 va 1999 yillarda qabul qilingan tegishli qonunlar [6; 7] bilan tartibga solinadi, ammo alohida sport federatsiyalari ustavlarining ushbu qonunchilik va xalqaro sport tashkilotlari me'yorlariga qanchalik mos kelishi masalasi ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. O'zbekiston Boks Federatsiyasi (O'BF) mamlakatimizda olimpik boksni boshqarish va rivojlantirishda maxsus vakolatga ega yagona nodavlat notijorat tashkiloti sifatida faoliyat yuritadi. Federatsiyaning amaldagi (yangi tahrirdagi) Ustavidan oldin qo'llanilgan 2014 yilgi tahrir dastlab 1992 yilda Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tgan, 1997 yilda esa qayta ro'yxatdan o'tgan bo'lib, uzoq davr mobaynida Federatsiya faoliyatining huquqiy asosini tashkil etgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari nafaqat O'BF, balki boshqa milliy sport federatsiyalarining ustav hujjatlarini takomillashtirishda, ularni xalqaro yaxshi boshqaruv standartlariga moslashtirishda amaliy tavsiyalar sifatida foydalanilishi mumkin. Ushbu tezisning maqsadi – mazkur eski tahrirdagi Ustavning tarkibiy tuzilmasi va mazmunini sistemali tahlil qilish, uning milliy qonunchilik hamda xalqaro bokc tashkilotlari me'yorlariga mosligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: Ustavning tarkibiy tuzilmasi qanday mantiqqa asoslangan? A'zolik va hududiy bo'limlarga oid qoidalar qay darajada aniq reglamentlashtirilgan? Hujjat milliy qonunchilik va xalqaro me'yorlarga qay darajada mos keladi?

MATERIAL VA METODLAR. Tadqiqot obyekti sifatida "O'zbekiston boks federatsiyasining Ustavi" (eski tahrir, Toshkent – 2014 y.) hujjati tanlandi. Hujjat 18 ta bobdan iborat bo'lib, Federatsiya raisining birinchi o'rinbosari M.K. Babayev

tomonidan imzolangan. Tadqiqot metodi sifatida hujjatli kontent-tahlil (document content analysis) qo'llanildi: har bir bob alohida ko'rib chiqilib, uning mazmuni quyidagi kategoriyalarga bo'lib o'rganildi: (1) umumiy qoidalar va rasmiy maqom; (2) maqsad, vazifa va funktsiyalar; (3) a'zolik tartiboti hamda a'zolarning huquq-majburiyatlari; (4) hududiy bo'limlar; (5) Federatsiyaning umumiy huquq va majburiyatlari; (6) mulkiy-moliyaviy asoslar; (7) qayta tashkil etish va tugatish tartibi. Kategoriyalar tanlovi Chappelet va Mrkonjic [3] tomonidan taklif etilgan BIBGIS tizimidagi tuzilmaviy shaffoflik va hisobdorlik mezonlariga asoslangan holda amalga oshirildi. Tahlil davomida hujjat matni O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi [6] va "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi [7] qonunlari, shuningdek Olimpiya Xartiyasi [8] va IBA (sobiq AIBA) Ustavining umumiy tamoyillari bilan qiyosiy kontekstda baholandi. Kategoriyalar bo'yicha aniqlangan qoidalar Ustav moddalari (band raqamlari) bilan bog'liq holda hujjatlashtirildi, bu esa natijalarning tekshirilishi va qayta tiklanishini ta'minlaydi. Tadqiqot doirasi faqat 2014 yilgi eski tahrirdagi Ustav bilan chegaralangan bo'lib, uni amaldagi yangi tahrir bilan to'liq qiyoslash ushbu tezis doirasidan tashqarida qoldirildi va kelgusi tadqiqotlar mavzusi sifatida belgilandi; xuddi shuningdek, Ustavning boshqaruv organlari va nazorat tizimiga oid batafsil institutsional tahlili alohida tezis doirasida ko'rib chiqiladi. Metodning cheklovi sifatida shuni ta'kidlash lozimki, kontent-tahlil sifatiy xususiyatga ega bo'lib, natijalar bitta tadqiqotchi tomonidan kodlashtirilgan; shu sababli kelgusida bir nechta ekspert ishtirokida kod ishonchliligini tekshirish tavsiya etiladi. Hujjatning davlat ro'yxatidan o'tish bosqichlari (1992, 1997 va 2014 yillar) 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. O'zbekiston Boks Federatsiyasi Ustavining ro'yxatga olinish tarixi (manba: tahlil qilingan hujjat matni)

NATIJALAR. Ustavning tarkibiy tuzilmasi 18 ta bobni o'z ichiga oladi: umumiy qoidalar; Federatsiyaning asosiy maqsad va vazifalari; asosiy funktsiyalar; a'zolikka qabul qilish va a'zolikdan mahrum etish shartlari; hududiy bo'limlar; Federatsiya huquqlari; Federatsiya majburiyatlari; tuzilma va rahbar organlar; ovoz berish tartibi;

Ijroiya qo'mita; Federatsiya Raisi; Bosh kotib; Murabbiylar kengashi; mulk va pul mablag'larini shakllantirish manbalari; Nazorat-taftish komissiyasi; qayta tashkil etish va tugatish; Ustavga o'zgartirish kiritish tartibi; yakuniy qoidalar. Ushbu tuzilma umumiy qoidalardan boshlab, maqsad-vazifalar, a'zolik, boshqaruv va nihoyat tugatish tartibigacha bo'lgan mantiqiy izchillikka ega, bu esa xalqaro amaliyotda keng tarqalgan ustav qurilish sxemasiga mos keladi. I bob (1.1–1.14) Federatsiyaning huquqiy maqomini belgilaydi: u O'zbekistonda olimpik boksni boshqarishda maxsus vakolatga ega yagona nodavlat notijorat tashkiloti bo'lib, AIBA, Kontinental Boks Konfederatsiyasi va Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tarkibida namoyon bo'ladi (1.1). Federatsiya barcha a'zolari uchun jinsi, irqi, millati, tili, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar teng huquq va majburiyatlarni kafolatlaydi (1.8). II bobda olti asosiy maqsad va yettita vazifa (2.1–2.2) sanalgan bo'lib, ular orasida olimpik boksni rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda AIBA/JBS/APB texnik qoidalariga rioya qilish alohida o'rin tutadi. III bobda Federatsiyaning o'n uchta asosiy funktsiyasi (3.1–3.13) sanab o'tilgan, jumladan xalqaro va respublika musobaqalarini tashkillashtirish, murabbiy va hakamlar attestatsiyasi, sport delegatsiyalarini shakllantirish, hamda chet el federatsiyalari bilan shartnomalar tuzish. IV bobga ko'ra, Federatsiyaga a'zolik ixtiyoriy va cheklanmagan bo'lib, 18 yoshdan oshgan jismoniy shaxslar hamda jamoalar a'zo bo'lishi mumkin (4.1). A'zolikdan mahrum etishning to'rtta asosi (vafot etish, fuqarolikni o'zgartirish, Olimpiya xartiyasi qoidalarini buzish, Federatsiya organi qarori – 4.5.1–4.5.4) hamda a'zolarning o'nta huquqi (saylash va saylanish, loyihalar ishlab chiqishda ishtirok etish, musobaqalarda qatnashish, sport razryadi olish, axborot olish, o'quv-uslubiy resurslardan foydalanish, ixtiyoriy chiqish va boshqalar – 4.6.1–4.6.10) va oltita majburiyati (Ustav talablariga rioya qilish, xavfsizlik qoidalariga amal qilish, dopingga qarshi nazoratdan o'tish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish – 4.8.1–4.8.6) aniq reglamentlashtirilgan. V bob Federatsiyaning hududiy bo'limlariga bag'ishlangan: mintaqaviy, viloyat va shahar bo'limlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin, ammo ularning barchasi markaziy Ustav va Ijroiya qo'mita tomonidan tasdiqlangan nizom asosida faoliyat yuritadi (5.1–5.8). VI bobda Federatsiyaning umumiy huquqlari sanalgan: a'zolari manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, davlat organlariga takliflar kiritish, ommaviy axborot vositalarini tashkil etish, tadbirkorlik tuzilmalarini yaratish hamda o'z ramziy belgilariga ega bo'lish. VII bobda esa Federatsiyaning majburiyatlari — qonun hujjatlariga rioya etish, mol-mulk va pul mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi ma'lumot bilan tanishish erkinligini ta'minlash, ro'yxatga oluvchi hamda soliq va statistika organlariga hisobot taqdim etish — belgilangan. VIII–XIII boblarda

Federatsiyaning boshqaruv organlari (Konferentsiya, Ijroiya qo'mita, Rais, Bosh kotib, Murabbiylar kengashi) tavsiflangan bo'lib, ularning vakolatlari va o'zaro munosabatlari alohida institutsional tahlil doirasida batafsil ko'rib chiqiladi. Umumiy jihatdan, Federatsiyaning oliy organi Konferentsiya hisoblanadi va u har 4 yilda hisobot-saylov, har 2 yilda esa oddiy tartibda chaqiriladi (8.1); konferentsiyalar oralig'ida umumiy rahbarlikni tarkibi 15 kishidan oshmaydigan Ijroiya qo'mita amalga oshiradi (10.1), moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni esa kamida 3 kishidan iborat Nazorat-taftish komissiyasi olib boradi (15.1–16.4). Bu uch pog'onali tuzilma — Konferentsiya, Ijroiya qo'mita va Nazorat-taftish komissiyasi — hokimiyat taqsimoti tamoyiliga asoslangan bo'lib, xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan boshqaruv modeliga mos keladi. XIV bobda mulk va pul mablag'larining to'qqizta manbai (homiylik, a'zolik badallari, davlat granti, tadbirkorlik daromadi va boshqalar) sanalgan bo'lib, mablag'lardan foydalanish faqat Ustav maqsadlariga muvofiq amalga oshirilishi shart (14.1–14.9). XVI bobga ko'ra, Federatsiyani qayta tashkil etish yoki tugatish delegatlar ovozining kamida uchdan ikki qismi bilan qabul qilinadigan Konferentsiya qarori orqali amalga oshiriladi, tugatishda esa kreditorlar talabi qondirilgandan so'ng qolgan mol-mulkning Federatsiya a'zolari o'rtasida taqsimlanishi qat'iyan taqiqlanadi (16.1–16.3).

MUHOKAMA. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Ustavning barcha asosiy jihatlari — maqsad-vazifalardan tortib tugatish tartibigacha — milliy qonunchilik [6; 7] va xalqaro bokc harakati tamoyillari [8] bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan. Xususan, Federatsiyaning kamsitmaslik tamoyili (1.8), a'zolik huquq-majburiyatlarining batafsil reglamentlanishi (4.6–4.8) hamda hududiy bo'limlarning aniq huquqiy maqomi (5.1–5.8) hujjatning kuchli tomonlari sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy "yaxshi boshqaruv" standartlari [3; 4] nuqtai nazaridan qaraganda, Ustavda bir qator jihatlar — jumladan, gender vakillikka oid aniq kvota yoki ko'rsatkichlar, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini (conflict of interest) tartibga soluvchi alohida modda — maxsus ajratilmagan. Bu, Geeraert, Alm va Groll [4] tomonidan o'rganilgan 35 ta xalqaro federatsiyaning aksariyatida kuzatilgan umumiy tendentsiya bilan mos keladi. Federatsiyaning markaziy apparat va hududiy bo'limlar o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti (V bob) markazlashgan nazorat bilan mahalliy avtonomiya o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu Chappelet va Mrkonjic [3] taklif etgan BIBGIS tizimidagi "tuzilmaviy shaffoflik" mezoniga mos keladi. Mulkiy-moliyaviy manbalarning xilma-xilligi (XIV bob) Federatsiyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi, biroq bu mablag'lardan foydalanish ustidan mustaqil tashqi audit talabining Ustavda alohida modda sifatida nazarda tutilmaganligi kelgusi tahrirlarda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihat

hisoblanadi. Chappelet [5] ta'kidlaganidek, xalqaro sport tashkilotlari o'z boshqaruv hujjatlarini davriy ravishda yangilab borishi zarur; ushbu nuqtai nazardan, 2014 yilgi Ustavning keyinchalik yangi tahrir bilan almashtirilgani Federatsiyaning institutsional rivojlanish jarayoniga mos kelishini ko'rsatadi. Amaliy tavsiya sifatida, kelgusi ustav tahrirlariga gender vakillik ko'rsatkichlari, manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish talabi hamda mustaqil tashqi audit mexanizmini kiritish tavsiya etiladi. Kengroq kontekstda qaraganda, O'zbekistonda jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari sektori 1990-yillarning boshidan buyon izchil qonunchilik asosida rivojlanib kelmoqda [6; 7], biroq alohida sport federatsiyalarining ustav hujjatlari sifatini xalqaro standartlar asosida tizimli baholash amaliyoti hozircha shakllanmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur tahlil boshqa milliy sport federatsiyalari — jumladan kurash, dzyudo va boks kabi Olimpiya turlari bo'yicha federatsiyalar — uchun o'z ustav hujjatlarini takomillashtirishda amaliy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilishi mumkin. Metodologik jihatdan, kelgusi tadqiqotlarda BIBGIS [3] indikatorlari asosida miqdoriy ballash tizimini qo'llash tavsiya etiladi: bunda har bir mezon (shaffoflik, hisobdorlik, demokratik jarayonlar, ichki nazorat) bo'yicha Ustav moddalari ballarga ajratilib, umumiy boshqaruv indeksi hisoblab chiqiladi. Bunday yondashuv sifatiy kontent-tahlilni miqdoriy ko'rsatkichlar bilan boyitib, milliy federatsiyalar o'rtasida qiyosiy reyting tuzish imkonini beradi.

XULOSA. O'zbekiston Boks Federatsiyasining 2014 yilgi eski tahrirdagi Ustavi Federatsiya faoliyatining huquqiy asosini mustahkam belgilab bergan, 18 bob bo'yicha maqsad-vazifalardan tortib qayta tashkil etish tartibigacha bo'lgan barcha jihatlarni qamrab olgan kompleks hujjat sifatida baholanishi mumkin. Hujjat milliy qonunchilik va xalqaro bokc tashkilotlari me'yorlarining uyg'unligini namoyish etadi, ayniqsa a'zolik huquq-majburiyatlari va hududiy bo'limlar maqomining batafsil reglamentlanishi uning kuchli tomonlari qatoriga kiradi. Shu bilan birga, gender vakillik va manfaatlar to'qnashuvi kabi zamonaviy boshqaruv tamoyillarini keyingi tahrirlarga kiritish tavsiya etiladi. Olingan natijalar milliy sport federatsiyalarining ustav hujjatlarini qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganishda, shuningdek eski va yangi tahrirlar o'rtasidagi o'zgarishlarni baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar Ustavning boshqaruv organlariga oid qismini institutsional nuqtai nazardan chuqurroq tahlil qilishga hamda eski va yangi tahrirlarni tizimli qiyoslashga qaratilishi mumkin. Boshqaruv nuqtai nazaridan, tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Sport va turizm vazirligi hamda Milliy Olimpiya qo'mitasi uchun milliy federatsiyalar ustav hujjatlarini monitoring qilish bo'yicha yagona metodik ko'rsatmalar ishlab chiqishda dastlabki asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston boks federatsiyasining Ustavi (eski tahrir). – Toshkent, 2014. – 13 b.

2. Geeraert A. National Sports Governance Observer: Final Report. – Copenhagen: Play the Game/Danish Institute for Sports Studies, 2018.

3. Chappelet J-L., Mrkonjic M. Basic Indicators for Better Governance in International Sport (BIBGIS): An Assessment Tool for International Sport Governing Bodies. – IDHEAP Working Paper, 2013.

4. Geeraert A., Alm J., Groll M. Good governance in international sport organizations: an analysis of the 35 Olympic sport governing bodies. International Journal of Sport Policy and Politics, 2014, 6(3), 281-306.

5. Chappelet J-L. Beyond governance: the need to overhaul international sport. Sport in Society, 2016, 19(1), 8-13.

6. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1999.

7. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1991.

8. International Olympic Committee. Olympic Charter. – Lausanne: IOC, 2023.

SUN’IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNING HUQUQIY TABIATI VA AN’ANAVIY SHARTNOMA NAZARIYASI BILAN MUNOSABATI

Sodiqjonova Sevinch
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistranti
sodiqjonovasevinch4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarning huquqiy tabiati va uning an’anaviy shartnoma nazariyasi bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Unda shartnomaning oferta va aksept, taraflarning erk-irodasi, subyektivligi hamda majburiyatlarni ijro etish kabi fundamental elementlarining sun’iy intellekt ishtirokidagi munosabatlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanish natijasida shartnoma tuzish jarayonida yuzaga kelayotgan yangi huquqiy masalalar, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilash hamda javobgarlik masalalarini huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi shartnoma huquqining an’anaviy yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy huquqiy mexanizmlarni shakllantirishni taqozo etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, shartnomaviy munosabatlar, shartnoma huquqi, oferta, aksept, erk-iroda, subyektivlik, shartnoma tuzish, huquqiy javobgarlik.

Аннотация: В данной статье анализируется правовая природа договорных отношений с участием искусственного интеллекта и их взаимосвязь с традиционной теорией договора. Рассматриваются особенности проявления таких фундаментальных элементов договора, как оферта и акцепт, волеизъявление сторон, субъективность и исполнение обязательств, в условиях использования технологий искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется новым правовым вопросам, возникающим в процессе заключения договоров с участием искусственного интеллекта, а также необходимости определения прав и обязанностей сторон и совершенствования механизмов правовой ответственности. В результате исследования обосновывается вывод о

том, что развитие технологий искусственного интеллекта требует пересмотра традиционных подходов договорного права и формирования современных механизмов правового регулирования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, договорные отношения, договорное право, оферта, акцепт, волеизъявление, субъективность, заключение договора, юридическая ответственность.

Abstract: This article analyzes the legal nature of contractual relations involving artificial intelligence and their interaction with the traditional theory of contracts. It examines the specific features of fundamental contractual elements, including offer and acceptance, the expression of the parties' will, subjectivity, and the performance of obligations, in the context of artificial intelligence technologies. Particular attention is paid to emerging legal issues related to the conclusion of contracts involving artificial intelligence, as well as the need to define the rights and obligations of the parties and improve mechanisms of legal liability. The study concludes that the development of artificial intelligence technologies requires a reconsideration of traditional approaches to contract law and the development of modern legal regulatory mechanisms.

Keywords: artificial intelligence, contractual relations, contract law, offer, acceptance, expression of will, subjectivity, contract formation, legal liability.

Hozirgi axborot texnologiya asrida sun'iy intellekt (keying o‘rinlarda SI) texnologiyalari shartnomaviy munosabatlarning shartnoma tuzishdan boshlab ijro etish va nizolarni hal qilishgacha ishtirok etmoqda. Bu holat an'anaviy shartnoma nazariyasini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Shartnomaviy munosabatlarning tarixiy taraqqiyoti uning jamiyatdagi o‘rnini belgilab berdi. Shu asosda shartnomaning asosiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin: Jamiyatdagi turli munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish;

1. Iqtisodiyot tizimida hamda boshqa tarmoqlardagi subyektlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni va bog‘liqlikni ta'minlash;
2. Kelishuv ishtirokchilarining shaxsiy manfaatlarini muvofiqlashtirish orqali umumiy va mushtarak maqsadlarni shakllantirish;
3. Shartnoma tomonlarining qonuniy huquq hamda manfaatlarini muhofaza qilishga xizmat qiluvchi fundamental yuridik hujjat vazifasini o‘tash.

Shartnomaning funksional ahamiyati unga berilgan ta'riflar va nazariy yondashuvlar orqali yanada oydinlashadi.M. Braginskiy va V. Vitryanskiy kabi huquqshunos olimlarning fikricha, shartnoma tushunchasiga ta'rif berishda, eng avvalo, qonunchilik va shartnoma o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni belgilab olish

zarur. Ularning tahlillariga ko‘ra, mazkur holatda uch xil konseptual yondashuv mavjud.

“Erk - iroda nazariyasi” ga asosan, tarafdorlarining qarashlariga binoan, shartnoma tuzayotgan tomonlarning xohish - irodasi asosiy omil hisoblanadi. Qonun esa ushbu omilga qo‘shimcha kirituvchi yoki uni ma’lum darajada cheklovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

“Qonun ustuvorligi nazariyasi”ga muvofiq, shartnoma mustaqil kuchga ega emas, balki qonunchilikdan kelib chiqadigan huquqiy oqibatni, ya’ni samarani ifodalaydi, xolos.

Empirik nazariyaga ko‘ra, tomonlarning xohish - irodasi ongli ravishda faqat muayyan iqtisodiy samaraga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, bunday vaziyatda shartnomaning huquqiy oqibatlari ushbu iqtisodiy samarani ro‘yobga chiqarish vositasi sifatida talqin qilinadi. Tomonlar mazkur yuridik oqibatlar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmasliklari ham mumkin va amaliyotda ko‘pincha shunday bo‘ladi[52]. Mazkur nazariy yondashuvlar O‘zbekiston qonunchiligidao‘z aksini topgan. Biroq sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi an'anaviy shartnoma tushunchasini yangicha talqin qilishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 353-moddasida “shartnoma tushunchasi” ga ta’rif berilgan bo‘lib, uning mazmuniga ko‘ra, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deb ataladi[53]. Shaxslar esa O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1-moddasining ikkinchi qismiga asosan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari fuqarolar (jismoniy shaxslar) hamda yuridik shaxslar hisoblanadi. Ular fuqarolik huquqlariga o‘z xohish-irodasiga muvofiq ravishda ega bo‘ladilar va ushbu huquqlarni o‘z manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiradilar. Shuningdek, taraflar shartnoma asosida o‘z huquq va majburiyatlarini mustaqil ravishda belgilashda hamda qonunchilik talablariga zid bo‘lmagan istalgan shartnoma shartlarini aniqlashda erkin hisoblanadilar. Shu sababli shartnoma huquqining asosiy tamoyillari sifatida shartnoma erkinligi, shartnoma ishtirokchilarining insofliligi, shartnoma shartlarining oqilonaligi va tomonlar manfaatlarining muvozanatini ta’minlash, shuningdek, shartnoma intizomiga qat’iy

[52]Брагинский М., Витрянский М. Договорное право. –М.: 1997. –9-стр. Available at: https://library.nlu.edu.ua/POLN_TEXT/KNIGI/DOGOVOR_KN_1.pdf

[53] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi available at : https://lex.uz/docs/-111189#-155454

rioya etish tamoyillarini ko‘rsatish mumkin[54]. Ammo SI ishtirokidagi shartnomalar shartnomaviy munosabatlarda yuqoridagi tamoyillarga qarshi chiqadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti[55] 2019-yilgi o‘zining hisobotida SI ga quyidagicha ta’rif berilgan: inson tomonidan belgilangan muayyan maqsadlarga erishish uchun real yoki virtual muhitga ta’sir ko‘rsatadigan prognozlar, tavsiyalar yoki qarorlar qabul qila oladigan mashinali tizimdir. SI tizimlari esa turlicha mustaqillik darajalarida ishlash uchun loyihalashtiriladi. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga asosan[56], sun’iy intellekt - insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish, shujumladan, u mustaqil ravishda o‘rganish, muammolarga yechim topish va muayyan vazifalarni bajarish jarayonida insonning aqliy faoliyati natijalariga yaqin yoki ular bilan taqqoslanadigan natijalarni taqdim etishga qodir bo‘lgan texnologik yechimlar yig‘indisini anglatadi. SIni ma’lum vazifasini bajarishga qarab : ma’lum bir vazifani bajaradigan SI va ko‘p funksiyali SI sifatida ajratish mumkin. Masalan, tuzilgan oldi-sotdi shartnomasini SIga joylash orqali bu shartnomani qanchalik tuzilishi foydali ekanligini bilish mumkin yoki SI orqali shartnoma tuzish mumkin. Birinchi holatda, shartnomaning moliyaviy jihatdan foydaliligi prognoz qilinsa, ikkinchi holatda ko‘p ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish orqali shartnoma tuzib beriladi. SI ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarning huquqiy tabiatini to‘liq anglash uchun an'anaviy shartnoma nazariyasining asosiy elementlarini - oferta, aksept, erk-iroda va ijro etishni SI prizmasidan alohida ko‘rib chiqish zarur.

An’anaviy shartnoma nazariyasida oferta (taklif) muayyan kelishuvni yo‘lga qo‘yish maqsadida bir tomonning ikkinchi tomonga yo‘llagan rasmiy taklifi hisoblanadi. Unda tashabbuskor ya’ni oferent ma’lum bir shartlar asosida majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishga tayyorligini va roziligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bu oferent tomonidan qarshi tomonga yuboriladigan va u qabul qilingan taqdirda huquqiy munosabatning ya’ni shartnomaning vujudga kelishiga asos bo‘ladigan taklif sifatida tavsiflanadi. Huquqshunos olimlar aksept tushunchasini ofertaga javoban va uning shartlariga mutloq muvofiq ravishda berilgan iroda izhori yoki rozilik sifatida tavsiflaydilar. Aktsept jarayoni ofertani qonuniy qabul qilish jarayoni bo‘lib, u shartnomaviy munosabatlarni shakllantirishning ikkinchi hamda yakunlovchi bosqichi sifatida e’tirof etiladi. Mazkur harakat taklif etilgan barcha

[54] Shartnoma huquqi. /Huquqshunoslik ixtisosligi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari magistratura talabalari uchun. –T.: TDYUI nashriyoti, 2006. – 15 bet. Available at: https://library-tsul.uz/shartnoma-u-u-i-2006/

[55] https://www.oecd.org/en/publications/artificial-intelligence-in-society_eedfee77

[56] O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun available at: https://lex.uz/docs/-83472#-8017102

shartlarga so‘zsiz rozi bo‘linganini ifodalaydi va kelishuvning tuzilish jarayonini mantiqiy yakuniga yetkazadi. Aktsept qilishning asosiy maqsadi - ofertani qabul qilish va ushbu harakat vositasida shartnomaviy aloqalarni o‘rnatishdan iboratdir. Aktsept berish orqali qabul qiluvchi tomon oferentning taklifini tasdiqlaydi va unda ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi. Aktsept ifodalangandan keyin, agar u qonunchilikda belgilangan barcha talablarga to‘liq javob bersa, shartnoma qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi va kelishuv ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro huquqiy majburiyatlar yuzaga keladi[57]. Shartnomaviy munosabatlarda sun’iy intellekt texnologiyalari ofertalarni shakllantirish jarayonini avtomatlashtirish hamda ularni elektron raqamli formatda yuborish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu holat amaliyotda yuqori operativlikni ta’minlaydi va texnik xatoliklar yuzaga kelishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Biroq yuborilgan ofertaning mo‘ljallangan subyektga to‘liq yetib borishini hamda undagi shartlarning aniqligi va shaffofligini kafolatlash maqsadida qo‘shimcha texnik yuridik protokollarni joriy etish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Sun’iy intellekt tizimlari orqali taklifni qabul qilish (aktseptlash) jarayoni oldindan belgilangan parametrlarga tayanadigan avtomatik haraktga keltirish asosida amalga oshirilishi yoxud tarkiban murakkab bo‘lgan shartnomaviy munosabatlarda inson omili (verifikatsiya) nazoratini talab qilishi mumkin. Yuqorida ta’kidlanganidek, sun’iy intellekt ofertalarni avtomatlashtirish va ularni elektron tarzda uzatish orqali jarayon tezligini oshirib, xatoliklarni minimallashtiradi. Shunga qaramay, mazkur taklifning tegishli tomonga yetib borishi va uning shartlari aniq ifodalanishini ta’minlash uchun qo‘shimcha huquqiy va texnik tartibotlar talab etiladi. Xususan, pretsedent huquqiga oid Lalman Shukla v. Gauri Dutt ishi[58] bo‘yicha chiqarilgan sud qarorida taklifning haqiqiy (yuridik kuchga ega) deb topilishi uchun u qabul qiluvchi tomonga aniq va ravshan tarzda yetkazilgan bo‘lishi shartligi belgilangan. Binobarin, sun’iy intellekt tizimlarini loyihalashtirish jarayonida ularning bunday qonuniy standartlarga to‘liq mos kelishi va shu orqali amalga oshiriladigan harakatlarning huquqiy oqibatlari ta’minlanishi shart. Shartnomaviy munosabatlarning vujudga kelishida, ya’ni taklif va qabul qilish bosqichlarida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish fundamental huquqiy tamoyillarga muvofiq bo‘lishini taqozo etadi. Masalan, avtomatlashtirilgan tartibda oferta yuborayotgan sun’iy intellekt tizimi ushbu taklifning adresat tomonidan

[57] Mamanazarov, S. Ingliz shartnoma huquqiga kirish [Matn] o‘quv qo‘llanma / Mamanazarov Sardor Shuhratovich. T.: TDYU nashriyoti, 2026. -8-15 b. . Available at: https://library-tsul.uz/ingliz-shartnoma-huquqiga-kirish-mamanazarov-s-2026/

[58] Lalman Shukla v. Gauri Dutt XL ALJR 489 . Available at: https://www.drishtijudiciary.com/indian-contract-act/lalman-shukla-v-gauri-dutt-1913-xl-aljr-489-ail

qabul qilinishi hamda uning mazmuni to‘liq idrok etilishini kafolatlashi lozim. Xuddi shu singari, sun’iy intellekt vositasida avtomatlashtirilgan aksept (qabul qilish) faktining o‘zi ham taklif qiluvchi tomonga aniq yetkazilishi shart, bu esa kelgusida shartnomaning tuzilganligi yoki tuzilmaganligi bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy nizolarning oldini olishga xizmat qiladi. Oferta va aksept masalalaridan tashqari, SI ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarda taraflarning erk-irodasi masalasi ham alohida huquqiy muammo sifatida ko‘zga tashlanadi.

An’anaviy shartnoma huquqida erk-iroda nazariyasiga asosan, shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan taraflarning o‘zaro xohish - irodasi fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. Davlat tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlari esa mazkur erkin iroda ifodasini to‘ldiruvchi yoxud uni muayyan doirada cheklovchi tartibga solish vositasi sifatida ishtirok etadi. SI shartnomaviy munosabatlarda ishtiroki taraflarning xohish-irodasi ma’lum darajasida cheklashi mumkin. SI o‘ziga yuklangan ma’lumotlar asosida shartnoma tuzadi, o‘zida mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni esa rad etadi. Masalan, A. ismli shaxs KIA avtomobili sotib olish uchun SI ga shartnoma tuzib ber, deb yozsa, SI oq rangli KIA avtomobilinisotib olish haqida shartnoma tuzsa, A. ismli shaxsni xohishi qora ranglisi bo‘lsa, bu holat tarafning xohish-irodasini cheklashga olib keladi. Shu bois SI ga to‘liq ma’lumotlar yuklash kerak bo‘ladi yoki shartnoma tuzilganidan keyin inson nazoratini amalga oshirishi kerak. Shuningdek, taraflar SIdan foydalanishdan oldin, bu texnologiya ular uchun shartnoma tuzish qobiliyatini o‘rganib chiqishi kerak. Buning uchun uning dasturchilaridan ma’lumotlar olishi, o‘zi tomonidan tekshirib ko‘rishi talab etiladi. Erk-iroda masalasi bilan bevosita bog‘liq holda, shartnoma huquqida subyektivlik, ya'ni shartnoma tuzuvchi shaxs kim bo‘lishi mumkinligi masalasi ham SI ishtirokida yangicha mazmun kasb etadi. Masalan, agar shartnoma SI tomonidan tuzilib, ikkinchi tarafga yuborilsa, ikkinchi taraf shartnomani qabul qilish uchun avvalambor, SI dan foydalanilgan tarafga xabardor qilishi belgilanishi muhim hisoblanadi. Bu orqali oferta yuborgan shaxs oferta yuborilganligini va uni qabul qilishga tayyorligini bila oladi. Shartnoma tuzilishidagi SI ishtirokidan tashqari, ijro etish bosqichida ham texnologiyaning roli tobora ortib bormoqda.Faqat shaxslar tomonidan ijro etilishi hozirgi davrga to‘g‘ri kelmaydi. SI nafaqat dasturiy ta’minot, shuningdek robot sifatida sahrtnomalarni ijro etmoqda. Masalan, zamonaviy tijorat amaliyotida shartnoma majburiyatlarini moddiy jihatdan ijro etish, ya’ni tovarlarni iste’molchiga yetkazib berish bosqichida ham avtonom robotlashtirilgan tizimlardan keng foydalanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda sun'iy intellekt ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarning huquqiy tabiati an'anaviy shartnoma nazariyasi bilan murakkab

munosabatda turadi. Shartnoma insoniyat ijtimoiy hayotining zaruriy mahsuli sifatida tarixan shakllanib, oferta va aksept, erk-iroda, subyektivlik hamda ijro etish kabi asosiy elementlarga tayanib kelgan. Biroq SI ishtirokida ushbu elementlarning har biri yangicha huquqiy muammo sifatida ko‘zga tashlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Брагинский М., Витрянский М. Договорное право. –М.: 1997. –9-стр. Available at: https://library.nlu.edu.ua/POLN_TEXT/KNIGI/DOGOVOR_KN_1.pdf
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi available at : https://lex.uz/docs/-111189#-155454
3. Shartnoma huquqi. /Huquqshunoslik ixtisosligi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari magistratura talabalari uchun. –T.: TDYUI nashriyoti, 2006. – 15 bet. Available at: https://library-tsul.uz/shartnoma-u-u-i-2006
4. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun available at: https://lex.uz/docs/-83472#-8017102
5. Mamanazarov, S. Ingliz shartnoma huquqiga kirish [Matn] o‘quv qo‘llanma / Mamanazarov Sardor Shuhratovich. T.: TDYU nashriyoti, 2026. -8-15 b. . Available at: https://library-tsul.uz/ingliz-shartnoma-huquqiga-kirish-mamanazarov-s-2026/
6. Lalman Shukla v. Gauri Dutt XL ALJR 489 . Available at: https://www.drishtijudiciary.com/indian-contract-act/lalman-shukla-v-gauri-dutt-1913-xl-aljr-489-ail

Internet saytlari:

1. https://www.oecd.org/en/publications/artificial-intelligence-in-society_eedfee77

“NEFT INQIROZI” DAVRIDA FRANSIYADAGI MAG‘RIB MUHOJIRLARI AHVOLI

Sharofova Diyora Shavkat qizi
TDShU Tayanch doktarant
Diyorasharofova33@gmail.com
Tel: +998993048075

Annotatsiya. *1970-yillarda ro‘y bergan “Neft inqirozi” sabab Yevropa davlatlari, xususan Fransiyada iqtisodiy va moliyaviy muammolar yuzaga keldi. Shu sababli, ular ishchi muhojirlarga bo‘lgan talabni bekor qilib, migrantlarni qabul qilmadi. Fransiya barcha mehnat shartnomalarini va ishga yollash agentliklarini faoliyatini chekladi hamda chegaralarda ishchi muhojirlarni ortiga qaytardi. Ishlab chiqarish ortda qolgan, iqtisodiy inqiroz hamda ijtimoiy muammolar mavjud bo‘lgan sharoitda Fransiyada ishchi migrantlar va ularning oilalarining ham ahvoli og‘irlashdi. Ushbu tezisda mana shu masala bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *migratsiya, mehnat shartnomalari, muhojirlar, viza shartlari, chegara havfsizligi, tashqi aloqalar tarixi.*

Аннотация. *«Нефтяной кризис» 1970-х годов вызвал экономические и финансовые проблемы в европейских странах, особенно во Франции. В результате спрос на трудовых мигрантов был сведен на нет, и мигранты перестали приниматься. Франция ограничила все трудовые договоры и деятельность агентств по найму, а также разворачивала трудовых мигрантов на границах. В условиях отставания производства, экономического кризиса и социальных проблем положение трудовых мигрантов и их семей во Франции также ухудшилось. Данная работа посвящена этой проблеме.*

Ключевые слова: *миграция, трудовые договоры, мигранты, визовые условия, безопасность границ, история международных отношений.*

Abstract. *The “Oil Crisis” that occurred in the 1970s caused economic and financial problems in European countries, especially France. Therefore, they canceled the demand for migrant workers and did not accept migrants. France restricted all labor contracts and the activities of recruitment agencies and turned back migrant workers at the borders. In the conditions of lagging production, economic crisis and*

social problems, the situation of migrant workers and their families in France also worsened. This thesis addresses this issue.

Keywords: *migration, labor contracts, migrants, visa conditions, border security, history of foreign relations.*

1970-yillarning boshida Fransiyada aholi tarkibining 10,3 foizini tashkil qilgan 7 million muhojirlardan 12,7 foizi jazoirliklar, 12 foizi marokashliklar hamda 4,6 foizi tunisliklardan tashkil topgan edi.[59] 1930-yillardan beri mavjud Fransiyada muhojirlarga nisbatan diskriminatsiya va irqchilik neft inqirozi sabab avj oldi hamda 1973-1974-yillarda kelishmovchiliklarga sabab bo‘ldi, bu holat tarixga “inqiroz irqchiligi” deb kirdi. Mahalliy aholi va jamoalari orasida “Milliy front tiklansin”, “ishchilar harakati tugallansin”, “ikkinchi migrant avlodlari”, “shahar muammolari” kabi mazmundagi eslatmalar ommalashdi. Neft inqirozi yillarida mag‘rib muhojirlari to‘plangan Marsel shahri irqchilik markaziga aylandi va mahalliy aholi bilan migrantlar orasida ziddiyatga sabab bo‘ldi. Fransiyaning ba’zi hukumat vakillari mamlakatning muhojirlarga nisbatan diskriminantlik ruhida yondashuvi va 1974-yilda barcha migrantlarga nisbatan taqiq o‘rnatilishidan xavotirlandi. Jumladan, Mehnat vazirligining ishchi migrantlar bo‘yicha raisi Pol Diju 1974-yil oktabrda Fransiyaning migrantlarga nisbatan qat’iy siyosati noqonuniy migratsiyani rivojlantirishini ta’kidlab, muhojirlar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash, ixtiyoriy yurtga qaytishni qo‘llab quvvatlash, iqtisodiy tiklanish uchun davriy muhojirlarni kelishini ta’minlash kabi choralarni taklif etdi.[60]

Fransiyada ayollarga oila a’zolari haqida ma’lumot bo‘lgan oila ruxsatnomalari berilgan, ushbu ruxsatnomalar orqali, oila a’zolari ta’lim, tibbiyot kabi ijtimoiy imkoniyatlardan foydalangan. Oila a’zolarining ko‘chib kelish siyosati 1970-yillarning so‘ngida Fransiyada aholini tabiiy ko‘payish jarayonini tezlashtirdi. 1974-1975-yilda migrantlar va oila a’zolarining ko‘chib kelishiga taqiq qoyildi, 1976-yilda bu taqiq butunlay olib tashlandi hamda migrantlar uchun oila a’zolarining ko‘chib kelish huquqi tiklandi.

Fransiyada 1970-yillarda iqtisodiy turg‘unlik, 1973-1977-yillarda Neft inqirozi oqibatida, 1975-1979-yillarda yuqori ijara xarajatlari va noqulay yashash – ishlash sharoitlari tufayli migrantlar tomonidan norozilik harakatlarilar vujudga kelgan. Xususan, 1970-yillarda shimoliy sharqiy Parijdagi jazoirlik muhojir oilalarining 36 foizi asosan 1 xonalik uy, yotoqxona va mehmonxonalarda, 50 foizi eski binolarda,

[59] Katherina Natter. Fifty years of Magreb emigration. How states shaped Algerian, Moroccon and Tunisan migration. - Oxford: Oxford University Press,2014. – 475 p.

[60] Иван Гасто. Французы и иммигранты в условиях кризиса (1973-1995)// https://shs.cairn.info/revue-vingtieme-siecle-revue-d-histoire-2004-4-page-107?lang=fr [Murojaat vaqti. 19.09.2025.]

deyarli 10 foiz chordoqlarda yoki foydalanilmaydigan joylarda yashagan. Jazoirlik migrantlarning deyarli 30 foizi oqova va ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan. "Fransiya immigratsiya vazirligi" tomonidan tadbiq etilgan ijtimoiy turar joylar bo'lib, ular korxonalar tomonidan tashkillashtirilgan edi. Xususan, "Renault" korxonasi Boulogne, Bagneux kabi hududlarda migrantlar uchun uylar shakllantirgan, ammo ular oila uchun mos bo'lmasa ham, 1966-1976-yillarda 30 foiz jazoirlik oilalar isti'qomat qilgan. Jazoirlik migrantlar asosan zavodda ish tashlash, norozilik namoyishlari hamda teng ish haqi, mehnat xavfsizligi va kafolatini talab qilgan. 1968-yil may oyida Fransiyada umumiy ish tashlash, 1970-yillarda ishchilar norozilik harakatlari uyushtirildi. Natijada 1971-1975-yillarda jazoirliklar politsiya tajovuzlari, kamsitish va irqchilik kabi muammolarga duch keldi, 1974-yil yoz-kuz oylarida ba'zi irqchi fransuzlar tomonidan jazoirliklarga tajovuz bo'lib, 1974-yilda ikki nafar migrant o'ldirib qo'yilgan. Buning oqibatida, 1975-1976-yillarda muhojirlar hukumatdan migrant huquqlarini ta'minlanishini, fransuzlar bilan teng ravishda fuqarolik va ijtimoiy huquqlar berilishini talab qilishdi. Natijada 1976-yilda Fransiya migrantlarni oila bilan yashash uchun mos sharoitli uyi bo'lmagan taqdirda oila bilan birlashish siyosatini chekladi hamda boshqa davlat migrantlariga qaraganda jazoirliklarga oldinroq doimiy turar joy, qonuniy maqomni, haq – huquqlari himoyalanishini, mehnat xavfsizligi hamda kafolatini ta'minladi.[61]

Migrantlarning oila a'zolari bilan iste'qomat qilishi Parij, Lyon, Brussel, Rotterdam kabi shaharlar va mahallalarni rivojlantirdi, xususan, ijtimoiy klublar, do'konlar, diniy hamda madaniy tashkilotlar keng tarqaldi, muhojirlar ilgari faqat qisqa ish bilan band bo'lgan bo'lsa, endi ular ta'lim, uy – joy kabi sohalarga sarmoya kiritdi. Yevropa davlatlarning ijtimoiy va madaniy jihatdan o'zgarishiga sababchi bo'lgan diaspora va etnik guruhlar shakllandi. Yevropaning ko'plab yirik shaharlarida, xususan, Parij, Brussel, Amesterdam, Marsel. Rotterdam, Utrecht kabi shaharlarida ko'p sonli marokashliklar, tunislik va jazoirlik muhojirlar yig'ilgan bo'lib, ular diniy muassasa. madaniy jamoalar, til kurslari kabi tashkilotlarga borib integratsiya qilishgan. Ular yangi muhojirlarni kelishga undab, moliyaviy jihatdan yordam berishgan, bundan tashqari, Yevropaga sayohatchi sifatida kelganlar ham migrantlar jamoasining qo'llab quvvatlashi orqali ish topib, Yevropada qolgan.[62] Yevropa hududlarida noqonuniy tarzda yurgan, shartnoma muddati tugagan muhojirlar noqonuniy migratsiya yo'nalishlarini yuzaga keltirishdi, ya'ni, ba'zi muhojirlar shartnomalari muddati

[61] Murial Cohen. Post-colonial Algerian immigration: Putting down roots in the face of exclusion.// - La Découverte: Le Mouvement Social, 2017. – No 258. – P.P. 29 – 48.
[62] Hassen Boubakr. International migrations in North Africa: political and geographical dimensions// - Tunisia, Sousse: Université de Sousse,2021. – P.P. 50 – 85.

tugaganidan so‘ng ham Yevropa davlatlarida istiqomat qilishni davom ettirgan.[63] Ba’zilari esa Belgiya, Niderlandiya, Fransiya davlatlari orasida erkin harakatlanib yurar edi hamda mehnat shartnomasini tuzmay ishga joylashgan. Boshqa tomondan, ish beruvchilarga ham bu yo‘l maqul edi, sababi noqonuniy ishchilarni hujjati yo‘q, ular juda arzon ish haqqi olishga rozi, ularni osonlikcha ishdan chetlatish va nazorat qilish mumkin bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Katherina Natter. Fifty years of Magreb emigration. How states shaped Algerian, Moroccon and Tunisan migration. - Oxford: Oxford University Press,2014. – 475 p.
2. Hassan Boubakri. Migration in North Africa. – Berlin: Konrad-Adenauer-Stiftung,2021. – 356 p.
3. Hassen Boubakr. International migrations in North Africa: political and geographical dimensions// - Tunisia, Sousse: Université de Sousse,2021. – P.P. 50 – 85.
4. Murial Cohen. Post-colonial Algerian immigration: Putting down roots in the face of exclusion.// - La Découverte: Le Mouvement Social, 2017. – No 258. – P.P. 29 – 48.
5. Иван Гасто. Французы и иммигранты в условиях кризиса (1973-1995)// https://shs.cairn.info/revue-vingtieme-siecle-revue-d-histoire-2004-4-page-107?lang=fr [Murojaat vaqti. 19.09.2025.]

[63] Hassan Boubakri. Migration in North Africa. – Berlin: Konrad-Adenauer-Stiftung,2021. – P. 59.

ABDULLA NOSIROV AS A LOCAL KNOWLEDGE HOLDER AND MEDIATOR IN SOVIET UZBEKISTAN: PRESERVING AND SYSTEMATIZING THE WRITTEN HERITAGE OF CENTRAL ASIA

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi
Third-year PhD student,
Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
nodirabegim0506@gmail.com

Abstract. *This article examines Abdulla Nosirov (1899–1987) as a local knowledge holder who contributed to preserving, systematizing, and institutionalizing Central Asian written heritage in Soviet Uzbekistan. Drawing on archival materials, Nosirov's autobiographical notes and notebooks, contemporary press, family documents, and historiographical studies, the study reconstructs the main stages of his professional formation. Particular attention is given to the relationship between his traditional educational and manuscript-based knowledge and the emerging Soviet system of Oriental studies. The article argues that Nosirov transformed locally accumulated knowledge into a structured scholarly resource through manuscript identification, cataloguing, bibliographic description, and thematic research materials, highlighting the important role of local specialists in Soviet Oriental studies.*

Keywords: *Abdulla Nosirov, local knowledge, Soviet Oriental studies, Central Asia, manuscripts, bibliography, knowledge holders, written heritage.*

INTRODUCTION

Recent historiography increasingly examines scholars who worked in Soviet academic institutions while possessing knowledge rooted in traditional Muslim educational and manuscript cultures. Rather than viewing such figures only through conventional biographies, researchers have begun to study their role in preserving local intellectual traditions and adapting them to new academic institutions. Studies of Zaynab Maksudova [6], Albert Fatkhi [5: 278-303], Muhammad-Said Saidov [8] and the *ulama-orientalists* of Soviet Uzbekistan [9 :301–348] demonstrate that locally

educated specialists played an important role in identifying manuscripts, compiling catalogues and introducing written heritage into scholarly circulation.

This approach provides a useful framework for studying Abdulla Nosirov (1899–1987) [7:61-68]. Although he has long been recognized as a bibliographer, manuscript specialist and librarian, his scholarly heritage has mainly been discussed in biographical and specialized studies. His notebooks have also attracted scholarly attention, particularly as sources for the history of the Uzbek press, but their broader function as a system of collecting and organizing scholarly information requires further examination [10:141–152].

In this article, the concept of **local knowledge** [4:265-292] **holder** refers to a specialist whose knowledge was formed within the linguistic, intellectual, educational and manuscript traditions of Central Asia and was subsequently transferred into a modern academic institution.

The aim of the study is to examine Nosirov's professional formation and his contribution to the institutionalization of local knowledge. Particular attention is given to his early manuscript and library experience, his integration into Soviet Oriental institutions, and his work in organizing written sources.

The study is based on a comparative and historical-critical analysis of archival documents, Nosirov's autobiographical notes and notebooks, family materials, contemporary press publications, institutional records, and previous historiographical studies. [3:15–16] The analysis makes it possible to reconstruct Nosirov's professional development and to examine the transformation of his practical manuscript and bibliographic knowledge into an institutional scholarly resource.

MAIN PART

From Traditional Knowledge to Professional Formation

Abdulla Nosirov was born on 6 December 1899 in Tashkent. His early professional formation was connected with the manuscript, literary and educational environment of the city. During the first stage of his career, he worked as a calligrapher and librarian and used the literary pseudonym **Nosihiy,** which he employed until approximately 1940. His early activities were closely connected with the Jadid and enlightenment environment and with the development of book and print culture [7:61-68].

The **Turon Library** played a particularly important role in his professional development. In the early twentieth century, librarians working with Oriental collections were expected not only to preserve books but also to work with manuscripts

in Arabic, Persian and Turkic, prepare bibliographic information and assist readers. Nosirov was one of these specialists [7:61-68].

Between Political Pressure and Institutional Integration

Nosirov's professional development was interrupted by the institutional and political changes of the 1930s. In 1930 he was removed from the position of head of the Turon Library. Contemporary and archival materials suggest that this was primarily connected with administrative and structural changes in the library system rather than with professional incompetence [2:113]. He nevertheless continued his work in the library sector, serving as head of district libraries in 1931–1933. In 1933 he was arrested on an accusation of "misappropriation" and released in 1936. His subsequent employment was also subject to restrictions [3:149–150].

These circumstances are important for understanding his written heritage. His notebooks contain little information about the periods of imprisonment and exile. Instead, they concentrate on professional achievements, bibliographic materials, publications, awards and other evidence of scholarly activity. Consequently, the notebooks should not be regarded as neutral autobiographical diaries. They also reflect the construction of Nosirov's **scholarly persona** —his self-representation as a librarian, bibliographer and Orientalist [3:147]. The 1940s marked a new stage. In 1940 Nosirov joined the Oriental Department of the State Public Library as a senior researcher. His earlier experience with manuscripts and bibliography became increasingly connected with professional Oriental studies [3:159].

From Local Knowledge to Soviet Oriental Studies

The establishment of the Institute for the Study of Oriental Manuscripts in 1943 created a new institutional environment for the preservation and study of Central Asian written heritage. The Oriental Department collections of the State Public Library were transferred to the new institution, together with specialists experienced in working with manuscripts and Oriental printed materials [1:168]. Abdulla Nosirov was among them.

The development of the Institute depended on the interaction of two forms of expertise: the methodological experience of Soviet Oriental studies and the practical knowledge of locally educated specialists familiar with Central Asian manuscript traditions. Nosirov represents this intersection particularly clearly. His knowledge of Arabic, Persian and Turkic, his familiarity with manuscripts and his bibliographic experience enabled him to perform important tasks in organizing manuscript collections. Research on the Institute shows that local specialists participated in identifying manuscripts, reading and describing texts, preparing catalogue cards and identifying works by local authors that were absent from other catalogues. These

preliminary materials later became important for the preparation of Oriental manuscript catalogues, although the specialists who created them were not always listed among the authors of the final catalogues [9:347–348].

This circumstance is essential for understanding Nosirov as a **local knowledge holder.** His contribution was not limited to published scholarly works. Much of his activity consisted of less visible but fundamental scholarly processes: locating manuscripts, identifying authors and works, preparing bibliographic information and organizing sources for subsequent researchers.

Bibliographic Infrastructure and the "Nosirov Notebooks"

The methodological experience developed during his work at the State Public Library was subsequently continued at the Institute. The foundations of the materials now known as the **"Nosirov notebooks"** can partly be traced to this earlier bibliographic practice [1:168]. The notebooks constitute an important expression of Nosirov's scholarly method. They contain manuscript and printed sources, newspaper and journal materials, bibliographic references, biographical information, excerpts and personal research notes. They were created around particular subjects and historical personalities and therefore cannot be reduced to ordinary personal notes. They represent a form of organized scholarly information system [3:141–152]. For example, Nosirov's materials on the Uzbek press organized information from newspapers and journals by subject and publication, making it easier for researchers to return to the original sources. His materials concerning Babur likewise brought together information about manuscripts, lithographic editions, printed books and periodicals [10:141–152].

CONCLUSION

Abdulla Nosirov's career demonstrates how locally rooted manuscript and bibliographic knowledge was adapted to Soviet Oriental studies. As a **local knowledge holder,** he connected Central Asian manuscript traditions with academic institutions through manuscript identification, cataloguing, and systematic documentation. The "Nosirov notebooks" preserved and organized dispersed information for future research, highlighting the significant contribution of locally educated specialists to the preservation and institutionalization of Central Asian written heritage.

REFERENCE

Archival and Manuscript Sources

1. **Archive of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.** Fund 55, Inventory 1, File 255. *Personal File of Abdulla Nosirov*.

2. **Archive of the National Library of Uzbekistan.** *Order Book of the State Public Library for 1929–1930*. Inventory 2, Archival Register 2.

3. **Nosirov, A.** *Nosirov Jamlagan Material Va Manbalarning Ro‘yxat Daftari*. Manuscript Fund of the Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Inv. No. 13498.

Published Sources and Literature

4. **Abdurasulov, U., & Toshov, N.** (2019). Soviet “Local” Knowledge: Babajan Safarov’s Notes on Slavery in Khwarazm. In N. Purnaqcheband & F. Saalfeld (Eds.), *Aus den Tiefenschichten der Texte: Beiträge zur turko-iranischen Welt von der Islamisierung bis zur Gegenwart* (pp. 265–292). Wiesbaden: Reichert Verlag.

5. **Bustanov, A.** (2019). Arkhiv Alberta Fatkhi: Mezhdu rukopisnoy traditsiey i sovetskim vostokovedeniem. *Gosudarstvo, religiya, tserkov v Rossii i za rubezhom, 37*(1–2), 278–303.

6. **Bustanov, A. K.** (2019). *Biblioteka Zaynab Maksudovoy = Zəynəp Maksudova kitapkhənəse*. Moscow.

7. Nasirillayea N. The life and work of bibliographer Abdulla Nosirov (1899-1987) // « Turkic historical studies » scientific journal, №1 (5)-2025. – B.61-68.

8. **Shikhaliev, Sh. Sh.** (2026). *Portrait of a Soviet Islamicist: Muhammad-Said Saidov (1902–1985)*. Vienna: Austrian Academy of Sciences Press.

9. **Бабаджанов, Б.** (2014). “Улама” в советском Институте востоковедения. In *История и историки Узбекистана в XX веке* (pp. 301–348). Tashkent.

10. **Хўжаева, У.** (2002). «Абдулла Носиров дафтарлари» ўзбек матбуоти тарихини ўрганишда муҳим манба. *Шарқшунослик*, 11, 141–152.

LANGUAGE AND EXPRESSION IN SHAKESPEARE'S SONNETS

Qayumova Nigora Muxtorovna
Bukhara State University

Abstract*. This article examines the distinctive methods of expression found in the sonnets of William Shakespeare. It analyzes the symbols most frequently employed by the poet in his works. The study concludes that Shakespeare's sonnets demonstrate a strong harmony between form and content.*

Key words: *literature, sonnet, expression, poet, poem, symbols, literary devices, to compare, theme*

The plays of William Shakespeare were created for a broad public audience, whereas his poems were mainly intended for a smaller circle of educated readers. However, his sonnets were not addressed to poetry lovers in general, but to particular individuals in his life. For this reason, Shakespeare's sonnets may be described as lyrical diaries. Studying them gives the impression of encountering an important period in artistic and literary history - the Renaissance.

For Shakespeare, human relationships, including marriage, served as a source of insight and inspiration. He developed distinctive expressive techniques and frequently employed symbolism and allusion. Youth, for instance, is often likened to spring or morning, while beauty is compared to flowers. Maturity corresponds to autumn, and old age to winter. The splendor of summer reflects the vitality of youth. His sonnets attract readers with their vividness, and sometimes his metaphors initially appear simple, almost domestic, though they carry deeper meaning.

For example: In Sonnet 23, the poet compares a lover unable to confess his feelings to an inexperienced actor who forgets his lines on stage. Similar comparisons appear throughout the sonnets.

As an unperfect actor on the stage
Who with his fear is put beside his part,
Or some fierce thing replete with too much rage,
Whose strength's abundance weakens his own heart;
So I for fear of trust forget to say

The perfect ceremony of love's rite,
And in mine own love's strength seem to decay,
O'ercharged with burden of mine own love's might.
O, let my books be then the eloquence
And dumb presagers of my speaking breast,
Who plead for love and look for recompense
More than that tongue that more hath more expressed.
O, learn to read what silent love hath writ.
To hear with eyes belongs to love's fine wit.[64]

Here, the poet compares a lover who cannot express his feelings to an untrained actor who has forgotten his role.

In Sonnet 30, the poet imagines a courtroom where memories serve as witnesses. In Sonnets 46–47, the eyes and the heart seem to argue, with the mind acting as mediator until harmony is restored: the eyes grant the heart the joy of seeing a beloved friend, and if that is impossible, the heart comforts the eyes with memories. In Sonnet 48, love is portrayed as precious treasure locked away for safety, yet still vulnerable to theft. Each image thus gains symbolic significance.

The richness of metaphor in Shakespeare's sonnets reflects his remarkable ability to perceive hidden similarities between events and emotions. His poetic style is recognizable through his striking similes, as seen in Sonnet 33, where reflections on mortality, time, and poetic legacy are expressed through personal devotion and emotional sincerity:

If thou survive my well-contented day
When that churl Death my bones with dust shall cover,
And shalt by fortune once more resurvey
These poor rude lines of thy deceasèd lover,
Compare them with the bett'ring of the time,
And though they be outstripped by every pen,
Reserve them for my love, not for their rhyme,
Exceeded by the height of happier men.
O, then vouchsafe me but this loving thought:
"Had my friend's muse grown with this growing age,
A dearer birth than this his love had brought
To march in ranks of better equipage.
But since he died and poets better prove,

[64] https://www.folger.edu/explore/shakespeares-works/shakespeares-sonnets/read/23/

Theirs for their style I'll read, his for his love."[65]

In his poetry, we can see that Shakespeare skillfully used the art of revitalization, which is widespread in the East. This is the art of transferring human characteristics to inanimate beings. This is shown in metaphors such as the sun caressing the top of the mountains.

In Shakespeare's sonnets, the theme of friendship acquires vital and philosophical importance. If we look at history, in the period when the poet lived (1590s), people began to die in Europe due to various plagues. People who think that they will die from cholera or some other disease, are engaged in farming and various unnecessary jobs.

Through his poems, Shakespeare addressed his friend and encouraged him to lay a foundation for the future and have a child. After all, at that time, the continuation of the future generation became the problem of the century for Europe. Shakespeare also skillfully used personification, a technique common in Eastern literary traditions, attributing human qualities to nature and objects — for example, describing the sun as gently caressing mountaintops.

Friendship occupies a central philosophical and emotional place in the sonnets. During the 1590s, when epidemics and disease caused widespread fear in Europe, people were increasingly concerned about mortality and the continuation of future generations. Shakespeare, addressing his friend in several poems, urges him to secure the future by having children. In Sonnet 1, he stresses that beauty should be preserved through offspring so that it does not perish with time:

From fairest creatures we desire increase,
That thereby beauty's rose might never die,
But, as the riper should by time decease,
His tender heir might bear his memory.
But thou, contracted to thine own bright eyes,
Feed'st thy light's flame with self-substantial fuel,
Making a famine where abundance lies,
Thyself thy foe, to thy sweet self too cruel.
Thou that art now the world's fresh ornament
And only herald to the gaudy spring
Within thine own bud buriest thy content
And, tender churl, mak'st waste in niggarding.
Pity the world, or else this glutton be—

[65] https://www.folger.edu/explore/shakespeares-works/shakespeares-sonnets/read/32/

To eat the world's due, by the grave and thee.[66]

In Sonnet 2, he advises his friend to imagine old age and prepare for it while still young.

In other sonnets such as 24, 44, 47, 50, and 51 Shakespeare explores the spiritual power of friendship and the sorrow of separation. Through his love sonnets, he also challenged long-standing European poetic traditions. Instead of portraying an idealized noble lady, he often depicted a more ordinary woman. At a time when fair beauty was considered the standard, Shakespeare surprisingly idealized a dark-haired woman. While he elevates his male friend to an almost divine status and treats friendship as sacred, the beloved woman is shown as human and flawed — not an angel, but a realistic figure capable of moral imperfection. Yet the poet openly acknowledges his genuine love for her despite her lack of conventional beauty.

Shakespeare's unmistakable artistic "signature" is evident throughout his sonnets. Each poem bears the distinctive tone of his unique style. The sonnet form, which reached its height in England through Shakespeare's genius, became permanently associated with his name. As this analysis shows, the sonnet genre in his work demonstrates a perfect harmony between form and content.

REFERENCES

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.408.

2. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018. – B.62.

3. Qayumova, Nigora. "DUNYO SONETCHILIGIGA NAZAR." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 41.41 (2023).

4. Qayumova, Nigora. "The Genre Sonnet in the Poesis of Shakespeare." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 32.32 (2023).

5. Qayumova, Nigora. "Formal and Contentual Coherence in the Sonnets of Rauf Parfi and Shakespeare." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).

6. Qayumova, Nigora. "The harmony of form and content in the sonnet." Центр научных публикаций (buxdu. Uz) 40.40 (2023).

7. Qayumova, N. (2023). ШЕКСПИР ВА РАУФ ПАРФИ СОНЕТЛАРИДА БАДИИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ

[66] https://www.folger.edu/explore/shakespeares-works/shakespeares-sonnets/read/1/

ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 30(30). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9194

10. Qayumova, Nigora, and Raxmatova Mohinur. "TECHNIQUES USED FOR READING SKILL DEVELOPMENT." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 37.1 (2024): 67-69.

11. https://www.folger.edu/explore/shakespeares-works/shakespeares-sonnets/read/23/

12. https://www.folger.edu/explore/shakespeares-works/shakespeares-sonnets/read/1/

13. https://www.folger.edu/explore/shakespeares-works/shakespeares-sonnets/read/32/

TIBBIY LOTIN TILINI O‘RGANISHDA INNOVATSION RAQAMLI YONDASHUV: “LINGUA LATIN MEDICA” PLATFORMASINING IMKONIYATLARI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MODELI

Musurmonov Jamoliddin Faxriddin o‘g’li
TDTU 3-son Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi,
E-mail: jamoliddin216624@gmail.com
Tel: +998 94 112 06 24

Israilova Maxsuda Nugmatullaevna

TDTU O’zbek va xorijiy tillar,pedagogika kafedrasi mudiri

E-mail: israilova9194@gmail.com

Tel: +998 91 132 91 94

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada tibbiyot talabalariga lotin tilini o‘rgatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va “Lingua Latin Medica” platformasining konsepsiyasi yoritiladi. Platforma video darslar, interaktiv flesh-kartalar, audio talaffuz, terminologik lug‘at, testlar, gamifikatsiya, progress monitoring va adaptiv ta’lim mexanizmlarini yagona muhitga birlashtirishga mo‘ljallangan. Sun’iy intellekt yordamida takroriy xatolarni aniqlash va individual o‘quv materiallarini tavsiya qilish modeli taklif etiladi. Tadqiqotning ushbu bosqichida real pedagogik eksperiment o‘tkazilmaganligi sababli statistik natijalar keltirilmagan.*

Kalit so‘zlar: *tibbiy lotin tili, tibbiy terminologiya, raqamli ta’lim, Lingua Latin Medica, sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, gamifikatsiya, tibbiyot talabalari.*

ABSTRACT. *This article presents the concept of the “Lingua Latin Medica” platform for teaching medical Latin through digital technologies. The platform combines video lessons, interactive flashcards, pronunciation audio, a terminology glossary, assessments, gamification, progress monitoring, and adaptive learning. An artificial intelligence component is proposed to identify recurring learning errors and*

recommend personalized materials. Since no real pedagogical experiment has been conducted at this stage, no fabricated statistical results are presented.

Keywords: *medical Latin, medical terminology, digital education, Lingua Latin Medica, artificial intelligence, adaptive learning, gamification, medical students.*

1. KIRISH

Tibbiyot ta’limida professional terminologiyani o‘zlashtirish bo‘lajak shifokorning akademik va kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismidir. Anatomik, farmatsevtik va klinik terminlarning katta qismi lotin va yunon tillarining terminologik asoslari bilan bog‘liq. Shuning uchun talaba terminni faqat yodlab qolmasdan, uning ildizi, prefiksi, suffiksi, grammatik shakli va ma’nosini tushunishi zarur [1].

An’anaviy ta’limda lug‘at birliklarini yodlash va grammatik qoidalarni tarjima orqali o‘zlashtirish usullari keng qo‘llanadi. Bu usullar fundamental bilimlarni shakllantirsa-da, interaktiv va individual ta’lim imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Tibbiy terminologiya bo‘yicha interaktiv moduldan foydalanish rasmlar, mnemonikalar, amaliy savollar va video materiallarni birlashtirish imkonini bergan [2].

Shu asosda “Lingua Latin Medica” tibbiy lotin tilini interaktiv, multimodal va adaptiv raqamli muhitda o‘rgatishga qaratilgan platforma sifatida taklif qilinmoqda. Tadqiqotning maqsadi platformaning konsepsiyasi va funksional imkoniyatlarini taqdim etish hamda kelgusida uning samaradorligini baholash uchun metodik mezonlarni belgilashdan iborat.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ish tavsifiy-loyihaviy tadqiqot bo‘lib, platformaning pedagogik va funksional modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Konseptual asos sifatida raqamli ta’lim, adaptiv o‘qitish, mikro-o‘qitish, spaced repetition, multimodal ta’lim va gamifikatsiya tamoyillari tanlandi. Mikro-o‘qitish materialni kichik va aniq birliklarga ajratadi; ushbu yondashuv sog‘liqni saqlash ta’limida ham o‘rganilgan [11].

Ushbu bosqichda real talabalar ishtirokidagi pedagogik eksperiment o‘tkazilmagan. Shuning uchun avvalgi namunaviy variantlarda uchragan nazorat va tajriba guruhlari foizlari, p-qiymatlar yoki boshqa statistik ko‘rsatkichlar ilmiy natija sifatida ishlatilmaydi. Kelgusida platformani baholash uchun pre-test, post-test va kechiktirilgan post-test asosidagi nazorat-tajriba dizaynidan foydalanish taklif etiladi.

Baholash mezonlari sifatida terminologik aniqlik, grammatik to‘g‘rilik, farmatsevtik yozuvlardagi xatolar, terminologik tahlil tezligi, bilimlarni saqlash, platformadan foydalanish faolligi va foydalanuvchi qoniqishi olinishi mumkin.

3. NATIJALAR

3.1. Platformaning funksional tuzilishi

“Lingua Latin Medica” bir nechta o‘quv modullarini yagona raqamli muhitga birlashtiradi. Birinchi modul video darslar bo‘lib, unda lotin alifbosi, urg‘u, otlarning turlanishi, sifatlar, anatomik va klinik terminologiya hamda farmatsevtik lotin tili ketma-ket beriladi.

Ikkinchi modul interaktiv flesh-kartalardan iborat. Kartada lotincha termin, o‘zbekcha tarjima, grammatik ma’lumot, zarur hollarda tasvir va audio talaffuz beriladi. Flesh-kartalarni spaced repetition algoritmi bilan bog‘lash orqali qiyin terminlarni tez-tez, oson terminlarni esa uzoqroq intervalda takrorlash mumkin [6].

Uchinchi modul test va mashqlarni o‘z ichiga oladi: tarjimani topish, lotincha shaklni tanlash, grammatik shaklni aniqlash, ot va sifatlarni moslashtirish hamda termin tarkibini tahlil qilish. To‘rtinchi modul terminologik lug‘at, beshinchi modul audio talaffuz, oltinchi modul esa progress monitoring funksiyasini bajaradi. Multimodal materiallardan foydalanish tibbiy terminologiya ta’limida ilgari ham qo‘llangan [2].

3.2. Sun’iy intellekt va adaptiv ta’lim

“Lingua Latin Medica” platformasida sun’iy intellekt talabaning javoblari, xatolari va topshiriqlarni bajarish tezligini tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Tizim qiyinchilik tug‘dirayotgan mavzularni aniqlab, ularga mos qo‘shimcha mashq va materiallarni tavsiya qilishi mumkin [5, 9]. Masalan, talaba grammatik shakllarni aniqlashda takroran xato qilsa, platforma ushbu mavzuni qayta o‘rganish uchun individual topshiriqlarni taklif qiladi. Bunda AI o‘qituvchini almashtirmaydi, balki individual ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi [10].

3.3. Gamifikatsiya va mobil ta’lim

Platformada ball, yutuq belgilari, kunlik topshiriqlar va progressni kuzatish kabi gamifikatsiya elementlaridan foydalanish rejalashtiriladi. Bu talabalarning muntazam shug‘ullanishini rag‘batlantirishga yordam beradi [7, 8]. Mobil moslashuv esa smartfon va planshet orqali flesh-kartalar, testlar, audio talaffuz va qisqa darslardan foydalanish imkonini beradi [4]. Shu tariqa platforma mustaqil va muntazam ta’lim olish uchun qulay raqamli muhit yaratadi.

4. MUHOKAMA

“Lingua Latin Medica” konsepsiyasining asosiy afzalligi bir nechta raqamli pedagogik mexanizmlarni bitta platformada birlashtirishdir. Termin matn, tasvir, audio, tarjima, grammatik izoh va mashq bilan bog‘lanadi. Bu multimodal yondashuv tibbiy terminologiyani o‘zlashtirishni yanada tizimli tashkil etish imkonini beradi [2, 3].

Mazkur ishning asosiy cheklovi — platforma hali real talabalar guruhida eksperimental tarzda tekshirilmagan. Shu sababli ushbu maqolada platformaning samaradorligi isbotlandi degan xulosa berilmaydi. Kelgusida nazorat va tajriba guruhlari asosida pre-test, post-test va kechiktirilgan test natijalari taqqoslanishi lozim.

5. XULOSA

“Lingua Latin Medica” tibbiyot talabalariga lotin tilini o‘rgatish jarayonini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan birlashtirishga qaratilgan platforma konsepsiyasidir. Uning asosiy komponentlari video darslar, interaktiv flesh-kartalar, audio talaffuz, terminologik lug‘at, testlar, progress monitoring, gamifikatsiya va adaptiv ta’limdan iborat.

Ilmiy adabiyotlar raqamli, mobil, adaptiv va gamifikatsiyalangan ta’lim yondashuvlarining sog‘liqni saqlash ta’limidagi istiqbollarini ko‘rsatmoqda [4, 5, 7, 8]. Platformaning innovatsion jihati ushbu texnologiyalarni aynan tibbiy lotin tili ehtiyojlariga moslashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Larsen, D. P. (2008). Learning scientific and medical terminology with a mnemonic strategy using an illogical association technique. Advances in Health Sciences Education, 13, 267–275.

2. Wechsler, B. (2022). Improvement of medical terminology education with interactive learning module. South Dakota Medicine, 75(10), 459.

3. Cook, D. A., Levinson, A. J., Garside, S., et al. (2010). Instructional design variations in internet-based learning for health professions education: A systematic review and meta-analysis. Academic Medicine, 85(5), 909–922.

4. Dunleavy, G., Nikolaou, C. K., Nifakos, S., et al. (2019). Mobile digital education for health professions: Systematic review and meta-analysis. Journal of Medical Internet Research, 21(2), e12937.

5. Fontaine, G., Cossette, S., Maheu-Cadotte, M.-A., et al. (2019). Efficacy of adaptive e-learning for health professionals and students: A systematic review and meta-analysis. BMJ Open, 9(8), e025252.

6. Maye, J. A., & Hurley, F. (2026). The effectiveness of spaced repetition in medical education: A systematic review and meta-analysis. The Clinical Teacher, 23(2), e70353.

7. Gentry, S. V., Gauthier, A., L'Estrade Ehrstrom, B., et al. (2019). Serious gaming and gamification education in health professions: Systematic review. Journal of Medical Internet Research, 21(3), e12994.

8. van Gaalen, A. E. J., Brouwer, J., Schönrock-Adema, J., et al. (2021). Gamification of health professions education: A systematic review. Advances in Health Sciences Education, 26, 683–711.

9. Pupic, N., Ghaffari-Zadeh, A., Hu, R., et al. (2023). An evidence-based approach to artificial intelligence education for medical students: A systematic review. PLOS Digital Health, 2(11), e0000255.

10. Tozsin, A., Ucmak, H., Soyturk, S., et al. (2024). The role of artificial intelligence in medical education: A systematic review. Surgical Innovation, 31(4), 415–423.

11. De Gagne, J. C., Park, H. K., Hall, K., et al. (2019). Microlearning in health professions education: Scoping review. JMIR Medical Education, 5(2), e13997.

12. Kim, H.-Y., & Kim, E.-Y. (2023). Effects of medical education program using virtual reality: A systematic review and meta-analysis. International Journal of Environmental Research and Public Health, 20(5), 3895.

AHMAD A'ZAMNING PARANTEZ BIRLIKLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Tursunov Mirzoxid Ikromjon o'g'li
mustaqil tadqiqotchi
O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
tursunov.mirzohid1995@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ahmad A'zamning parantez birliklardan foydalanish mahorati va ushbu birlikning badiiy matndagi badiiy-estetik xususiyati, asar ta'sirchanligini oshirishdagi ahamiyati haqida so'z bo'radi.*

Annotation. *This article examines Ahmad A'zam's skillful use of parenthetical units and discusses their artistic and aesthetic functions in literary texts, as well as their role in enhancing the expressiveness and impact of his works.*

Kalit so'zlar: *badiiy matn, lingvopoetika, paranteza, ekspressivlik, badiiy-estetik vazifa.*

Key words: *literary text, linguopoetics, parenthetical units, expressiveness, artistic and aesthetic function.*

Kirish. Parantezlar gap tarkibiga bevosita bog'lanmagan, ammo muallifning qo'shimcha izohi, munosabati, ma'lum bir ma'lumotni aniqlashtirishi yoki eslatmasini ifodalovchi birlik hisoblanadi. Parantezaning matn ekspressivligini ta'minlashdagi rolini alohida tadqiq etgan R.S.Samoletova poetik qimmatga ega parantetik kiritmalarning mohiyatini to'g'ri anglamaslik, birinchi navbatda, matnning yaxlit mazmunini, muallif pozitsiyasini tasavvur qilishda hal qiluvchi qimmatga molik bo'lgan turli konnotatsiyalarning tamoman e'tibordan chetda qolishiga olib kelishi mumkinligini qayd qiladi[1].

A. G'ulomov tomonidan "kiritma gaplarning asosiy xususiyatlaridan yana biri ularning ma'lum gapga nutq momentida tug'ilib qolgan ehtiyojga ko'ra xuddi kutilmagandek birdan kiritilishidir"[2] tarzida takidlangan.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnda qo'llangan parantez birliklar ilk bor D.Jamoliddinova tomonidan maxsus tadqiq qilingan. Olimaning izlanishlarida badiiy matnda qo'llangan parantezlarning poetik aktuallashish qonuniyatlari, uning badiiy tasvirda xilma-xil poetik maqsadlarni ro'yobga chiqarishda ishtirok etishi, kiritmalarning kirishlarga qaraganda semantik jihatdan boyligi badiiy asarlardan olingan misollar asosida dalillangan. Shuningdek, parantezlarning bir kommunikativ

yo‘nalishli va ikki kommunikativ yo‘nalishli turlari farqlangan[3]. Ayni tadqiqotda parantezalarning kirish va kiritma turlari farqlanganligini ham qayd etish o‘rinli.

Parantezalarning aksariyati badiiy matnda o‘ziga xos lingvopoetik qimmatga ega, ammo har qanday paranteza alohida olinganda, bunday qimmatga ega bo‘lavermaydi, u ayni qimmatni faqat matn ichidagina oladi.

Asosiy qism. Ahmad A’zam asarlarida ham badiiy qiymatga ega bo‘lgan bir qancha parantezalar uchraydi. Xususan, ular yozuvchi ijodida qo‘shimcha fikr bildirish, kinoya hosil qilish yoki kulgi qo‘zg‘atish maqsadida qo‘llangan. Masalan, quyidagi badiiy parchada fikrni aniqlashtirish, subyektiv munosabat bildirish maqsadida ijodkor parantezadan unumli foydalangan: *Direktor so‘zini bu gapning ishxona uchun naqadar sharmandalik, benihoya xunukligidan boshladi, o‘g‘ri* ***(“o‘g‘ri”, demadi, “pulni olgan”, dedi)*** *tashqaridan kirgan begona emasligi, qizlarga stipendiya tekkanini bilib, tushlikka chiqishlarini poylagan odamligini aytib, “Kim tushlikda shu yerda qolgan bo‘lsa, o‘sha olgan”, dedi.* (Noinsof Muso)

Mazkur parchadagi *o‘g‘ri”, demadi, “pulni olgan”, dedi* parantez konstruksiyasi badiiy matnda nutqiy noziklik va personaj xarakterini ochishga xizmat qilgan. Muallif direktorning “o‘g‘ri” degan keskin va ayblovchi so‘zni ishlatmaganini, uning o‘rniga *pulni olgan* evfemizmini qo‘llaganini ko‘rish mumkin. Pulni olgan evfemizmining qo‘llanishi direktorning rahbar sifatidagi mulohazakorligi, vaziyatga ehtiyotkorona yondashishi va odamlarga nisbatan muomalasini ham ta’kidlab kelgan.

A.A’zam ba’zi o‘rinlarda shaxsiy fikrlarini badiiy matnga parantez sifatida kiritgan. Masalan, *Uning ichida esa yap-yangi ikkita besh so‘mlikning chetlari ko‘m-ko‘k chizilib turadi.* ***(“Hamma, hamma odam pulning yirigini albatta sirtga, maydarog‘ini ichga olib taxlaydi. Qizig‘-a?”)*** *Muso, ayniqsa, shu o‘n so‘mlikni aniq ko‘rdi: lattaday eskirgan, rangi uniqqan, g‘ijim... Shu qadar aniq ko‘rdiki, negadir uning topilishiga ishonmay qo‘ydi.* (Noinsof Muso)

Hamma, hamma odam pulning yirigini albatta sirtga, maydarog‘ini ichga olib taxlaydi. Qizig‘-a? parantezi esa asar muallifining mulohazasini ifodalaydi.

Badiiy matnda yozuvchi qahramonlarning turli xususiyatlarini umumlashtirgan holda tasvirlovchi vositalarga, xususan, parantezalarga murojaat qiladi: *“Ikkita besh so‘mlik, bitta o‘n so‘mlik”, dedi Muso o‘zicha. U mana shu pullarni ko‘z o‘ngiga keltirdi. Halima opa “Turnaxon”ning sumkasi ichidagi qizil karmonchani* ***(Muso kuzatuvchan yigit, bu karmonchani Zamira ko‘tarib yurganiga ham e’tibor bergan)*** *ochayotganida shu o‘n so‘mlik chiqadi. Ikki buklog‘lik.*

Matndagi *Muso kuzatuvchan yigit, bu karmonchani Zamira ko‘tarib yurganiga ham e’tibor bergan* parantezi Muso obrazining xarakterini ochib berishga, shuningdek, uning sinchkov va kuzatuvchan yigit ekanini qo‘shimcha axborot sifatida ta’kidlashga xizmat qilgan. Ushbu badiiy parchada qo‘llangan parantez birlik asosiy matn bilan aloqalanmaganligini qayd etish ham o‘rinli.

Ba’zan muallif parantez birliklarni asar qahramonlarining xarakterini ochib beruvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida qo‘llaydi: *Hovlining chor-atrofi bir tekis bo‘y tortgan mirzateraklar bilan o‘ralgan. Har biridan ikkita bolor chiqadi. Agar qirq so‘mdan* ***(Sherqo‘zi oshiqcha so‘ramaydi insofi bor)*** *pullasa, o‘zicha o‘sadigan, osh-non so‘ramaydigan shu teraklarning o‘zi ikki yarim-uch ming turadi.* (Odam olasi)

Mazkur parchadagi *Sherqo‘zi oshiqcha so‘ramaydi, insofi bor* parantez konstruksiyasi matnda asosiy fikrga qo‘shimcha ma’lumot kiritish maqsadida, ya’ni Sherqo‘zi obrazining xarakteriga oid muhim jihatni, ya’ni uning halol, me’yorni biladigan va adolatli inson ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, agar *Sherqo‘zi oshiqcha so‘ramaydi, insofi bor* kiritmasi parantez birlik emas, balki odatdagi gap bo‘lagi pozitsiyasiga qo‘yilganda o‘zining lingvopoetik qimmatini yo‘qotgan bo‘lardi. Natijada mazkur sintaktik birlik poetik ta’sirli ta’kid uchun emas, neytral tasvir uchun xizmat qilar edi.

Sherqo‘zi pulga muhtoj emas. Uch govmish sigiri ***(bittasi yaqinda tug‘ib beradi),*** *ikki zotli buzog‘i, bir novvosi bor; buqasi esa boquvda, burniga o‘tkazilgan xalqani silkitib, pishqirib yotibdi.* (Odam olasi)

Mazkur parchadagi *bittasi yaqinda tug‘ib beradi* parantez birligi ham asosiy fikrga qo‘shimcha ma’lumot kiritish vazifasini bajargan. Kiritma orqali Sherqo‘zining sigirlaridan birining yaqinda tug‘ishi va buning natijasida uning xo‘jaligidagi hayvonlar soni yana bittaga ko‘payishi bayon qilingan. Yozuvchi asar qahramonining pulga muhtoj emasligini shunchaki aytib qo‘ymasdan, uning moddiy ahvolini konkret detallar orqali ko‘rsatib bera olgan.

“Shodi aka, rostini ayting, necha marta uylangansiz o‘zi?”, deb so‘raymiz. ***(Qiziqda – qaysisiga qanday uylanganlarini aytib beradi.)*** *Shodi aka boshini orqaga tashlab, ko‘zlarini yumib oladi-da, hisoblab chiqadi: “Bu xotinim Tuyg‘un–oltinchi, yo‘q, yettinchi, yo‘g‘-a, bittasi bilan o‘n kungina yashadim, hisob emas, to‘g‘ri, oltinchisi ekan”.* (Asqartog‘ tomonlarda)

Mazkur parchadagi *“Qiziqda – qaysisiga qanday uylanganlarini aytib beradi”* parantez konstruksiyasi asosiy voqeaga qo‘shimcha izoh kiritish bilan birga matnning yumoristik ruhini kuchaytirishga xizmat qilgan. Ushbu kiritma orqali

Shodi akaning boshidan ko‘p voqealarni o‘tkazgan odam ekani anglashiladi. Qolaversa, yozuvchi mazkur parantez orqali go‘yo o‘quvchiga yuzlanib, suhbatning eng qiziqarli jihatini alohida ta’kidlayotgandek taassurot uyg‘otadi.

A.A’zam asarlarida parantez birliklar milliy-madaniy koloritni ko‘rsatib berish maqsadida ham qo‘llangan. Masalan, *Siz uyni ukangizga qoldirib, yangi hovli solib chiqib ketgan bo‘lsangiz, agar manovi gul ko‘tarib ketayotgan erkakning yoshida bo‘lsangiz, unda xotiningiz, uch-to‘rt bolangiz bilan turasiz, ukangizning eshigini lang ochib: “Ona!* ***(“Oyi!”, “Biyi!”, “Aya!”, “ena!”, “Opa!”, “Buvi!”, "Anna!, "Acha!" – farqi yo‘q!)*** *Ho‘, uydamisiz? Sizni bir ko‘rgim keldi-da!* (Gul ko‘targan erkak) Yozuvchining fikricha, ona degan ulug‘ zot turli hududlarda turlicha nomlansa ham, uning farzand hayotida o‘rni o‘zgarmasligi ta’kidlanadi.

Xulosa. Ahmad A’zam asarlarida qo‘llangan parantez konstruksiyalar, asosan, adibning tasvirlanayotgan voqea-hodisa, qahramon yoki bayon etilayotgan fikrga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalash, muallif bahosini bildirib o‘tish hamda asosiy fikrni turli qo‘shimcha izoh, aniqlashtirish va sharhlar bilan to‘ldirish vazifalarini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Самолетова Р.С. (1982). Явление парентезы в аспекте лингвистики текста / Вопросы семантики и методики преподавания иностранных языков. – С. 145.

2. Ғуломов А., Аскарова М. (1987). Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи. – Б. 157.

3. Жамолиддинова Д. (2009). Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент. – 137 б.

